

E. SETON-TOMPSON



YOVVOYI YO'RG'A



E. SETON-TOMPSON

YOVVOYI YO'RG'A



"ZUKKO KITOBXON" nashriyoti
TOSHKENT – 2021

UO'K 811.111(71)

КБК 84(7Кан)

Т 65

RUSCHADAN TOG'AY MUROD TARJIMASI

Rasmlarni myallif chizgan

Seton-Tompson, Ernest

**Yovvoyi yo'rg'a / Ernest Seton-Tompson. – Toshkent:
"ZUKKO KITOBXON" nashriyot-matbaa uyi, 2021. –
352 bet.**

Kanadalik adib Seton Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» kitobida mushuklar, quyonlar, tulkilar, bo'rilar, ayiqlar, otlar... deyarli barcha - barcha jonivorlar obrazi bor.

Kitob yetti yashar kitobxon uchun ham, yetmish yashar kitobxon uchun ham birday suyakli, birday ardoqli.

UO'K 811.111(71)

КБК 84(7Кан)

ISBN 978-9943-7346-6-1

**© "ZUKKO KITOBXON"
nashriyot-matbaa uyi, 2021**

DOMINO

Bir qo'ng'ir tulki hayoti

BIRINCHI QISM

OLTIN BOLALIK

I. U TUG'ILGAN UY

Kun Golder tog'lari ortiga bekinib, dasht-u dalalar uzra jonivorlarga xush yoquvchi mayin oqshom cho'kdi. Ufq lovullab yondi, adirlarda nozik nurlar sep yoydi. Shoban daryosi yaqinidagi yuksak adir qarag'ayzorlari nurlarda yashnab ketdi. Qarag'ayzor oqshomlari sokin ham osoyishta bo'ladi. Qarag'ayzor o'rtasidagi yalang yerda tulkilar oilasi yashaydi. Tulkilar inining bir uchi o'rmonning xilvat burchidan borib chiqadi. Tulkilar inlaridan chiqib, oqshom salqinida yayrab o'ynaydi.

Tulkilar onasi bolalarining o'yinini tomosha qilib, ularning quvonchlariga sherik bo'ladi. Paxmoq tulkilar endigina hayot zavqini totayotgan jonivorlarga xos beg'amlik bilan ochilib-sochilib o'ynaydi, ona degan qudratli panohlari bor, ana, ularga ko'z-quloq bo'lib turibdi, demak, olam bexatar, bemalol yayrab-yashnab o'ynayversa bo'ladi. O'zaro shoxlashib, olishadi, quvishadi, pashsha-yu qo'ng'izlarni quvadi, semiz-semiz qovog'arilarni iskab ko'radi, onalarining dumidan tortish uchun yuguradi, tashlandiq ovqatlarni talashib-tortishadi.

Tulkilar ko'ngilxushlik uchun sho'xlik qiladi. Biron-bir bahonai sabab topildi deguncha beboshlikni boshlab yuboradi.



Ular kechqurun o'rdakning qurib qolgan qanotini ermak qilib o'ynadi. O'rdak qanoti o'n martalab tulkidan tulkiga o'tdi. Nihoyat, uni eng abjir, tumshug'ida ko'ndalang qora tasmasi bor bir tulki olib oldi. O'rdak qanotini birovga bermay, og'zida tishlab chopib yuraverdi. Tulkilar uni quvaverib, oxiri hafsalalari pir bo'lib, quvmay qo'ydi. Abjir tulki shundagina o'rdak qanotini yerga tashladi, tashladi-yu, yugurib borib, onasining dumini tishlab torta boshladi. Onasi zabt bilan silkinib, dumini tortib oldi; bebosh bolasi o'z havosida chalqancha borib tushdi.

Shunda, yalanglikda bir qari tulki paydo bo'ldi. Tulkilar onasi uni ko'rib, seskanib ketdi. Tulki bolalariram qo'rqib ketdi. Ammo qari tulki o'zlarining otalari ekanini bilib, ko'ngillari xotirjam bo'ldi.

Tulkilar otasi ovqat olib keldi. Tulkilar ochofatlarcha ovqatga tikildi. Bu, hozirgina bo'g'ib o'ldirilgan suvkalamush ekan. Tulkilar otasi o'ljasini yerga tashladi. Tulkilar onasi suvkalamush oldiga chopib keldi.

Ovchilarning aytishicha, bordi-yu, bolalari inlarida yo'q bo'lsa, tulki olib kelayotgan o'ljasini inlariga olib kirmaydi. Ovchilarning gapida jon bor. Hozir ham shunday bo'ldi.

Tulkilar onasi suvkalamushni bolalari oldiga otib yubordi. Bolalari suvkalamushga yopishdi. O'ljani talashib-tortqiladi, bir-birlariga ko'zlarini olaytirib iriladi, o'z ulushlarini yulib olish uchun boshlarini silkib, jon-jahdlari bilan silkib tortdi.

Tulkilar onasi suvkalamush talashayotgan bolalarini kuzatdi, ayni vaqtda tevarak-atrofdan ham ko'z-quloq bo'lib turdi. Chunki tevarakda miltiqli odamlar, bolalar, itlar, burgutlar hamda boyo'g'li kabi makkor g'animlar bekiniib, poylab turgan bo'lishi mumkin. Ular tulki bolalarini ovlashga o'ch bo'ladi.



Tulkilar onasi sergak, otasi undan ham sergak edi. Bolalari hali ko'zlarini ocholmay, norasida bo'lib yurgan davrlarida tulkilar otasi inga kirmay, tashqarida poyloqchilik qilib yurdi, shunday bo'lsa-da, muntazam ovqat olib kelib, otalik burchini vijdonan bajarib turdi.

Tulkilar bazmi endi avj olib ediyamki, tulkilar otasi birdan «vanq-vanq-vanq», deya ovoz berib, xavf-xatardan xabar berib qoldi. Tulki bolalari ovoz ma'nosini bilolmadi. Chunki ular hali ancha yosh edi. Shu sababliyam onalari otalarining ovozini do'q aralash irilab takrorlab, bolalarini nimqorong'i iniga haydab olib kirdi. Tulkilar inlarida suvkalamushni bemalol yeb tamomladi.

Yangi Angliya fermasida ming juftcha tulki yashaydi. Ular har yili nasl beradi, demak, har yili bahorning oftobli kuni borki, tulki inlari oldida ana shunday voqealar sodir bo'lib turadi. Bunday voqealar yiliga yuz ming martalab, shundaygina burnimiz ostida bo'ladi, ammo biz uni ko'rmay qolamiz, chunki u g'oyat yashirin, sirli bir vaziyatda bo'lib o'tadi, tulkilar ota-onasining o'ta ehtiyotkorligi tufayli yuz ming odamdan bittasigina tulkilar o'yinini tomosha qilish sharafiga muyassar bo'ladi.

Golder shahrida yashovchi Abner Juke ana shu yuz ming odamning bittasi bo'ldi. Abner novchadan kelgan, mallarang, sepkildor bir bola bo'lib, mol boqadi, ammo moli qolib, daraxtma-daraxt chiqib, qarg'alar inini kovlab yuradi.

Abner tulkilar o'yinini shunchaki ermak bilan emas, balki bo'lajak tabiatshunoslar misol his-hayajon bilan tomosha qildi. U tumshug'idagi qora tasmasi tomoshalarda kiyiladigan domino degan niqobga o'xshab ketadigan tulki o'yinidan zavqlanib iljaydi.



Abner tulkilar o'yinini buzmoqchi emasdi, ammo u o'zi bilmagan holda tulkilar o'yinining parokanda bo'lishiga, borib-borib tulkilar boshiga ko'rgiliklar tushishiga sababchi bo'ldi.


U faqat qishda tulki ovlaydi. O'zining ovchi iti bilan g'ururlanadi, uni «nasib bo'lsa, shtat bo'yicha eng yaxshi it» bo'lib yetiladi, deya maqtaydi. Iti hali it ham emas, maydagina bir kuchuk, ammo panjalari ulkan-ulkan, bellari xipchadan, ko'kraklari alpdan kelgan. Ovozi kuchli ham o'tkir, serzardaligidan qopag'on it bo'ladiganga o'xshaydi. Odatda Abner biryoqqa jo'nasa, kuchugini uyiga qamab ketadi. Bir safar kuchugi bir amallab uydan chiqib olib, egasini qidirib ketdi.

Tulkilar otasi kuchukni ko'rib qolib, tahlikaga tushdi.

Tulkilar onasi bexavotir yerda o'ynayotgan yettita suyukli bolasining oromini saqlash uchun kuchukka qarab chopdi. U kuchukni chalg'itmoqchi bo'ldi. Darhaqiqat, xiyol o'tmay, kuchuk tulkilar onasini ko'rib qolib, vovullab hurdi. Vovullashni eshitib, nafaqat tulkilar onasining yuragi, shuningdek, ko'pni ko'rgan tulkilar otasining yuragi ham duk-duk ura boshladi.

Tulkilar onasi o'zini o'ylamay chopdi. Ketidan kuchukni ilakishtirib, inidan xiyla olisgacha chopib bordi, so'ng izini adashtirib kuchukdan qutulib ketdi-da, yana iniga qaytib bordi. Inida yana osoyishtalik hukm surdi. Faqat qora tumshuq tulki bu safar uni in og'zida kutib olmadi, u inining to'riga kirib, qora tumshug'ini qumga qo'yib yotib oldi.

Qora tumshuq bundan besh daqiqacha muqaddam indan tashqariga mo'ralab qaradi, shunda kuchukning badanni jimirlatuvchi o'tkir vovullashini eshitib, butun a'zoyib badani bo'ylab, momiq dumchasining uchiga-



ketgan bo'lsa-da, in to'riga borib, g'ujanak bo'lib yotib oldi.

U shu vaqtgacha mehr-muhabbat og'ushida yashadi. Endi bu og'ushga hadik oraladi.

II. KO'RGILIK

Ovchilar orasida tulkilar o'z inlari yaqinidagi tovuqxonalarga ovga bormaydi, degan gap bor. Darhaqiqat, tulkilar qo'shnilarining qahriga uchragisi kelmaydi, shu sababliyam olis-olis fermalarga borib ov qilib keladi.

Shu boisdan ham Juksning tovuqxonasi hamisha tinch bo'lib, Bentonning tovuqxonasidan bo'lsa tovuqlar yo'qolib turadi. Qariya Benton avval-boshdan vazmin odam emasdi, nasldor tovuqlarining choragidan ko'pi zim-ziyo yo'qolganini ko'rib esa, bor vazminligiyam tugab, achchig'i junbushga keldi.

Yakshanba kuni Bentonning Si va Bed degan o'g'illari adirdan oshib o'tayotib, Juksning tulki izini olib kelayotgan kuchugi vovullashini eshitib qoldi. Ular it zotini unchalik ham xush ko'rmasdi, shuning uchun ham itning vovullashiga e'tibor bermadi. Ular to'xtab, pastdagi quvdi-quvdini tomosha qildi. Qochish joniga tekkan tulki kuchukni boplab laqillatib ketganini ko'rdi.

Endi yo'llarida davom etmoqchi bo'lganlarida, tulki yana paydo bo'ldi, u bu safar og'zida qorday oppoq tovuq tishlab olgandi. Turgan gap, bu Bentonning tovuqlari edi. Chunki Bentonning tovuqlari nasldor oq tovuqlar bo'lib, u o'zining shunday tovuqlari borligi bilan faxrlanib yuradi. Oppoq tovuq olisdan ko'zga aniq ko'rinadi, shu sababliyam Bentonning o'g'illari oppoq tovuqni ko'zdan yo'qotmay, o'g'ri tulkini inigacha poylab bordi.



Ular yarim soatlar yurib, tovuqlarning oppoq patlari sochilib yotgan yerga keldi. Inga uzun bir tayoq tiqib ko'rdi. Tayoq inning burilish yerigacha borib, tiqilib qoldi. Tulkilar qo'rqib ketdi, ammo hech qanday talafot ko'rmadi. Ularning ota-onasi qo'rqqanidan alaqachon o'rmonga qarab qochib, o'shayoqda bekinib yurdi. Ammo bolalaridan alag'da bo'lib, bir necha bor iniga qaytishga chog'landi, har gal odam ovozi eshitib, iziga qaytib ketaverdi.

Tulkining ini Juksga tobin yerda bo'lsa-da, Bentonning o'g'illari yana bir kun kelib, tulki bolalarini inidan kovlab olmoqchi bo'ldi. Ammo tulkilar onasi bu xavfni o'z vaqtida payqab, darhol yangi in qazidi, tong vaqti bolalarini yangi inga ko'chirib boshladi.

Qishloq ahli eng yaxshi mushuk bolasini saylab olmoqchi bo'lsa, juda sodda ham tabiiy bir usulni qo'llab ko'radi. Ular mushuk bolalarini dalaga olib borib qo'yib keladi. Mushuklar onasi bolalarini izlab topadi, so'ng, ularni bitta-bittalab makoniga tashiydi. Ana shunda eng birinchi bo'lib qaysi bolasini ko'tarib jo'nasa, ana shunisi eng yaxshisi bo'ladi. Darhaqiqat eng yaxshi, serg'ayrat mushukkina to'dadan birinchi bo'lib chiqib, onasining e'tiborini o'ziga tortadi, shu sababliyam onasi eng avvalo serg'ayrat bolasini uyiga olib boradi.

Tulkilar onasi eski iniga qaytib borganida uni Domino degan eng g'ayratli ham eng zabardast bolasi qarshi oldi. U birinchi bo'lib ana shu bolasini yangi iniga olib bordi. Undan keyin Dominoning eng baquvvat singlisini, uchinchi kelishida esa maydagina, ammo zuvalasi pishiq ukasini olib jo'nadi.

Tulkilar otasi adirda turib, qorovullik qildi.

Tong oqardi. Tulkilar onasi uchinchi bolasini olib ketayotganda, tulkilar otasi xavf-xatardan xabar berdi.



Bentonning o'g'illari tulki inini kovlash uchun belkurak bilan cho'kich olib kelayotib, indan uch qadamcha berida yotgan katta toshga duch keldi. Nima qilishlarini o'ylab turganlarida tog'dagi tosh konidan gumburlab portlagan ovoz keldi. Shunda bolalarning xayoliga bir fikr keldi, birovi tosh koniga chopib borib, dinamit patron olib keldi. Patronni tosh yorig'iga joylashtirdi. Bir daqiqalardan keyin adirlar etagi portlash zarbidan zir titrab ketdi. Chang tarqalganda, portlash oqibatidan in yo'li toshlar bilan bekilib qolganligi ayon bo'ldi. Turgan gap, indagi tulki bolalari majaq bo'lib ketgan, omon qolganlarisam nafasi qaytib o'lib qolgan. Shunday qilib, Bentonning o'g'illari tulkilar inini mozorga aylantirib ketdi.

Bordi-yu, ular kechasi kelganlarida, tulkilar onasi bilan otasi o'zlarining qadrdon inlariga kirish uchun panjalari bilan tuproq kovlab yotganini ko'rgan bo'lardi. Ertasi kechasi tulkilar yana keldi. Uchinchi kechasi yolg'iz tulkilar onasi keldi. Uyam kela-kela hafsalasi pir bo'lib, oxiri kelmay qo'ydi.

III. YANGI UY

Yangi uy eskisidan bir chaqirimcha pastda, o'tloqlar bo'ylab yoyilib oqayotgan daryo bo'yidagi jarlikda joylashgan. Yangi uyni qoyalar o'rab turibdi, uy oldida qayin bilan tog'terak ildizlari o'zaro chirmashib yotibdi. Uyga kiraverishda ikkita ulkan xarsangtosh turibdi. Eski uyni yangi uydan farqi, eski uy adir yonbag'ridagi qarag'ayzorda, yangisi esa tog'teraklar o'sib yotgan pastlikdadir. Qarag'aylar tinimsiz shovullab oh uradi, tog'teraklar silkinib, titraydi. Daryo to'lqinlari qo'shiq aytadi.

In og'zidagi o't-o'lanlar daryo bo'yidagi qiyozorlarga borib qo'shiladi. Tulkilar shu yam-yashil ni-



ikki bolasi bilan och qoldi. Ular shu kuni ochlik nimeligini bildi.

Tog'teraklar orasidagi inda tulkilar onasi bilan ikkita bolasi qoldi. Tulkilar onasi barcha qiyinchiliklarga bardosh berdi. Bolalari esayib, ular haqida qayg'urmay qo'ydi. Avgust oyida bolalari u bilan olislarga ovga borib, o'z rizq-ro'zlarini terib yeydigan bo'ldi. Sentabrda qizining bo'yi onasining bo'yi bilan bo'ylashdi, qorachadan kelgan o'g'li esa onasidan ham bo'ychan, zabardast bo'ldi. Bora-bora singil bilan aka, o'g'il bilan ona o'rtasida o'zgarishlar yuz berdi. Onasi bilan qizi zabardast, kelishgan erkak tulkidan tortinadigan, keyin-keyin undan o'zini olib qochadigan bo'ldi.

Tulkilar onasi qizi bilan birga yashayotgan bo'lsa-da, ammo ko'z ilg'amas bir nozik tuyg'u qon-qarindoshlik mehr-oqibatlarini so'ndira boshladi. Ular bo'ychan, kelishgan erkak tulki bilan yuzma-yuz uchrashib qolishdan ehtiyot bo'ldi, mabodo ko'rishib qolsalar ham, shunchaki, do'stona munosabatda bo'ldi. Xullas, Domino o'z kunini o'zi ko'rib ketdi, tog'teraklar orasidagi boshpanasini tark etib, yolg'iz hayot kechirdi.

IV. YANGICHA LIBOS, YANGICHA HAYOT

Shunday qilib, Domino tog'teraklar soya solib turgan qadrdon uyidan voz kechib, turmush tashvishlariga to'la katta hayotga qadam qo'ydi. Mustaqil hayot boshladi, to'q va farovon yashashi uchun faqat o'z kuchiga suyanmog'i kerakligini tushundi. Kun sayin aqlli, ehtiyotkor va xushsuvrat bo'ldi.

Domino qadrdon uyidan ketib, ta'qiblardan ham qutuldi. Shunda, topqirlik har qanday epchillikdan ham afzal ekanligiga ishonch hosil qildi. Shuningdek, eng




og'ir kunida yaraydigan bir do'st ham topdi. Domino uni avvallari ham ko'rib yurardi, ammo oshna emasdi, mana endi oshna bo'ldi.

Bir kuni Dominoni ikkita it quvdi, u qoyama-qoya qochib, panjalari tilinib, qonga belanib qoldi. Buyog'i kun juda isib ketdi. U jon-jahdi bilan chopib, itlardan xiy-la o'zib ketdi, holdan toyib, qon bo'lib yotgan oyoqlarini suvga solish uchun daryo tomonga burildi. Suvga kirib, sayozroq joydan oqimga qarshi miriqib suzdi. Chorak milcha suzgan ediyamki, itlar vovullab, uning izidan yetib keldi. Yosh Domino daryo o'rtasidagi kichkinagina orolga chiqib olib, butalar orasiga bekindi. Itlar daryo yoqasiga kelib, izni yo'qotib qo'ydi, izni izlab uyoqdan-buyoqqa zir yugurdi, oxiri baloniyam topolmay, izlariga qaytib ketdi. Domino ularni zavq bilan kuzatib o'tirdi.

Domino izlarini o'zi emas, suv yo'q qilib yuborganini anglab yetmadi. Ammo suv yaxshi narsa ekanligiga, u har qanday baloi qazodan qutqarib qolishi mumkinligiga amin bo'ldi. Bunga keyinchalik ham bir necha bor ishonch hosil qildi. Masalan, daryoning narigi yoqasida, oqim bo'ylab yurgach, xiyla quyiroqda bir sayoz qumlik bo'lib, shunga yetib olsa bo'ldi, uni hech kim topolmas ekan, chunki qumda iz qolmas ekan. Qish kirib, daryoni yaltiragan yupqa muz qoplaganda esa, u muzga chiqib, uni ko'tara olish-olmasligini tekshirib ko'rdi. Bir safar muz ustidan chopib o'tdi, uni quvib kelayotgan it esa muz yorilib, suvga tushib ketdi.

Ammo Domino uchun eng qulay joy daryo yuqorisi-dagi serqoya jarlik bo'ldi. Jarlik ostida xiyla keng bir so'qmoq bo'lib, u bora-bora juda torayib, faqat tulki yura oladigan, ammo ovchi it sig'maydigan yo'lakka aylanib qoladi. Yo'lak jarlik turtib chiqqan yerdan aylanib o'tadi, keyin qiyalab qoya ustiga ko'tarilib, un-dan o'rmonga olib boradi. Bundan boshqa yo'llar bilan



o'rmonga borish uchun esa, kamida ikki mil yo'l yurishga to'g'ri keladi.

Shuningdek, Domino boshqa yoqlarda ovqatning mazasi bo'lmasa, daryo bo'yida hamisha biron-bir yegulik topilishini ham bilib oldi. Masalan, daryo bo'yida suv sohilga chiqarib tashlagan baliq, o'lgan qush, hech bo'lmasa birorta qurbaqa topib yesa bo'ladi. Xullas, Domino daryo deganlari ajoyib joy ekanligini, og'ir kunlarda kuniga yarashini bilib oldi. Domino daryo bilan do'st bo'ldi.

Bu orada bizning yosh tulkimiz xiyla o'zgardi, hayotida xavf-xatarli voqealar juda ko'p bo'ldi.

Dominoning junlari dastlabki kuz kechalari boshlanishi bilan qalirlashib, mayinlashdi, rang-tusiyam o'zgardi. Junlari kun sayin qorayib borib, bora-bora malla ham kulrang dog'lardan forig' bo'ldi. Mo'yna nimeligini yaxshi biladigan har bir odam Dominoga ishora qilib shunday deyishi mumkin edi: «Go'zallikning yuksak namunasi shu emasmikin? Bu yosh tulki asl qora-qo'ng'ir tulki bo'lib yetishmasmikin?»

Qora-qo'ng'ir tulki mo'ynasini hamma ovchi orzu qiladi, hamma shunday mo'ynalik bo'lsam, deydi. Ammo qo'ng'ir tulkilar o'zlarini g'oyatda epchillik ham ayyorlik bilan muhofaza qiladi.

Qora-qo'ng'ir tulki faqat qish faslidagina boshqa tulkilardan farqlanib turadi. Shu boisdan odamlar faqat qishdagina uning jamolini ko'rish baxtiga muayassar bo'lishi mumkin. Mana nihoyat, kuz o'tib ketib, Golder adirlarida sovuq tunlar boshlandi. Dominoning qishki po'stini kun sayin qorayib, hurpayib, qalirlashdi, oq dumi ding bo'ldi, tumshug'idagi ko'ndalang qoralar kumush junlari orasida yanada qop-qorayib ko'rinib, ko'zga yaqqol tashlanadigan bo'ldi. Boshi bilan bo'yinlari ham qorayib, tovlendi. Nihoyat, tunday



qop-qora junlari orasida zim-ziyo osmonda sochilib yotgan yulduzlar misol yaltiroq uchli oppoq tuklar paydo bo'ldi. Iyul oyida qoracha tusda yurgan Dominoni ko'rgan odam, noyabr oyida qishki liboslariga o'ralib olgan Dominoni ko'rib, ko'zlariga ishonmaydi. Domino ana shunday ajoyib qo'ng'ir tulki bo'ldi.

V. GO'ZAL TULKI BILAN BARZANGI IT

Ko'p o'tmay, Golder adirlarida bir qo'ng'ir tulki paydo bo'lganligi barchaga ayon bo'ldi. Odamlar uni bir necha bor ko'rdi, mo'ynali hayvonlar ichra mo'jiza jonivor ekanini bildi, Juksning Gekla degan qora iti uni bir-ikki marta izma-iz quvganini gap qildi. Bu gaplarni Juksning o'zi tarqatdi. Qo'shnilari uning ertaknamo gaplaridan kulib, qo'ng'ir tulki itni itday ahmoq qilib yugurtirib-yugurtirib, oxiri hiylayi nayrang bilan laqillatib tashlab ketganini gapirib yurdi.

Geklaning ajoyib ovozi bor. Uning baland, ammo mayin ham jarangdor ovozini sokin kechalari bir necha mil naridan ham eshitsa bo'ladi. U bekordan-bekorga huraveradi, shunchaki uyoqdan-buyoqda yurgandayam, hatto kelgan izidan uyiga qaytib borayotgandayam laqillab huraveradi.

Juksning o'g'illari Geklani ajoyib ovchi it deb o'ylaydi. Ammo qo'shnilari uni nasl-nasabining tayini yo'q, yovvoyi, qopag'on it deb biladi. Ko'nglida kiri yo'q odamlar Geklani ulkan, chopag'on ham qopag'on, o'ziga xos unutilmas ovozi bor it deb tan oladi.

Men ilk bor Geklaning ovozini u fermada qamalib yotib hurganida eshitdim. Uning jarangli ham dahshatli, temir ovozi kun bo'yi quloqlarim ostida jaranglab turdi.

Kuz kunlarining birida kechki payt Golder adirlari etaklaridagi o'rmonlarni aylanib yurib, olisdan itning



temir ovozini eshitib, hayron bo'lib qoldim. Geklaning ovozini darhol tanib, u nimanidir quvib kelayotganini angladim. Diqqat bilan quloq solib, nima gapligini bildim. Barglar ohista-ohista shitirlab, bir-ikki daqiqadan keyin ko'mirday qop-qora ajoyib bir tulkiga ko'zim tushdi. Tulki bir soniyacha, old oyoqlarini daraxt kundasiga tirab, quvib kelayotgan g'animga qaradi. U mendan bor-yo'g'i ellik qadamcha narida turibdi. Men darhol barmoqlarimni lablarimga bosib, og'ir-og'ir nafas oldim, shunda, barmoqlarim orasidan chalp-chalp etgan ovoz chiqdi. Tulki ovozimni eshitib, menga burilib qaradi, shu zahotiyoq men turgan yoqqa emaklab kela boshladi.

Oramiz yigirma odimcha qoldi, shunda u to'xtab, quloqlarini ding qildi, old oyoqlarini xiyol ko'tardi, dumini biroz egib, chalp-chalp etayotgan kalamushmi yo quyonmi, ular o'zi qayerda, degan bo'lib, qarab turdi.

Bay-bay-bay, uning mo'ynalari-ya!

Hali erta kuz bo'lsa-da, qop-qora mo'ynalari aro qorday oppoq ko'kragi bilan uchi oppoq dumi yaqqol ajralib turadi. Sap-sariq ko'zlari cho'g'day yonadi, junlarining kumushrang uchlari boshi bilan bo'yinlarini yashnatib bezaydi. Men umrimda noyob mavjudot ko'rib, hali bundayini ko'rmaganman. Men uni darrov tanidim, u golderlik qora-qo'ng'ir tulki edi. Men qimir etmay turdim, uyam qimirlamadi. Hayvonlar hayotida bunday uchrashuvlar tez-tez uchrab tursa-da, nazarimda, tulki hozir oldida odam turganini aqliga sig'dirolmadi. Itning temir ovozi tobora yaqinlashib kelaverdi, tulki izidan Gekla quvib kelayotganini bilib, qochishga chog'landi. Men yana chalp-chalp etgan ovoz berdim, shunda yana bir bor sergak tulkining xushsuvarat qomatini ko'rishga muvassar bo'ldim. Ammo ehtiyotsizlik qilib o'zimni



sezdirib qo'ydim, tulki shu zahotiyiq ko'zdan g'oyib bo'ldi.

O'n daqiqacha o'tib, oldimda yana bir hayvon ko'rinish berdi. Yo'l-yo'lakay betinim hurib, butazorlarini yorib, yo'lidagi sinmaydigan narsalarniyam sindirib, beo'xshov, qontalash ko'zlarini faqat tulki izlariga tikib, vajohat bilan chopib kelayotgan mashhur Gekla paydo bo'ldi. U Golder adirlarining eng chapdast jonivorlaridan biri bilan yakkama-yakka chiqmoqchi bo'ldi.

Bu bahaybat, yo'g'on hayvon tulki izlarini hidlab ko'rib, uning qaysi yoqqa ketganini xatosiz topa olayotganini ko'rib, odamning ko'ngliga vahima tushadi. Aynan shu izlar tulkini topib bera olishini o'ylab esa, odamni battar vahima bosadi. Gekla bo'lsa izdan adashmay, ikkilanmay boryapti. Men itni yo'ldan urish uchun chalp-chalp etgan ovoz berdim. Ammo it tulkini topish maqsadidan chalg'imagay, izni olib ketaverdi. Keyin nima bo'lganini itning yelka junlari hurpayib turishi bilan yovuz ko'zlarining qonga to'lib turishidan bilib oldim. Men ham tulki ovlab turaman, tulki ovini xush ko'raman, ammo shu kuni go'zal jonivorni izma-iz quvib yurgan, yunon afsonalaridagi jahannam darvozasini poylovchi Serber degan qopag'on itday beshafqat Geklani ko'rib, ko'z oldimga tulki ovi emas, jajjigina sayroqi qushchani bo'g'moqchi bo'layotgan zaharli ilon keldi.

Shundan keyin it zoti bilan bo'lgan azaliy do'stligimdan kechib, qora-qo'ng'ir tulkiga mehr qo'ydim.

VI. DOMINONING QISHKI HAYOTI

Qish kirib, qishloq bolalari pala-partish tulki ovlay boshladi. Odatdagiday, ikkita-uchta itni oldinga qo'yib yubordi, o'zlari miltiq olib, itlar ketidan piyoda yo'l oldi.



Bir kuni Dominoni otliq ovchilar bir gala itlari bilan quvdi, ammo Domino daryo oldidagi qoyalar orasiga kirib qutuldi. Shu tariqa quvg'irlarda suyagi qotib, kuch-qudratga to'lib bordi, ta'qib qiluvchilarni adashtirish yo'llarini o'rgandi. Shuningdek, qanday qilib o'zini tuta olishniyam yanada yaxshilab bilib oldi. Barzangi itning dahshatli hurishidan hamon qo'rqa-da, har holda qo'rquvni yengishga, o'zini dadil tutishga intildi.

Domino odatda yolg'iz tulkilar qanday yashasa, shunday yashaydi. Masalan, o'z ini bo'lmadi, chunki tulki qishda kamdan-kam inda yashaydi. Ochiq joylarda uxladi, paxmoq, quyuq mo'ynalari, momiq dumi uni sovuqdan saqladi. O'tkir dimog'i xavf-xatarlardan ogoh qilib turdi.

U faqat kunduz kuni, oftob nurlari ostida uxladi. Tulkilarning bitilmagan shunday qonuni bor: «Kechasi – ov, kunduzi – uyqu». Domino kun botib, qosh qorayganda ovqat izladi.

Yovvoyi hayvonlar zim-ziyo zulmatdayam ko'ra oladi, degan bir xato gap bor. Yo'q, hayvonga yorug'lik kerak. To'g'ri, yovvoyi hayvonlar insonchalik yorug'likka muhtoj emas, shunday bo'lsa-da, baribir kerak. Gap shundaki, hayvonlar qorong'ida odamlarga nisbatan aniqroq, yaxshiroq tusmollab yura oladi. Ammo tusmol o'z oti o'zi bilan tusmol-da. Hayvonlar yop-yorug' kunni xush ko'rmaydi. Ular g'ira-shira vaqtini xush ko'radi. Shu sababliyam oppoq qorda, oyu yulduzlar nur sochib turgan qish kechalarida ov qiladi.

Shunday qilib, Domino kun botishi bilanoq ovga yo'l oldi. Shamolga qarshi yo'rtib chopdi, soylarga enib, ko'ziga yaxshi ko'ringan butalar-u o't-o'lanlarni hidlab ko'rdi, bir vaqtlar kelib ketgan joylarini qaradi, ko'zga yaqin tustun, tosh, to'siqlarni hidlab, bu yerlarda yaqin-atrofdan biron tulkinining bo'lgan-bo'lmaganligini bilgisi



keldi. Chunki tulkilar ham itlar bilan bo'rilarga o'xshab har bir tosh yo ustunga o'zining kelgan-kelmaganini bildirish uchun biron iz qoldirib ketadi. Shundan keyin Domino adir cho'qqisiga chiqib, shamol biror yegulik isini olib kelarmikin, degan umidda havoni iskab ko'rdi. Salgina shitir-shitirni sezsa ham to'xtab, biror ko'ngilsizlik yuz bermasligiga ishonch hosil qilmagunicha joyida qotib turdi, so'ng nima gapligini bilish uchun shitirlagan joyga mushukdek pusib borib qaradi. Tevarak-atrofni ko'zdan kechirish uchun yerga mayishib qolgan biror daraxtga chiqib qaradi, bordi-yu, bunday daraxt topolmasa, osmonga sapchib, tevarakka qaradi.

Yo'l-yo'lakay fermerlarning it qo'riqlaydigan hovlilariga ham nazar solib o'tdi. Bu yerlarda odamlar ko'payishi bilan tulkilar ham ko'payib qoldi, chunki har bir ferma tulkilar uchun oziq-ovqat manbayi bo'lib xizmat qildi, har bir ferma ikkita-uchtadan tulki boqdi. Bizning Domino ham itlar bor-yo'qligiga qaramay, u fermadan-bu fermaga chopib yurdi. Itlarning changaliga tushib qolmaslik uchun sal nariroqda to'xtab, ularning jig'iga tegib uvilladi. Bordi-yu, it uning uvillashini eshitib yugurib chiqsa, qochib qoldi, bordi-yu, indamasa, it zanjirlangan ekan, degan xulosaga keldi. So'ng, hovliga dadil kirib borib, uchragan narsani ilib qochdi. Semiz tovuqlarni bo'ynidan g'ippa bo'g'ib, ovozi chiqarmay olib jo'nadi. Ba'zan tovuqlarga tashlangan non ushoqlari yo bo'lmasa qopqondan olib tashlangan sichqon o'ligi tegib qoldi. U hatto cho'chqa tog'oradagi ovqatlardan ham olib qochdi.

Har kechasi bo'lmasayam, ishqilib, hamisha o'z nasibasini topib yedi, o'zi, tulkilar bir haftada beshmarta yaxshilab ovqat yeb olsa bo'ldi, o'zini oldirmay, qishdan omon-eson chiqib oladi.



VII. DOMINO JUFTINI TOPDI

Yovvoyi hayvonlar uyoqdan-buyoqqa bekordan-bekorga tentirab yurmaydi, har bir yovvoyi hayvonning o'z ona yurti, ov qiladigan maskani bo'ladi. U hamisha maskanini o'z zotiga yot har qanday yovvoyi hayvondan himoya qilishga tayyor turadi. Qator kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, tulkilar odatda o'z inlaridan uchto'rt milcha tevarakda ov qiladi. Ba'zan bir tulkinging ov maskani ikkinchisining bilan tutashib ketgan bo'ladi. Ular bir-birlarini yaxshi tanib, izlari hidini yaxshi bilib olib, bir-biriga o'rganib qoladi, bora-bora bir-birlariga e'tibor bermay qo'yadi.

Bordi-yu, maskanlarida begona hayvon paydo bo'lib qolsa, unda shu g'animi bilan urishadi yo boshqa yoqqa ketib qoladi.

«Qor oyi» deya atalmish yanvar oxirlab, Domino kuch-quvvatga to'lib qoldi, ko'z o'ynatar mo'ynalar bilan bezandi, ammo yolg'izlikdan azob cheka boshladi. Ko'ngli kimnidir, nimanidir qo'msab, biror ferma yaqinidagi adirda uzoq o'tirib qoladigan bo'ldi, biror bexatarroq joyga chiqib olib, itlarning hurishini eshitib o'tirdi, iloji bo'lsa ularni atayin izidan quvishga chorlab ko'rdi. Ba'zan oy yorug'ida adirning eng yuksak cho'qqisiga chiqib olib, uzun-uzun uvilladi. Buni olimlar, tulki uvillayapti, deydi, ovchilar, tulki yig'layapti, deydi:

Uv-uv-uv-uvvv-vaaa,

Uv-uv-uv-uvvv-vaaa...

Domino «Ochlik oyi» kechalarining birida, garchi javob olishiga ko'zi yetmasa-da, umid bilan g'amgin-g'amgin uvilladi. Uvillab-uvillab, o'z yolg'izligidan o'zi kuydi.



Odamlar «Ochlik oyi» deb fevralni aytadilar. Ana shu fevral oxirlab, qish biroz shashtidan tushdi, janubi sharqdan esgan iliq nam shamol sehrli ko'klam nafasini olib keldi.

Uv-uv-uv-uvvv-vaaa,
Uv-uv-uv-uvvv-vaaa...

Domino uvillab, tevarakka nazar soldi, shunda, op-poq dalada g'imirlab yurgan bir soyani ko'rib qoldi, shunda, qorda yana bir soya paydo bo'ldi. Bunisi yaqinroq ko'rindi. Domino soyani mo'ljallab jo'nadi.

Odamlar o'z qo'shnilarini yuz-ko'zlaridan taniydi, bordi-yu, biroz o'zgarib qolgan bo'lsa, taniyolmay qiy-naladi. Bu borada tulkilar odamlardan ustalik qiladi. Tulkilar o'zlarining qo'shnisini ularning izlari, tanasi hididan hamda tashqi ko'rinishidan bilib oladi. Darhaqiqat, Domino xiyoldan keyin ikkinchi soyaning izini olib, bu, Shobanda yashaydigan malla tulkinining izlari ekanligini bildi. Malla tulki bu yerlarda ko'pdan bu-yon ov qiladi. Shu sababli Domino uning izlariga e'tibor bermay, yo'lida davom etdi. Birinchi soyaning izini topib olib, qoni qaynab ketdi. Bu uning maskaniga oralagan begona hayvon izi edi. U qahri qaynab, izning ketidan tushdi. Izni hidlab yuguraverib, qahri so'nib qoldi, endi ajabtovur tuyg'ular taloshida qoldi.

U izlarni yana yaxshilab hidlab ko'rib, jon-jahdi bilan chopdi. Bebaho dimog'i olg'a chorlab: «Tezroq chop!» deya shivirladi.

U tuyg'ular girdobida yanada shiddat bilan chopdi, favqulodda yana Mallaning iziga duch keldi. U bundan bir-ikki daqiqa oldin Mallaning izi yonidan beparvo o'tib ketgan edi, bu safar unday qilmadi, u endi yangi bir tuyg'u girdobiga tushdi. Bu qahr-g'azab tuyg'usi



edi. Mo'ynalari quloqlarining uchidan dumining uchigacha hurpayib ketdi. Uch-to'rtta daladan yugurib o'tib, nihoyat, o'sha tulkilarni ko'rdi. Ularni quvishayaptiyam deb bo'lmaydi, urishayaptiyam deb bo'lmaydi, ular o'zi do'stmi yo dushmanmi, buniyam bilib bo'lmaydi. Ko'kragida oppoq belgisi bor begona urg'ochi tulki oldinroqqa yurdi. Malla tulki unga yetib oldi, begona tulki ketiga qayrilib, unga tashlandi. Malla orqasiga tisarildi, ammo indamadi. Ular bir-birlariga tashlanib, yugurishda davom etdi. Domino ularga qarab yanada hayajonlanib ketdi, qahr-g'azabga to'ldi.

U o'zini Oqsiynaning e'tiboriga sazovor tulki deb bildi. Oqsiynaga loyiq deb bildi. Shunday ko'ngilda Oqsiynaning oldiga bordi. Ammo Oqsiyna uni Malladan ham battar qilib jerkib tashladi. Dominoga juda alam qildi. Mallaga qarab irilladi. Mallayam bo'sh kelmadi, dumini ding qilib, qaddini g'oz tutdi, ikki qator tishini dahshatli irjaytirib irilladi.

Ular bir-ikki daqiqa ana shunday yuzma-yuz bo'lib turdi. Oqsiyna vaziyatdan foydalanib qochib qoldi. Domino bilan Malla bir-birlari bilan talashib-tortishib Oqsiynani quvib ketdi. Unga birinchi bo'lib Domino yetib oldi. Oqsiyna to'xtab, Dominoga qarab irilladi. Bu galgi irillashi unchalik nafratli bo'lmadi. Malla Oqsiynaning uyog'idan keldi. Shunda, Dominoga qo'shilib Oqsiyna Mallaga o'qrayib qaradi.

Domino bilan Malla olishib qoldi. Malla yerga yumalab tushib, tishlarini g'ijirlatdi. Domino indamay, uni bosib turdi.

Oqsiyna yana qochib qoldi. Domino bilan Malla Oqsiynaning ikki tarafini olib chopib, bir-birlariga irillab-irillab qo'ydi.

Ular dala bo'ylab chopdi, Oqsiyna Malladan o'zini olib qochib, Dominoga yaqinroq bo'lib chopdi, uchovi yana bir joyda jam bo'lib to'xtadi, shunda, odatdagidek,



uchalovi bir-biriga emas, ikkalovi biroviga g'animona qaradi. Bahaybat Domino qaddini kerdi, bo'yin junlari hurpayib, dumi ding bo'ldi. Dahshat bilan irillab, yarqiroq tishlari g'ijirlab, g'animiga qarab mag'rur yurdi. Ketidan Oqsiyna ergashdi.

Malla, javobi berilganini tushundi, ketiga burilib, boshini quyi egib ketdi.



IKKINCHI QISM

IKKOVLON

VIII. BAHOR

Golder adirlariga musaffo bahor keldi. Adirlar yonbag'ri o't-o'lanlarga burkandi, daryolar to'lib oqdi, havo qushlarning qanot qoqishi, tonggi chug'urchug'urlariga, muzlari erib ketgan ko'llardagi mitti qurbaqalarning qurillashiga to'ldi.

Hali qish libosini tashlamagan o'rmonda qorlar orasidan olmurutlar nish urib chiqdi, nafis yaproqlarini ko'z-ko'z qilib: «Mana, men kutgan bahor, mana, mening qirmizi mevalarim», deganday bo'ldi. Kakliklar, olmaxonlar, sug'urlar «Qarg'a oyi»ning noz-ne'matidan maza qilib tatib ko'rdi. Odamlar yovvoyi jonivorlarning mevaga og'zi tekkanini ko'rib, shunday shirin ne'matlarni yomon kunlarga deb asrab yurgan ona tabiatdan minnatdor bo'ldi.

O'rmonlar va ko'llarda bahor fasli poyqadami uchun sayillar boshlandi. Domino bilan Oqsiyna ham qarab turmadi.

Qorlar erib, jilg'alardan pastga oqib tusha boshladi, shunda, bizning juftlar in izlab ketdi. Yugurib-yelib izladi, yana yugurib-yelib izladi, aniqrog'i, Oqsiyna izladi, Domino esa unga bo'ysunib, orqasidan ergashib yurdi. Golder adirlari sharqidagi qumloq yalanglikni izg'ib chiqdi. Qarasalar, tulkilar hamma yerga mayda-mayda belgilar qo'yib tashlabdi. Bu belgilar tulkilar tilida: «Bu yerlarni jang-jadal bilan olasan», deganidir. Endi ular Golder jarlari oralab sanqidi. Jarlardagi qalin qorlar hali erimabdi. Ular yana darvo Bo'yiga qaytdi, Dominoning



bolaligi kechgan o'sha tog'teraklarga keldi. Ular shu yerni ma'qul ko'rdi.

Oqsiyna tevarak-atrofni hidlab chiqib, yong'oq-zordan in kovladi. Kovlasa, yer yumshoq ekan, chunki uni bultur to'kilgan xazonlar bilan qalin qor qoplab, namligini saqlab turibdi. Boshqa yerlar esa muzlab yotibdi, ularni kovlab bo'lmaydi.

Anglab bo'lmas bir sezgi shu yerdan in kovlashga undadi. Domino shu yaqindagi adir cho'qqisiga chiqib olib poyloqchilik qildi. Oqsiyna biron soatcha yer kovlab, Domino bilan o'rin almashdi.

Ular bir necha kun navbatma-navbat yer qazidi, nihoyat, in tayyor bo'ldi. In uzun yo'lakdan iborat bo'lib, yo'lak avval pastga tushadi, keyin yana yuqori ko'tarilib, kengroq yo'lak hosil qiladi, undan bir-ikki qadam keladigan boshqa bir yo'lakka o'tib, undan yonidagi uychaga o'tiladi. Birinchi yo'lak tag'in ham yuqorilab, hozircha muz yerga yetganda tugaydi.

Tulkilar muz yerni ichkarisidan kunlab kovlayverdi, yer kun sayin ochilaverdi, oxiri tashqari ko'rindi. In og'zini o'tgan yilgi xas-xashaklar bilan pishiq-puxtalab bekitdi. In oldida tuproq uyumi qoldirmadi, shu sababliyam inning yonidagina turgan odam ham uni payqamaydigan bo'ldi. Shuningdek, bu yilgi o't-o'lanlar tobora bo'y berib, inni begona ko'zlardan yashira bordi.

Endi ovqat topish ham oson bo'ldi. Oqsiyna bir kechasi o'zicha tentirab yurgan bir ovsar sug'urni ushlab oldi, uni inga olib kirib, yon uychadagi quruq qumga ko'mib qo'ydi.

Domino bilan Oqsiyna in oldida ko'zga ko'rinmaslikka intildi. Oqsiyna iniga qaytayotganda iz qoldirmaslik uchun ariqdagi suvdan yurdi, Domino yo'lida birorta qishloq bolasi ko'rinib qolsa, to u o'tib ketguncha o't-o'lanlar orasida yotgan daraxt kundalari orqasiga



bekinib turdi. Domino kun sayin yo'lovchilardan ehtiyot bo'ladigan bo'ldi.

IX. YANGILIK

«Qarg'a oyi» ketidan «O't-o'lanlar oyi» keldi, o'rmonlar va dalalar havosi yangi meva-chevalarni kuta boshladi. Oqsiyna ham o'zgarib qoldi. Dominodan xuddi g'animidan o'zini olib qochganday o'zini olib qochdi. Domino iniga kirish uchun uning ketidan yursa, unga qarab g'azab bilan irilladi. Domino kun bo'yi inga kirolmay yurdi. U yo'qligida inda ajoyib bir yangilik yuz berdi.

Inda odamlar ta'biri bilan aytganda, «badbashara», mayda-mayda, beso'naqay, Oqsiyna uchun esa olamda tengi yo'q beshta xushro'y farzand dunyoga keldi. Oqsiyna onalik mehr-muhabbati bilan to'lib-toshdi, o'zini tamomila bolalariga bag'ishlab, ularning oldidan bir qadam ham jilmadi.

Faqat bir-ikki soatdan keyin bolalarini bir daqiqacha yolg'iz qoldirib, shu yaqindagi jilg'adan suv ichib kelgani bordi. Jilg'a bo'yida Dominoni ko'rib qoldi. Oqsiyna quloqlarini qimirlatdi, ovozini chiqarmadi, umuman, juftini ko'rib-ko'rmaganga oldi. Oqsiyna yana iniga qaytdi. U ertasi kuni och qoldi, ammo inidan ovqat izlab chiqmadi. Chunki iniga ovqat ko'mib qo'ygan edi.

Ikki kun deganda iniga g'amlab qo'ygan ovqat tugadi, shundagina tashqariga chiqdi. Indan biroz naridan yaqinda ushlab kelingan bir to'da sichqon topdi. Kim biladi, balki ularni tulkilar otasi bolalari uchun olib kelgandir. Shunday bo'lsa bordir, ammo ularni tulki-lar onasi yeb oldi. Onasi yedi nima, bolasi yedi nima. Oqsiyna shu kundan boshlab har kuni in og'zidan yo in oldidagi o'tlar orasidan ovqat topib oladigan bo'ldi.



Ikki hafta deganda tulki bolalarining ko'zi ochildi. Ular dunyoni ko'rib, endi kamroq chiyillaydigan bo'ldi. Onalari ham ko'ngli to'q bo'lib, tashqariga chiqadigan bo'ldi. Domino juftiga qarab, Oqsiyna endi uni quvma-yotganini his qildi. Yana bir-ikki kundan keyin esa Dominoni inga, bolalari oldiga qo'ydi.

Tulki bolalari bir oylik bo'lganda yorug' dunyoni ko'rmoqchi bo'ldi. Indan imillab, telva-teskari o'rmalab boshladi. Ular hali chaqqon ham, xushro'y ham emasdi, ammo go'dakona ma'sum edi. Tulki bolalarining naqadar norasidaligini ko'rgan odam ularni ota-onalari qanchalik mehr-muhabbat bilan avaylayotganini his qilgan bo'lardi. Darhaqiqat, barcha ota-onalardek Domino bilan Oqsiyna ham momiqqina norasidalarini ardoqlab erkalatdi, bolalarini o'zlari yuzma-yuz kelishdan qo'rqib yuradigan g'animlaridan ham ko'ksini qalqon qilib himoya qilishga shay bo'lib yurdi. Dominoning bolaligida bo'lgan voqealar bu in oldidayam bo'lib turdi. Tulki bolalari kun sayin ulg'ayib, katta tulkilarga o'xshab qoldi.

X. ESKI G'ANIM

Bir kuni Domino uyiga ovqat olib keldi. Indan beshta qop-qora burun bilan besh juft marjonday yiltillagan ko'z qarab turganini ko'rdi. Shunda, shu yaqindan it hurdi, Domino nima gapligini bilish uchun bir to'nkaning ustiga chiqib quloq soldi. Hurayotgan it o'zining o'sha eski g'animi ekanini bildi. G'animini qadrdon iniga yo'latmaslik uchun o'zidagi qo'rquvniyam yengib, itning ovozi kelgan yoqqa qarab chopdi. Bu orada onalari tulki bolalarini inga olib kirib ketdi.

Gekla Dominoni ko'rib qolib, shu zahotiyotning izidan quvdi. Geklaning ayni kuch-quvvatga to'lgan



vaqti edi, shu sababliyam Dominoning undan qochib qutulishi juda qiyin bo'ldi. It Oqsiynaning izini olib, taqqa to'xtab qoldi, ammo Domino changallar orasidan o'zini atayin sezdirib, itni laqillatib hurdirib olib ketdi. It ham, tulki ham hali yosh, kuchli edi. Shu boisdan quvdi-quvdi bir soatcha davom etgan bo'lsa-da, ammo ular charchash nimaligini bilmadi. Hadeb yuguraverish Dominoning joniga tegdi, u endi eski nayranglarini qo'llab, itdan qutulib ketmoqchi bo'ldi. Ammo itdan qutulish oson emasdi. Chunki Gekla endi ancha ko'zi pishib, tajribali bo'lib qolgandi. Shu sababliyam Oqsiynaning ikki bor qo'llab ko'rgan hiylai nayrangiyam naf bermadi. Shunda Domino Shoban daryosi yuqorisidagi torgina jarso'qmoqni esladi, johil g'animini ilakishtirib, o'sha yoqqa qarab chopdi. Ular bilibmi, bilmaymi, ishqilib, ikkoviyam baravar shu jarga qarab yugurdi. Jarga yetay-yetay deb qoldi. Daryo bo'yida yurgan qora tulki-lar ko'zga chalinib qoldi. Domino qadamini sekinlatdi. Gekla bor kuchini yig'ib, o'pkasidan nafas olib, tulki-ga yetib olishga intildi. Ular keng bir so'qmoqqa kelib qoldi. Domino yana sekinladi, Gekla esa uni yetay deb qolganini ko'rib, jon-jahdi bilan yugurdi. Xayolida hash-pash deguncha yetib oladiganday bo'ldi.

So'qmoq toraygandan-toraydi. It bo'lsa bostirib kela-verdi. U g'alaba qozonishiga amin bo'lib chopdi, yana bir sakrasam, holdan toygan tulki changalimda bo'ladi, deya o'yladi... Shunda, ayyor tulki qoya oralig'idagi torgina yo'lakka o'qday uchib kirib ketdi. Ko'krakdor, zabardast Gekla tulkining ketidan o'zini urib, biqini bilan qoyaga bo-rib urildi, keti bilan umbaloq oshib, qoya toshlariga urilib, pastga, pastga va pastga – muzday daryo suviga ezilib, qoniga belarib tushdi.

Domino tepada itning umbaloq oshib tushishini to-moqla qilib o'tirdi.



Shoban daryosi bu tor joyda yozda tez oqadi, bahorda esa dahshat bilan shovullab, yozdagidan ham tez hayqirib oqadi. Manman degan it ham uning girdoblari-ga tushishga yuragi betlamaydi. Bechora Gekla yarador holi bilan shu girdobga tushib qoldi. Shiddatli oqim dahshat bilan guvillab, itni ikki milgacha oqizib bordi, uyoqdan-buyoqqa otdi, tosh qirralariga olib borib urdi, chir aylantirib o'ynadi, nihoyat g'arib bechorani sayoz qumloqqa itqitib tashladi. Gekla faqat ertasi kunigina uyiga bir amallab sudralib yetib oldi. Shu bahordayam, shu yozdayam ov yuzini ko'rmadi.


Beshta qop-qora burun bilan besh juft marjonday yiltillagan ko'z har kuni in og'zida paydo bo'ladigan bo'ldi.

Ularning otalari xo'p bolaparvar ota chiqib qoldi, ular yashayotgan tog'terakzorni osoyishta maskanga aylantirdi.

XI. BUG'U

Yoz avj oldi, «Atirgul oyi» o'zining bor tarovati-ni ko'z-ko'z qildi. Tulki bolalari tez yetildi, ikkitasi to'q qo'rg'oshinsimon tusga kirdi, bu ularning zotdor tulkilardan ekanligini bildirib, porloq kelajagidan darak berdi. Oqsiyna bilan Domino bolalari g'ajib-tishlab ov qilishni o'rganishlari uchun inlariga endi o'ljalarni tiriklayin olib kelishga harakat qildi.

Ota-onalari bolalari uchun har kuni yangi-yangi sarguzashtlar o'ylab topib, ularning epchil hamda ziyrak bo'lib yetilishlariga sharoit yaratib berdi. Tulki bolalari har bir ovdan biror yangilik, ov san'atini o'rgandi. Domino bolalarini deb deyarli har kuni qaltis ovlarga bordi, undan boshqa tulki bo'lganda allaqachon qo'lga tushib, yo'q bo'lib ketardi. Ammo Domino barcha qaltis



vaziyatlardan eson-omon qutulib ketib, yanada baquvat, epchil va yo'lgir bo'la bordi.

Golder adirlarida sug'ur ko'p bo'ladi. Bir kuni Domino qirqquloqlarni oralab sug'ur izladi, shunda dimog'i ajabtovur bir hidni tuydi. Xiyol o'tmay, o't-o'lanlar orasida pisib yotgan oq-oq xolli, och mallarang bir hayvonga ko'zi tushdi.

Domino notanish hayvonga baqrayib qotib qoldi, bordi-yu, u hamla qilmoqchi bo'lsa, shu zahotiyocq qochib qolishga shaylanib turdi. Ammo malla hayvon boshini yerga qo'yganicha katta-katta, dum-dumaloq, qo'rquv to'la ko'zlarini tulkiga tikib, o'likka o'xshab yotaverdi.

Bu – bug'ular bolasi edi. Bug'ular Shoban darasida juda kam uchraydi. Domino bug'u zoti nimaligini bilmaydi, shu sababliyam hozir nima qilishni bilmay qoldi. Faqat bir narsani bildiki, pisib yotgan bug'u bolasi tulkidan ham battar qo'rqib ketdi. Dominoning ko'nglidan dastlabki qo'rquv hissi ketdi, qo'rquv o'rmini endi qiziqqonlik egalladi, yotgan hayvonga qarab bir qadam bosdi. Hayvon qimir etmadi, nafas ham olmadi. Domino yana bir qadam bosdi. Oralarida bor-yo'g'i bir sapchib yetadigan masofa qoldi. Hayvon shundayam qimir etmay yotaverdi.

Domino yana bir qadam tashlab, bug'u bolasining shundaygina peshonasiga bordi. Shunda, bug'u bolasi sapchib, uzun oyoqlarida tik turdi, zorlanib, ba-a-lab, qirqquloqlardan sakrab chopdi. Domino ermak uchun uning ketidan yuksak-yuksak sapchib quvdi.

Birdan tapir-tupir boshlanib, birozdan keyin bug'ular onasi paydo bo'lib qoldi. Bug'ular onasining yag'rimidagi yollari hurpayib, ko'zlari g'azabnok yondi.

Domino hozir biror kori hol bo'lishini his qildi. U qochib qoldi, bug'ular onasi yovvoyilarcha pishqirib, metin



tuyoqlari bilan yerni tarsillatib quvib qoldi. Bug'ular onasi Dominodan o'n baravar gavdali bo'lishiga qaramay, shamolday yeldi. Dominoga birpasda yetib olib, uni old oyog'i bilan bir tepdi. Domino tepkiga zo'rg'a chap berib qoldi. Bug'ular onasi yana tepdi. Domino chetga sakrab, yana tepkidan omon qoldi.

G'azabnok bug'ular onasi, garchi bolasi sog'-omon bo'lsa-da, baribir Dominoni quvib boraverdi. U bolasiga tahdid solgan tulkini yo'q qilmoqchi bo'ldi.

Bug'ular onasi g'animini qirqquloqlar va mevali butazorlar oralatib quvdi, charchash esidan chiqib, tobora kuch-quvvatga to'lib quvdi. Butalar tulkining chopishiga xalaqit berdi, ammo gavdali bug'ular onasi-ning parvoyiga ham kelmadi. Shu yaramas butalar bo'lmaganida Domino o'z yugurishidan o'zi zavqlanib yugurgan bo'lardi.

Ular shu alfozda yarim soatcha yugurdi, Domino bug'ular onasining tuyuq zarbalariga yuz martalab chap berdi, ammo yuz birinchi martasida shu tuyuqlar dastidan o'lishiga ko'zi yetib qoldi. Shuning uchun ham tezroq biror bexatarroq yerga chiqib olishga intildi, butazordan sug'urilib chiqib, yaydoq dala bo'ylab jonjahdi bilan chopib ketdi. Domino jon qayg'usida kuchining boricha chopdi, bug'ular onasi uning izidan qolmadi. Ular shu tariqa quvishib, o'rmonga kirib keldi. Shunda Domino yana bir tuyuq zarbidan omon qoldi. Baxtiga bu galgi old tuyuq zarbi yo'g'on bir daraxt tanasiga borib tegdi.

Domino quyuq daraxtzorlar orasida to'xtab, damini oldi, johil bug'ular onasi bilan uning ovsar bolasini mazax qilib kuldi. Ammo bo'lib o'tgan voqea Domino uchun yaxshi saboq bo'ldi. U amin bo'ldiki, begona demak – g'anim demakdir.



XII. MEHRIGIYO

Birovlar mo'yna uchun qopqon qo'yadi, birovlar zararkunanda hayvonlarni yo'qotish uchun qopqon qo'yadi, yana birovlar nimaga qo'yayotganlarini o'zlarini bilmay qopqon qo'yadi. Bentonning o'g'illariyam xuddi ana shunday bemaqsad, beniyat qopqon qo'yish bilan shug'ullandi. Ular hali hatto qanday qilib qopqon qo'yishni ham bilmaydi, shu sababliyam yegulikni qopqonning keraksiz joyiga qo'yib, doim xatolikka yo'l qo'yadi. Oqibat, qo'ygan qopqonlari doim bilinib qolib, es-hushli tulkilar uning qopqonlari yonidan mensimay o'tib ketadi. Bentonlarning qopqonidan uchta hid keladi, tulkilar bu hidlarni juda yaxshi biladi. Bular temir hidi, odamlarning qo'l-oyoqlari hidi. Oyoq hidlari darrov yo'q bo'lib ketadi, ammo bolalar hadeb kelib xabar olaverib, oyoq hidlarini yana yangilab turadi. Temir hidi esa hech ketmay, yomg'ir yoqqanda yana ham kuchayadi.

Domino tog'dagi hamma qopqonni biladi. Xoh kechasi bo'lsin, xoh kunduzi bo'lsin, xohlagan vaqtida qopqonlarni topa oladi, hatto Bentonlardan ham tezroq topadi. U har safar qopqonlar yonidan ularga qarab o'tib ketadi. Qopqonlardan ham irganib, ham mazax qilib kuladi. Domino tugul hatto ovsar sug'urlar, kalta oyoq tulkilar ham Bentonlarning qopqonini mayna qiladi. Domino qopqonlarni har gal kanda qilmay ko'zdan kechirib, so'ng o'zining bu yerlarga tashrif buyurganini bildirish uchun biron-bir tosh yo kundaga choptirib ketadi. Bu vaqtda Bed Benton qopqonda hayvon ovlashning yangi yo'lini bilib oldi. Shimollik bir kekxa ovchi unga ko'ngil aynitadigan qunduz qoni, arpa-bodiyon urug'i, gijjani suradigan moy va boshqa o'tkir hidi narsalardan tayyorlangan qorishma berdi. Kekxa



ovchining aytishicha, bu mehrigiyo bo'lib, uning bir nechta tomchisiyoq tulkilarni o'ziga rom qilib, ulardagi ehtiyotkorlik his-tuyg'ularini so'ndirib, har qanday tuzoqqa ilintirib olar emish.

Bentonning o'g'li mehrigiyo solingan shishachani olib, tevarakdagi hamma qopqonlarga sepib chiqdi. Shunday hidlar ham bo'ladiki, ular odam ovoziday juda zaif bo'ladi, zaif ovozni eshitish qanchalik qiyin bo'lsa, bu hidlarni bilish ham shunchalik murakkab bo'ladi. Ammo tulkilar uchun bu hid orkestr sadolariday bo'lib taraladi, chunki tulkining hid bilish qobiliyati bo'ladi. Odamzodga xush yoqmaydigan qo'lansa hidlar tulkilar uchun muattar atirgullar hidi bo'lib tuyuladi. Masalan, Bentonning kiyimiga tomgan bir tomchi mehrigiyo shunaqangi qo'lansa hid taratdiki, hatto otxonadagi otlar pishqirib yubordi, kechqurun uyga borganida otasi unga stol adog'rog'ida o'tirishni buyurdi. Dominoning o'tkir dimog'i bu hidni shamol ulkan gulxandan olib kelayotgan tutunlar bulutiday qabul qildi, uning qayerdan kelayotganini gornning ovozi eshitib, gornchi qayerdaligini yo sharsharaning shovullashini eshitib, sharsharaning qayerdaligini aniq bilgandek bo'ldi. Hammayoqni olgan bu hid Dominoning ko'nglida hech qanday jirkanch kayfiyat uyg'otmadi, aksincha, qorong'ida yo'lini yo'qotgan yo'lovchini o'ziga tortgan gulxanday yo xayolparastni o'rmonga chorlagan sehrli musiqaday o'ziga tortdi. Domino kechki ovqatga chiqib, burnini havoga cho'zib, bu hidning qayoqdan kelayotganini bildi va hidni olib, shu yoqqa yugurib ketdi.

Bir milcha yo'l yurib, tanish bir yerga kelib qoldi, bu yerda hamisha odam izlari bilan temir hidlari anqib turadi, qopqonga uquvsizlarcha bog'lab qo'yilgan tovuq kallasi bilinar-bilinmas hid taratib turadi. Bu



joylar Dominoda hamisha nafrat tuyg'usini uyg'otadi. Ammo-lekin bu yerlar juda o'zgarib ketibdi. Botayotgan oftob nurlari bir to'da chiqindini yoritib-yashnatgani yo bo'lmasa kulrang bulutlardan qirmizi, oltin tusli ulkan tog'lar bino qilgani kabi bu sehrli, tobora taralayotgan hid, olis-olislardan oq dimog'iga xush yoqib, qalbini zabt etgan hid, uning ixtiyorini tamomila olib qo'ydi.

Domino burnini oldinga cho'zib, shoshilmay hid kelayotgan tarafga yurdi. Hiddan mast bo'lib, boshi aylandi. Quloqlari g'uvillab, a'zoyi-badaniga iliq bir qaltiroq yugurdi. Bu qaltiroqda tolib yugurishdan keyingi miriqib dam olish, sovuq kundagi yoqimli ilqlik, yangigina iliq qon bilan qorin to'yg'azgandagi quvonch tuyg'ulari bo'ldi. Dominoning burun kataklari kappa-kappa ochilib, yuragi gupillab urib, uzib-uzib nafas olib, ko'zlarini yarim yumib, boshini aylantirayotgan nafis, muattar hid kelayotgan yoqqa tobora yaqinlashdi, nihoyat, yashirib qo'yilgan qopqonga yaqin keldi. U bu yerda qopqon borligini bilardi, ana, qopqonni o'z ko'zi bilan ham ko'rdi, ammo parvo qilmadi, u hid girdobida sehlaniib qolgan edi. U shu yerga tumshug'ini tekkiygisi, uni asir etgan hid og'ushiga butunlay ko'milgisi keldi. To'lg'anib, boshini yoniga burdi, go'zal bo'ynini iflos yerga ishqadi, chalqancha yotib, qo'lansa hid anqib turgan qalin, paxmoq mo'ynalarini tuproqqa belab, uyoqdan-buyoqqa ag'anadi. U jazavaga tushdi, tunda bir nima «shiq!» etdi, qopqonning temir iskanjalari uning yelkasidan oldi, noyob kumush qora mo'ynalariga mahkam botib qoldi.

Domino birdan o'ziga kelib, bor quvonchlari boshidan uchib ketdi. Unda endi o'zini himoya qilish tuyg'usi paydo bo'ldi. U sapchib turib, qaddini rostladi. Mo'ynalariga yopishib turgan qopqon qisqichlari sirg'alib ketib, Domino ozod bo'ldi. Agar qopqon oyoqlaridan olganda, unda uning taqdiri allaqachon




hal bo'lgan bo'lardi. U entikib nafas olib, bu yerlardan qochib qoldi.

Befarosat tulkilar bunday makkor, sehrli hidlarga ko'p martalab aldanib, ajal bilan yuzma-yuz keladi. Domino ham bu dahshatli hid girdobiga bor-yo'g'i bir marta tushdi, shu bir martaning o'zidayoq uning nimaligini bilib oldi. Domino keyin-keyin ham bu sehrli hidni uchratib, o'sha dahshatli va kuchli temir qisqichlarni eslab yurdi.

XIII. ILON OG'ZIDAGI ASAL

Tulkilar hamon Bentonning tovuqxonasidan ulushlarini olib turdi. O'g'illari tulkilarga bas kelolmayotganini ko'rgan qariyaning fig'oni falakka chiqdi. Qariya: «Men yoshligimda...» deya va'z aytib, bolalarini koyidi. Keyin, qarilikning oxiri bo'lsin, deya o'zi tulki oviga jo'nadi.

Fermalar atrofiga qopqon qo'yib bo'lmaydi, it, mushuk va cho'chqalarga ziyon beradi. Shu sababliyam ishning ko'zini biladigan ovchilar odam yashaydigan yerlardan olisroq o'rmonlarga qopqon qo'yadi. Shu maqsadda qariya tevarakni ko'rib keldi. So'ng qopqonlarni boshqacha, o'zicha qo'yib chiqdi. Temir hidini yo'qotish uchun kedr daraxti o'tinini tutatib, qopqonlarni aylantirib chiqdi. Boshqa hidlarni o'tkir hidli dorilar sepib yo'q qildi. «Ba'zan bu hid ham yaxshi ta'sir beradi, – deydi qariya. – Ammo u befahm hayvonlarnigina laqillatishi mumkin, xolos. Es-hushi joyida hayvonlar nima gapligini darrov bilib, chetdan yuradi. Tulkilar uchun yakka-yu yagona sinamol hid bo'lib, buyam bo'lsa yangi so'yilgan tovuq qoni hididir». Qariya qopqonlarni tanimol bo'lib qolgan iflos joylardan olib, olisroqqa olib borib ko'mdi. Har bir qopqondan besh qadam narroqqa tovuq go'shti bo'laklarini qo'yib chiqdi, o'zining izlarini



kedr shoxi bilan supurib tashladi. Qariya ana shunday qilib qopqon qo'ydi.

Domino bir-ikki kechadan keyin shu yerga yaqin joydan o'tdi. Ikki yuzcha qadamdanoq tovuq go'shtining hidini sezdi, ammo yaqinlashgan sayin ehtiyot bo'la bordi. Asta-asta yaqin keldi. Domino burun kataklarini kerib nafas olib, shamolga qarshi avaylab yurdi. Endi temir hidiyam, odam izlari hidiyam yo'qolib, o'tkir tutun hidi keldi, o'tni esa faqat odam yoqadi. Kim biladi, balki bu birorta tulki tushirib qoldirgan go'sht hididir. Bordi-yu, yon tarafdin borilsa, tutun isi go'sht hidini bosib ketolmas ekan, Domino buniyam sezdi.

Domino ikkilanib qoldi, shunda shamol yo'nalishini o'zgartirib, tutun isini olib ketdi va mazali tovuq go'shti hidi qoldi. Domino yana uch qadamcha yurib, to'xtadi. Tevarak-atrofnin hidlab ko'rdi. Odam isini sezmadi. Shunday oldiginasida esa kechalari to'yib yeydigan ovqati turibdi, u bu ovqatni juda xush ko'rib, kechalari iniga tashigan. Uning dimog'iga yana tutun isi keldi. U juda ehtiyotkor hayvon edi. Shu sababliyam xushbichim oyoqlarini bir-bir bosib, o'ydin-chuqur yerdan emas, balki ravon yerdan ketiga tisarilib boshladi, shunda, «shiq!» etgan ovoz eshilib, Domino qopqonga tushib qoldi, bu safar keng yelkalari bilan emas, yo'q, bu gal oyoqlari bilan tushdi. Tushgandayam ulay-bulay tushmadi!

U bekordan-bekorga osmonga sapchib, kuchandi, la'nati qopqonni g'ajib tashladi. Ammo po'lat qisqichlar uning oyoqlarini qo'yib yubormadi, u befoyda urinib-surinib, holdan toydi, xolos.

U ikki soatcha bekordan-bekorga o'zini uyoqdan-buyoqqa olib urdi. Goh holdan toyib, sulayib yotib qoldi, goh jonsiz, ammo uzib bo'lmas temirni tishlab tortdi, goh tevaragida o'sib yotgan butalarni tishlab, sug'urib



otdi. U juda ko'p o'zini uyoqdan-buyoqqa olib urib, holdan toyib qoldi. U ko'p azob chekdi. Uning azobida qo'rquv hissi ham, og'riq ham bo'ldi. Yotib-yotib qahri qo'zg'ab ketdi. Qiynalib, holdan toygan bo'lsa-da, yana bor kuchini to'plab, o'zini uyoqdan-buyoqqa olib urib, qopqonni g'ajib tashladi.

Bir kun shunday o'tdi... Olisdan-olis, azob-uqubat-larga to'la tun ham o'tdi.

Tong oqaraverib, qadam tovushlari eshitildi. Bechora Domino xo'rlanib, changga belanib, bir vaqtlar juda kelishgan tumshug'ini ko'tarib qarab, o'zining eng ashad-diy g'animi bo'lmish bug'ular onasi bilan ola-bula bo-lasini ko'rdi! Domino bug'ular e'tiborini o'ziga tortma-slik uchun turgan joyida o'likday qotib qoldi, ammo bug'ularning ko'rish va hid bilish qobiliyati o'tkir ekan, ular shu zahotiyoy, tulkini ko'rib qoldi. Bug'ular onasi pishqirib, junlari hurpayib, ko'zlari g'azabdan yonib, old oyoqlarida tik turib, qopqondagi hayvonga tashlandi. Domino chap berdi. U qopqon zanjiri yetgan joygacha sapchidi. Bug'ular onasi xuddi shuni kutib turardi, tulki uning ixtiyorida qoldi, uni endi nima qilsa qiladi. U endi Dominoni majaqlab tashlaydi. Bug'ular onasi osongina qo'lga kirayotgan g'alabadan ruhlanib, xuddi zaharli ilonni yanchib tashlamoqchi bo'lgandek o'zini bor og'irligi bilan Dominoning ustiga tashladi. Tulki hamlaga chap berib qolmoqchi bo'ldi, ammo iloji bo'lmadi, tuyoqlar zarb bilan kelib... baxtiga, unga emas... qopqonning dah-shatli prujinasiga kelib tegdi. Po'lat qisqichlar ochilib ketib, Domino qopqondan chiqib ketdi.

U qolgan kuchini to'plab, shu yaqindagi chakalak to'siqlar orasiga o'zini urdi. Bug'ular onasi chakalaklarni bir-ikki marta aylanib qarab chiqdi. Ammo tulki holdan toygan bo'lsa-da, to'siqning goh uyog'iga, goh buyog'iga o'tib yashirindi. Shu vaqt tulkinining baxtiga bug'ular bo-



lasi qattiq ovoz berib, onasini chaqirib qoldi. Shundan keyingina bug'ular onasi ta'qib qilishni bas qildi. Domino oqsoqlanib-oqsoqlanib, imillab uyiga jo'nadi.

Esi past hayvon juda ko'p pand yeb ko'zi ochiladi, es-hushli hayvon esa bir marta pand yeboq ko'zi ochiladi. Domino ikki marta pand yedi, shuning o'ziyoq unga yetarli bo'ldi. U shu kundan e'tiboran nafaqat temir va odam hididan, umuman, jamiki uchragan g'ayritabiiy hidlardan ehtiyot bo'ldi.

G'ayritabiiy hidlar falokat olib keladi.

XIV. YOZ BILAN QIZALOQ

Domino ilk yoz kunlarining birida uch oyoqlab oq-sab, baland tepalikdagi bir ferma yaqiniga kelib qoldi. Bu aslida keng bog'i bilan ziroati qariyb o'rmongacha cho'zilib, hammayoqni qoplab olgan eski bir hovli edi. Bu yerga kishi bilmas kelsa bo'lardi. Domino ham shunday qildi, pisib kelib, ko'ziga ko'ringan narsalarni iskab, sanqib yurdi. Yurib-yurib, to'siq ostidan tovuqlar kovlab tashlagan bir teshikni topdi, shu teshikdan zi-roatga o'tdi. Ziroatda o'sib yotgan kartoshka poyalari, quyuq qorag'at novdalarini oralab, pisib yurdi. Avay-lab qadam bosib yurib, qalin butalar orasida bir mayda-gina qora narsa yiltirayotganini ko'rdi. Domino turgan joyida qotib qoldi, sinchiklab, bu moyak bosib yotgan kurkaning ko'zi ekanligini bildi.

Har bir tulkining sag'risida – dumi boshlanadigan joyida bir tutam alohida juni bo'ladi, tulki-lar hayajon-langanida ana shu junlari tikrayib ketadi. Hozir ham shunday bo'ldi, Domino ajoyib o'ljani ko'rib qolib, shu junlarni tikrayib ketdi. Ammo u o'ljaga qarab yurish-niyaning yurmasliginiyam bilmay, ikkilanib qoldi, shun-da, orqa tomondan qandaydir bir ovozni eshitib, ketiga



burilib qaradi va nariroqda turgan mittigina bir odamni ko'rdi.

– Iya, tulki ekan! Bevoshlik qilaman deyapsanmi, tulki? – dedi qizaloq o'pkali ohangda.

Domino odam ovozi eshitib, cho'chib tushdi. Sapchib chopib qolmoqchi bo'ldi-yu, yana chopmadi. Qizaloq kichkinagina bo'lgani uchun Domino unchalik ham qo'rqmadi. Buyog'i oldida mazaligina kurka turibdi.

Domino ov qilish hissi bilan qo'rquv hissi o'rtasida qoldi. Nihoyat, qizga ko'z qirini tashlab olib, kurkaga qarab yurdi. Qizaloq chinqirib qochib ketdi. Shu chinqiriq masalani hal etdi. Domino bir sapchib, butalar orasiga kirib yo'qoldi. Shu bilan kurka omon qoldi.

Shu kechqurun qizaloq otasidan so'radi:

– Ota, o'rmonda moyak bosib yotgan kurkangizni tulki bilib qolsa, uni tulkiga ziyon bermasdan qanday qilib qutqargan bo'lardingiz?

– Kurka moyak qo'ygan joy tevaragiga bir-ikkita temir-tersak qo'yib qo'ygan bo'lardim, shunda birortayam tulki zoti yo'lamagan bo'lardi, – dedi otasi.

Qizaloq otasining gapini eshitib, bog'dan bir zanjir bo'lagi, singan omochning tishi hamda bir taqa topib kelib, kurka yotgan yer tevaragiga qo'yib chiqdi.

Bir-ikki kundan keyin Domino yana keldi. U kurka yotgan yerni yaxshilab eslab qolgan edi. U bu safar avvalgidan ham ehtiyot bo'lib yurdi, chunki kurka yonida odam bo'lishi mumkin edi. Kurka qurqullab, hadikdan xabar bergunicha bo'lmay, Domino bu yerda xavfli temirlar paydo bo'lganidan ogoh bo'ldi. U o'zini orqaga olib, kurkaga boshqa yoqdan bormoqchi bo'ldi, ammo uyoqdayam la'nati temirga duchor bo'ldi. Aql-zakovati: «Qayt!» – deya shivirladi, Domino iziga qaytdi.



Qizaloq tulkinining yana qaytib kelganidan xabari bo'lmadi, faqat ertasi kuni otasi: «Bilasanmi, qizim, bugun ertalab kartoshka ichida yangigina tulki izlarini ko'rib qoldim», degandan keyingina bildi.

Shunday qilib, Domino laqillab, kurkadan umidini uzib ketdi, ammo ko'p o'tmay, boshqa bir o'ljani – inida yotgan tovuqni topib oldi. Tovuqni bo'ynidan g'ippa tishlab o'ldirib, uyiga olib jo'nadi, yo'l-yo'lakay tovuq inida qolib ketgan moyaklar esiga tushdi. Tovuqni o'rmondagi yaproqlar orasiga ko'mib qo'yib, iziga qaytdi. Moyaklarni bitta-bittalab o'rmonning bir chekkasiga tashib borib yashirdi, yashirgan joyini keyinchalik o'zi bemalol topib olishi, shuningdek, boshqa tulkilar bu uning xususiy mulki ekanini bilib qo'yishlari uchun unga mushk so'laklari bilan belgi qoldirdi. So'ng tovuqni kovlab olib, iniga olib ketdi.

Domino moyaklarni qachon kovlab oladi, kim biladi, ular ungacha ko'milib yotaverib, aynib qoladi. Ammo og'ir kunlarda tayyor osh bo'lib turadi, qorin ochganda aynigan bo'lsayam yesa bo'ladi.

Domino birinchi marta o'lja yashirishi emas. Ko'p tulkilar yashiradigan vaqo topolmaydi, chunki yaxshi ov qilolmaydi. Samarali ov qiladigan tulkilar o'lja yashirishni odat qilib oladi.

Oradan bir oy o'tib, o'rmondagi butalar mevasi g'arq pishdi, Domino bir-ikkita mevani havas bilan chaynab yutdi. Mevalar unga yoqinqiramadi, chunki uning qorni to'q, buning ustiga semirib ketgan edi. Shunday bo'lsa-da, qip-qizil mevalarni sakrab-sakrab uzib olib, zavqlandi. U oldiniga mevalarni har yoqqa uzib otdi, keyin bir joyga yig'ib keldi.

Dominoda yana ertani o'ylash tuyg'usi paydo bo'lib, mevalarni barglar orasiga ko'mdi-da, shu yaqindagi kundaga mushk so'laklari tekizib, belgi qo'ydi. Bor-



di-yu, kerak bo'lib qolsa mevalar uyumini qor ostidan bo'lsa ham topib oladi.

XV. DOMINONING MEROSXO'RI

Bu yilgi yozda Domino oqsoqlanib yurib, tez chopolmadi, baxtiga uchqur g'animi Gekla ham hamon mayibligicha yurdi. Domino oqsab, bolalariga ovqat tashidi. Baxtiga bu yil ona tabiat ham saxiy keldi. Iniga deyarli har kuni biron-bir tirik o'lja olib keladigan bo'ldi. Ba'zan shunchaki bir qurbaqa olib keldi, qurbaqa uyoqdan-buyoqqa sapchidi, bolalari qurbaqani ushlab olaman deb rosa ovora bo'ldi. Ba'zan semiz dala sichqoni olib keldi, sichqon yaproqlar orasiga kirib yashirindi, bolalari bu epchil, mitti jonivorni tutib olaman deb, og'izlari qum bilan o't-o'langa to'ldi. Bir kuni otalari ularni chin-qiqtirish uchun yana bir o'lja topib keldi.

Domino tuman vaqti daryo sohillarini aylanib yurib, qandaydir bir jonivorni ko'rib qoldi. Jonivor avval-avval suvning sayozroq yerlari bo'ylab yurdi, so'ng bir kundaning ustiga chiqib olib, chig'anoqlarni ustalik bilan ochib yeya boshladi. U ulkan suv kalamushi edi. U baquvvat sariq tishlari bilan chig'anoqni qirsillatib-qirsillatib chaqib yedi, shu sababliyam bizning ovchimizning yaqin kelib qolganini payqamay qoldi. Qop-qora mo'ynali ovchimiz lip etib kalamushga yetib kelib, bo'ynidan mahkam bo'g'ib oldi! Suvkalamush bekordan-bekorga chiranib chiyillab, nayzaday o'tkir tishlarini g'ijirlatdi. Domino kalamushni olib, kuchining boricha chopib, yigirma daqiqalardan keyin inining oldida paydo bo'ldi.

Tulki bolalari otalarining pishqirgan ovozini eshitib, bir-birlarini itarishib inlaridan chiqib keldi. Otalari olib kelgan o'ljasini qo'yib yubordi. Bolalari shu zahotiyon o'ljaga yopishdi, ammo hali tirik suvkalamush tipichi-



lab, jon-jahdi bilan olishdi. O'zini goh uyoqqa, goh buyoqqa olib urdi, tulki bolalari xuddi ayiq tevaragida uy-malashayotgan itlar kabi kalamush atrofida irg'ishladi, kalamush o'tkir tishlari bilan tishlab olganida chiyil-lashib nari qochdi. Faqat birovi kalamush bilan uch marotaba yakkama-yakka olishdi, ammo qochmadi. Bu tulki kalamushdan ham, aka-ukalaridan ham unchalik zabardast emasdi, ammo tug'ma dovyurak edi, shu sababliyam, aka-ukalari chekinsayam u chekinmay, yakkama-yakka olishuvni davom ettirdi. Bu hayot-mamot kurashi bo'ldi. Dovyurak tulki bolasi kalamushning kallasiga xiyla yaqinlashib keldi, nihoyat, bo'ynidan g'ippa tishlab oldi. Kalamushning joni uzilguncha shunday ushlab turdi. Keyin butun oila jam bo'lib, kalamush yedi.

Tulkilar otasi bilan onasi olishuvni xotirjam o'tirib kuzatdi. Nimaga ularning o'zi kalamushni o'ldirib qo'ya qolmadi? Biz o'z-o'zimizdan odamlar nimaga o'zlari uchun juda oson, ammo bolalari uchun nihoyatda qiyin ishlarni o'zlari bajarib qo'ya qolmay, bolalariga buyuradi, deya so'rasak masala ravshan bo'ladi.

Bu dovyurak tulki bolasi unchalik ham gavdali emas, ammo aka-ukalari orasida eng qorasi edi. U o'sib-ulg'ayib, otasiga tortdi, otasining o'zi bo'ldi. Uning kimligini Shoban daryosining yuqori oqimiga borib bilsa bo'ladi.

«Momaqaldiroq oyi» oxirlab, tulkilar o'sib-ulg'ayib qoldi. Ayrimlarining bo'yi onasining bo'yi bilan bo'ylashdi, shunda, oilada bir tarqoqlik boshlandi. Avval-avval kattalari, keyin-keyin kichkinalari o'zicha ovga borib, bir-ikki kunlab uyga kelmaydigan bo'ldi. Borib-borib, bir-birlaridan sovib boshladi va «yig'im-terim» oyi oxiriga kelib, hammalari har yoqqa tarqalib ketdi. Inda faqat Domino bilan Oqsiyna qoldi.



Kuzning boshlarida Dominoning oyog'i yaxshi bo'lib ketdi, u yana Golder adirlarining eng epchil, eng chopag'on tulkisi bo'ldi. Avvallardagidek har qanday itdan qochib qutulib ketadigan bo'ldi. Yana kuch-quvvatga to'ldi, yana tabiat ato etgan chopag'onlik iqtidorini egalladi. Bu tevarak-atrofda u bilan bellashib chopa oladigan tulki bo'lmadi, u qo'rqadigan it ham bo'lmadi. O'pkasi baquvvat bo'ldi, oyoqlariyam o'pkasiday baquvvat bo'ldi. U o'z chopag'onligidan o'zi zavq oldi.



UCHINCHI QISM

OLISHUV VA TANTANA

XVI. YOVVOYI G'OZLAR

Har yil bahor va kuzda Golder adirlari havosini vag'-vag'larga to'ldirib, uzunbo'yin yovvoyi g'ozlar uchib keladi. G'ozlar Golder adirlarida uzoq qolib ketmaydi, shunday bo'lsa-da, ular ovchilar e'tiborini tortib, o'ziga chorlaydi.

Domino g'ozlar yaxshi ovqat bo'lishini ko'pdan buyon biladi, bir kuni ovchilar o'qidan yarador bo'lib, botqoqqa qochib kelib o'lib qolgan g'ozni topib olib, yana bir bor ishonch hosil qildi. Oqsiyna bilan ikkovi g'ozni to'yib yeb oldi.

G'ozlar dalalar, botqoqlarda tirikchilik qildi. Domino bir-ikki marta ularni poylab bordi, ammo ular har safar ehtiyotkorlik va ziyraklik qilib qutulib ketdi. Ov qilishning shunday yo'llari borki, unda ovchi pisib o'tirgan qush yo bekinib olgan quyon oldiga bermalol yaqin borsa bo'ladi. Domino ovning ana shu yo'lini qo'lladi.

Qarasa, o'rilgan dalada bir gala g'oz yuribdi. Oqsiyna bilan ikkovi kun bo'yi daryo bo'yidagi butalar orasida izg'ib, ana shu g'ozlarga yaqinlashish yo'lini izladi. Ammo g'ozlarning to'rt tarafiyam tep-tekis yalang yer bo'lib, bu o'z navbatida ularni himoya qilardi, shuningdek, g'ozlarning birov bo'ynini qo'riqchining minorasiday yuqoriga cho'zib, galani xavf-xatardan ogoh qilib turardi. Shunda tulkilar jufti kimdir o'ylab topgan, azal-azaldan qo'llanib kelinayotgan bir o'yinni boshladi.



Domino o'rilgan dala chetidagi butalar orasiga bekinib turdi, Oqsiyna esa dalaning narigi chetidagi ochiq yerga borib, o'zicha har xil qiliqlar qila boshladi. Bir yerga yotib dumaladi, bir havoda umbaloq oshib o'ynadi, bir qorni bilan yerga yotib, dumini likillatdi. G'ozlar, bu tulki nima qilayapti o'zi deganday, unga qaradi. Tulki xiyla olisdaligini ko'rib, parvoylari falak bo'ldi. Tulkidan ko'zlarini uzmay, qiziqsinib qarab turdi. Oqsiyna bundan foydalanib, dumalab, umbaloq oshib, g'ozlarga yaqinlashib kelaverdi. Shunda, hami-sha ziyrak nar g'oz tulkining hiylasini bilib qoldi, ammo hech nima bilmaganday, go'yo hech qanday xavf yo'qday, astagina ovoz chiqarmaygina ketiga tisarildi. Ketidan boshqa g'ozlar ergashdi.

Tulki ahmoq bo'lib, shamol uchirgan bir boylam beda misol dumalab, umbaloq oshib kelaverdi. Xo'p qiziq bo'ldi. Nar g'oz tulkining makriga uchmay, tobora keyiniga tisarilib ketaverdi.

Bir necha daqiqacha shunday o'yin bo'ldi, g'ozlar ketiga tisarilib boraverib, dala chetiga borib qoldi. Ular uchib ketmoqchi bo'ldi, butalarga qarab yana bir-ikki qadam bosdi. Shunda Domino butalar orasidan qirg'iyday uchib chiqib, nar g'ozni qimirlatmay, bo'ynidan g'ippa bosdi.

Bu Domino bilan Oqsiynaning eng yaxshi ovi bo'ldi. Bu sheriklik ovi ularni yanada jipslashtirdi, ular yanada yelkama-yelka bo'lib, yashash uchun kurashdi.

XVII. QO'YLARNING SHO'RI

Bu yilgi qish oldingilaridan ancha yaxshi o'tdi, Domino bilan jufti bir vaqtlar g'amlab qo'ygan oziq-ovqatlarini yeb, qishni o'tkazdi, to'g'ri, ko'mib qo'ygan meva-yil-baliqlari qishgacha sasib ketibdi, shunday bo'lsayam



ularni zo'rg'a ijirg'anib yeb, qishdan chiqib oldi. Muhabbat oyi oxirlab, bahor yaqinlashib qoldi, bir kuni Domino qirdan oshib o'tib iniga qaytayotib, jirkanch bir yovuzlik guvohi bo'ldi. U endi tajribali tulki bo'lib qoldi, tajribali tulki esa hech qachon qirning naryog'iga bir qarab olmay turib, undan oshib o'tmaydi. Domino ham bir cho'qqidan avaylab boshini ko'tarib qarab, qo'tonda tentaklarcha uyoq-buyoqqa chopayotgan qo'ylarni ko'rdi. Qo'ylarni bir barzangi qora it quvib yurardi. Bu Dominoning eski g'animi Gekla edi.

Domino qo'tonda o'lib yotgan ikkita-uchta qo'yni ko'rdi, it yana birovini bo'g'izlab yotqizdi. It qo'ylarni bitta-bittalab bo'g'zidan olib yerga yotqizib, g'ajib tashladi. Yaralardan iliq qon otildi. So'ng, boshqa qo'ylarga yopishdi.

Domino qo'rquvdan emas, hayrat ham qiziqqonlikdan joyida qotib qoldi. Gekla navbatdagi qo'yni quvib borayotganda o'q ovozi jarangladi. O'q yovuz hayvonning boshi uzra uchib, qoyaga borib tegdi. Qonxo'r it taqdiri nima bo'lishini bilib, darhol jarga sakradi, jar ichidan ko'zga ko'rinmay, jon-jahdi bilan pusib qochdi. Endi uning ustidan hech kim egasiga arz qilolmaydi, chunki uni hech kim ko'rmay qoldi.

Domino ham dalani kesib chopdi, ammo sho'ri qisib, ko'zga chalinib qoldi. Qo'ycho'pon qo'tonga yugurib kelib, qo'ylar o'ligini ko'rdi, ammo itning izini ko'rmadi, chunki itning izlarini qo'ylar uyoqdan-buyoqqa yuguraverib toptab tashladi. Baloga Domino qoldi. Shundoq ham ko'p qo'ylar qirilib ketib, qo'ycho'pon tulki zotidan yanib, ulardan o'ch olish uchun yovuzona reja tuzib yurardi.

Avval-avval uning niyatiga juda kam odam qo'shildi. Mart oyida esa yana bir nechta qo'y-qo'zilaridan ajralib qoldi. Shunda birovlar, mash'um voqea sodir bo'lgan



joyda itning izlarini ko'rdik, deyishdi. Ammo ko'pchilik bu tulkining ishlari deb o'ylab, tulki ovlashga jon-tanlari bilan rozilik berdi. Ular bu yovuz ofat – o'sha qora-qo'ng'ir tulkidir, degan xulosaga keldi.

XVIII. OQSIYNANING XALOSKORI

Shoban daryosining yuqori oqimida yashovchi jami-ki ahli el oyoqqa turdi. Tulkilarga qarshi yalpi yurish boshlandi. Odamlar qo'ylarini bo'g'izlab ketayotgan yovuz tulkini yo'q qilish oviga otlandi. Yoshlar bu ovni qiziqarli sport deb bildi. Qora-qo'ng'ir tulkining ajoyib mo'ynasi mukofotga qo'yildi, bu barchaning e'tiborini tortdi.

– Mo'ynani ololsam, pulini nima qilishni o'zim bilardim, – dedi birov.

– Bir ovda butun fermamizga yetadigan pul ishlab olsak yomon bo'lmasdi, – dedi yana birov.

– Men qora mo'ynaning puliga yaxshi bir juft ot sotib olardim, – orzu qildi yana birovi.

Jukslar oilasi bu ovda ishtirok etmadi, chunki ularning birortayam qo'yi yo'qolmagan, buyog'i Bentonlar bilan sozi kelmaydi. Abner Juks boshqa bir ov bilan mashg'ul bo'ldi, uning Gekla itiyam egasi nima qilsa shuni qildi.

Amerikalik fermerlar tulki ovi vaqtida ularning mo'ynalarini buzib qo'ymaslikka intiladi. Shu sababliyam yigirmata ovchi bor-yo'g'i bir gala it ergashtirib ovga chiqadi. Mart oyi ertalaridan birida ovga yo'l olgan ovchilar ham shunday qildi.

Odatda, tulkilar har yili yangi in quradi, bordi-yu, eski inlari tinch, bexatar bo'lsa, o'sha yoqqa yana qaytib ham ketadi. Domino bilan Oqsiynaning tog' teraklar orasidagi ini ham shunday bo'lib, ularning o'ta ziyrakligi



tufayli bu inni hamon hech kim bilmaydi, shu boisdan ham mart oyi kelishi bilan endi tug'ilajak bola-chaqalari uchun ana shu eski inni tuzatib, risolaga keltira boshladi.

Eski inlarini tuzatib bo'lib, uni begona ko'zlardan nihoyatda ehtiyot qildi. Uylariga avaylab kirib, avaylab chiqib, ov qilsalar ham inlaridan uzoqroqda ov qildi.

Yalpi yurish boshlanganda Oqsiyna daryoning yuqorigi oqimida tentirab yurardi. Itlar uning izini olib, shu zahotiyog hurishib quvib ketdi. Odatda fermerlar itlarining ketidan chopmaydilar. Ov boshida tevarakatrof ko'rinadigan bir balandroq joyga chiqib olib, ov qayerda bo'layotganini itlarning hurishidan bilib turadi, qulayroq biron-bir do'nglik yo adirlar oralig'idagi torroq yerga joylashib olib, bordi-yu, tulkilar o'tib qoladigan bo'lsa, otishga shaylanib turadi.

Ovchilar hozir ham shunday qildi, itlarining hurishini eshitib, ular qaysi tarafga qarab ketayotganini bilish uchun eng baland bir joyga chiqib olib, otishga qulay yerlar tanladi.

Oqsiyna itlarning ovozi eshitibog gap nimadaligini bilib oldi va pastlab, Bentonlar soyiga qarab chopib ketdi. Soyda sinib, yumalab yotgan daraxtlardan soyning goh uyog'iga, goh buyog'iga borib kelib, itlarni chalg'itmoqchi bo'ldi, izlarini yo'qotib, itlardan olisroq ketish uchun jon-jahdi bilan chopdi. Quruqchilik bo'lganda-ku, izlari allaqachon yo'q bo'lib ketardi. Peshonasiga shu kuni iliq shamol esib, yerdagi qalin qorlar erib boshladi. Soy shovullab oqdi, qor bilchillab erib, tulkining oyoqlari botib qolaverdi. Itlar yangigina izlar ketidan tushdi. Itlarning uzun oyoqlari bilchillagan qorda tulki oyoqlaridan yaxshiroq yurdi.


Oqsiyna borgan sayin sekinlab bordi, itlar bilan oralasidagi dastlabki olis masofa daqiqa sayin kamayib



bordi. U hali-hozircha ovchilarning o'qiga yo'liqmadi, ammo quvg'in shunday davom etaversa, yo'liqib qolishini ham angladi. Buyog'i kun borgan sari qizib, qor yanada eridi, dumi shalpayib, qorda sudrala boshladi.

Tulkilarning dumi ularga ko'p falokatlar olib keladi, dumlarining qay vaziyatda turganligiga qarab, kuchli tulkimi yo kuchsiz tulkiligini bilib olsa bo'ladi. Kuchli, dovyurak tulki quvg'inga uchraganida dumini yuqoriga ko'tarib oladi. Bordi-yu, tulki tushkunlikka tushib qolsa, unda, dumi osilib qoladi, ayniqsa, yog'in-sochinchiliklarda shalabbo-ho'l bo'lib, battar shalpayib qoladi. So'ng suv va loylar ilashib, og'irlashib qoladi, oqibat, tulki yaxshi chopolmay, qo'lga tushib qoladi. Shu boisdan ham kuchli tulki ko'p yashaydi, kuchsiz tulki darrov qo'lga tushadi.

Oqsiyna dovyurak tulki emas, deyolmaymiz, gap shundaki, qalin qor haddan ziyod eriy boshladi, bundan tashqari, u yana bir-ikki kundan keyin farzand kutayapti. Shu boisdan ham yaxshi chopolmay, dumi osilib qolayapti. Buyog'i yetmaganday, ingichka shox-shabbalar ustidan to'lib-toshib oqayotgan soyning naryog'iga o'tishga majbur bo'ldi. O'tayotib, toyib ketib suvga yiqilib tushdi. Suvdan ko'p o'tmay chiqib oldi, ammo shalabbo bo'lib suvga botib, ahvoli yomonlashdi. Bor umidlari ro'yo bo'ldi. Holdan toyib, shu yaqindagi adirga yetib keldi, jon achchig'i, bor ovozi bilan yo'qlab uvilladi. Shunda, uzib-uzib, dadil-dadil uvillagan aks sado eshitildi, keyin Domino shiddat bilan o'qday uchib keldi. Oqsiyna unga boshiga ne-ne qora kun tushganini aytib berolmadi, aytib nima ham qilardi. Domino shunday ham hamma gapga tushundi, eng yaqin birodari qiladigan ishni qildi. Barcha xavf-xatarni bo'yiniga olib, Oqsiynani quvib kelayotgan itlarga qarab chopdi. Domino bu ishi bilan o'zini qurbon qilmaydi, yo'q,



u bor kuchini yig'ib, itlarni boshqa yoqlarga ilakishtirib olib ketadi. Shunda, itlar uni quvish bilan ovora bo'ladi. Oqsiyna esa bermalol uyiga yetib oladi.

XIX. JASORAT SINOVI

Shunday qilib, Domino itlar tarafga yarim milcha chopib kelib to'xtadi. Itlar galasigacha juda yaqin, bor-yo'g'i uch yuz qadamcha qoldi. Itlar yanada yaqin keldi, oralarida endi ikki yuz qadamcha qoldi, Domino shundayam joyidan qimir etmadi. Nihoyat, ketiga burilib, Oqsiynaning izidan yo'l oldi. Ammo hamon shoshmadi. Nega? Yo itlarning qayoqqa qarab chopayotganini o'z ko'zi bilan ko'rib, ishonch hosil qilmoqchi bo'ldi, yo bo'lmasam, o'zini itlarga ko'rsatmoqchi bo'ldi. Bordiyu, o'zini ko'rsatmoqchi bo'lgan bo'lsa, ana, ular bir-birlarini ko'rdi. Itlar quloqni qomatga keltirib vovulladi, Oqsiynaning izini tashlab, hozirgina bir ko'rinib g'oyib bo'lgan Dominoning izidan quvib ketdi. Itlarga ham tan berish kerak, chunki ular hozirgina bir tulki yurgan joyda boshqa bir tulkining hidini sezib qolib, garchi bu avvalgi urg'ochi tulki emas, balki zabardast bir erkak tulki ekanini bilsa-da, baribir erkagining izidan quvib ketdi. Ko'ngil mayllari shuni buyurdi.

Domino avval-avval itlar uning ketidan kelayotganini bilish uchun asta-asta chopdi. Itlarga atayin yana bir marta ko'rinib, ular, haqiqatan ham, uni quvib kelayotganiga ishonch hosil qildi. Shundan keyin itlarni Oqsiyna uyiga qaytayotgan yo'ldan boshqa tarafga burib olib ketdi.

Domino ochiq bir yerni kesib o'tayotib, ovchilar durbiniga tushib qoldi. Ovchilar itlar qora-qo'ng'ir tulkinini quvib kelayotganini ko'rib, o'zlarida yo'q xursand bo'ldi. Ular bu yerlarni uning har bir so'qmog'ini juda



yaxshi biladi. Shu vaqt o'q ovozi gumburladi. Domino tanasida o'tkir bir og'riq sezdi. Biqiniga sochma o'q kelib tegdi, unchalik katta yara qilmadi, ammo ancha og'ritdi. U ovchilarning o'zini ko'rmadi, ammo kimlar bilan olishayotganini bilib qo'ydi.

Domino hozir dalani kesib chopadi, deb o'ylash mumkin, ammo u unday qilmadi, endi qanday qilib bo'lsayam yuqorilab chopish lozimligini tushunib yetdi. Uch milcha yo'l bosib, dalaga qarab keskin burildi va temir yo'l yoqalab olti milcha chopib bordi. Temir yo'l milidan o'tib, yana bir milcha yo'l bosib, itlarni orqada qoldirib ketdi. So'ng, temir yo'l bo'ylab yana mil oldiga qaytib keldi, mil yonidagi shox-shabballarni oralab, boshqa yoqqa qarab ketdi. Izlarini ana shunday chalkashtirib tashlab, bemalol uyiga yo'l oldi, holdan toyib, yarasi zirqirab og'ridi, ammo dumini g'olibona ko'tarib chopdi.

U Shoban daryosining yuqori oqimidan chopib o'tdi, qorni ochib, bekiteb qo'ygan ovqatlarini topib yeyish uchun o'rmonga burildi, birdan yana itlar ovozi eshitib, yuragini vahima bosdi. Adirni aylanib o'tib, oldingilardan butunlay boshqa o'ttiztacha itlar galasini va ularning izidan kelayotgan otliq ovchilarni ko'rdi. Itlarning qahrli vovullashiga qaraganda ular allaqachon uning izidan quvib kelayotganga o'xshaydi. Boshqa payt bo'lganda itlardan allaqachon qutulib ketardi, afsuski, hozir kuchlar baravar emas.

U charchadi, u ochqadi, soatlab yuguraverib, oyoqlari zir qaqshadi, yarasi yondi, u dam olgisi keldi. Bu chinakam, miltiqsiz ov bo'ldi, mo'yna uchun emas, tulkini itga talatish ovi bo'ldi. Uni bu safar quvib kelayotganlardan butunlay qochib qutulib ketish uchun bor kuchini sarflab chopmayapti, deb bo'lmaydi.



Domino bu adirlarni uncha yaxshi bilmaydi, chunki bu adirlar u yuradigan yerlardan xiyla olisda joylashgan bo'lib, buyoqlarga uning yo'li tushmagan. Hozirgina yurgan adirlari bir necha mil keyinda qolib ketdi, biladi, o'sha adirlar orasida miltiqli ovchilar bor, ular itlarning xizmatidan xursand bo'layapti. Domino shuncha quvg'inlarga duchor bo'lib, hozirgiday kam hiyla ishlatib, ko'p kuch sarf qilib, shiddat bilan yugurmagandi. U soatlab yugurib, bir adirdan ikkinchi adirga oshib o'tdi.

Kun tobora qizidi, o'rmondagi qorlar erigandan-erib, yer shilta loy bo'ldi. Zovurlar muzday sovuq suvga to'ldi. Jilg'alar toshib oqdi. Hatto toshday muzlar ustida ham ko'lmaklar hosil bo'ldi. Dominoning jasurlik bayroqchasi bo'lmish paxmoq dumi balchiq suvda shilta bo'lib, og'irlashib osilib qoldi. Domino yana avvalgiday itlarni sulayib qolguncha yugurtirmoqchi bo'ldi, ammo bu safar kech kirishini kutdi. Tun sovuq olib keladi, sovuq esa qor ustini qatqaloq qiladi. Keyin u o'z taqdiridan xotirjam bo'lsa bo'ladi.

U hamon adirlar oralab chopdi. Beqiyos shiddati yarim baravar pasaydi, itlar ham holdan toya boshladi. Qor va toshib oqayotgan jilg'alar ovchilarniyam holdan toydirib qo'ydi. Faqat itlarning egasi bilan Abner Juks degan novcha bola hali bardam bo'lib, quvishda davom etdi. Ovchilar orasida faqat ana shu Abnergina quvib borayotgan tulkilari bu o'sha Golder adirlarining qora-qo'ng'ir tulkisi ekanini biladi.

Borgan sayin itlarning qo'li baland kelib, Dominoga yaqinlashib qoldi. Domino endi izini chalg'ita olmay, to'g'ridan-to'g'ri chopishdan boshqa iloji qolmadi. To'g'riga, faqat to'g'riga chopdi, ammo qadamlari tobora torayib, sekin-asta chopdi, halloslab-halloslab nafas oldi. U fermadan-bu fermaga o'tib chopdi, uchinchi



fermaga kelganda darvoza oldida savatcha ushlab turgan bir qizaloqqa ko'zi tushdi.

Jon talvasada qolgan yovvoyi hayvonlarni odamzodan panoj so'rashga nima undaydi, buni bilib bo'lmaydi. Hozir ham shunday bo'ldi, Golder tulkisi holdan toyib, qizaloqqa sig'indi, uning oyoqlariga suykaldi. Qizaloq tulkini ko'tarib olib, uyga olib kirdi, jazava bilan chopib kelgan itlarning tumshug'iga sharaq etkizib eshikni yopdi.

Itlar jazavasi tutib akilladi.

Otliq ovchilar, ketidan ferma xo'jayini yetib keldi.

– U bizning tulkimiz, itlarimizning tulkisi. Chunki itlarimiz uni shu yerga quvib kelib qamadi, – dedi bosh ovchi.

– U mening uyimda turibdimi, demak, u mening tulkim, – dedi fermer, qizil loyga belangan bu qochoq tulki mashhur qora-qo'ng'ir tulki ekanligini bilmasdan.

Fermer ko'p tovuqlarini yo'qotib, tulkilardan xo'p ozor chekkan bo'lsa-da, bu tulkini olib qolishga unchalik ham ishtiyoqmand bo'lmadi, boisi, uning mo'ynasi buzilib, qimmatini butunlay yo'qotib qo'yganday tuyuldi.

– Mayli, sizniki bo'lsa, ola qoling, – dedi u nihoyat. Shunda qizaloq yig'lab yubordi.

– Uni bermang, uni bermang, u mening tulkim! – qichqirdi qizaloq. – Uni o'ldirishga haqqingiz yo'q!

Fermer o'ylanib qoldi.

– Biz unga yomonlik qilmaymiz, – tinchlantiruvchi ohangda gapirdi ovchi. – Biz uning bu yerlardan olisroqqa ketishiga yordam beramiz.

Fermer ko'rmayin ham, kuymayin ham deya ketib qolmoqchiyam bo'ldi. U jon saqlash uchun panoj izlab kelgan bechora jonivorni unutib tashlab ketgisi keldi, ammo: «Haqqingiz yo'q, haqqingiz yo'q! U mening



tulkim! Ota, ota deyman! Ular uni o'ldirib qo'yadi! Ota deyman!» – deya go'dakona yalinib-yolvorayotgan qizalog'ini tashlab ketolmadi.

Qizaloqning go'dakona iltijosi otasining ham, ovchilarning ham ko'nglini o'yib yubordi.

XX. DARYO BILAN TUN

Ovchilar baribir Dominoni olib ketdi, «qonuniy» chorak milni chopib o'tsin deya yana qo'yib berdi. Shundoq ham azob chekkan tulki izidan «adolat yuzasidan» o'ttitztacha baquvvat itni qo'yib yubordi! Darani yana itlar ovozi bosdi. Domino yana qalin va shilta qor oralab chopdi, ancha o'zib ham ketdi.

U Bentonlar soyi yoqalab ketgan uzun daradan chopib o'tdi, adir yonbag'ri bo'ylab yurib, cho'qqilaridan ham oshib o'tdi, endi orqasiga qaytmoqchi bo'lib edi, shunda, o'sha la'nati Gekla bir ferma hovlisidan otilib chiqib, uni quvib kelayotgan itlarga qo'shilganini ko'rib qoldi. Novcha ovchi Geklani xushchaqchaq hayqiriq bilan kutib oldi. G'animplari uchinchi bir yangi kuch bilan boyidi, Domino endi ulardan qanday qilib qochib qutuladi? U endi yolg'iz bir nimadan umid qildi: tezroq kech bo'lsa, kech bo'lgandayam sovuq bo'lsa.

Afsuski, kechga borib havo iliq bo'ldi. Shoban daryosi kuni bilan esgan iliq shamoldan qirg'oq-qirg'oqlarigacha to'lib-toshib oqib, qudratli va keng girdoblarida muzlarni tarsillatib yorib, g'arbga qarab oqizib ketdi.

Kun suv yuzlari uzra alvonlanib-alvonlanib bota boshladi, lovullab yonayotgan alvon ufq bir kunlik hayotning ramziy yakuni bo'ldi. Ammo itlar ham, ovchilar ham kunbotar chiroyidan zavq olish uchun to'xtamadi.

Ular olg'a, faqat olg'a intildi.



Itlar halloslab, tillari yerga tekkuday osilib qoldi, ko'zlari qonga to'ldi. Itlarning oldida to'satdan kelib qo'shilgan baquvvat maxluq Gekla chopdi, undan ham oldinda qora-qo'ng'ir tulki chopdi. Tulkining momiq mo'ynasi iflos bo'ldi, paxmoq dumi balchiqqa belanib, sudralib yurdi, qontalash bo'lib ketgan oyoqlaridan qonli izlar qoldi.

Domino umri bino bo'lib bunday charchamagan edi. Shunga qaramay bir amallab tosh karnizga olib boradigan so'qmoqqa tushib oldi. Uning ini aynan shu so'qmoq yoqasida edi. Shu sababliyam ko'nglining tub-tubidan bir nido «uyoqqa borma» dedi. Ammo Domino boshqa boradigan joyi yo'qligi uchun noiloj qolib, shu so'qmoqdan yo'l oldi. So'nggi kuch-qudratini to'plab, shiddatli Shoban daryosi bo'ylab chopib ketdi. Xiyol o'tmay, yana avvalgiday tezlikda chopa boshladi, shunday tezkorlikda chopaversa hademay qutulib ketardi, ammo yana o'sha barzangi Gekla itlardan o'zib yetib kelib qoldi.

Domino qoyaga yaqin qolganda Gekla vovullab hurdi. U itning dahshatli, temir ovozini darrov tanib, bo'shashib qoldi. Endi uning qoyaga boradigan yo'li ham yopilib, botayotgan kun nurida shovullab oqayotgan daryo yoqalab iziga qaytishga majbur bo'ldi. Bor umidlari barbod bo'ldi, shunday bo'lsa-da, to'xtovsiz chopdi, gavdasi oldinda uyoqdan-buyoqqa chayqalib, g'ira-shira qorayib ko'rinib chopdi. Uning joni halqumiga keldi, ammo hayot uchun kurashdi.

Ovchilar orqada qolib ketdi, novcha ovchi bir o'zi qolib, Dominoni quvib kelaverdi. U bildi, tulkining kuni bitdi, botayotgan quyosh nurida ko'zni qamashtirayotgan qorda chopib borayotgan ikkita qora nuqtadan qolmay ot qo'yib boraverdi.



Dominoning quloqlari ostida itlarning tantanali hurishi jaranglab turdi. Uning tinka-madori quridi. Uning g'ururi va chiroyi bo'lmish paxmoq dumi endi havoda hilpiramay qo'ydi, ho'l va og'irligidan shalpayib, yerda sudralib qoldi. Unmayotgan qadamini battar undirmadi. Itlar g'alaba yaqinligini ko'rib, jon-jahdlari bilan hurib chopdi.

Domino shunda... hay attang-a!.. Domino shunda daryoga yarim orol tarzida kirib borgan nishablikdan yo'l oldi. Bu tuzoq degan gap edi. Ha, daryo uni yo'ldan urdi. Itlar galasi yetay-yetay deb qoldi. Hammadan oldinda qahr-g'azab bilan bo'g'ilib hurib, Gekla yelib keldi. Domino ketidan akillab quvib kelayotgan itlar galasiga, so'ng muzlarni oqizib oqayotgan keng daryoga qaradi. Orqada ajal kelayapti, oldinda ajal qarayapti. Bunday vaqtda ojizlar ruhan cho'kib, nobud bo'ladi, zo'rlar dadil bo'lib, olishadi.

Gekla boshliq akillak itlar nishablikka yetib kelib, undan o'qday uchdi. Tog'terak sohilli daryo hayqirib oqdi. Itlar daryo sohilini daryo ichidagi muzlar kabi qopladi. Daryodagi muz bo'laklari tobora zich bo'lib oqdi, borib-borib bir yaxlit bo'lib, qars-qurs qilib qirg'oqqa kelib urildi. Ana shunda Domino uncha-muncha tulkinining yuragi dov bermaydigan bir ish qildi. U avval itlarga, keyin muzga qaradi, so'ng... muzga sakradi. O'zini muz ustida ko'rib, u muz bo'lagidan bu muz bo'lagiga sakrab yurdi.

Shunda tirband muz ko'chkilari sinib, yana oqa boshladi. Ko'chkilar bilan sohil orasi ochilib, tobora kengayib bordi. Domino daryo o'rtarog'ida oqib borayotgan muz bo'lagi ustida xuddi oppoq egarda o'tirganday cho'ngayib o'tirib oqdi. Qahr-g'azabga to'lgan itlar nima qilishini bilmay, sohilda turib qoldi. Gekla o'zini tutmay muzlar ustiga o'zini otdi, ammo g'animi chi-



qib olgan muz allaqachon ajralib, olislab ketdi. Tezoqar, beshafqat daryo it sakrab tushgan muzniyam oqizib jo'nadi. Shunday qilib, qochib borayotgan tulki ham, quvib kelayotgan it ham ajal sari oqdi. Ular botayotgan kun yorug'ida oqdi, bir to'da it bilan otliq bola sohil yoqalab ularning izidan chopdi.

Shunda qayerdandir, qandaydir bir fermer kelib qolib, tulkini otmoqchi bo'lib nishonga oldi, ammo novcha bola uning qo'lidagi miltiqni urib tushirdi va o'zidan-o'zi: «Ur-a-a!» – deb qichqirib yubordi. Itlar nogoh ovozdan ajablanib qoldi. Daryo burilib, Xarney sharsharasiga yaqin qolganda keng yoyilib oqdi, ana shunda muzlar tezkorlik bilan oqdi. Novcha bola bilan itlar to'xtab, alvon ufqqa, ikkita jonivorni oqizib ketayotgan sermuz, qirmizirang daryoga tikilib qoldi. To'lib-toshar daryo uzra tuman paydo bo'ldi, kunning so'nggi nurlari tumanni yorib o'tib, daryoni, undagi muzlarni va qoraqo'ng'ir tulkini oltin rangga beladi, bora-bora alvon nurlar so'nib qoldi.

Dovyurak tulkimiz olis muz ustida ajalga tik boqib oqdi, miq etgan ovoz bermadi. Ayni vaqtda shamol ajal girdobida oqib ketayotgan Geklaning ayanchli uvilashini sohilga olib keldi.

– Alvido, birodar! – dedi ovchi bola. – Alvido, bebaho itim! – bolaning ovozi buzildi. – Alvido, qoraqo'ng'ir tulki! Sen g'oliblarcha yashading, g'oliblarcha o'layapsan! Men sizlarni qutqarib qolsam degandim, ammo bo'lmadi, sizlar mardlarcha o'layapsizlar, alvido endi!

Abner hech nima ko'rmay qoldi. Sohildagi itlar zir qaqshab g'ingshidi.

Oqim narigi sohil yaqinida keng girdob hosil qildi. Girdob muzlarni aylantirib-aylantirib, daryo o'rtasiga surib yubordi, daryo o'rtasidagi muzlarni esa sohilga



olib keldi. Domino ana shu vaziyatdan foydalandi, bor kuchini to'plab, sohilga sapchidi. Qop-qora oqimdan oshib, yerga borib tushdi. Daryo uni yoshligidayam ba-loyi ofatlardan asrab yurardi, mana, yana asrab qoldi.

Keyinda shiddat bilan oqib kelayotgan muz bo'laklari orasidan Gekla o'lim talvasasida uzib-uzib uvilladi. It-ning uvillashini suvning shovullashi bosib ketdi.

YOVVOYI YO'RG'A

I -

Jo Kalon egarni yerga qo'yib, otga erk berdi-da, shporlarini jingirlatib uyga kirdi.

- Tushlik nima bo'ldi? - so'radi u.

- Yana o'n yetti minutdan keyin, - javob berdi oshpaz, stansiya boshliqlari kabi soatiga jiddiy qarab. Oshpaz og'izda juda tayin gapirar, amalda esa betayin edi.

- Xo'sh, Perikoda ishlar qalay ekan? - so'radi o'rtog'i Skrat.

- Zo'r! - dedi Jo. - Gala yaxshi, toylar ko'p. Mustanglar¹ galasiniyam ko'rdim, Jayron bulog'iga suvlagani borar ekan. Ichida ikkita toychog'iyam bor. Jajji, qop-qoraginasini tug'ma yo'rg'a ekan. Ikki milgacha quvib borsam ham oyoqlari aqalli biron martayam chalishmadi-ya. Ermak uchun jo'rttaga yana quvdim, u baribir yo'rg'asidan adashmadi!

- Yo'l-yo'lakay qittay otib olmadingmi? - o'smoqchilab so'radi Skrat.

- Hamma gapirsayam sen gapirmasang bo'lardi, Skrat! O'tgan safar to'rt oyoq bo'lib emaklagan kim edi? Sen emasming?

- Tushlik qilinglar! - jar soldi oshpaz. Gap bo'linib

qoldi.



Yovvoyi ot.



Kovboy¹ ertasiga o'zga yaylovlarga o'tib ketdi. Shu bilan yovvoyi otlar hammaning esidan chiqib ketdi.

Kelasi yiliyam galani Nyu-Meksika shtatining ana shu yayloviga haydadilar. Kovboy o'sha yovvoyi otlar galasini yana ko'rdi. O'sha qora toychoq adl oyoqli, keng sag'rinli ot bo'пти.

Kovboylar ko'pchilik bo'lib nazar solib, qora ot chindan ham tug'ma yo'rg'a ekaniga ishonch hosil qildi. Jo ham shu yerda bo'lib, uning xayoliga, shu otni ushlab olsam ziyon qilmasdi, degan fikr keldi. Sharqiy shtatda yashovchi odamlar shunday niyat qilsa ajablanmasayam bo'ladi, ammo ot arzon G'arbda yovvoyi otlarga hech kim e'tibor bermaydi. Avvalo, uni ushlash oson emas, bordi-yu, ushlagan taqdirda ham yovvoyi ot umrining oxirigacha sarkash, besamar, yovvoyiligicha qoladi.

Ko'p podachilar yovvoyi otlarni otadi. Boisi, ular na-faqat yaylovlarni tepkilab, bulg'ab ketadi, yana-tag'in uy otlariniyam yo'ldan urib, ergashtirib ketadi. Oqibat, uy otlariyam tez orada yovvoyilashib qoladi.

Jo Kalon otni, uning fe'l-atvorini binoyiday biladi. U shunday deydi:

– Men haligacha yuvosh emas bo'z otni ko'rganim yo'q. Asov emas to'riqniyam ko'rmadim. Agar qora to'riqni yaxshilab minib o'rgatsa, undan baraka topsa bo'ladi. Ammo-lekin qora ot eshakday o'jar, itday qahr-li keladi. Qora otda tirnoq bo'lsa, arslonniyam gumdon qiladi!

Demak, yovvoyi ot butunlay foydasiz hayvon, qora yovvoyi ot undan ham o'n baravar foydasiz ekan.

Jo shu yili biron ishniyam amalga oshirolmadi. Boisi, u oddiy galachi bo'lib, oyiga yigirma besh dollar-olar, bekor vaqti juda oz edi.

¹ Otliq podachi.



U ko'pgina kovboy o'rtoqlari kabi qachondir ferma sotib olishni, shuningdek, o'z xususiy galasi bo'lishini orzu qilardi. Uning Santa Feda risolaga solingan tamg'asi bor, u yakka-yu yagona qoramolining sag'risiga bosilgan edi. Keyinchalik Jo o'z tamg'asini har qanday tamg'asiz hayvonlarga bosish huquqiga musharraf bo'ldi. Kuzda hisob-kitob qilib ko'rib, «shaharni aylanish» istagidan o'zini tiyolmadi. Shu boisdan ham uning bor-yo'g'i egar, to'shak hamda qari sigirdan iborat bo'lib qoldi. Biroq u tushkunlikka tushmadi, qachonlardir «biror narsani amalga oshirib» birdan boyib ketaman, deb yurdi. Qora yo'rg'ani ko'rgach, shu menga baxt keltiradi, deb o'yladi, uni qo'lga olish uchun qulayroq payt poyladi.

Biroq Jo Kanada daryosi bo'ylab yo'lida davom etib, kuzda Don-Karlos do'ngliklariga qaytib keldi. Garchi yovvoyi yo'rg'a haqida ko'p eshitib yursa-da, lekin o'zini ko'rmadi. Bu orada ikki yoshlik qora yo'rg'aning dong'i o'lkaga ketdi.

Jayron bulog'i yuza yalanglikdadir. Buloq oqib bo'rib, tevaragi qiyoy o'tlar bilan o'ralgan maydagina ko'lga aylanadi. Ko'l suvi ozayganda gir aylanasi loyning tilim-tilim qop-qora, yirik tasmalari qoladi, ayrim yerlarida oppoq tuz dog'lari yaltirab turadi, chuqur joyida esa oqmasa-da, ichsa bo'ladigan toza suv qoladi. Yaqin atrofdan shu hovuzdan boshqa suv yo'q. Hamisha mollar hamda uy otlari o'tlaydigan ana shu yalanglik qora toychoqning ko'ngil qo'ygan yayloviga aylandi. Yaylovda asosan «l, f» harflari ayqash tamg'alangan mollar o'tlaydi.

Ushbu ferma sohibi Foster juda uddaburon odam. U yaylovda zoti yaxshilangan uy hayvonlari boqilsa, kirim ko'payishini yaxshi biladi. Uning qaramog'ida o'nlab ulkan pishiq tanli, ohu ko'z chalazot baytallar bor. Serjun otlar ularning oldida g'arib tanivorlar bo'lib qoladi.



Ana shu xushqomat baytallarning birovini kundalik yumushlar uchun hamisha otxonada qoladi, qolgan to'qqizi toychoqlarini emizib bo'lib, o'z erkida o'tlab yuradi.

Ot hamisha sero't yaylovni topadi. To'qqiz baytal ham o'z fermalaridan yigirma mil janubdagi Jayron bulog'ini topdilar. Yoz kelib, Foster bir o'rtog'i bilan baytallarni qidirib topdi. Baytallar orasida ko'mirday qop-qora toy yurardi. Toy baytallarni gir aylanib, ularga homiylik qilar, ayni vaqtda hech qayoqqa ketgani qo'ymasdi. Toyning qop-qora tani baytallarning oltinrang tanasidan keskin ajralib turardi.

Yuvosh fe'lli baytallar egalaridan qo'rqib, o'z fermalariga qochib qolmoqchi bo'ldi. Shunda, birdan qora toychoqning qahri keldi. U yovvoyi fe'lini baytalarga ham yuqtirdi shekilli, baytallar fermadan kelgan beso'naqay otlarni xiyla keyinda qoldirib, qora toyning ketidan chopib ketdi.

Bu voqea otliqlarning qonini qaynatib yubordi. Ular «la'nati toy»ni otib tashlaymiz, deya qo'llariga qurol oldi. Biroq to'qqiz baytal orasidan bitta toyning o'zini qanday qilib otib bo'ladi, o'q baytallarga tegib ketmaydimi?

Uzun kun besamar o'tdi. Yovvoyi yo'rg'a, ha, o'sha yo'rg'a o'z panohidagilarni qo'yib yubormadi, ular bilan janubiy qum tepaliklar aro ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Ta'bi tirriq bo'lgan galachilar o'z omadsizliklari aybdoridan o'ch olishni ko'ngillariga tugib qo'yib, holdan toygan otlarida uylariga jo'nadi.

Ular baytallar hademay xuddi o'sha toydek yovvoyilashib ketishini juda yaxshi bilardi.

Qop-qora yolli, ko'kko'z ulkan qora ot butun o'lka bo'ylab zo'ravonlarcha kun kechirdi, turli-tuman joylardan baytal haydab kelib, o'z safini kuchaytirdi, galasini kam deganda yigirma boshga yetkazdi.



Yovvoyi yo'rg'aga ergashib kelgan baytallar-ning ko'pi g'arib, abgor bo'lib, zotli to'qqiz baytalgina o'zlarining bo'y-basti bilan alohida ajralib turadi.

Yovvoyi yo'rg'a galani shunday ishtiyoq hamda rashk bilan qo'riqladiki, galaga qo'shilgan har qanday baytal umrbod ketolmaydigan bo'lib qoldi. Galachilar o'z o'lkalariga kelib qolgan bu yovvoyi yo'rg'a hali ko'p ziyon-zahmatlar keltirajagini payqab qoldi.

II

Bu voqea 1893-yilning dekabrda bo'ldi. Fermaga kelib tushdim-u, yo'lovchi soyabon aravada Kanada daryosi bo'yidagi Pinyavetitosga jo'nadim.

Foster men bilan xayrlashayotib, shunday dedi:

– Menga qarang, bordi-yu, la'nati yo'rg'aga duch kelib qolsangiz, ayamay otib tashlang.

Yovvoyi yo'rg'a haqida ilk bor eshitgan gapim shu bo'ldi, yo'lda esa yo'l boshlovchim Bernsdan yo'rg'aning kechmishini bilib oldim. Dong'i ketgan yo'rg'ani juda-juda ko'rgim keldi, ertasiga Jayron bulog'iga borib, haf-salam pir bo'ldi, sababi, u yerda yo'rg'aning ham, gala-niing ham daragi yo'q ekan.

Ammo ertasi kuni Alamoza daryosi orqali yana tepalikdor yalanglikka kelganimizda, oldinda bora-yotgan Jek Berns birdan otining bo'yniga engashib oldi, menga o'girilib, shivirladi:

– Qurolingizni oling! Ana ayg'ir!

Men qurolimni qo'limga olib, oldinga intildim. Past-dagi soylikda otlar galasi o'tlab yuribdi, ulkan qora yo'rg'a gala yonida turibdi.

Qora yo'rg'a bizning havomizni oldi shekilli, sergak tortdi. Avval boshini, keyin dumini ko'tardi, burun ka-faklani kengaydi.



Ko'zinga yo'rg'a otlarning oti, dashtlarda chopib yurgan jamiki otlarning sarasi bo'lib ko'rindi, shunday noyob jonivorni nobud qilib, bir to'da masalliqqa aylantirishga ko'nglim bormadi.

Jek hadeb vaqtni boy bermasdan tezroq otishimni tayinladi, men atayin imillab turaverdim.

Serjahl hamrohim imillayotganim uchun meni koyidi. Zardali to'ng'illab: «Buyoqqa bering qurolni!» deya uni tortib olmoqchi bo'ldi, men miltiqning og'zini osmonga qaratdim, u go'yo tasodif oqibatidek o'q yeb ketdi.

Gala bir seskanib tushdi. Qora yo'rg'a kishnadi, pishqirib, galani bir aylanib chopdi. Baytallar to'dalashib, chang-to'zonlar ichra ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Ayg'ir galaning goh u, goh bu yonidan chopib, baytallar keyinda qolib ketmasligini nazorat qildi.

Yo'rg'a ko'zdan g'oyib bo'lguncha undan ko'z uzmadim, uning yo'rg'a oyoqlari biron martayam chalkashmadi.

Turgan gap, Jek mening, qolaversa, miltig'imning, yo'rg'aning nomiga ko'p nordon gaplar aytdi, men uning gaplaridan zavq oldim, zo'r quvonch bilan qora yo'rg'aning chiroyi va qudrati haqida xayol surib qoldim.

Yo'q, qandaydir bir baytalni deb shunday yo'rg'aning yaltilloq terisiga dog' tushirgim kelmadi!

III

Yovvoyi otlarni ushlashning bir nechta xillari bor. Shulardan biri ot ustidan o'q bo'shatib, uni bir nafas gangitib qo'yish, vaziyatdan foydalanib bo'yniga sirtmoq solishdir. Buni «otni bo'yin egdirib olish» deyilar.



– Gapir-a! O‘q yegan yuzlab otlarni ko‘rdim, bari qir oshib qochib ketdi, birontayam «bo‘yin eggan» mustangni ko‘rmadim, – e‘tiroz bildirdi yovvoyi Jo.

Gohida, sharoit taqozo etganda galani qo‘raga haydasa ham bo‘ladi, agar otlar yaxshi bo‘lsa galani quvib yetsa ham bo‘ladi, ammo, bir qaraganda, iloji yo‘qday tuyuladigan yana bir yo‘li bo‘lib, bu mustang «tinchidi» yo‘li, ya‘ni, uni holdan toyguncha quvib borish yo‘lidir.

Yo‘rg‘alaganda oyog‘i umuman adashmaydigan ayg‘irning dong‘i kun sayin oshdi. Uning epchilligi, yo‘rg‘asi, chayir tabiati xususida ko‘z ko‘rmagan sarguzashtlar gurungi bo‘ldi. Uchburchak fermasidan bo‘lmish Montgomer chol Kleytondagi Uels qahvaxonasida ko‘pchilik oldida, agar shu gaplar chin bo‘lsa, unda, shu ayg‘irni kim aravaga bosib olib kelsa, ming dollar beraman, dedi. Buni eshitgan necha o‘nlab yosh kovboylar o‘z xo‘jayinlari bilan tuzgan shartnoma muddati tugab, qo‘l bo‘shadi deguncha, o‘z baxtlarini sinab ko‘rishga ahd qildi.

Yovvoyi Jo barchani dog‘da qoldirmoqchi bo‘ldi. Vaqtini boy bermay, xizmat muddati tugamagan bo‘lsada, tuni bilan ovga shaylandi.

Bir o‘rtog‘idan qarzga pul olib, yigirma bosh yaxshi otni, oshxonali aravani kerakli aslaha-anjomlar bilan ta‘minladi, o‘zi, o‘rtog‘i Charli hamda oshpazi uchun ikki haftalik oziq-ovqat jamladi.

Ular bu g‘aroyib, yengiloyoq yo‘rg‘ani «tinchitish»ni qat‘iy ahd qilib, Kleytondan jo‘nab ketdi. Safarlarining uchinchi kuni Jayron bulog‘iga yetib keldi, tushga yaqin galasi bilan suvlagani kelgan qora yo‘rg‘ani ko‘rib, ajablanmadi ham. Jo bekinib, gala suvlab bo‘lguncha qorasini ko‘rsatmadi, sababi, suvsagan ot yaxshi chopishini, suvlab, og‘irlashib qolgani yomon chopishini yaxshi biladi.



Shundan keyingina Jo pistirmadan chiqib, oldinga yurdi. Buloqqa yarim milcha qolganda mustang sergak tortdi, galasini janubiy sharqdagi butazor tog' yonbag'irlariga boshlab ketdi. Jo gala ketidan yalang oyoq bo'lib chopib, ularni yana bir bor ko'rdi, qaytib kelib, aravakashlik qiluvchi oshpaziga janubga, Alamozo daryosiga jo'nashni buyurdi. O'zi yana janubi-sharqqa otlanib, gala izini oldi.

Ikki milcha yurib, yana galani ko'rdi. Oyoq uchida otlarga yaqin bordi. Biroq ular yana hadik olib, qochib qoldi. Kun shunday o'tdi.

Gala halqa bo'lib, janubga yurish qildi, kun ufqqa oqqanda xuddi Jo kutganidek Alamozo daryosi yaqiniga kelib qoldi. Jo ularni yana bir marta hurkitib, aravasiga qaytib keldi, dam olayotgan o'rtog'i otda galani quvishda davom etdi.

Arava kechki ta'tildan keyin Alamozoneing oldindan kelishilgan yuqori kechuvi bo'ylab yurdi, Jo shu yerda tunash uchun joylashib oldi.

Charli bo'lsa galani quvishda davom etdi. Yovvoyi otlar oldingidek uzilish qochmadi, chunki quvib kelayotganlarning hujum qilmasligiga fahmi yetdi, oqibat, bora-bora o'z ta'qibchilariga ko'nikib qoldi.

Qosh qorayganda galani poylash yanada qulay bo'ldi, boisi, ular orasida bir oq baytal bo'lib, u qorong'ida oppoq bo'y berib turardi.

Osmonda oy balqidi. Charli qaysi yo'ldan yurishni oti ixtiyoriga qo'yib berdi, o'zi galani e'tibor bilan kuzatib bordi.

Oppoq baytal bo'y berib yurdi.

Oxir-oqibat, zim-ziyo tunda hech nima ko'rinmay qoldi. Shundan keyingina Charli otidan tushib, ustidan egarni oldi, otni o'tlagani qo'ydi, o'zi adyolga o'tanib, ko'p o'tmay uyquga ketdi.



Tong oqarishi bilan Charli yo'lga ravona bo'ldi, yanim milcha yo'l bosib, g'ira-shirada oq baytalga, keyin galaga ko'zi tushdi. Yo'rg'a Charlini ko'rib, shiddatli kishnadi, gala yana yelib ketdi.

Yo'rg'a birinchi duch kelgan dovonda oyoq ildi, tinimsiz ta'qib etayotgan kim ekanini bilish uchun ketiga burilib qaradi. Nima gapligini bildi, yana tolmas, ravon, yo'rg'a qadamlar otib olg'a talpindi, galani yo'lchi yulduz misol olg'a chorladi.

Otlar g'arbga yo'l oldi, yana ko'p qochish-quvishlar, yuzma-yuz kelishlar, yana qochishlardan so'ng hindular poyloqchilik qiladigan tik do'nglikka kelib qoldi. Bu yerda ularni Jo poylayotgan edi.

Charli do'ngdan ko'kka o'rlagan uzun, ingichka tutundan dam ol, degan ishorani tushundi. U ham cho'ntak oynasini tutib, javob xabarini berdi. Jo dam olgan otlarda ta'qibni davom ettirdi, Charli tamaddi qilib, dam oldi, so'ng Alamoza oqimi bo'ylab yuqoriladi.

Ertasi kuni Jo uzun kun galani ta'qib etdi, ularni arava borayotgan ulkan yoymada ushlashga urindi. Kunbotarda bir kechuvga yetib keldi, bu yerda Charli uni tetik otlar, tamaddi tayyorlab, kutib turgan ekan.

Jo kuni bilan, hatto kechasiyam bamaylixotir ta'qib etdi, aftidan, gala beozor ta'qibchilariga yanada o'rganib qoldi shekilli, ularni poylash juda oson bo'lib qoldi. Bundan tashqari, horg'inlik ham ta'sir qildi. Maza o'tli yaylovlar qayerlardadir qolib ketdi. Ular ta'qibchi otlar kabi somon yemadilar. Ustiga-ustak, muntazam davom etayotgan asab tarangligi ham o'zini ko'rsatdi. Asabiy taranglik yovvoyi otlarning ishtahasini bo'g'ib qo'ydi, ammo tez-tez suvsay boshladilar.

Ta'qibchilar otlarga tez-tez, to'yib-to'yib suvlash erini berdi. Boisi, suv ichgan ot chopishda qiynaladi, oyoqlari yog'ochday qotib qolib, nafas olishi qiyinlashadi.



Buni yaxshi bilgan Jo otini sug'ormadi. Shu sababliyam holdan toygan gala yaqinida tunagani oyoq ilganlarida o'ziyam, otiyam hali ancha tetik edi.

Tong yorishganda Jo galani osongina qidirib topdi. Ular avval-avval qochdi, so'ng, odimlab yurdi. Ta'qibchilar deyarli g'olib keldi, chunki bunday olishuvda gala hali horimagan dastlabki ikki-uch kun ularni ko'zdan qochirmaslik kerak edi, poyloqchilar esa buning uddasidan chiqdi.

Jo ertalab galani ko'zdan qochirmay, doimo ularning yaqinida bo'ldi. Soat to'qqizlarda Xoze tog'ida Charli bilan o'rin almashdi. Shu kuni gala bor-yo'g'i to'rt milcha ilgarilab ketdi, qadamlarida oldingi g'ayratdan asar ham qolmadi.

Kechqurun Charli dam olib yotgan otga minib, quvishda davom etdi.

Ertasi kuni galaning boshi egilib qoldi, qora yo'rg'a har qancha olg'a chorlamasin, ta'qib etib kelayotganlar bilan oralaridagi masofa ba'zan yuz qadamgacha qisqarib qoldi.

To'rtinchi-beshinchi kunlar ham shunday o'tdi. Gala yana Jayron bulog'iga yaqin keldi. Hammasi kutilganday bo'ldi: gala keng doira yasaydi, ayg'ir esa uning ichida yuradi.

Yovvoyi otlar buloqqa juda chanqab keladi, ovchilar bo'lsa tetik otlarda, ko'tarinki kayfiyat bilan keladi.

Shu kunlari kechgacha galani suvga yo'latmadi, so'ng, Jayron bulog'iga haydab, to'yib suvlatdi. Ana endi ko'pni ko'rgan kovboylar tetik va to'q otlarda yurib, sirtmoqni ishga soladi, chunki suv ichgan otlarni ushlab tushov solish oson bo'ladi.

Ishlar haddan ziyod yaxshi ko'chdi, faqat bir nima ularni tashvishga solib qo'ydi: qora yo'rg'a hamon temirday mustahkam edi. Uning ravon yo'rg'asi ayni-



magan, dastlabki ta'qib kunlari qanday bo'lsa, hozir ham shunday edi. U hamishagidek galasini matonat bilan boshqarar, kishnar, chopishda namuna ko'rsatib, ularni olg'a chorlardi. Ammo otlarning darmoni qurigan edi. Qari oq baytal, kechasi oppoq bo'y berib yuradigan o'sha baytal o'lguday charchab, galadan soatlab keyinda qolib ketaverdi. Baytallar chavandozlardan hadiksi-ramay qo'ydi, ular hademay Joning qo'liga tushishiga shak-shubha qolmadi.

Barcha tashvishlar sababchisi bo'lmish ayg'ir esa hamon yetib bo'lmas dovonligicha qolaverdi.

Joning jizzakiligini yaxshi bilgan o'rtoqlari u achchiq ustida asov ayg'irni otib qo'yishi mumkin, degan o'yga bordi. Ammo Joning ko'nglida bunday niyat yo'q edi.

U ayg'irni haftalab quvib, uning biron martayam yo'rg'asidan adashib, oddiy qadamlar bosib yurganini ko'rmadi. Barcha yaxshi chavandozlar kabi Jo ham bu go'zal otga boqib, undan zavq-shavq oldi. Zavqi yanada zo'rayib, shunday noyob hayvonni otgandan ko'ra, o'zimning manavi otimni otgan ma'qul, degan xulosaga keldi.

Ayg'irga qo'yilgan mukofotni olish kerakmikin? Jo ikkilanib qoldi. Qo'yilgan pul chakana emas. Lekin ayg'irning turgan turmushi xazina, u asl zotli zurriyot yaratishi mumkin.

Avvalo uni qo'lga olish lozim. Ovni tamomlash vaqti ham keldi.

Jo o'zining eng yaxshi otini egarladi. Bu ot tomirida janub qoni bor, ammo o'zi cho'llarda katta bo'lgan baytal edi. Albatta, bir nimasi bo'lmasa Jo bunday ajoyib otni sotib olmas edi.

Bu yurtlarda loko degan zaharli o't o'sadi. Odatda, otlar bu o'tni yemaydi, bordi-yu, bir tatib ko'rsa, uni yana izlab qoladi. Uning mazasi taryokning kayfiga



o'xshaydi, unga o'ch qo'ygan ot ko'p vaqt o'zini yaxshi tutib yuradi, oxir-oqibat, aqldan ozib o'ladi. Bundaylarni mahalliy xalq «lokoga muhtalo bo'lgan mol» deydi.

Joning eng sara otlari ko'zi ham ajabtovur yovvoyilarcha yiltiradi. Sinchilarning aytishicha, bu hol kasallik nishonasi emish. Shu sababliyam Jo baytalni mindi. Baytal baquvvat ham tezkor, ovning oxiribop.

Jo galaga ot qo'ydi. Arqonni yerga tashladi, yoyish uchun ataylab sudradi, so'ng yana chap qo'liga yaxshilab yig'ib oldi, ov davomida birinchi marta otini ayg'irga niqtab haydadi.

Aqlsiz chopa-chop boshlandi. Qo'rqib qolgan baytallar yo'lni bo'shatib, chor tarafga qarab qochdi.

Joning dadil baytali dasht bo'ylab oddiy odimlar otib quvdi. Ayg'ir o'zining dong'i ketgan yo'rg'asidan adashmay, yo'rg'alab qochdi. Aql bovar qilmaydigan manzara namoyon bo'ldi. Jo ovozi hamda uzangilari bilan baytalini olg'a chorladi. Baytali qushday uchdi, lekin ayg'ir bilan oralaridagi masofa bir dyum ham kamaymadi. Qora ayg'ir shu chopishida shiddat bilan tekislikdan o'tdi, tog' bag'ridagi butazorlardan o'tdi, ko'zni aldaydigan serqum soyga tushib, bir o'tloqqa chiqib oldi. U yerda uni bir sug'ur qarshi oldi. Jo uning izidan ot qo'yib boraverdi. U ko'zlariga ishonmadi... Nazarida, ayg'ir bilan oralaridagi masofa kamayib emas, balki uzayib ketgandek bo'ldi. U o'zicha so'kindi, otini niqtadi, chu-chulab haydadi, oxir-oqibat, bechorani asabiy holga olib keldi. Otrning ko'zlari olma-kesak terdi, boshi uyoqdan-buyoqqa tebrandi, yerga qaray olmay qoldi, yo'l tanlamay qo'ydi. Oyog'i favqu-lodda bo'rsiqning iniga kirib qoldi. Ot ag'anab ketdi, ustidagi chavandozi yerga uchib tushdi. Jo lat yedi, bir amallab oyoqqa turib, do'ldirab qolgan otini ko'tarib



turg'izmoqchi bo'ldi. Ammo bo'lar ish bo'lgan, otning old oyog'i singan edi.

Jo revolvurning bitta o'qi bilan otning azoblariga barham berdi. Egarni olib, lagerga ko'tarib ketdi.

Yo'rg'a hamon yelib, oxiri ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Buni mag'lubiyat deb bo'lmaydi, chunki ular baytalarni qo'lga oldi. Jo bilan Charli ularni qo'raga haydab borib, egalaridan arzigulik in'omlar talab qildi.


Jo uchun bu kifoya emas edi. U ayg'irni qo'lga olishni orzu qildi. Jo ayg'irning bor fazilatlarini bilib oldi, endi u yangi-yangi rejalar o'ylay boshladi.

IV

Safar jamoasiga garchi hech kim, hech qachon hech nima jo'natmasa-da, pochtaga muntazam ravishda xat va pul so'rab borganda o'zini mister Tomas Bets deb tanishtirgan Bets oshpazlik qilardi. Kovboy esa uni «Kurka Iz Tom» deb atardi, chunki uning o'zi Denverda xuddi shunday tamg'a qayd qilingan, deb uqtirardi. Bu tamg'a kurka iziga o'xshardi. Shuningdek, Bets bu tamg'a aksi bepoyon shimol yoymalarida o'tlab yurgan son-sanoqsiz mol va otlar sag'risida ham bor, deb uqtirardi.

Betsga safarda sherik bo'lishni taklif etganlarida u kulib, endi otlarning bir to'dasini o'n dollardan pullayman, dedi. Darhaqiqat, shu yili ot juda arzonlashib ketdi, shu sababli ham uncha ko'p bo'lmasa-da, har holda ish haqi olishni ma'qul ko'rdi.

Yo'rg'ani aqalli bir marta ko'rgan odam unga beparvo qarab turolmas edi. Kurka Iz ham shunday bo'ldi. Uyam yo'rg'aning egasi bo'lgisi keldi, lekin uni qanday qilib qo'lga kiritishni bilmadi. Kunlarning birida Bill Smit degan kimsa bilan uchrashib qoldi. Bu odam Bill Taqa



laqabi bilan mashhur edi. Sababi, uning tamg'asi taqaga o'xshardi. Bill Taqa non bilan go'sht yeb, ustidan maza-matrasiz kofe ichib, shunday dedi:

– Men bugun o'sha yo'rg'ani ko'rdim, shunday yaqindan ko'rdimki, dumlarini bemalol o'rib qo'ysam ham bo'lardi!

– Otmadingmi?

– Sal qoldi otib tashlashimga.

– Yo'q, aslo ota ko'rma, – dedi stolning narigi burchida o'tirgan «qo'sh N» tamg'ali kovboy. – U ayg'ir yangi oy chiqqaniga qadar mening tamg'am bilan yuradi.

– Ertaroq qimirla, bo'lmasa tamg'alaging kelganda sag'rinida «nuqtali uchburchak» tamg'asini ko'rasan.

– Sen uni qayerda ko'rding?

– Voqea bunday bo'ldi. Jayron bulog'ini yoqalab o'tayotib, qatqaloq botqoqdagi qamishlar orasida yotgan bir nimaga ko'zim tushdi. Hoynahoy, bizning podaning moli bo'lsa kerak deb o'ylab, yaqinroq borsam, bir ot chalqancha yotibdi. Shamol ot tarafdand esayotganidan foydalanib, unga yanada yaqinroq bordim. Shunda nimani ko'rdim deng? To'nkaday jonsiz yotgan yo'rg'ani ko'rdim! O'lik desang, jasad shishmagan, o'laksaning isiyam yo'q. U kutilmaganda chivin qo'ngan qulog'ini qoqdi. Xayolim boshimdan uchib ketdi. Shundagina uning shunchaki pinakka ketganini bildim. Sirtmoqni olib, arqonning ayrim joylari bo'shab qolganini ko'rdim. Otimning ayili ham bor-yo'g'i birov. Shunda, o'ylab qoldim, bizning ot yetti yuz funt, ayg'ir esa bir ming ikki yuz funt keladi. Shu boisdan o'zimga-o'zim dedim: «Ovora bo'lishingga arzimaydi, ayilni uzganing qoladi, buring ustiga, yerga ag'nab tushib, egarniyam boy berib qo'yasan». O'zimcha shunday deb, qamchi dastasi bilan egar qoshiga tuk-tuk urdim... Ana shunda yo'rg'ani ko'ring edi! Yotgan yeridan olti futcha yuqo-



riga sapchidi! To'rt oyog'ini keng tashlab, xuddi parovozday pishqirdi. Ko'zlari olayib, to'g'ri Kaliforniya tarafga yelib ketdi. Yo'l-yo'lakay oyoq ilmagan bo'lsa, allaqachon o'sha yoqda yuribdi. Agar ayg'ir biron marta yo'rg'asidan adashgan bo'lsa, o'ligim shu yerda qolsin!

Voqea u aytgan darajada aniq-ravshan bo'lmadi, sababi, Billning gapi nordon so'zlarga serob bo'ldi, yana-tag'in uyalmay-netmay kavshanib, yutinib, og'zi to'la osh bilan gapirdi. Baribir davra Billning gaplariga ishondi, chunki u to'g'ri so'zli odam bo'lib tanilgan edi. Davrada o'tirganlardan yolg'iz Kurka Izgina og'iz ochmay, gurungni boshqalardan ko'ra diqqat bilan eshitdi, ko'nglida yangi reja paydo bo'ldi.

Taomdan keyin chekib, yangi rejasini puxta o'ylab oldi. Uni amalga oshirish bir o'zining qo'lidan kelmasligini bilib, Bill Taqaga sir berdi. Ana shunday qilib, yo'rg'ani ta'qib qiluvchi yangi sheriklar, boshqacha aytganda, yana ustiga-ustak va'da qilingan besh ming dollar ishqibozlari paydo bo'ldi.

Jayron bulog'i galaning suyuqlik suvlog'i bo'lib qoldi. Suv ozaydi, qamishlar bilan suv oralig'ida qurib qolgan qop-qora loy kamar paydo bo'ldi. Kamarni ikkita so'qmoq kesib o'tdi, bu suvlagani kelgan hayvonlar yo'lidir. Otlar bilan yovvoyi hayvonlar ana shu so'qmoqdan suvlagani keladi. Shoxdor hayvonlar esa to'g'ridan-to'g'ri qamishzor oralab kelaveradi.

Sheriklar ana shu so'qmoqlardan ko'zga yaqinrog'ining ko'ndalangiga bo'yi o'n besh fut, eni olti hamda chuqurligi yetti fut keladigan o'ra qazidi. Gala suvlagani kelguncha ishni bitirish uchun yigirma soat tinimsiz ter to'kdi. O'ra qazish qiyin bo'ldi. Qazib bo'lib, uni ko'zdan yashirish uchun ustiga shox-shabba, xas-cho'p yopib, tuproq sepdi. Ishni tamomlab, o'radan olisroqdagi chuqurda bekirib o'tirdilar.



Toltushlarda yo'rg'a suvlagani keldi. Galasi qo'lga tushgani sababli u yolg'iz edi.

Tom, ayg'ir o'ra qazilgan so'qmoqdan yursin deb, ehtiyot yuzasidan narigi so'qmoqni qamishlar bilan yopib qo'ygan edi.

Yovvoyi hayvonlarni qanday ziyrak ezgu ruh qo'llar ekan-a? Aksiga olib, yo'rg'a o'ra yo'q so'qmoqdan yurdi. Bemalol kelib suv ichdi.

Ovchilarning so'nggi chorasi qoldi. Yo'rg'a suvga qayta egilganda Bets bilan Smit chuqurdan otilib chiqib, yo'rg'aning ketidan bordi. Yo'rg'a mag'rur bosh ko'targanda, Smit revolverdan yerga o'q uzdi.

Yo'rg'a dong'i ketgan yo'rg'asida to'g'ri o'ziga qazilgan o'raga qarab chopdi. U yana bir necha soniyadan keyin o'raga tushadi! Ana, o'ra bor so'qmoqda chopib boryapti...

Ovchilar uni qo'lga oldik, deb o'yladi. Yo'rg'a hademay ularning ixtiyorida bo'ladi.

Shunda, aql bovar qilmaydigan voqea yuz berdi. Yo'rg'a alp sakrab, o'radan o'tib ketdi, tuyoqlari bilan tuproq otib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Yo'rg'a Jayron bulog'iga qaytib qadam bosmaslik niyati bilan olis-olislarga yelib ketdi.

V

Yovvoyi Jo ustomon odam edi. U qanday qilib bo'lmasin yo'rg'ani qo'lga tushirish payida bo'ldi, bunga boshqalar ham qo'l urganini eshitib, tezda yangi rejalarini amalga oshirishga kirishdi. Jo ayg'irni ushlashda chiyabo'rilar epchil quyonni, hindular jayronni ushlashda qo'llaydigan usulni qo'llab ko'rmoqchi bo'ldi. Bu qadimgi usul «galma-gal ovlash» deb ataladi.



Yovvoyi yo'rg'a yurgan muzofot oltmish kvadrat milcha keladigan uchburchak shaklida bo'lib, janubi hamda shimolidan daryolar, g'arbidan tog'lar bilan o'raladi. Ular, yo'rg'a shu muzofotdan boshqa yoqqa ketmaydi, Jayron bulog'i uning doimiy xonaki joyi bo'lib qoladi, deb o'yladi.

Jo bu yerlarni yaxshi biladi. Uning barcha buloqlari, g'orlarigacha bilib oldi. Agar hozir uning ellikta oti bo'lganida edi, ularni jamiki muhim joylarga qo'ygan bo'lardi. Ixtiyorida esa bor-yo'g'i yigirmata oti bilan beshta yaxshi chavandozi bor, xolos.

U ov boshlangunga qadar otlarni ikki hafta somon berib boqdi. Shundan keyingina ularni ovga qo'ydi, chavandozlarga nima qilish kerakligini tushuntirdi. Ular ov boshlanishiga bir kun qoldi deganda o'z joylarini egalladi.

Tayin etilgan kun Jo aravada Jayron bulog'iga yo'l oldi, chetroqdagi torgina soylikda to'xtab, kuta boshladi.

Nihoyat, janubdagi adir tarafdin ko'mirday qopqora ayg'ir ko'rindi, u odatdagidek buloqqa yolg'iz o'zi ena boshladi.

U avval g'animlarim bekinib poylamayotganmikin, degan hadikda buloqni aylanib, is oldi. So'ng so'qmoqsiz yerlardan buloqqa qarab yurdi.

Jo ayg'irni poylab o'tirib, iloji bo'lsa uning ko'proq, bochkalab suv ichishini istadi. Yo'rg'a tumshug'ini o'tga endi cho'zgan ham edi, Jo otini niqtab haydab qoldi. Yo'rg'a tuyoq tovushini eshitdi, chavandozni ko'rdi-da, yana ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Tekis yerga chiqib, janubga burildi, qum tepaliklar oralab bor kuchi bilan chopdi, ta'qibchisidan borgan sayin olisladi. Joning oti horib, qumda har qadamda yiqilib turaverdi, oqibat, borgan sayin keyinda qolaverdi.



Yana tekis yerga chiqqanlarida Joning oti oradagi masofani ancha ozaytirishi mumkin edi, lekin enish boshlanib qolib, yana shashtidan qaytdi, oqibat, yanada keyinda qola boshladi.

Ammo Jo yo'rg'ani quvishda davom etdi, xivichniyam, uzanginiyam ayamadi. Bir mil, ikki, uch... Arribi qirlari ko'zga chalinib qoldi.

Arribida yangi otlar bor, Jo buni biladi, shu sababli kuchiga kuch qo'shilib ot qo'yadi. Yo'rg'aning tunday qop-qora yollari esa shamollarda yoyilib-yoyilib olislab boradi.

Ana, nihoyat, Arribi darasiga doxil bo'ldi. G'orda qorovullik qilib turgan kovboy o'zini panaga oldi, yo'rg'a uning yonidan o'tib ketdi. Yo'rg'a shamolday pastga yeldi, so'ng, nishab bo'ylab yuqoriladi.

Jo yangi otga minib, avval pastga, keyin yuqoriga ot soldi. Otini niqtab haydab chopaverdi, chopaverdi, lekin oradagi masofani kamaytirolmadi.

Dupur-dupur-dupur... tuyoq tovushlari. Bir soat, ikki, uch soat o'tdi, oldinda Alamoza ko'rindi, xuddi o'sha yerda yangi chavandoz kutyapti.

Jo baqirib, otini yanada tezladi. Qora ayg'ir mo'ljalidagi yerga qarab chopdi, ammo ikki milcha qolganda nimadandir hadik olganday chapga burildi. Jo yo'rg'a qutulib ketishini payqab, holdan toygan otiga yana qamchi bosdi, yo'rg'ani qanday qilib bo'lmasin, ko'zlangan tarafga burish yo'lini izladi.

Olishuv haddan ziyod qiyin bo'ldi. Joning nafasi qaytib qoldi. Ot har sapchiganda egar terisi g'ijirlayverdi.

Jo ko'ndalang yelib chiqib quvdi, yo'rg'ani hurkitish uchun revolverdan ustma-ust o'q uzdi, nihoyat, uni chapdagi kechuvga burishga muvaffaq bo'ldi.

Ular daryo bo'yiga keldi. Yo'rg'a yo'lidan qolmay yeldi. Jo otdan tushdi. Ot o'ttiz mil chopib damoni



quridi, Joyam holdan toydi. Ko'zlari changdan qizardi, garchi hech nimani ko'rmayotgan bo'lsa-da, Tomga qo'lini silkib: «Yo'rg'ani Alamoza orqali kechuvga haydab bor!» deya qichqirdi.

Yangi chavandoz tetik, chayir otda o'nqir-cho'nqir yoyilma bo'ylab qora ayg'ir ketidan chopdi. Ayg'ir oppoq terga botdi, biqini ko'tarilib-ko'tarilib og'ir nafas oldi, holi tang bo'ldi. Baribir chopishda davom etdi...

Tom oldiniga ayg'irga yaqinroq borganday bo'ldi, so'ng yana keyinda qoldi. Alamoza o'rnini yangi otliq egalladi.

Ayg'ir g'arbga burildi, sug'urlar makonini yonlab chopdi, kiyim yirtar kaktuslar, tikanli changalzorlar oralab chopdi. Ayg'ir ter bilan changdan ola-bula bo'lib ketdi, ammo yo'rg'asidan adashmadi. Yo'lida duch kelgan jardan sakrab o'tib ketdi. Izidan quvib kelayotgan yosh Kerington ham otini sakratmoqchi bo'ldi. Ammo oti bilan qo'shilib pastga yumalab ketdi... Yosh chavandoz bir amallab omon qoldi, ammo oti xarob bo'ldi.

Qora ayg'ir zafarli yo'rg'asida davom etdi...

Jo Gallego cholning fermasi yonida nafasini rostlab poylab turdi. Yarim soat o'tmay, u yana yo'rg'ani quvib ketdi.

G'arbda Karlos tog'lari ko'zga tashlandi. U yerda ham Joni odamlar yangi otlar bilan poylab turibdi. Buni bilgan tolmas chavandoz ayg'irni g'arbga burmoqchi bo'ldi. Ammo yo'rg'a qandaydir bir xayolga berildimi yo ko'ngli bir nimani sezdimi, har qalay, birdan shimolga qayrildi.

Jo bor san'atini ishlatdi, qichqirdi, o'q uzdi, bari bekor bo'ldi. Qora chaqmoq adir bo'ylab pastladi, Jo uning izidan borishga majbur bo'ldi.

Xuddi shu yerda olishuvning eng qiyin ham azob-uqubatli davri boshlandi. Jo yo'rg'aga berahm bo'ldi,



o'zi bilan otiga esa undan beshbattar beshafqat bo'ldi. Kun ayovsiz kuydirdi, qizigan yoyilma uzra oftob tafti jimirladi. Joning ko'zlari yondi, lablari sho'r, betamiz changdan chirsilladi.

Olishuv davom etdi. Muvaffaqiyatga erishishning birdan-bir yo'li – yo'rg'ani Alamo-zodan o'tadigan kechuvga qaytarish qoldi.

Olishuv boshlangandan buyon Jo birinchi marta qora yo'rg'ada tol-g'inlik alomatlarini ko'rdi. Dumi bilan yollari avvalgidek yoyilmay qo'ydi, oralaridagi yarim millik masofa yarimlab qoldi.

Yo'rg'a baribir olg'a talpindi, yana, yana yo'rg'alab, olg'a talpindi...

Soatlar ketidan soatlar o'tdi, yo'rg'a hamon olg'a yeldi. Ammo to'g'ri yo'ldan burildi. Yigirma milcha yo'l bosib, kechroq Alamo-zodan o'tadigan kechuvga yetib keldi.

Jo yo'lda tayyor turgan otni minib, ayg'irni yana o'zi quvib ketdi.

Jo qoldirib ketgan ot entikib, o'zini suvga urdi, suv ichib-ichib, yumalab o'lib qoldi.

Jo, qora ayg'ir suv ichadi, degan umidda biroz sekinladi. Ammo uning aytgani bo'lmadi! Ayg'ir bor-yo'g'i bir ho'pladi, tevarakka suv sachratib, narigi sohilga o'tib ketdi. Jo uning ketidan qadam-baqadam bordi. Kechuvda ularni kuzatib qolgan kovboy Jo ayg'irga xiy-la yaqin kelib qolganini, hatto yetay-yetay deb qolgani-ni ko'rdi...

Ertalab Jo lagerga piyoda keldi. Uning sarguzashti lo'nda bo'ldi: sakkiz ot nobud bo'ldi, besh odam butunlay holdan toydi, g'aroyib yovvoyi yo'rg'a esa hamon o'z erkida yuribdi...

– Endi bir nima qilish qiyin! Unga yetib bo'lmaydi. Joyi kelgan vaqtlari la'naning terisini teshib tash-



lamaganimga achinaman! – dedi Jo, so'ngra, yo'rg'ani quvishdan voz kechdi.

VI.

So'nggi safarda ham Kurka Iz oshpaz bo'ldi. U ham olishuvni boshqalar qatori qiziqish bilan kuzatib bordi, Joning omadi kelmaganda o'zicha kulimsirab qo'ydi, qozoniga qarab qo'yib, dimog'ida ming'illadi:

– Shu yo'rg'ani ushlab olmasam, odam emasman!

Yo'rg'a tinimsiz ta'qiblar oqibatida yanada yovvoyilashib ketdi. Baribir Jayron bulog'iga kelib ketaverdi. Buloq yalanglikdagi yakka-yu yagona suvloq bo'lib, bir mil tevarak-atrofdagi g'animdan bekinadigan pana joy yo'q edi. Shu sababliyam yo'rg'a yaqin-atrofdagi tushlarda paydo bo'lib, biron xavf-xatar yo'qligiga ishonch hosil qilgachgina buloqqa suv ichgani kelardi.

U galasidan ayrilib, butun qishni yolg'iz o'zi qishladi. Qari Kurka buni yaxshi bilib olib, rejalarini shunga mosladi. Bir o'rtog'ining to'riq baytali bor edi. Qari shu baytalga egar urdi, zanjir, belkurak, yana bir arqon hamda yo'g'on qoziq olib, buloqqa ravona bo'ldi.

Bir to'da jayron ulardan hayiqib, pana-panalarga g'oyib bo'ldi. Mollar o't uzra yoyilib yotadi, to'rg'aylar qo'shig'i jaranglaydi. Yerdan beg'ubor, qorsiz qish nafas ko'tarilgan, ko'klam yaqin qolgan...

Tom ushoqqina to'riq baytalni arqonlab, o'tga qo'ydi, baytal tumshug'ini ko'kka tinimsiz cho'zib, olis olis kishnadi.

Qari Kurka shamol qayoqdan esayotganini aniqladi, tevarak-atrofga nazar soldi. O'sha o'zi qazishib yuborgan o'ra haliyam bor ekan. O'ra ochiq, ichi to'la sassiq suv, sig'ur, sichqon o'liklari suzib yuribdi. Suvlagani kelgan hayvonlar o'ra chetidan yangi so'qmoq ochibdi.



Kurka ko'm-ko'k maysazor yonidagi quyuq qamish-zorni ma'qul topib, shu yerga qoziq qoqdi, so'ng, pana bo'ladigan katta o'ra qazib, ichiga adyol to'shadi. Baytal olislab o'tlab ketmasin deb, arqonni yerga uzatib tashlab, bir uchini ustunga bog'lab qo'ydi, arqonni tuproq va o'tlar bilan bekitdi. Keyin o'zining xilvatgoh o'rasiga bekinib o'tirdi.

Tush vaqti-tush vaqti to'riq baytal yo'qlab kishnadi. Shunda... shunda, kunbotardagi adirdan javob kishnash keldi... Mashhur yovvoyi yo'rg'a osmon fonida qop-qorayib, bo'y berdi!

Yo'rg'a ravon, alp-alp yo'rg'aladi, oyoq ilib, tevarakka hadiksirab alangladi, pishqirib yo'rg'aladi. Baytalning yo'qlab kishnashi yo'rg'aning ko'nglida aks sado berdi. Yo'rg'a yaqinroq kelib, yana kishnadi, birdan sergaklandi, aylanib, katta doira yasadi, burni bilan shubhali hid ovladi.

Shunda, to'riq baytal yana kishnadi. Yo'rg'a yana bir bor doira yasab, u ham kishnadi. Baytalning javob kishnashi yo'rg'aning ko'nglidagi bor hadiklarni yo'q qilib yubordi. Yo'rg'aning yuragi yonib ketdi!

Yo'rg'a gijingladi, to'riq baytal – Sollining oldiga keldi, burniga burnini tekkizdi. Xuddi shu payt orqa oyog'i sirtmoqni bosib oldi. Tom arqonni birdan tortdi, mustang sirtmoqqa ilindi. U vajohat bilan ko'kka sapchidi. Tom bundan foydalanib, ayg'irning oyog'idan arqonni ilondek ikki aylantirib oldi.

Mash'um ko'rgilik ayg'irning kuchiga kuch qo'shdi. U yana sapchidi, ammo sirtmoqdan oyog'ini tortib ololmadi, yerga g'aribona, mag'lubona ag'nab tushdi.

Chuqurdan qari Tomning munkaygan xunuk jussasi ko'rindi. U tabiatning noyob molini tezroq qo'lga kiritish uchun shoshildi. Otning qudrati ushoqday zaif bir cholning aql va hunari oldida o'qiz bo'lib qoldi. Yo'rg'a



pishqirdi, ozodlik uchun jon-jahdi bilan olishdi, ammo besamar bo'ldi, sirtmoq oyoqlariga chayirday yopishib oldi.

Tom ayg'irning old oyoqlariga ham sirtmoq soldi. So'ng, arqon bilan ayg'irning to'rtta oyog'ini bit-ta qilib qo'shib tortdi. Darg'azab yo'rg'a, axtalangan cho'chqaday ojizona sulayib, yotib qoldi. Bechora so'nggi darmoni qolguncha tipirchiladi, o'pkasi to'lib keldi, o'ksik zarbidan a'zoyi-badani zir-zir qaltiradi, yuzlaridan marjon-marjon yoshlar oqdi...

Tom ayg'irning holini ko'rib, ko'nglida g'alati bir nima paydo bo'ldi. Ilk bor sirtmoq bilan ho'kiz ushlaganida bo'lganidek, bosh-oyog'i zir titradi. Bir necha da-qiqa joyidan qimirlay olmay, o'zining noyob bandisiga termulib qoldi.

Ko'p o'tmay cholning hayajoni so'ndi. O'ta mash'um ishni bajargan baytalga egar urdi, yangi arqon olib, yo'rg'aning bo'yniga soldi. Baytalni ayg'irning oldiga qo'ydi. Tom yo'rg'a endi ketolmasligini bilib, arqonni bo'sh qo'ymoqchi bo'ldi, shunda, xayoliga favqulodda bir fikr keldi. O'ylab qarasa, g'oyat zarur bir ish esidan chiqayozibdi. Garchi sharoit bo'lmasa-da, shu ishni ba-jarishga kirishdi.

G'arb odati bo'yicha yovvoyi yo'rg'aning badani-ga kim birinchi bo'lib o'z tamg'asini bossa, yo'rg'a o'shaniki bo'ladi. Yaqin yigirma milda hayvonlarni tamg'alaydigan asbob topilmaydi, nima qilsa bo'ladi?

Qari Tom tadbirkor edi. U baytalning taqalarini birin-ketin qarab ko'rdi. Taqalarning birovi xiyla bo'shab qol-gan edi. Tom shu taqani belkurak bilan qo'porib oldi.

Yoymani aylanib o'tin terib keldi. Ko'p o'tmay olov tovulladi. Tom taqani bir uchidan qo'lro'mol bilan o'rab ushlab, olovga toblab qizartdi. Keyin taqa qirra-



sini ayg'ir bechoraning chap yag'riniga uch marta bosib oldi, yag'rinda kurka iz misol dag'al tamg'a qoldi.

Yo'rg'a qizigan temir badaniga tekkanda seskanib ketdi. Ish ko'z ochib yumguncha bo'lib o'tdi. Shunday qilib, yovvoyi yo'rg'a insonga qaram bo'lib qoldi.

Endi yo'rg'ani uyga olib ketish qoldi. Tom sirtmoqni bo'shatdi. Yo'rg'a oyog'i bo'shaganini sezib, butunlay erkin bo'ldim deb o'yladi, joyidan sapchib turdi, talpindi, ammo yana ag'nab tushdi. Yo'rg'aning old oyoqlari qo'shib bog'lab qo'yilgan, u faqat sapchib-sapchib yurishi mumkin edi.

U qochishga ko'p intildi, ammo har safar qo'shaloq bog'loqlik oyoqlari xalaqit berib, yumalab tushaverdi. Tom baytalni minib, yo'rg'ani uyga olib jo'nadi. U yo'rg'ani yetakladi, chu-chulab haydadi, turli yo'llar qilib ko'rди, ammo qaysar, badjahl ayg'ir, oppoq ter ko'piklariga botgan ayg'ir bo'yin egmadi. Ayg'ir yovvoyilarcha kishnadi, qahr bilan pishqirdi, ozodlik yo'lida telbalarcha to'lg'andi.

Olishuv shafqatsiz, olis davom etdi. Yovvoyi yo'rg'aning yarqiroq sag'rilar qon aralash terdan qora-yib ketdi. Behisob yiqilib-turishlar, besamar olishuvlar yo'rg'aning shunday tinka-madorini quritdi, shunday quritdi, u uzun kun davom etgan quvg'inda ham bunalchalik horib-tolmagan edi.

Ayg'ir goh u yoniga, goh bu yoniga tinimsiz talpindi, shiddatli sapchishlari borgan sayin zaiflashib bordi, burnidan otilayotgan ko'piklar qonga belandi.

Berahm, zo'ravon g'olib chol esa sokin bir kayfiyatda ayg'irni chu-chulab haydadi, yurishga majbur qildi.

Ayg'ir bilan chol har bir qadam uchun olishdi, nishab yerdan daraga endi, yana ham pastdagi daralarga el-tadigan so'qmoqlar boshiga yetdi. Bir vaqtlar yo'rg'aga qaram bo'lmish yaylovning shimoliy chegarasi yuddi



shu yerdan o'tadi. Olislardan to'siqlar hamda fermalar ko'zga tashlanadi. Qari Tom tantana qiladi.

Yovvoyi yo'rg'a qolgan bor kuchini yig'ib, ozodlik yo'lida jon-jahdi bilan yonbag'ir bo'ylab yuqoriga talpindi. Yana, yana yuqoriladi, badaniga botayotgan arqonga ham, uni to'xtatib, iziga qaytarish uchun uzilgan o'q ovozigiga ham parvo qilmadi, u ozodlikka talpindi...

Yovvoyi yo'rg'a yana, yana yuqoriladi, ana, tik qoyaga ko'tarildi. Qoyadan pastga – havoga sakradi, ikki yuz futcha uchib yurdi, yana, yana pastlab... toshga borib tushdi. U jonsiz sulayib qoldi, ammo... ozod bo'lib qoldi!

BUG'ULAR IZIDAN

I

Kun juda isidi. Yan qush oviga borib, poyonsiz o'rmon changalzorlarida adashib qoldi. Kun tafti botqoq hovuzlar suvini isitdi, Yan muzday suv ichsa bo'ladigan yakka-yu yagona Izlar Bulog'iga yo'l oldi.

Buloq bo'yida uning e'tiborini loydagi mayda tuyoq izlari tortdi. U bunday izlarni umrida ko'rmagan bo'lsa-da, bu bug'ular izi ekanini bilib, quvonchidan osmonga irg'ishladi.

«Endi buyoqlarga bug'u kelmaydi» – shu yerliklar Yanga shunday dedi.

Birinchi qor yoqqanda Yan buloq bo'yidagi bug'ular izini esladi, miltig'ini qo'lga olib, o'ziga-o'zi so'z berdi:

«Shu bug'ularni o'ldirmagunimcha har kuni adir aylanganim-aylangan».

Yan novchadan kelgan, o'n sakkiz yoshlardagi yigit. U hali chinakam ovchi bo'lgan emas, ammo ovda horib-toimas, sabr-bardoshli.



Yan har kuni adirga bug'u izlab chiqdi. Kunda o'n millab qor kechib, bug'ular izini topolmadi, kulbasiga qorong'i cho'kkanda qaytdi.

Sabrning tagi oltin ekan. Yan janubiy adirlarda betinim tentirab yurib, oxiri bug'ular iziga duch keldi. Izlar eski, zo'rg'a ko'rinsa-da, baribir bug'ularniki edi. Yan quvonchidan yana yozdagidek osmonga irg'ishladi.

«Shu izlar meni bug'ular oldiga olib boradi» – o'yladi Yan.

Yan avvalambor bug'ular qaysi tarafga ketganini bilolmadi. Sinchiklab qarab, izlarning bir yog'i ikkinchi yog'iga qaraganda qorga chuqurroq botib ketganini fahmladi, chuqurroq botgan yog'i tuyoqning old tarafi, degan xulosaga keldi. U, shuningdek, izlar adirga o'rlagan sayin oralig'i torayib ketganini ko'rdi. Qumloq yerdagi chuqur tuyoq izlari shubhalariga uzil-kesil barham berdi.

Yan hayajonlanib, sochlari orasida g'alati bir og'riq sezdi, izni olib boraverdi.

Bug'ular izi borgan sayin aniq-aniq ko'rina boshladi. Yan kun bo'yi iz oldi, iz kechga yaqin uni o'z kulbasi yaqiniga olib keldi. Izlar endi tanish yerlar bo'ylab ketdi. Iz o'rmon qirqadigan yer, keyin Mitchell o'tlog'idan o'tib, quyuq terakzorga burildi.

Qorong'i cho'ka boshladi, Yan yo'ldan qaytdi, u o'z kulbasidan bor-yo'g'i yetti milcha olisda edi, shu sababliyam biror soatdan keyin makoniga yetib keldi.

Ertalab yana iz quvdi, bu safar qiyinroq bo'ldi, sababi, turli tarafga ayqash-uyqash bo'lib yoyilib ketgan izlarga duch keldi. U omadini sinab ko'rish uchun yana olg'a yurdi, ko'p o'tmay ikkita yangi iz ko'rdi, avvalgidan ham ko'ra komil ishonch bilan yana iz quvdi.

U yerga egildi, boshini ko'tarmay izni diqqat bilan kuzatib bordi, tor yalanglikda ikkita kulrang shal-



pangquloq jonivorga duch keldi. Jonivorlar uni ko'rib, qochib qoldi, tepada to'xtashib, Yanga qayrilib qaradi.

Yan ko'nglida shu jonivorlarning beozor ko'zlari nigohini tuydi, nigohlar uni to'xtashga majbur etdi. Yan qarshisida nimadir qarab turganini endi angladi. Yan bu uchrashuvni bir hafta zoriqib kutdi. Shunday bo'lsa-da, uchrashuv tasodifiy bo'ldi. U o'ylagan rejalar tutunday tarqab ketdi, u hayrat bilan serrayib qoldi.

– O-o-o! – uning ko'nglidan sokin bir nido otilib chiqdi.

Bug'ular o'z yo'liga burildi, ularning munis boqishi Yanning ko'z o'ngida qoldi.

Bug'ular osmonga irg'ishlab o'ynadi. Aftidan, ular Yanni umuman esdan chiqardi, ular oyoqlari yerga tegib-tegmay, ko'kka olti-yetti fut yengil-yengil irg'ishladi. Yan yengiloyoq, kulrang jonivorlarning ajabtovur o'yiniga beixtiyor mahliyo bo'lib qoldi. Ular-ning o'yinida qo'rquv ham, shoshmashosharlik ham yo'q edi. Bug'ular qo'rqib qochib ketgunicha Yan ular-ning o'yinini tomosha qildi. «Bug'ular mendan qo'rqishi kerak edi-ku, – o'yladi Yan. – Ular bo'lsa, kekxa ovchilar aytganidek, ko'kka irg'ishlagani irg'ishlagan».

Bug'ular qorasi asta-asta kichrayib bordi, Yan shundagina ularning olislab borayotganini sezdi.

Bug'ular adir bo'ylab yanada yuqoriladi. Tik bu-rundan latif-latif egilib, aylanib o'tdi. Yoriq yerlarga duch kelib, ulardan sapchib o'tdi, sapchiganlarida bu qanotsiz qushlar havoda bir nafas muallaq bo'lib qoldi.

Qanotsiz qushlar ko'zdan pana bo'lguncha Yan ulardan ko'z uzmadi. Ularni otish xayoliga ham kelmadi.

Qanotsiz qushlar ko'zdan g'oyib bo'lgach, Yan ularni dastlab ko'rgan yerga keldi. Qorda tuyuq izlarini ko'rdi. Izlar to'satdan yo'qolib qoldi. Davomi qayerda ekan? Yan tevarakka nazar solib hayron bo'lib qoldi,



sababi, bir iz ikkinchisidan o'n besh fut olisda bo'lib, oraliq masofa borgan sayin ko'payib, bir iz keyingisidan o'ttiz futgacha uzayib ketgan edi. Demak, bug'ular har sapchiganda o'n besh futdan o'ttiz futgacha masofani olgan.

Yo'q, bug'ular yugurmagan, ular go'yo uchgan, faqat gohi-gohida tuyoqlari adir uchlariga tegib-tegib ketgan.

– Ular ko'zdan g'oyib bo'lganidan juda-juda xur-sandman, – pichirladi Yan. – Shunday ajoyib tomosha ko'rdimki, bunday tomoshani hali hech kim ko'rmagan.

II

Ertalab Yanning ko'nglida yana ovga borish ishti-yoqi paydo bo'ldi.

«Yana adirga boraman, – dedi u o'ziga-o'zi. – Bug'ular izini topib, ularni itdek quvaman. Aqlimni bug'ular aqli bilan, kuchimni kuchi bilan bir sinab ko'raman, tezkorligiga bas kelish uchun esa, mana, qo'limda qurolim bor».

Hay-hay, adirlar, adirlarning bepoyon yonbag'irlari, ko'llari, o'rmonlari-yu o'tloqlari qanday go'zal! Har es-gan shamolda hayot nafasi ufuradi. Yanning vujudida ham hayot gurkiraydi. Yan hali juda yosh, baquvvat, tan-joni sog'.

«Hayotimning eng yaxshi kunlari shu kunlar, – dedi o'ziga-o'zi. – Oltin kunlarim».

Yan uzun kun bo'riday adirma-adir izg'ib, oq qu-yonlarni hurkitdi, kakliklarni cho'chitdi, yoyilmalarga endi, qordan ko'z olmay, bug'u tuyoqlari izini izladi. Qorbo'ron boshlanib, izlar ko'milib ketdi. Yan yana ikki kun adirma-adir izg'idi. Ammo bug'u izlariga yo'liqmadi.



Haftalar ketidan haftalar o'tdi. Yan ko'p sovuq kunlar, qahraton kechalarni qor qoplagan adirlarni kezib o'tkazdi. Bug'ular izini topgan vaqtlariyam bo'ldi, ammo mehnatlari behuda ketdi, adir yalangliklarida bekordan-bekor izg'ib yurdi, o'rmon qirquvchilar hikoyasini eshitdi, so'ng, changalzorlar tubiga yo'l oldi. Sargardon kunlari mobaynida bor-yo'g'i bir marta adir uchiga o'rlab borayotgan bug'ularni ko'rdi. Shu orada o'rmon qirqiladigan joy orqasida ulkan bug'u paydo bo'lgan emish, degan mish-mish tarqaldi. Yan o'sha bug'u izini oldi, lekin o'zini ko'rmadi.

Bug'ular olis, tinimsiz ta'qiblar oqibatida qo'rqib, juda hurkak bo'lib qoldi, shu boisdan ovdan biror yorug'lik chiqishi amrimahol bo'lib qoldi.

Shunday qilib, ov mavsumi besamar o'tdi. Yan bundan o'kinmadi. Eng muhimi, u ov mobaynida tabiat bilan oshno bo'ldi. Adirma-adir yurish yoqqandan-yoqib qoldi. So'ngsiz ovlarning har bir kuni Yan uchun quvnoq bayram sayli bo'ldi.

III

Yil o'tib, yangi ov mavsumi boshlandi. Yanning ko'ngli yana ovni xumor etdi, o'lka bo'ylab yurgan mish-mishlar xumoriga yana xumor qo'shdi.

Aytishlaricha, adirda ulkan bug'u paydo bo'lgan emish. Uni «Qumloq adir bug'usi» dermish. Qumloq adir bug'usining haybati hamda shiddati borasida, misdan yasalganday baquvvat, ulkan, sertarmoq shoxi-yu, shoxining fil suyagiday yaltiroq uchlari borasida ko'pdan-ko'p gurunglar bo'ldi.

Tugan gap, Yan yerga birinchi qor tushishi bilan ovga otlandi, bu safar u ularga o'zi ov qutqusi solgan o'rtolari bilan ovga jo'nadi. Ular chanada Qarag'ayzor



adirga keldi, kunbotarda uchrashishga kelishib, har tarafga tarqab ketdi.

Adir tevaragidagi butazorda quyon bilan qur ko'p edi. Shu bois daqiqa sayin otishma ovozi eshilib turardi. Bug'ular izi adirga yaqin yo'lamagani uchun Yan butazordan chiqib, mish-mishlarga ko'ra yaqinda ulkan bug'u paydo bo'lgan Kennedi vodiysiga yo'l oldi.

Bir necha mil yo'l bosib, u chindan ham yirik-yirik izlarga duch keldi, izlar qorga juda botib ketgan bo'lib, oralari ulkan sapchishlar natijasida uzilib-uzilib qolgan edi. Yan, bu izlar ko'p gurunlarga sabab bo'lgan o'sha Qumloq adir bug'usining izlari ekanini bildi.

Ovchining kuchiga kuch qo'shildi, u xuddi bo'riday iz quvib ketdi. U yana sochlari orasi va yelkalarida g'alati bir jimirlashni his etdi, bunday hol avvallari ham bo'lgan edi, ammo bu safargisi juda ta'sirchan kechdi. Yan o'zicha tuklari hurpayib o'ljasini quvib ketayotgan bo'ri ham shunday, holni boshidan kechirsa kerak deb o'yladi.

Yan qorong'i cho'kkuncha iz olib boraverdi. Keyin iziga qaytishga to'g'ri keldi. Chunki ovchilar bilan uchrashuvga kelishilgan Qarag'ayzor adir xiyla olis edi. Yan Qarag'ayzor adirga kelishilgan vaqtda yetib borolmasligiga, o'rtoqlarini ortiqcha kuttirib qo'yishiga ko'zi yetdi. Ammo u o'zidan ko'ngli to'q bo'ldi. Uning oyoqlari temirday mustahkam, o'zi xuddi ov itlari kabi metin irodali edi. U uzun kun ov qilib, charchash nimeligini bilmay uyga qaytishi mumkin edi.

U kelishilgan yerda sheriklarini topolmay, ancha xursand bo'ldi, o'zini erkinroq sezdi. Albatta, Yan hali uzoq yurib horib-toladi deb o'ylab, unga achingan bo'lsalar kerak. Ammo Yan bu dasht-u adirlarda qanchalar baxtli damlar kechirganini o'rtoqlari bilmaydilar.



To'g'ri, muzday, qahraton shamol Yanni qiynadi, ammo Yanning qalbida chayir yoshlik olovi lovullab turdi. Yan har safar adirda sayr qilganida o'zicha bir baxt topdi. Buni o'ziyam his etdi. U xuddi shu vaqt chanalar-da dildirab uylariga qaytayotgan... Yanga achinayotgan o'rtoqlarini eslab, miyig'ida kulib qo'ydi.

O, u Kennedi vodiysida kun botishning qanday ajoyib manzarasini tomosha qiladi! Qor quyosh nurida qip-qizardi, teraklar qirmizi rangga kirdi.

Oqshom cho'kib, osmonda oy balqigach, tez qorong'i tushgan o'rmonda sayr etishning o'z gashti bor!

«Bu kunlar hayotimning eng yaxshi kunlari, – takrorladi u. – Oltin kunlarim».

Yan Qarag'ayzor adirga doxil bo'lar ekan, baland ovozda cho'zib qichqirdi:

– Ur-r-ra!

«Balki o'rtoqlarim haliyam o'sha yerda turishgandir?» – ko'nglidan o'tdi uning. Aslida o'rtoqlariga emas, qalbini to'ldirib yotgan xushvaqt tuyg'ularini olamga yoyish uchun qichqirdi. O'rtoqlarining javob hayqirig'i o'rni-da Kennedi vodiysida bo'rilar uvillashi keldi. Yan tentakligi tutib bo'rilar-ga taqlid qilib uvilladi. Bo'rilar Yanning uvillashiga javob berdi, u bo'rilarning javob uvillashini e'tibor bilan eshitib, ular to'da bo'lib, nimaningdir izidan quvib borayotganini angladi. Darhaqiqat, bo'rilar o'ljasini quvib borayotganda shunday uvillar edi.

Bo'rilar uvillashi yanada yaqin keldi, o'rmonda aks sado berdi. Yanning xayoliga favqulodda shunday fikr keldi:

«Ular mening izimdan kelyapti-ku! Ular meni quvib kelyapti!»

U borayotgan so'qmoq uncha katta bo'lmagan daraxt-zorga duch keldi. Bunday sovuqda daraxtga chiqib jon saqlash haqida o'ylamasa ham bo'lar edi. Shu sabab-



li ham Yan yalanglikka chiqib olib, qor ustiga o'tirdi. Bir qo'lini miltiq stvoliga qo'ydi, yana biri bilan patronlarni ushlab ko'rdi. Ko'ngli yangi, mash'um tuyg'ular girdobida ezildi. O'rmondan uzuq-uzuq uvillash eshitildi. Uvillash yana, yanada yaqin keldi...

Uvillash o'zgarib, favqulodda o'chib qoldi. Oydin kunduzday yorug' bo'ldi. Aftidan, bo'rilar Yanni ko'rib, daraxtzor chetida turib qoldi. O'ngda daraxt qarsilladi, chapda yana bo'rilar uvillashi eshitildi, yana sukunat boshlandi.

Yan o'zining o'rab olinganini, bo'rilar daraxtlarga panalab uni ta'qib etayotganini sezdi. U bo'rilar ni shonga olib, bekordan-bekor ko'zining nurini to'kdi. Bo'rilar aqlli ekan, ular biron martayam qorasini ko'rsatmadi. Yan ham aqlli, uyam xotirjam o'tiraverdi. Bordi-yu, Yan qochganda, bo'rilar unga hamla qilar edi.

Chamasi, bo'rilar to'dasi unchalik ko'p emas edi, shu boisdan ular o'zlarining harbiy kengashlarida Yanni tinch qo'yishga kelishdilar. Yan yigirma daqiqa chamasi sabr qilib, so'ng, uyiga yo'l oldi.

Uyiga kelib, o'zicha o'yladi:

«Bug'ular izlaridan qadam tovushlarini, miltiq shiqirlashini eshitganda qanday holga tushishini endi tushundim».

Yan Qumloq adirda ko'pdan-ko'p sovuq kunlarni, ayozli qish kechalarini boshidan kechirdi. U bu yerlarni miridan-sirigacha bilib oldi. Bug'ular nega yulg'unlarga yaqin yo'lamasligini, nega ularning izi eman tevaragida ko'p uchrashini endi anglab yetdi. Qamishlar qurib, qorga egilganda qanday ovoz berishini, mushkdor kala-mushlar muz ostida qanday qilib hayot kechirishini, qunduzlar nega adirdan pastga tushishini, muzlar qahraton kechalarda ko'chganda qanday tovush berishini endi tushunib yetdi. Olmaxonlardan qarag'ay g'udgasini



qanday qilib tozalashni, qo'ziqorinlarni tanlab-tanlab yeyishni o'rgandi.

U yaqin-atrofdagi jamiki hovuz, o'rmon va adirlarni bilib oldi. Minglab ovchilik sirlarini o'rgandi, ammo bug'ularni qo'lga tushirolmadi.

Yan ayqash-uyqash bo'lib ketgan so'qmoqlar bo'ylab yuzlab mil yo'l bosdi, bug'u izlarini goh topdi, goh ko'zdan yo'qotdi. U baribir umidsizlikka tushmadi, chunki daydib yurganlarida bir necha bor ulkan Qumloq adir bug'usi izlariga duch keldi.

IV

Yan sovuq ertalarning birida katta qarag'ay o'rmoniga yo'l olganda ov mavsumi oxirlab qolgan edi. Yo'lda o'rmon qirquvchisiga yo'liqdi. O'rmon qirquvchi o'rmonda bir urg'ochi bug'u bilan «boshida butun boshli o'rmonday shoxi bor» ulkan bug'u yurganini gapirib berdi.

Yan o'rmon qirquvchi aytgan o'rmonga yo'l oldi, ko'p o'tmay izlarga duch keldi. Izlarning birovi Yanga bir vaqtlar daryo bo'yida ko'rgan izlarni eslatdi, yana birovi shubhasiz, Qumloq adir bug'usini edi.

Yanning yana vahshiylik qoni qo'zg'adi. U o'lja olgan bo'riday uligisi keldi.

Izlar o'rmon va adirlardan o'tdi. Yan bo'rimisol iz quvgani quvgan bo'ldi.

Uzun kun iz olib, har bir mayda narsani e'tiborga oldi, bu safar izlar sapchib-sapchib yurmay yumshoq qorga botib-botib ketganini ko'rib, yanada xursand bo'ldi. U ortiqcha kiyimlari va narsalarini yechib qo'yib, shov'in-suronsiz olg'a intilgandan-intildi.



Bug'ular kun bo'yi biror yegulik izlab, tevarakni kezib chiqdi, ba'zi-ba'zida yo'llarda to'xtab, suv o'rnida qor yaladi.

Favqulodda butalar orasida nimadir ko'rindi. «Bal-ki qushlarmikin?» – o'yladi Yan, o'zini panaga olib, diqqat bilan kuzata boshladi. Kulrang butazor orasida nimadir ko'rindi. Yotgan kulrang nima Yanning ko'ziga bir uchi shoxdor kundaga o'xshab tuyuldi. Kutilmagan-da kulrang kunda qimirladi, sershox novdalari yuqori ko'tarildi. Yan seskanib ketdi... U darhol tushundi, butalar orasida yotgan kulrang kunda bu – bug'u, Qumloq adir bug'usi edi!..

Bug'u juda ulkan edi! Yan bug'uni zo'r quvonch ham ehtirom bilan tomosha qildi.

Xavf-xatarsiz, xotirjam yotgan bug'uni otish jinoyat... Ammo Yan bu vaziyatni bir oy izladi. U otnasa bo'lmaydi.

Yanning hayajoni oshgandan-oshib, oxiri toqati toq bo'ldi. Qo'lidagi quroli qaltiradi, u ko'ngildagidek mo'ljalga ololmadi. Entikib-entikib nafas oldi. Nafasi qaytdi.

Yan qurolni tushirdi... A'zoyi-badani hayajondan qaltiradi. Bir necha daqiqa o'tib, Yan yana o'ziga keldi. Qo'llari qaltiramay qo'ydi, ko'zlari mo'ljalni aniq-ravshan ko'rdi. Nimaga endi buncha hayajonlanadi, axir, qoshida turgan jonivor bor-yo'g'i bittagina bug'u bo'lsa!

Shu payt bug'u o'girildi, Yan uning g'amgin ko'zlarini, shalpanq quloqlarini, burun kataklarini aniq ko'rdi.

«Nahotki meni o'ldirmoqchi bo'lsang?» – uning Yanga termulgan ko'zlari go'yo shunday deyayotganday edi. Yan yana dovdirab qoldi... Tanasini qaltiroq tutdi... U bu qaltiroq «ov to'lg'og'i» ekanini yaxshi bilardi. Yan bu tuyg'uni avvallari e'zozlar edi, ayni shu daqiqa-da bu tuyg'udan nafratlanib ketdi. Nihoyat, Yanning ko'nglidagi vahshiylik bug'uni otishga da'vat etdi.



O'q nishonga tegmadi. Ulkan bug'u o'rnidan sakrab turdi, yonida yana bir bug'u ko'rindi. Yan yana otdi, yana tegmadi... So'ng, ketma-ket otdi...

Bug'ular tepama-tepa sakrab, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

V

Yan xiyla vaqtgacha bug'ular izidan bordi, ammo ularning izida qon izini uchratmadi, bug'ularni hatto yarador qilolmagani alamidan tishlarini g'ijirlatdi. Yan bir milcha yo'l bosib, boshqa bir izga duch keldi, battar xunobi oshdi. Bu iz hindular kiyadigan choriq izlari edi. Qahr bilan shu izni olib yurdi, tepaga chiqib, bahaybat hindu ovchining qorasini ko'rdi. Hindu daraxt kundasi-ga chiqib, Yanga do'stona qo'l silkidi.

– Kimsan? – dag'dag'a bilan so'radi Yan.

– Chaska.

– Bizning yurtimizda nima qilib yuribsan?

– Bu yurt bir zamonlar mening yurtim edi, – keskin javob berdi hindu.

– Bug'ular – mening bug'ularim, – dedi Yan o'ychan.

– Yovvoyi bug'ular hech kimniki emas, o'lsa boshqa gap.

– Men poylab borayotgan izlardan olisroq yurishingni maslahat berardim.

– Men sendan qo'rqmayman, – javob berdi hindu. – Pachakilashishning hojati yo'q, yaxshi ovchi hamisha bug'ularni topadi.

Xullas, Yan hindu bilan bir necha kun birga bo'ldi. Yan bug'ularni otolmadi, ammo Chaskadan bir qancha ovchilik hadislarini o'rganib oldi. Masalan, hindu unga hech qachon tepaga o'rlab chopayotgan bug'ularni quvmaslikni maslahat berdi, chunki bug'ular tepadan turib pastni kuzatadi, izidan ta'qib qilib chelayotganini ko'radi, dedi. U



Yanga izga qarab, olislab ketgan-ketmaganini aniqlashni o'rgatdi. Bug'ular yaqiningada bo'lganda ularni quvish befoydaligini aytdi. Hindu shuningdek, barmoqni ho'llab yuqori ko'tarib, shamol esayotgan tarafni aniqlashni o'rgatdi. Yan o'zicha o'yladi: «Ha-a, bug'ularning burni nega doim oqib yurishini endi bildim».

Chaska unga ovning barori ko'pincha sabr-toqatga bog'liqligini ham tushuntirdi. Ovda yurish qoidalarini o'rgatdi, shunday yursa, qor qanchalik qalin bo'lmasin, kelgan izidan orqasiga qaytish oson bo'lishini aytdi.

Chaska bilan Yan ba'zan birga, ba'zan alohida ov qildi. Kunlardan bir kuni Yan yolg'iz o'zi ov qilib yurganida «Chaska ko'li» deb ataladigan ko'l bo'yida o'sib yotgan chakalaklar ichida bug'ular iziga duch keldi. Izlar yangi edi. Yan diqqat bilan tevarakka quloq soldi, shunda, chakalakzor ichidan bir sharpa tovushi eshitilganday bo'ldi. Ko'p o'tmay, chakalak shoxchalari qimirlaganini ko'rdi. Yan chakalakzor ichida yana bir harakat sezsa otish uchun mo'ljalga olib turdi. Darhaqiqat, bir necha soniya o'tgach, shoxchalar orasida qandaydir kulrang bir nima ko'rindi. Yan otishga chog'landi. Shunda, kulrang sharpa yonida yana bir qizil sharpa qimirladi. Yana bir necha daqiqadan keyin chakalakzordan Chaska chiqib keldi.

– Chaska! – hayajonlanib qichqirdi Yan. – Sal qoldiya, otib qo'yishimga!

Hindu gapga javob berish o'rniga barmog'i bilan boshida tang'iqli qizil ro'molni ko'rsatdi. Yan shundagina hindu ovchilar boshini nega qizil ro'mol bilan tang'ib yurishlarini tushundi, shu kundan e'tiboran ov paytida o'ziyam shunday qilishga o'rgandi.

Bir necha kun o'tib, ular maysazorlarda yuradigan kakliklar galasining qarag'ayzor o'rmonga uchib bora-yotganini ko'rishdi. Ko'p o'tmay, boshqa kaklik gala-



lariyam ularning izidan yo'l oldi. Chaska kakliklarni diqqat bilan kuzatib, dedi:

– Kakliklar o'zini o'rmonga uryapti, sovuq bo'ladi.

Darhaqiqat, ovchilar ertasi kuni sovuqda olov yoqib o'tirdilar.

Ikki kun sovuq bo'ldi, uchinchi kuni ular ovni bemalol davom ettirdilar. Ammo Chaskaning omadi yurishmadi, u yiqilib tushib, miltig'ini sindirib qo'ydi. Kechqurun Yan bilan olovga isinib, miq etmay trubka tortib o'tirdi, so'ng, birdan sukunatni buzib, Yanga qarab dedi:

– Yan Bug'ular tog'ida ov qilganmi?

– Yo'q.

– Yaxshi ov bo'ladi... ketdik o'sha yoqqa.

Yan bosh irg'ab, bormayman ishorasini qildi. Hindu g'arb tomonga qarab qo'yib dedi:

– Bugun u izlarini ko'rdim... Endi bu yerda ovning barori kelmaydi...

Yan, Chaskaning qarori qat'iy ekanini bildi. Chaska ko'zdan g'oyib bo'ldi, Yan u bilan boshqa uchrashmadi. Karberri do'ngliklari oralig'ida joylashgan yagona ko'l esa hali-hamon «Chaska ko'li» deb ataladi.

VI

«Karberri yaqinida bug'ular to'dasi paydo bo'libdi. Yaqinda Kennedi vodiysi bilan o'rmon qirqiladigan joy o'rtasida ulkan bug'u yurganini ko'ribdilar».

Sharqqa ketib qolgan Yan olgan xatlarida, uyoqda ko'ngliga o'tirmaydigan bir xil hayot kechirganligi haqida xabar o'qidi. Xatni ov mavsumi boshlanishi arafasida oldi. Unda bu xatsiz ham ov to'lg'og'i boshlangan edi. U avvallari ikkilanib yurgan bo'lsa, xat uning ikkilanishlariga chek qo'ydi. U temir otlarda qadrdon



adirlariga yo'l oldi. Keyin, tirik otlarda yo'l yurib, uyiga yetib keldi. Yana so'ngsiz ov safari boshlandi.

Ko'p o'tmay, Yanning qulog'iga ko'l bo'yida bug'ular galasi yurgani, ular yettita bo'lib, yo'lboshchisi juda ulkan ekani to'g'risidagi gaplar yetib keldi.

Yan uch nafar ovchi bilan chanalarda shu ko'lga yo'l oldi.

Xiyol o'tib, ovchilar bug'u izlariga duch keldi. Izlarining oltitasi turlicha edi, yettinchisi esa juda katta bo'lib, bu, shubhasiz, Qumloq adir bug'usining izlari edi.

Ovchilarda tosh asrining yovvoyi odamlariga xos qonxo'rlik qoni qo'zg'adi! Ko'zlari ochko'zlarcha yonib, bug'ular izidan tushdi!

Qorong'i cho'kay deb qoldi. Ovchilar bug'ular galasini quvib yetdi. Yanning har qancha yalinib-yolvorishiga qaramay, ovchilar chanani qoldirib ketmadilar.

Ko'p o'tmay, qorli tepalikda juda yangi izga duch keldilar. Aftidan, bug'ular shu yerda to'xtab, izlaridan quvib kelayotgan ovchilarni kuzatgan, so'ng, turli tarafga tarqab ketgan edi. Ularning har bir sapchishi yigirma besh fut kelar edi.

Ovchilar iz quvib yuraverib, baribir bug'ularni topolmadi. Qorong'i tushdi, ovchilar qor ustida tunadi.

Ertalab yana yo'llarida davom etib, bug'ular tunagan yerga yetib keldilar. Qorda qolgan yettita tana izi bu yerda hayvonlar yotganini aytib turar edi.

Yan yana chanani tashlab ketishni talab qildi. U sezdi, izlar katta o'rmonga qarab boryapti. Karqurlar qichqirib, daraxtlar uzra ko'tarildi - demak, bug'ular changalzor oralab bormoqda.

Yan ovchilarga qanday yo'l tutishni maslahat berdi, ammo ular eshitishni istamadi, oqibat, bug'ular qochib ketdi. Qo'rqqanlaridan ikkovi bir tarafga, beshovi boshqa tarafga qarab qochdi.



Yan Daff degan ovchi bilan sherik bo'lib olib, ikkita bug'u izidan ketdi. Qolganlari beshta bug'uni quvib ketdi. Yan nega ikkita bug'u izidan ketdi? Boisi, bu izlarning birovini ikki yildan buyon Yanning oromini buzib kelayotgan ulkan bug'u izlari edi.

Ular bug'ularga bir changalzorda yetib oldi, ammo ko'z ochib yumguncha bo'lmay, bug'ular ko'zdan g'oyib bo'ldi. Yan sherigini bug'ulardan birining izidan yubordi, o'zi ulkan bug'u ketidan ketdi.

Kun qiyomdan og'di. Yan notanish bir joyga kelib qoldi. Bug'u juda yaqin qoldi, Yan hademay uni ko'radi. Xuddi shu payt ketma-ket miltiq otildi. Bug'u sakrab-sakrab, Yandan olislab ketdi. Endi uni quvib yetib bo'lmaydi. Bug'u bunday tezlik bilan juda ko'p chopishi mumkin.

Yan iziga qaytib, sherigini topib oldi. Daffning aytishicha, u bug'uga ketma-ket ikki marta o'q uzibdi. Ikkinchi o'qim mo'ljalga tekkan bo'lsa kerak, dedi. Ular xuddi shu bug'u izidan ketdi.

Ular yarim milcha yurib, qonga ko'zlari tushdi, qon bora-bora yo'qoldi, ammo izlar borgan sayin kattalashib, aniqlashib bordi. Bo'ron turib, qor izni uchirib ketdi. Ammo Yan bu izlarni oddiy bug'uning emas, balki shoxdor bug'uning izlari, deb taxmin qildi. U ishonch hosil qilish uchun izni olib, orqaga qaytdi.

Ha, Yan haq edi. Ulkan bug'u bu safar jonivorlar ta'qib ostiga olinganda qo'llaydigan qadimgi usulni qo'llagan edi: u yarador hamrohi teskari tomonga qochib qolishiga imkoniyat yaratish, shu bilan uni qutqarib qolish uchun aynan bosgan izidan ketiga qaytib kelgan edi.

Ovchilar bu makrga uchmadi. Ular yarador bug'u izidan bordi, och bo'riday olg'a talpindi.

Ulkan bug'u o'z makri barbod bo'lganini bilib, yana hamrohi oldiga qaytib keldi.



Kun botayotganda ovchilar ularni qorli adirga o'rlab borayotganda ko'rdi. Kichik bug'u boshini quyi egib, asta-asta borar, ulkan bug'u esa oldinda shoshib-pishib borardi. Ulkan bug'u keyinda qolayotgan hamrohiga hayron bo'lib qarab-qarab qo'yardi. Iziga qaytib, hamrohini mehribonlik bilan yalab-yulqar, aftidan, shoshi-lishga undardi.

Ovchilar ularga yetib oldi. Ulkan bug'u ovchilarni ko'rib, shoxlarini silkidi, tevarakka alang-jalang bo'ldi, so'ng, qudratli g'animidan qochib, yelday uchib ketdi.

Ovchilar yetib kelganda yarador bug'u o'midan turishga intildi. O'ta holsizligidan yana yiqilib tushdi. Daff pichog'ini chiqardi. Yan haligacha ovchilar nega belbog'lariga uzun pichoq osib yurishlarini bilmas edi, endi bildi. Yarador ohu katta-katta ko'zlarini g'animiga tikdi. Uning ko'zlarida yosh o'ynardi. Ammo u ingragan tovush chiqarmadi. Yan teskari o'girilib, yuzlarini yashirdi. Daff qo'lida pichoq bilan ohuga yaqin bordi, shunday mash'um bir ish qildiki, uni ifodalashga so'z ojizlik qiladi...

Yan serraygancha qotib qoldi. Daff uni chaqirdi. Yan asta burilib, ketiga qaradi. Ulkan bug'uning hamrohi qorda jonsiz sulayib yotar edi.

Ular ketayotganlarida olisda qandaydir bir qora ko'rindi-yu, yana tepalik ortida g'oyib bo'ldi.

Bir soatlardan keyin ovchilar chanalarni olib kelib, qorda qonga bo'yalib yotgan bug'u murdasini ortdi. Ular yana tevarak-atrofdan ulkan-ulkan yangi izlarni ko'rdi, yana qop-qora tunda oppoq oqarib yotgan adirda nimadir bir qorayib ko'rindi-da, yana ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Shu kecha gulxan yorug'ida isinib o'tirgan Yanning xayolidan g'amgin, og'ir o'ylar kechdi! U o'zini-o'zi koyidi. Ov degani shumi? Shuni deb shuncha sarson-sargardon bo'ldimi?



Ha, u ko'p kunlik tashvishlar, qator omadsizliklardan keyin izlagan niyatiga yetdi: tabiatning go'zal bir bisoti qonga bo'yaldi, jirkanch murdaga aylandi...

VII

Tun xotiralari ertalab tarqaldi. Adirlar uzra uvillagan ovoz taraldi, Yan diqqat bilan eshitdi. U, bo'rilar bug'u murdasining hidini oldimikin, degan tashvishga tushdi.

Ovchilar shu yaqindagi qishloqqa jo'nadi. Yan qanday qilib o'zi yolg'iz qolish yo'lini o'yladi. Shunda u yana ulkan bug'uning yangi izlariga duch keldi. Yigitcha o'zini tutolmadi, u bug'u quvish ishtiyoqida yondi.

«Men uni yana bir ko'rishim kerak» – ahd qildi u.

Boshqa ovchilar esa ayozli sovuqdan bedor bo'ldi. Yan narsalar ichidan kichkina qozon, adyol va yegulik olib qolib, sheriklaridan ajralib qoldi.

– Xayr! – ketayotib qichqirdi u.

– Omadingni bersin!

Ovchilar bilan chanalar tepa yonbag'rida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Yan yolg'iz qoldi. U shu kungacha yolg'izlik nimaligini bu darajada his qilmagan edi. U haftalab, oylab biyday adirlarda yolg'iz kezib yurgan, ammo yolg'izlik dardidan bugungiday azoblanmagan edi. Uni og'ir hislar bosib kela boshladi. U cheksiz oppoq olamga nazar solib, yuragi siqilib ketdi. U sheriklariga qichqirgisi, ularning izidan borgisi keldi, ammo g'ururi yo'l bermadi.

Sheriklari esa allaqachon ko'zdan g'oyib bo'lgan, endi ularning ketidan borish, ularni chaqirish foydasiz edi. U bug'u izidan, ikki yildan buyon unga tinchlik bermayotgan bug'u izidan yo'l oldi. Bu izlar adir va dalalalar bo'ylab yurib ayqash-uyqash bo'lib ketgan, agar inson bu izlar sirini anglab yetganda edi, unda, jonivor-



larning devona hayoti qissasi paydo bo'lardi. Agar inson bu izlar sirini anglab yetganda edi, u olg'ir raqib bilan bo'lgan dahshatli to'qnashuvlar qissasini, qonli olishuvlar oqibatida jon bergan jonivorlar qismatini bilib olar edi. Hayotdan maqsadi faqat qorin to'yg'azish bo'lgan yaqin-yaqin zamonlarda inson jonivorlarni ustalik bilan ta'qib etdi, jonivorlar izi inson to'yib ovqat yeydigan manzilga olib boradigan yakka-yu yagona yo'l edi. Shu sababdan hali-haligacha inson jonivorlar izini ko'rganda qalbida uni qidirib topish, unga ega bo'lish istagi tug'iladi, ko'nglida yovvoyi ovchilarga xos hayvoniy tuyg'u paydo bo'ladi.

Yan ana shunday yengib bo'lmas tuyg'ular girdobida qoldi, bug'uni qo'lga tushirish uchun yugurdi.

Kechqurun deganda quyuq bir tog'terakzorga yetib keldi. Yan bug'u shu yerda tunashini bilardi. Shu sababliyam juda avaylab, ovoz chiqarmay, oyoq uchida daraxtlar oralab bordi.

Ammo uning ehtiyotkorligi zoye ketdi. Bug'u uni payqab qolib, qochib ketishga ulgurdi.

Yan o'rmonda tunab qoldi. Tun sovuq, qorong'i bo'ldi. U yotib, yoniga ag'darildi, adyolga o'ranib oldi. U tabiat o'ziga tulkinikiday issiq teri va serjun dum bermaganiga o'kindi, bordi-yu, berganda hozir sovuqdan qaltirayotgan oyoq-qo'lini o'rab olardi.

Daraxtlar bilan yerlar sovuqdan qirsilladi. Osmondagi yulduzlar ham sovuqda jaranglab ovoz berganday bo'ldi. Shu yaqindagi ko'ldan qirsillagan ovozlar kelib turdi: qirg'oqda muz sina boshladi. Ko'l bilan o'rmon ustidan yuzni achishtiradigan achchiq shamol esdi.

Bir bo'ri olisdan turib gulxanni kuzatdi, ammo yaqin kelolmadi. Ayanchli uvillab, ko'zdan yo'qoldi.

Ertalab picha iliq bo'ldi. Qor gupillab yog'di. Qorbo'ron bug'u izlarini ko'mib yubordi.



Yan o'zining qayerda ekanini bilolmadi. O'rmonda maqsadsiz tentirab yurib, Qarag'ayzor buloqqa borishga ahd qildi. Lekin uyoqqa olib boradigan yo'lni qanday topadi? Havoda qor uchadi, ko'z ochirgani qo'ymaydi, yuzni chimchilaydi, tevarak-atrofni ko'rsatmaydi. Yaqin narsalar tuman ichida qolgan, olis-olislar oppoq g'uborga burkangan. U shunday tog'terakzor oralab yurib, qor ostidan «oltin tomirlar» nomi bilan mashhur o'simlikning qurigan tanasini izlab topdi. Bu o'simlik tanasi hamisha shimolga talpinib turadi. Yan shu o'simlik egilgan tarafga qarab yo'lni belgilab oldi. U Qarag'ayzor buloq oqadigan janubi-sharqqa qarab yo'l oldi. Yo'ldan adashgan paytlari qor kovlab, oltin tomirni topib, uning og'ishiga qarab yo'lini topib oldi.

Nihoyat, o'rmondan chiqib, olisdan Qarag'ayzor ariqni ko'rdi.

Yan bug'u izlarini izlab, kunni bekor o'tkazdi. Tunda yana gulxan yoqdi, yana patli, issiq teri in'om qilmagan uchun tabiatdan o'pkaladi. Shu birinchi tunda iyagi bilan oyoqlari barmog'ini sovuq oldirib qo'ydi. Sovuq olgan a'zolari qaqshab og'ridi. Ammo u uyga qaytishni xayoliga ham keltirmadi. Shu safar bug'ularni topsam kerak, degan ichki bir ishonch uni yo'ldan qaytarib turdi.

Ertasi ertalab qandaydir ajabtovur, anglab bo'lmas bir tuyg'u uni biyday yoyilma oralab kezib yurishga majbur etdi, vaholanki, bu yerlarda bug'u izlaridan nom-nishon ham bo'lishi mumkin emas edi. Keyin nima bo'ldi? U qarshisida bug'ular tunaydigan jarni ko'rdi. Hali qor yopmagan oltita qorayib turgan chuqurcha, bu yer ulkan bug'u bilan oila a'zolari tunaydigan boshpana ekanidan dalolat berardi.

Yan hali to'rt mil ham bosmagan edi, tuman qoplagan uzun tepalar ortidan qo'zoqlarini ding qilib besh na-



far bosh ko'rindi, keyin sertarmoq shoxlarini ko'rsatib ulkan yo'lboshchi bug'u paydo bo'ldi. Ular bir ko'rindi-yu, yana ko'zdan pana bo'ldi. Yan hatto mo'ljalga olishga ham ulgurolmadi, jonivorlar hurkib, tepalar ortida g'oyib bo'ldi.

Ulkan bug'u o'z oila a'zolarini yig'ib, ular bilan qorli tepalar bo'ylab aylanib yurgan edi. Yo'lboshchi g'animini ko'rdi-yu, oila a'zolariga vodiy bo'ylab tarqab ketishni buyurdi, oqibat, hammasi birpasda turli tarafga sochilib ketdi.

Yan faqat bir narsani – uyam bo'lsa yo'lboshchi bug'uni topishni ixtiyor etdi. U chakalak va uzun xivich novdalari qalashib yotgan torgina jarlikka yo'l oldi, xuddi shu yerdan Qarag'ayzor ariq oqib o'tardi.

– U shu yerda, xuddi shu yerda bekinib meni poylayapti, men baribir uni qo'lga tushiraman, – ahd qildi Yan.

U chakalakzordan ko'z uzmadi. Yarim soatlardan keyin bir qora sharpa chakalakzordan chiqib, ehtiyotkorlik bilan tepalar bo'ylab yurdi. Bug'u ko'zdan pana bo'lgach, Yan yoyilmani shoshib kesib chiqdi, uni aylanib o'tib, jonivorning oldidan chiqmoqchi bo'ldi. Ammo bug'u ovchidan pishiqroq ekan. U ovchining maqsadini sezib qolib, o'zining oldingi kelgan yo'lidan yurib, g'oyib bo'ldi.

Bug'u o'z taqdiri hal bo'layotganini yaxshi bilar edi. Ta'qib ketma-ket bir necha kun davom etsa, eng kuchli va eng chopqir bug'u ham holdan toyadi. Ovchi tinimsiz quvsa, jonivor darmoni qurib, o'zini-o'zi ovchining qo'lga topshiradi.

Shunday qilib, Yan o'ljasini oppoq dalalar va tepalar oralatib tinimsiz quvdi. Bug'u unga chap berdi, o'z izidan yurdi, ovchining yaqinlashganini sezish eson bo'lsin uchun chakalakzorning shamol esayotgan tarafga yashirinib turdi. Jonivor insonga pand berdi, uni



laqillatib izidan ergashtirib yurdi, so'ng, birdan g'oyib bo'lib, insonga yechib bo'lmas jumboq tashlab ketdi. Ammo Yan ham bo'sh kelmadi, u matonat bilan quvishda davom etdi, bug'uning makrlarini anglab oldi, izlarini qidirib topdi.

Nihoyat, ulkan bug'u holdan toydi, ovqat yeyolmaydigan, uxlay olmaydigan darajada charchadi. Tinimsiz ta'qiblar vahimasi oqibatida darmoni qurib, shalpayib, odimlari torayib qoldi.

VIII

Nihoyat, ovchi bilan bug'u tevaragi botqoqzor bir o'rmonchada yuzma-yuz bo'ldi. O'rmonda uchta yo'l bo'lib, bu yo'llar go'yo ovchi bilan bug'uning so'nggi, mash'um uchrashuviga mo'ljallanganday edi.

Shu yo'llarning birovda bug'u yashirinib yotibdi, u ta'qibchisidan qo'rqib, endi iziga qaytmaydi.

Yan buni bildi, shu sababliyam kamzuli bilan belbog'ini yechib, butaga ilib qo'ydi-da, ikkinchi yo'l bo'ylab yurib, uchinchi yo'lga qarab shoshildi. Changalarni shitirlatib yuborishdan qo'rqib, juda ehtiyot bilan uchinchi yo'ldan yurdi, butalar orasiga yashirinib poyladi. Biroz tin olib o'tirib, xuddi biror xavfni sezgan to'rg'ayday hushtak chaldi.

Bug'ular hamisha o'rmon to'rg'ayi ovozigga quloq soladi. Yan o'tirgan yeridan ko'rdiki, ulkan bug'u quloqlarini ding qilib, tevarakni kuzatish uchun do'nglikka chiqib keldi. Yanning sokin hushtagi bug'uni serraytirib qo'ydi. Bug'uni changallar bilan daraxtlar pana qilib turdi.

Bug'u bir necha daqiqa tumshug'ini cho'zib, olislar-ga qarab turdi. U Yanga teskari turgani uchun uning ya-qinligini sezmadi. Shamol butaga osig'liq kamzulning



yenglarini hilpiratdi. Bug'u do'nglikdan shoshib tushdi, daraxtlar orasidan sharpasiz yurib, jimgina g'oyib bo'ldi.

Yan bor diqqatini ishga solib, bug'uning qaysi tarafga yo'l olganini bilmoqchi bo'ldi. U hayajondan qaltiradi, butun a'zoyi badani junbushga keldi, yuragi dukduk urdi. Miltig'i allaqachon otishga shay edi.

U avaylab, sekin o'rnidan turdi. Shunda, undan uch sarjin narida xuddi yerdan chiqqanday yana bir sharpa ko'tarildi. Bu sharpa ulkan bug'u – Qumloq adir bug'usi edi!

Bir juft qop-qora ko'zlar Yanga qadaldi. Sertarmoq shoxlari ulkan, chiroyli boshiga yarashib tushgan. Xushbichim qomati toshday qotib turibdi.

Mana, nihoyat, Yan bilan Qumloq adir bug'usi yuzma-yuz bo'ldi! Bug'uning taqdiri Yanning qo'lida qoldi.

Bug'u haykalday qotib qoldi. U o'zining olmaday-olmaday, pokdomon ko'zlarini Yanga tikib turaverdi.

Yanning miltiq ushlagan qo'li qaltiradi. U qurolni ko'tarib, yana tushirdi, chunki bug'u joyidan qimir etmay, undan ko'zini uzmay turaverdi.

Yan shunda hayajoni bosilayotganini his qildi, tishlari endi g'ijirlamay qo'ydi, u qalbida qandaydir bir sokinlik, xushvaqtlik sezdi.

«Ot, tezroq ot! Sen shu kunga yetding!» – qalbidan shunday bir nido keldi. Ammo bu nido juda betayin, ojiz edi...

Shunda Yan o'z boshidan kechirgan qo'rqinchli bir tunni esladi, o'shanda uni bo'rilar to'dasi ta'qib etgan, u holdan toyib, bo'rilarning yaqin kelishini dahshat bilan kutib turgan edi. U, shuningdek, otib o'ldirilgan ohuni, qonga belangan qorni esladi. Xayoliga jon berayotgan ohuning iltijo bilan jovdirab boqayotgan ko'zlari keldi,



bu ko'zlar: «Men sizga nima yomonlik qildim?» – deya iltijo qilayotganday edi.

O'ldirish to'g'risida endi o'ylamasa ham bo'ladi. Yan bug'uga tikildi, bug'u Yanga tikildi. Ular bir-birlarining ko'zidan ko'ngillaridagi dardlarni uqib oldi. Yan bug'uning joniga qasd qilolmadi. Ko'nglida allaqachon paydo bo'lgan nimadir yetilgandan-yetildi, pishib, me'yoriga yetdi, birdan dilidagi tiliga otilib chiqib, nido berdi.

Mana, shu nido:

«Ey bechora, go'zal jonivor! Biz ko'p vaqtlar bir-birimizga g'anim bo'ldik, sen qochding, men quvdim. Bo'lgan ish bo'ldi, o'tgan ishga salavot. Endi bir-birimiz bilan betma-bet, ko'zma-ko'z bo'ldik, biz tabiat deb atalmish bir onaning farzandlarimiz. Biz o'zaro tilla-sholmaymiz, ammo bir-birimizni tilsiz ham tushunamiz. Men seni avvallari bilmasdim, endi esa yaxshi bilib oldim. Ishonamanki, sen ham meni yaxshi bilib olasan. Sening taqdiring mening qo'limda, lekin sen mendan hayiqmayapsan. Emishki, bir bug'uni itlar o'rab olibdi, shunda bug'u panoh izlab ovchiga talpinibdi, ovchi uni qutqarib qolibdi. Men seni ko'p kunlar ta'qib etdim, mana endi sen oldimda bemalol turibsan. Qo'rqma, men endi senga ikki dunyoda ham qo'l ko'tarmayman. Biz – og'a-inilarmiz, tabiatning noyob bisotlarimiz, faqat men sendan keksaroq ham qudratliroqman, xolos. Mening qudratim seni hamisha o'z panohiga olsa edi, sen abadiy xavf-xatarsiz yasharding.

Bor, o'rmonzor, adirlar osha chopqillab yur, qo'rqma, men endi seni bo'riday yovuzlarcha, ochko'zlarcha ta'qib-olib yurmayman. Yashaganim sayin menga qadr-don bo'lib qolaverasan, men endi senga bir o'ljaga, bir bo'lak go'shtga qaraganda qaramayman.



Bor, qo'rqmay, bermalol ketaver.

Biz endi qaytib ko'rishmaymiz. Alvado!»

BINGO

I

Bu voqea 1882-yilning noyabr oyi boshlarida, Manitobga qish kirib qolganda bo'ldi. Men kursiga yoyilib, kulbamizning yakka-yu yagona derazasidan ko'rinayotgan dashtni, og'ilxonamizni tomosha qilib o'tirardim.

Shunda, bir nimaga ko'zim tushib, xayolim birdan bo'lindi, ulkan bir jonivor dasht bo'ylab qochib, bizning og'ilxonaga yo'l oldi, izidan bir maydagina, ola-bula jonivor quvib keldi.

– Bo'ri! – dedim o'zimga-o'zim, so'ng miltiqni olib, itga yordam bergani yugurdim.

Ammo men borgunimcha bo'ri bilan it og'ilxonadan chiqib qochdi. Bo'ri qorda biroz yugurib, to'xtadi, o'zini himoya qilishga shaylandi. Qo'shnimizning nasl-nasabi shotland laycha iti bo'rini aylanib chopib, hamla uchun qulay vaziyat poyladi.

Men bo'rini olisdan ikki bor nishonga oldim, ammo har ikkovidayam xato ketdim. Bo'ri bilan it yana dasht oralab quvlashib ketdi. It bo'riga har yaqinlashganda, avvalo, uning quymichiga yopishdi, har safar bo'riining o'tkir tishlaridan qochib qutulishga ulgurdi. Bo'ri o'zini himoya qilib, dasht bo'ylab ko'ziga qaramay qochdi. It uni odam bor joyga qarab quvdi, bo'ri esa maqsadsiz orqasiga qarab qochdi, sharq tarafda qarayib ko'rinayotgan o'rmonlarni mo'ljallab chopdi. Ular goh olishib, goh quvishib, bir marta yo'l bosdi, nihoyat, men



ularga yetib oldim, it menga ishonib uzil-kesil hamlaga o'tdi.

Bir necha daqiqa o'tdi. Ikki jonivor olatasir olishib, ajrashdi, shunda yerda chalqancha yotgan bo'riga, uning tomog'idan g'ippa tishlab turgan itga ko'zim tushdi. Men uchun bo'rining boshini nishonga olishdan boshqa ish qolmadi.

Qo'shnimizning bu g'aroyib laychasi bo'rining joni uzilganini bilgach, unga qayrilib qaramadiyam. U qorda likillab, egasining to'rt milcha naridagi fermasiga yo'l oldi.

Laycha noyob it edi, u men bormasam ham bir o'zi bo'rining korini qilardi. U o'zidan qudratli bo'rini yengdi. Keyin bilsam, bu uning hayotidagi birinchi voqea emas ekan.

Men uning dovyurakligiga qoyil bo'ldim, uni qancha pulga bo'lsayam sotib olishga ahd qildim. Ammo qo'shnim rozi bo'lmadi:

– Yo'q, bo'lmaydi, yaxshisi kuchugimni sotib ola qoling?

Shunday qilib, Frenk laqabli bu itni sotib ololmadim, o'rniga bir kuchukni istar-istamay sotib oldim. Shunday zo'r itning zurriyoti bo'lmish bu kuchuk bir yumaloq junga o'xshardi, u kuchukdan ko'ra ayiq bolasiga kelbat berar edi. Ammo uning Frenknikiday olasi bor edi. Tumshug'i atrofidagi olalar uning Frenkday it bo'lib yetilishiga umid tug'dirardi.

Endi kuchukka ot qo'yishim qoldi. Bu oson: men uni Bingo deb atadim.

II

Shunday qilib, Bingo qishning oxirini bizning kulbarnimizda qishladi. Takasaltang, xomsemiz, ahmoqona hayot kechirdi. Hamaqadar semirib, kun sayin



beso'naqay bo'lib qoldi. U hatto mushukdan uzoqroq yurish kerakligini ham o'ylab ko'rmadi. Uning mushuk bilan do'st tutinishga urinishi, turgan gap, mushukka yoqmadi, oqibat, ularni bir necha bor tayoq bilan ajratib qo'yishga to'g'ri keldi.

Shunda Bingo hayotga juda erta mustaqil qadam qo'ydi: kulbani tark etib, saroyga borib yashashga ahd qildi.

Bahor kelgach, men Bingoning tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullana boshladim. Ko'p ter to'kdim, Bingo esa ko'p qiynaldi. U hademay mening amrimga binoan dashtda o'tlab yurgan qari sariq molimizni qidirib topib keladigan bo'ldi.

Ko'p o'tmay, bu ish Bingoga yoqib qoldi, u zo'r ishtiyoq bilan molimizni uyga haydab keladigan bo'ldi. Imo qilishim bilan xushchaqchaq hurib, dashtga qarab chopdi, yerdan baland-baland sakrab, molimizning qayerda o'tlayotganini izladi. Xiyol o'tmay molimizni oldiga solib, lo'killatib haydab keldi. Molimiz pishqirib, harsillab, og'ilxona burchagidagi joyiga joylashgandan keyingina Bingoning ko'ngli tinchidi.

U molni haydab kelishga haddan ziyod berilib ketmaganda edi, biz uni o'z holiga qo'yib qo'yardik, lekin u endi Donni laqabli bu molni bizning amrimizsiz ham oldiga solib keladigan bo'ldi. Oxir-oqibat, shu darajaga borib yetdiki, u mol bechorani bir-ikki martayamgina emas, kuniga o'n ikki martalab haydab keladigan bo'ldi. Shunchaiki yugurgisi kelsa yo bekorchi bo'lsa, yoki xayoli og'sa ham to'g'ri dashtga qarab yugurib, xiyol o'tmay bechora molimizni oldiga solib kelaverdi.

Avval-avval Bingoning bu ishi foydaliday tuyuldi, chunki mol uydin olislab ketmay, shu yaqinda yuradi. Keyin-keyin itning ishi molning joniga tegdi. Mol



oriqlab, kam sut bera boshladi. Kapalagi uchib, tevarakka olazarak boqib, itning qachon paydo bo'lishini poylaydigan bo'ldi. Ertalablari og'ildan chiqmay, qo'rqqanidan dashtga o'tlagani borolmaydigan bo'lib qoldi.

Bingo haddidan oshib ketdi. Uni yo'lidan qaytarishlar samarasiz bo'ldi, oqibatda, uni zo'rlab tiyib qo'yishga to'g'ri keldi. U Donnini boshqa quvishga yuragi betlamadi, lekin molni sog'ayotganlarida og'il og'zida uzala tushib, unga tikilib yotdi.

Yoz kelib, mayda chivinlar ko'payib qoldi, ular turli-tuman narsalarni bulg'ab boshladi. Yana-tag'in molni sog'ayotganda unga aylanib, tinchlik bermadi, oqibatda, mol dumini silkiy berib, sog'dirgani qo'ymadi.

Molni sog'uvchi Fred ukam mol dumini likillatmaslikning yo'lini o'ylab topdi. U molning dumiga g'isht bog'lab qo'ydi, endi dumini siljitmasligiga amin bo'lib, sog'ishda davom etdi. Biz uning bu ishiga ishonqiramay qaradik.

Ishonmaganimizchayam bor ekan, kutilmaganda chivinlar aylanayotgan yerdan tars etgan tovush bilan so'kinish eshitildi. Mol bamaylixotir kavsh qaytaraverdi, Fred esa o'rnidan sapchib turib, achchiq bilan unga kursini otmoqchi bo'ldi. Achchig'lanmay bo'ladimi axir, mol dumini silkib, g'isht bilan Fredning quloq-chakkasiga soldi! Qarab turganlarning zaharxanda kulgisi esa uni battar ezdi.

Bingo g'ala-g'ovurni eshitib, janjalga aralashishni o'zining burchi deb bildi-da, molga narigi tarafdin hamla qildi. Bosdi-bosdi bo'lguncha sut yerga to'kilib, paqir bilan skameyka sinib bo'ldi, mol bilan it esa tayoq ostida qoldi.

Beshora Bingo nima ayb qilganini bilolmay hayron bo'ldi. O'zi-ku, ko'pdan buyon molni yomon ko'rib



yurardi, endi esa hatto uning og'ili eshigiga ham qaragisi kelmay, otxonada yotadigan bo'ldi.

Mol mening molim, ot esa akamniki edi, Bingo og'ilni tark etib, otxonaga ko'chib o'tdi, ayni vaqtda mendan ham yuz o'g'irgan bo'ldi. Shunday qilib, Bingo bilan bo'lgan oshnachiligimizga putur yetdi, ammo u biror kori hol bo'lsa akamning emas, mening oldimga keladigan bo'ldi. Shunda u ham, men ham inson bilan it orasidagi yaqinlik faqat narigi dunyodagina barham yeyishi mumkinligini angladik.

Bingo yana bir marta podachilik qildi. Bu shu yilning kuzida Karberri yarmarkasida bo'ldi. Yarmarkada mollarni belgilangan ma'lum bir joyga haydab borish bo'yicha itlar bilan tozilar musobaqasi o'tkazildi, g'olib uchun ikki dollar qo'yildi.

Bir o'rtog'imning ha-hasi bilan Bingoni musobaqadoshlar ro'yxatiga yozdirdim, musobaqa bo'ladigan kuni molni qishloq ortidagi dashtga haydab yubordim. Musobaqa boshlanganda Bingoga mol o'tlayotgan tarafni ko'rsatib amr qildim:

– Bor, molni haydab kel!

Turgan gap, Bingo molni musobaqa hakamlari oldiga haydab borishini istadim.

Jonivorlar nima qilishni siz bilan bizdan yaxshi biladi. Bingoning jon-jahdi bilan chopib kelayotganini ko'rgan qari Donni undan faqat og'ilxonaga borib qutulishi mumkin ekanini tushundi, Bingoning yakka-yu yagona maqsadi esa molni iloji boricha tezroq og'ilga qamash bo'ldi. Bingo xuddi bug'uni quvayotgan bo'rimisol, molni dasht bo'ylab to'g'ri og'ilga qaratib quvdi, ko'p o'tmay ko'zdan g'oyib bo'ldi. Musobaqa hakamlari na itni, na molni boshqa qaytib ko'rmadi. Sovrin Bingoning yakka-yu yagona raqibi bo'lmish bitta tozida ketdi.



III

Erta ko'klamdan boshlab Bingoni tarbiya qildim, hademay uning o'zi menga aql bo'la boshladi.

Bundan ikki milcha narida, bizning kulbimiz bilan Karberri qishlog'i o'rtasida fermamizning chegarasini ko'rsatuvchi simyog'och bor. Bu uzun, yo'g'on simyog'och olisdan ham ko'rinadigan kichkina do'nglikka o'rnatilgan.

Kunlar o'tib, shu narsani sezdimki, Bingo bu simyog'ochni avval yaxshilab kuzatmasdan turib uning yonidan o'tmas ekan. Yana bir necha kundan so'ng bu simyog'och oldiga chiyabo'rilar bilan qo'shnilarimizning itlari ham kelib-ketishini bilib oldim.

Men necha bor bu simyog'och bilan Bingoning sirli yurishlari boisini bilib olish uchun uzun durbin orqali simyog'ochni kuzatdim.

Bilsam, bu simyog'och jonivorlarning o'zaro kelishuviga binoan adreslar stoli vazifasini o'tar ekan. Jonivorlar o'zlarining hid bilish qobiliyati tufayli yaqinda bu yerga qaysi birodarlari kelib-ketganini bilib olarkan. Yerga qor tushganda yana ham ko'p narsalarni bilib oldim. Bu simyog'och o'lkadagi adreslar stoli vazifasini bajaradigan belgilarning faqatgina bittasi ekan, xolos.

Bunday adreslar stoli viloyatda juda ko'p ekan. Adreslar stoli bir-biridan ma'lum bir masofada joylashgan bo'lib, har biri ko'zga tez tashlanadigan jismlardan tanlangan. Masalan, yo simyog'och, yo katta toshlar. Men yanayam e'tibor bilan kuzatib, butun boshli aloqa o'rnatish tarmoqlari borligini bilib oldim.

Har bir it yo bo'ri yo'lida uchragan adreslar stolidan to'xtab, bu yerda yaqinda kim bo'lganini bilib oladi. Bu odat biror klub a'zosi shaharga qaytib kelib, uning yo'qligida klubga o'simlar kelib-ketganini bilib



olish uchun yo'qlamalar daftarini ko'zdan kechirishiga o'xshardi.

Men Bingoning simyog'och oldiga kelib, tevarakni hidlab kuzatganini ko'rdim. U hurpayib hurdi, ko'zlari yonib, orqa oyoqlari bilan yer tirnadi. So'ng ketiga xo'mrayib qarab-qarab ketdi. Uning bu qarashi ma'nosini insoniyat tiliga tarjima qilsak, mana bunday bo'ladi:

«G'r-r-r, hap! Yana o'sha Makkarti sassiq ko'ppak kelibdi-da! Hap, bu kecha men uning kunini ko'rsataman, hap-hap!»

Boshqa bir kuni simyog'ochni aylanib hidlab, kutilmaganda g'azabi toshdi, chiyabo'rining izidan jo'nadi. Keyin bilsam, o'shanda Bingo o'ziga-o'zi shunday degan ekan:

«Bu shimoldan kelayotgan chiyabo'ri izi, undan anqiyotgan hid harom o'lgan molning hidi... To'g'rimi? Polluartning Brindl degan qari moli harom o'libdi-da? Buni tekshirib ko'rish kerak...»

U ba'zan dumini likillatib, simyog'ochni aylanib chopdi, yana qaytib keldi, Brendondan qaytgan ukasi Bill ko'rsin uchun izlarini ko'zga yanada aniq ko'rinadigan qilib qoldirdi. U o'ylagandek, bir oqshom ukasi Bill kelib qoldi, aka-uka diydor ko'rishganlarini nishonlash uchun adirga borib, bir ot o'laksasini topib, baham ko'rdilar. Shunday vaqtlar ham bo'ldiki, Bingo simyog'och oldiga kelib, qalbini larzaga soluvchi yangiliklar ustidan chiqdi. Shunda navbatdagi axborotlar belgisiga yugurib, bundan ham yangiroq ma'lumotlar olish uchun shoshildi.

Gohida simyog'ochni jiddiy e'tibor bilan kuzatib, o'zicha shunday deganday bo'ldi: «Bu nima? Bu kim bo'lishi mumkin?...»



Simyog'ochni aylanib, o'zicha o'yladi: «Adashmasam, u bilan bultur yozda suvdan suzib o'tayotganimizda ko'rishgan edim shekilli?»

Bir kuni ertalab Bingo simyog'och oldiga kelganda junlari hurpayib, dumi ko'tarilib, qaltiray boshladi, ko'ngli aynib, o'zini haddan ziyod yomon his qildi. Izni quvishdan kechib, to'g'ri o'z makoniga yo'l oldi. Yarim soatcha vaqt o'tdi hamki, o'ziga kelolmadi. Yag'rin junlari tikrayib, ko'zlari dahshat, nafrat bilan yondi.

Men Bingoning fe'l-atvorini, murod-maqsadini yaxshilab bilib oldim, Bingoning qo'rquv aralash «G'r-r-r! Hap!» deb irillagani ularning tilida «o'rmon bo'risi» degani ekan.

Men Bingodan ana shularni bilib oldim. Shundan keyin Bingo sovuq yotog'idan chiqib, kerishib, serjun yelkalariga qo'ngan qorlarni silkinib to'kib, panjalari bilan «tap-tap-tap» yer tepinib, qorong'ilik sari yo'l olardi, shunda o'zimga-o'zim aytardim:

«Ha, qari ko'ppak-e! Otxonada yotging kelmay, qayoqqa borayotganingni bilaman! Nimaga tunlari ayni bir vaqtda tevarakni aylanishingni, o'lja qidirib, qachon, qayoqqa borish kerakligini bunchalik yaxshi bilishingni endi anglab yetdim!»

IV

1884-yil kuzida de Vinton fermasining kulbasi mixlab tashlangach, Bingo boshqa joyga ko'chdi. U endi mening qo'shnim ham o'rtog'im bo'lmish Gordon Raytning otxonasida yashay boshladi.

Bingo o'zining yangi makonida birinchi qishni o'tkazdi, shu vaqt mobaynida xo'jayinning uyiga deyarli qadam bosmadi. Faqat bir falokat bundan mustasno. O'shanda miltiqning gumburlagan tovushi Bingoning



yuragini yorib yubordi. U panoh izlab, xo'jayinining uyiga qochib kirishga majbur bo'ldi.

Bingo doim otxonada tunadi, sovuq qahriga olgan tunlariyam otxonadan beri kelmadi. U tamoman erkin, ozodlikda yashashni istadi.

U tunlari olis-olislarda aylanib yuradigan bo'ldi. Ko'pchilik uni tanib qoldi. Bundan ancha uzoqda yashaydigan fermerlar Gordon cholni uchratib, agar uning iti kechalari yana shunday izg'iyversa, unda, uni sochma o'q bilan otajaklarini aytdi. Fermerlar aytganini qildiyam. Shundan buyon Bingo miltiqni ko'rsa o'takasi yoriladigan bo'lib qoldi.

Olis Petrelda yashovchi bir kishi ulkan o'rmon bo'risini ko'rganini, u qish kechalaridan birida bir chiyabo'rini tilka-pora qilib tashlaganini aytib berdi. U gapida ikkilanib, o'sha o'rmon bo'risi emas, Raytning iti bo'lishi kerak, dedi.

Qayerda sovuqdan harom o'lgan ho'kiz yo otrning o'laksasi bo'lsa, Bingo o'sha yerda hozir-u nozir bo'ldi, chiyabo'rilarni haydab yuborib, o'ljani o'zi pok-pokiza tushirdi.

U ba'zan uzoq qo'shnilarimizning itlari bilan urishgani boradigan bo'ldi. Bingoning yurish-turishi qanchalik xavf-xatar ostida bo'lmasin, biz uning eson-omon yurishiga ishonchimiz komil edi.

Bir kishi uchta bolasi bor chiyabo'rini ko'rganini, bolalari onasidan ko'ra ulkan, qora tusliligini, tumshuqlari ola ekanini aytib qoldi. Darhaqiqat, martning oxirlarida chana bilan ketayotib, kutilmaganda shu chiyabo'riga duch keldik. Chiyabo'ri soydan otilib chiqib, qocha boshladi. Bizning izimizdan qadamma-qadam chopib kelayotgan Bingo chiyabo'rini quvib ketdi. Chiyabo'rining yugurishiga qaraganda, u ta'qibdan unchalik ham hayiqayotganga o'xshamasdi. Xiyol o'tmay



Bingo unga yetib oldi, hech qanday olishuv sodir bo'lmadi. Aksincha, Bingo u bilan do'stona yonma-yon chopib, uning tumshug'ini yaladi. Biz hayron bo'lib, Bingoni chiyabo'riga ol-kishladik. Bizning qichqiriqlarimiz chiyabo'rini qo'rqitib yubordi, u qadamini tezlatdi. Bingo yana unga yetib olib, u bilan do'stona islashdi.

– Bu ona bo'ri-ku! U ona bo'riga ziyon bermaydi! – gap nimadaligini bilib qichqirdim men.

Oxir-oqibat, Bingoni zo'rlab olib ketishga to'g'ri keldi.

Shu voqeadan keyin chiyabo'rilardan baloga qoldik, ular haftalab bizga tinchlik bermadi, tovuqlarimizni o'g'irlab qochdi, bizning yo'g'imizda derazadan mo'ralab, bolalarni qo'rqitdi.

Bingo uyni qo'riqlagisi kelmay, chiyabo'rilarga erk berib qo'ydi. Nihoyat, chiyabo'rini o'ldirishdi, Bingo bundan qattiq g'azablendi. Chiyabo'rini o'ldirgan Oliverga nisbatan o'zicha urush e'lon qildi.

V

Inson bilan it do'stligi ajab, ko'ngilni toblovchi ish!

Butler olis shimoldagi bir hindular qabilasi haqida gapirib berdi. Aytishicha, ikkita qabila ichki nizolar oqibatida bir-birini yo'q qilibdi. Janjal bir qabilaga mansub hinduning itini ikkinchi qabilaga taalluqli qo'shnisi o'ldirib qo'yganidan boshlanibdi. Bizda ham itlar tufayli ichki nizolar, hatto urish-janjallar bo'lib turadi, lekin biz: «Egasini izzat qilgan – itiniyam izzat qiladi», degan qadimgi taomilga amal qilamiz.

Qo'shnilarimizdan birining Tan laqabli ajoyib bir tozisi bor edi. Qo'shnimiz uni olamdagi eng yaxshi, eng ajoyib it deb bilar edi. Men qo'shnimizni hurmat qilardim, shu boisdan itiniyam izzat qilardim. Bir kuni



shu Tan og'ir yaralanib, uyiga zo'rg'a emaklab keldi, ostonadayoq zorlanib ingillay boshladi. Qo'shnimiz qattiq qayg'urib, agar Tan o'lib qolsa, uning uchun qasos olishga tayyor ekanini bildirdi. Men qo'shnimizga hamdardlik bildirib, o'sha zolimni qidirib topishga tushdim, uning boshi uchun shirinkoma atadim. Ko'p o'tmay, janub tarafimizda yashovchi har uch odamning bittasi bu razil ishda ishtirok etganini aniqladim. Biz ularga da'vo qildik, ablahlarni bechora Tanning mash'um o'limi uchun javobgarlikka tortmoqchi bo'ldik.

Biroq favqulodda bir hodisa sodir bo'lib, mening da'volarimni butunlay chippakka chiqarib yubordi, men uchun tozining o'limi kechirib bo'lmaydigan razillik emas, balki bosdi-bosdi qilib yuborsa bo'ladigan shunchaki bir jinoyatdek tuyuldi.

Gordon Raytning fermasi janub tarafga cho'zilib ketgan edi. Men bir kuni qotilni izlab shu yoqlarga borib qoldim. Gordonning ukasi nima maqsadda yurganimni payqab, meni chetga tortdi, tevarakka g'amgin alanglab, dardli ovozda dedi:

– Tanni Bingo o'ldirdi...

Shu bilan yugurib-yelishlarimni bas qildim, shu daqiqadan e'tiboran adliyachilarni chalgitishga urindim.

Men Bingoni allaqachon qo'shnimizning ixtiyoriga berib yuborgan edim, lekin u bilan haliyam do'stona aloqamiz bor edi, endi do'stligimizni yana bir bor amalda ko'rsatishga to'g'ri kelib qoldi.

Keksa Gordon bilan Oliver qalin oshna edilar. Ular qish o'rtalarigacha birgalashib o'rmon kesdilar. Keyin Oliverning qari oti o'lib qoldi, u ot o'ligini sudrab, dashtga olib borib tashladi, unga bo'rilarga mo'ljallangan zahar sepib qo'ydi.

Bechora bizning Bingomiz! U bo'rilarcha yashashni istardi, oqibatda, uyam bo'rilarning kunini ko'rib, ha-



yoti doim xavf-xatar ostida kechardi. Bingo ham bo'rilar kabi ot o'ligini yaxshi ko'rardi. U shu kechasi ham Raytning Kerli laqabli iti bilan ot yegani jo'nadi.

Ot tevaragidagi bazmi jamshid nihoyasiga yetdi, zahar o'z kuchini ko'rsatib, ular yo'lda og'u ta'sirida bo'lganicha bo'lishib, makonlariga zo'rg'a yetib keldi. Kerli egasi Gordonning oyoqlari ostiga o'zini tashlab, azob-uqubatda jon berdi.

Egasini izzat qilgan – itiniyam izzat qiladi!

Turli xil o'z-o'zini oqlashlar, falokatga yo'yishlar foyda bermadi. Bingoning Oliverga nisbatan bo'lgan eski nafrati yanada olov oldi. Rayt bilan Oliverning hamkorlikda o'rmon kesish ishlari barham yedi, o'rtalaridagi oshnachilik iplari uzildi. Kerli o'limi tufayli hali-hamon davom etib kelayotgan ikki qarama-qarshi guruh paydo bo'ldi.

Bingo bir necha oy deganda og'u zahridan forig' bo'ldi. Biz u endi burungi dovyurak, qudratli Bingo bo'lolmaydi, degan qayg'uda edik. Ammo u bahor kelishi bilan yana kuch-quvvatga to'la boshladi.

VI

Hayotimdagi ba'zi bir o'zgarishlar Manitobdan olis-
olislarga ketib qolishimni taqozo etdi. 1886-yilda yana
qaytib kelsam, Bingo haliyam Raytning uyida yur-
gan ekan. Men ikki yillab bu yerda bo'lmadim. Bingo
meni esidan chiqarib yuborgan bo'lsa ham kerak, deb
o'ylagan edim. Yo'q, unday emas ekan. U qish boshida
ikki kunlab g'oyib bo'lib ketib, uchinchi kuni yo'g'on
qoziqli bo'ri qopqonni sudrab keldi. Qopqonga tush-
gan yog'ini sovuq olib, toshday qotib qolgan edi.

Uni qopqondan xalos etishga hech kimning yuragi
betlamadi, chunki kim oldiga yaqin borsa irillayverdi.



Shunda men unga yaqinlashib, bir qo'lim bilan oyog'ini, bir qo'lim bilan qopqonni ushladim. U mening qo'limga og'iz soldi.

– Bingo, meni tanimayapsanmi?

U darrov qo'limni qo'yib yubordi. Qopqonni oyog'idan olayotganimda ko'p ingilladi, ammo qarshilik qilmadi. U meni ko'pdan buyon ko'rmagan bo'lsa-da, ammo meni o'z egasi deb bildi. Garchi uni birovlar ixtiyoriga berib yuborgan bo'lsam-da, men ham uni o'zimning itim deb bildim.

Garchi Bingo istamasa-da, baribir uni uyga olib kirishdi, ichkarida oyog'iga yopishgan muzlar erib tushdi. U butun qish davomida oqsab yurdi, sovuq olgan ikkita barmog'i qurib, uzilib tushdi. Kunlar isishi bilan u yana kuch-qudratga to'ldi.

VII

Men o'sha qishda qopqon bilan juda ko'p bo'ri, tulki tutdim. Bahor kelgandayam qopqonlarni yig'ib olmadim, chunki yirtqichlarni yo'q qilayotganim uchun pul olar edim.

Kennedi tekisligi qopqon qo'yishga qulay yer, chunki undan odam yurmaydi. Tekislik quyuq, zich o'rmonlar orasida joylashgan. Men u yerda ovda bo'lib ko'p mo'yna topganman.

Aprel oxirlarida shu tekislikka yo'l oldim.

Ma'lumki, bo'riqopqon pishiq temirdan yasaladi. Bo'ri qopqonda ikkita prujina bo'lib, har birining kuchi yuz funtga baravar keladi. Har bir ko'rinmas tuzoq tevaragiga to'rttadan qopqon qo'yilib, qoziqqa yaxshilab bog'lab tashlanadi. Shundan so'ng ustidan qum sepib, yaxshilab bekitib qo'yiladi.



Qopqonlarimning biriga chiyabo'ri ilinib qoldi. Men uni tayoq bilan bir urib o'ldirib, o'ligini chetga otib yubordim. Yana qopqon qo'ya boshladim.

Hademay qopqon tayyor bo'ldi. Qopqon buragichni otim turgan tarafga otib yubordim, shunday yonimdagi mayda qumlarga ko'zim tushib, uni kaftlarim bilan sidi-rib olmoqchi bo'ldim.

Qanday ahmoqona xayolga boribman-a! Qanday tentaklarcha dovdirlik qilibman-a! Bu mayda qumlar ostida qopqon bor ekan, men qopqonga tushib qoldim!

Xayriyat, shikastlanmadim, chunki bu qopqonning tishi yo'q edi. Ammo qalin ov qo'lqopim g'ijim bo'ldi, qo'lim temir iskanjasida ozor chekdi.

Parvo qilmadim, o'ng oyog'imni buragichga uzatdim. Oyog'imni iloji boricha cho'zib uzatib, uchi bilan buragichni ilib olmoqchi bo'ldim. Buragichga bir vaqtning o'zida ham oyoq uzatib, ham qarab bo'lmas edi. Shu sababli qaramay, oyog'im uchi buragichga tegishini kutib uzataverdim.

Avval urinishlarim samara bermadi. Oyog'imni qancha uzatmayin, buragichga yetkaza olmadim. Oyog'imni uyoq-buyoqqa silkidim, foydasi bo'lmadi. O'ng oyog'imni uzatib, silkiyverib, chap oyog'imni esdan chiqarib qo'yibman. Chap oyog'imni uchinchi qopqon shiq etib o'z iskanjasiga olmaganicha uni o'ylamabman.

Holim xarob bo'lganini hadeganda tushunavermadim, so'ng, qopqondan qutulib ketolmasligim aniq ekanini anglab yetdim. Qopqonlardan qutulib ketish uyoqda tursin, ularni hatto o'rnidan qimirlata olmadim. Yerda uzala tushib yotaverdim.

Endi holim nima kechadi? Kun iliq, muzlab qolishdan qo'rqqamasam ham bo'ladi. Lekin shunday yotayotayamanmi? Kennedi tekisligiga qishda daraxt kesuvchilar kelib ketishini aytmasa, boshqa vaqt



hech kim kelmaydi. Buning ustiga, mening qayoqqa ketganimni hech kim bilmaydi, demak, qopqondan chiqolmasam men yo bo'rilarga yem bo'laman, yo ochimdan o'laman!

Shunday yotaverdim, quyosh qizarib, botqoqlikdagi qarag'ay butalari ortiga og'ib ketdi. Bir-ikki qadam nari-dagi do'nglikda bir to'rg'ay oqshom qo'shig'ini kuyladi. Qaysi bir oqshom kulbimiz eshigi oldida ham to'rg'aylar xuddi shunday ashula aytib edi. Qo'limda og'riq turdi, a'zoyi badanim sovuq qotdi, shunday bo'lsa-da, qush-larning quloqlari ustidagi uzun, taram patlarini tomo-sha qilib yotdim. Keyin, xayolim oqshomlari Raytning uyida bo'ladigan dasturxonga ketdi. O'zimcha, hozir ular yo kechki ovqatga cho'chqa go'shti qovuryapti, yo allaqachon stol atrofida o'tiribdi, degan xayolga bordim. Otimning yugani yerga osilib, meni uyga olib ketish uchun kutib turaverdi. U mening bunchalik uzoq qolib ketishim sababini bilolmadi, ovoz berib chaqirsam, o'tdan boshini ko'tarib, menga angrayib, hayron bo'lib qarab turaverdi.

U uyga borsa yaxshi bo'lardi! Yoniga og'ib qolgan egarni ko'rganlar mening bir falokatga yo'liqqanimni bilardi. Keyin izlab kelishib, meni olib ketardi. Ammo u menga sodiq qolib, meni soatlab kutdi, men esam ochimdan o'ladigan bo'lib qoldim.

Shunda men kekxa bo'ri ovlovchi Jiruning halokatini esladim.

Qari ovchining o'rtoqlari uning suyaklarini kelgusi bahorda oyog'i ayiq qopqonga qisilgan holda topib ol-gan edilar. Men, bordi-yu, olamdan o'tsam, o'rtoqlarim suyaklarimni qaysi kiyimlarimdan bilib olishini o'ylay boshladim...

Xayolimga favqulodda fikr keldi: qopqonga tushgan bo'ri mana shunaqa azoblarni boshidan kechirar ekan-



da! Ularni qanchalar qiynabman! Mana endi yaratgan-ning o'zi meningayam ko'rsatdi...

Asta-asta tun cho'ka boshladi. Qayerdadir chiyabo'ri uvilladi. Ot quloqlarini ding qilib, mening oldimga kelib, boshini egib turdi. Bo'rilar biri qo'yib biri uvilladi. Ular shu yaqin bir joyga yig'ilayotganini sezdim. Nima qilishimni bilmay, cho'zilganimcha yotaverdim. Bo'rilar hozir buyoqqa kelib, meni tilka-pora qilib tashlasa juda yaxshi bo'lardi, deya o'yladim o'zimcha.

Bo'rilarning bir-birini chorlab uvillashini uzoq eshitib yotdim, so'ng ularning qorong'ilikdagi qora sharpalariga ko'zim tushdi. Bo'rilar eng avval ot ko'rdi, pishqirib, ularni biroz nari ketishga majbur qildi. Biroq bo'rilar yana qaytib kelib, uzoqdan atrofimni o'rab oldi. Bir botirroq'i hali men chetga otib yuborgan chiyabo'ri jasadni oldiga kelib, uni tortqilab ko'rdi. Men bo'riga baqirdim, u g'ingshib, nari ketdi. Yana qaytib kelib, biroz timirskilanib turdi, nihoyat, jasadni sudrab olib ketdi. Bo'ri bo'rini yedi.

Keyin ular menga yaqinroq kelib, tevaragimni o'rab o'tirdi. Eng dovyuragi miltig'imni iskab, unga tushgan tuproqlarni sidirib tashladi. Men unga bo'sh turgan oyog'imni silkib, baqirdim, bo'ri nari ketdi, indamayotganimni bilib yanada botirroq bo'ldi, hatto to'g'ridan-to'g'ri yuzimga tikilib irilladi. Buni ko'rgan boshqalariyam dadil bo'lib, irilladi, yanada yaqinimga kela boshladi. Men endi o'ldim, tilka-pora bo'ldim, deb o'yladim. Shunda birdan zim-ziyo tun bag'ridan boshqa bir ulkan, qop-qora bo'ri uvillab paydo bo'ldi.

Bo'rilar tumtaraqay bo'lib qochdi, bittasini yangi kelgan ulkan bo'ri ushlab olib, shu daqiqadayoq jonsiz jasadga aylantirdi. Shundan so'ng bu qo'rqinchli yirtqich... Uh, qanday dahshat... bu yirtqich menga tashlandi. Qarasam, o'zimning Bingom mayin junli yunlari



bilan menga suykalyapti, sovuqda qotgan yuzimni yalayapti...

– Bingo... Bingo! Eski qadrdonim... bor, buragichni olib kel!

U yugurib borib, miltiqni sudrab keldi.

– Yo'q, Bingo... buragichni deyaрман!

U yana chopib ketib, bu safar kamarimni olib keldi. Nihoyat, buragichni ham topib keldi, aytganimni topib kelganini ko'rib, quvonchidan dumini likillatdi.

Bo'sh qo'limni uzatib, juda qiyinchilik bilan qopqon vintini buradim. Qopqon ochilib, qo'lim ozod bo'ldi, bir daqiqalardan keyin o'zim ham butunlay ozod bo'ldim. Bingo otni oldiga solib keldi. Biroz harakat qilgach, qonim yurisha boshladi, so'ng otga mindim. Yo'lda avval asta-asta yurdik, keyin chopdik. Bingo oldinda bor ovozi bilan tantanali hurib, bizning kelayotganimizni ma'lum qilib yura boshladi. Uyga kelib eshitsam, jonivor Bingo shu oqshom ko'p bezovta bo'libdi. Irillab, o'rmon yo'lidan ko'zini uzma bdi. Qorong'i tushgach esa, uni qanchalik ushlamasinlar, baribir qo'ldan qochib chiqib, qorong'ilikda ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Mening sodiq Bingoginam! U kuchukligida shundayam bir ajabtovur edi! Bir qarasang tupp-tuzuk edi, yana bir qarasang, senga qiyo ham boqmasdi. U umrining oxirigacha shunday bo'lib qoldi.

Umrining oxirigacha bo'rilar hayot kechirdi, bo'rilar odatiga amal qilib, qishda nobud bo'lgan otlarni qidirib topdi. Xuddi shu odati uning boshiga yetdi. U zaharlangan ot o'ligini topib olib, uni bo'rilar ochko'zlik bilan yedi. So'ng o'lim azobida qiynalib, Raytnikiga emas, yo'q, mening kulbam ostonasiga keldi.

Ertasi kuni uyga qaytib kelib, Bingoning qorustida uzalib yotgan jasadini ko'rdim. U umrining so'nggi



daqiqasigacha mening itim bo'lib qoldi, o'lim azobida mendan madad so'radi. Afsus, kech bo'lgan edi.

SPRINGFIELD TULKISI

I

Yozgi ta'tilda Springfildga kelib, bir oydan buyon tovuqxonadagi tovuqlar birin-ketin g'oyib bo'layotganini eshitdim. Uydagilar tovuqlar qayoqqa yo'qolayotganini aniqlashni menga yukladi. Ko'p o'tmay men bu ishning uddasidan chiqdim. Ma'lum bo'lishicha, tovuqlar qo'ndoqqa chiqmasidanoq kimdir ularni ushlab ketar ekan. Ko'chada yurgan daydilar bilan qo'shnilarimizdan bunday ish kelmaydi. Boyo'g'li faqat qo'ndoqdagi tovuqni o'g'irlaydi. Bordi-yu, tovuqxonaga sassiqko'zan, suvsar, qunduz aylansa, ular tovuqni shu yerning o'zidayoq saranjomlab, suyak-patlarini sochib ketadi. Yo'qolgan tovuqlarning esa iziyam yo'q. Demak, bu ish faqat tulkidan keladi.

Bepoyon Erindel qarag'ayzori daryoning narigi qirg'oqlarigacha boradi. Men shu daryoning quyi kechuvlaridan birini ko'zdan kechirib, bir nechta tulki izlari bilan bizning plimutrok zotiga mansub tovuqlarimizdan birining ola-bula patiga ko'zim tushdi. Qirg'oq bo'ylab yurib orqa tarafdin chumchuqlarning shovqin ko'tarib chirqillaganini eshitdim. Qayrilib qarab, kechuv boshida bir gala chumchuq nimagadir yopirilib chirqillayotganini ko'rdim. O'g'rini qaroqchi urdi, degan eski naql shu-da. Darhaqiqat, bir tulki tishida nimadir tishlab kechuvdan o'ta boshladi. Turgan gap, u bizning tovuqxonamizdan yangi o'lja olib kelyapti. Chumchuqlar esa: «Ushla o'g'rini!» – deya tinimsiz chirqilladi. Asli-



da-ku, chumchuqlarning o'zi qip-qizil o'g'ri. Bordi-yu, chumchuqlarga o'ljadan ozroq tegsa, ular shu ondayoq nafaslarini o'chiradi.

Odatdagidek, tulki o'z iniga shu kechuvdan o'tib borardi. U suvda suzib, boshi uzra tinimsiz chirqilla-yotgan chumchuqlarga qarshi hech nima qilolmay qoldi. U og'zida o'lja, oqimni dadil kesib suzib kelaverdi. U qirg'oqqa yetay deganda men oldidan chiqdim. Shunda u chalajon tovuqni tashlab, o'rmonga qarab qochdi.

Tulkining tovuqxonamizga uzluksiz qatnashiga qaraganda uning bola-chaqasi ko'p, u bolalarini boqish uchun shunchalik yelib-yugurayotgan edi. Men uning bolalarini izlab topishga ahd qildim.

Kechqurun Renjer laqabli tozi itim bilan yo'lga tushdim.

Daryodan o'tib, Erindel o'rmoniga keldim. It o'rmonni aylanib edi, yonimizdagi qop-qora quyuq changal ichidan tulki ovozi keldi. Renjer ovoz kelgan tarafga chopdi, ovoz olislab ketmasin uchun yo'lni o'rtadan kesib yugurdi.

Bir soatlardan keyin avgust issig'ida nafasi qaytib, og'ir-og'ir entikib kelib, oyoqlarim ostiga cho'zilib yotib oldi.

Ammo yana shu yaqindan «vanq-vanq-vanq» degan tulki ovozi eshitildi. Renjer yana quvishga tushdi. U qorong'i o'rmon oralab ko'zdan g'oyib bo'ldi, ammo tumanda guvillagan kema ovoziga o'xshash dag'al, baland ovozi o'rmon aro jaranglab turdi. Uning «vov-vov-vov!» degan ovozi sekin-asta pasayib, «uu, uu!» bo'ldi, keyin «oo, oo!» deya juda zaif eshitildi, bora-bora ovozi butunlay o'chdi. Aftidan, u juda olislab ketdi, chunki qulog'imni yerga qo'yib ham hech nima eshitolmadim, vaholanki, Renjerning o'tkir ovozi bir necha millar nari-



Zim-ziyo o'rmonda Renjerni poylab o'tirib, kutilmaganda chakillab tomayotgan suv tovushini eshitdim: chink-chak, chink-chak, chink-chak!..

Men shu yaqinda buloq borligini bilmabman. Buloq nafasni bo'g'uvchi dim kechada men uchun quvonchli yangilik bo'ldi. Suv tomchilayotgan tarafga yo'l olib, ulkan eman daraxti oldida to'xtadim. Suv qo'shig'i qanday ajoyib qo'shiq! Suv qo'shig'i ushbu dim kechada yanada huzurbaxsh jarangladi!

Chink-chak, chink-chak, chink-chak,
Chik-chik, chik-chik, chik-chik,
Chak-chuk, chak-chuk, chak-chuk,
Ich-ich, ich-ich, ich-ich!

Favqulodda yaproqlar shitiri, xirillagan ovoz Renjer kelganidan darak berdi. U butunlay holdan toygan edi. Tili yerga osilib, undan ko'pik tomardi. Biqinlari g'arq terga botgan edi. U harsillab nafas olib, qo'llarimga suykaldi, so'ng o'zini yerga tashlab, yaproqlar uzra cho'zilib yotib oldi, harsillagan ovozi o'rmondagi boshqa ovozlarni bosib ketdi.

Kutilmaganda yana «vanq-vanq-vanq» degan shirali ovoz eshitildi, ovoz shundaygina yonimizdan kelardi. Men shundagina gap nimadaligini angladim.

Biz tulkining iniga kelib qolgandik, inda uning bolalari bo'lib, u bizni inidan chalg'itish uchun shunday qilayotgan edi.

Buyog'i tun yarimlab, uyga qaytishga to'g'ri keldi. Tulkining inini deyarli topganimizga amin bo'lib, uyga qaytdim.

II

Shu atrofda bir tulki o'z bolalari bilan yashashini namuna bilardi, ammo uning ini shunday yaqiningada ekanini hech kim bilmasdi.



Odamlar uni Olatulki deb ataydigan bo'ldi, chunki uning ko'zlaridan boshlab gardani bilan quloqlari orasigacha cho'zilib ketgan olasi bor edi. Aytishlaricha, tulki bu olani quyon oviga borib, tikanli sim to'siqlardan o'tayotganda orttirgan edi. O'shanda sim tilib ketgan yaralari o'rnida oppoq junlar o'sib chiqdi.


Tizma qator oq junlar ko'zga tez tashlanib, tanimol bo'lib qoldi.

Men bu tulki bilan o'tgan qishda yuzma-yuz bo'lib, uning ayyorligidan ancha-muncha xabardor bo'lib edim. O'shanda yerga birinchi qor tushishi bilanoq ovga yo'l oldim. Bo'm-bo'sh daladan o'tib, eski tegirmon ortidagi changalzor soyga yetib keldim. Kelishim bilanoq soyning menga qarama-qarshi betida pastga enib borayotgan bir tulkiga ko'zim tushdi. Tulkiga bildirib qo'ymasligim uchun joyimda qotib turdim, tulki soydagi quyuq changalzor jarga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. U ko'zdan yo'qolishi bilanoq soyga qarab chopdim, uni jarning berigi yog'ida uchratishga urindim. Ammo tulki qorasini ko'rsatmadi.

Atrofni yaxshilab ko'zdan kechirib, hozirgina chakalak orasidan chiqib kelgan tulki iziga ko'zim tushdi. Nihoyat, qari Olatulkinining o'zini ko'rdim; u mendan xiyla narida turar, aftidan, mening ustimdan kulayotganga o'xshardi.

Uning izlaridan ko'p narsalarni bilib oldim. Men uni ko'rgan paytimda, uyam meni ko'rgan, men tajribali ovchidek bemalol yuraverganman, u esa qochib, mening ortimga o'tib olgan. U mening nodonligimdan minnatdor bo'lib, izimdan kelavergan.

Bahorda Olatulkinining naqadar ayyorligiga yana bir bor amin bo'ldim. Bir kuni oshnam bilan yuqori o'tloqda sayr qildik. Orasida bir-ikkita kulrang, sarg'ishrang palaxsalar ko'zga tashlanib turgan toshlar tizmasiga qarab



o'ttiz futchga yo'l bosdik. Toshlar yaqiniga kelganimizda oshnam bir toshni ko'rsatib:

– Hay, anavi tosh g'ujanak bo'lib yotgan tulkiga o'xshar ekan, – dedi.

Ammo men oshnam ko'rsatgan tosh bilan tulki orasi-da hech qanday o'xshashlik ko'rmadim. Biz yo'limizda davom etdik.

Besh-olti qadam yurmagan ham edik, birdan shamol turib, haligi toshning junlari hilpiraganday bo'ldi.

Oshnam yana ta'kidladi:

– Ishonchim komilki, shu tosh – uxlayotgan tulki!

– Hozir bilamiz! – deya izimga burildim.

Yo'ldan bir qadam chetga yurganimni bilaman, haligi tosh – Olatulki joyidan sapchib turib, qochib qoldi.

Dashtga o't ketib, o'tloqning o'rtalarini kuydirib, qop-qora qilib yuborgan edi. Olatulki ana shu qora dog'lardan chopib o'tdi, olovdan omon qolgan sap-sariq xashaklarni mo'ljallab chopib, ularning panasiga o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Turgan gap, u bizning har bir bosgan qadamimizni kuzatib yotgan, agar men yo'ldan bir qadam chetga chiqmaganimda u joyidan qimirlamas ekan. Gap uning rangi yumaloq tosh bilan qovjirab qolgan o'tga o'xshab ketishida emas, yo'q, eng ajablanadigan joyi, u shu narsani yaxshi bilardi, bundan ustalik bilan foydalana olardi.

Shunday qilib, Olatulki bilan jufti haloli bo'lmish Viksen o'zimizning qarag'ayzor o'rmonida yashashini, iqtisodi bizning tovuqxonamizdan kechishini bilib oldik.

Ertasi kuni ertalab, qarag'ayzorda aylanib yurib, shu yaqin oylar ichida qazilgan yumshoqqina tuproq uyumini ko'rdik. Tuproq nimaningdir inidan chiqarib tashlangan, inning o'zi qayg'ida, bilib bo'lmadi.



Odatda, ayyor tulkilar mana bunday qiladi: o'ziga yangi in kovlab, tuprog'ini teshikdan tashqariga chiqarib tashlaydi, xuddi shu joydan yaqinroqdagi bir soyga qaratib yer osti yo'li ochadi. Keyin inning tuproq chiqarib tashlagan birinchi og'zini butunlay yopib, soydan chiqadigan yashirinchaga og'zidan kirib-chiqib turadi.

Darhaqiqat, tuproq uyumining qarama-qarshi tarafiga qarab yurib, inga kirib chiqiladigan asl yo'lni topib oldim, ichkarida tulki bolalari borligini sezdim.

Changallar yuqorisida, tepa yonbag'rida ichi kovak ulkan Amerika arg'uvoni savlat to'kib turibdi. Daraxt tanasining pastida katta, yuqori qismida esa kichkinagina kovaklari bor. Bolaligimizda shveytsar Robinzon o'yinini o'ynamoqchi bo'lsak, ko'pincha shu daraxtdan foydalanar edik. Buning uchun daraxtning yumshoq tanasini o'yib, kovak ichiga kirib chiqadigan zinapoya qilardik. O'sha zinapoyalar yana asqotdi, ertasi ertalab kun isiganda zinapoyalar orqali daraxtga chiqib, shu yaqindagi yer ostida yashaydigan tulkilar oilasini kuzata boshladim. Tulkining to'rtta norasida bolasi bo'lib, ular maydagina buzoqlarga o'xshab ketardi, chunki tulki bolalarining junlari ham buzoqlarnikiday paxmoq, oyoqlari uzun, ko'zlari mo'ltirar edi. Ammo ularning keng, qirra burunli, o'tkir ko'zli basharasiga e'tibor bilan qarasangiz, shu mayda-maydagina beozor jonivorlarda ham o'z ajdodlariga xos bo'lmish ayyorlik nishonalarini ko'rasiz.

Ular oftobda sho'xlik qilib, pitir-pitir o'ynab, ko'ngillarini chog' qildi, shitirlagan ovozni eshitib, yer ostiga g'oyib bo'ldi. Ular bekordan-bekorga qo'rqib qochdi. Shitirlab kelayotgan o'z onalari edi. U tishida tovuq tishlab, butalar orasidan chiqib keldi. Yanglishmasam, bu bizning o'n yettinchi tovug'imiz edi. Ona tulki bolalarini chaqirdi, bolalari indan umbaloq oshishib chiqib keldi. Xuddi shunda ko'z oldimda go'zal bir manzara



namoyon bo'ldi: tulki bolalari tovuqqa yopishdi, bir-birlari bilan talashib, tovuqni yulqilab tortdi, onasi esa tevarakdan ko'z-quloq bo'lib, ayni vaqtda bolalariga quvonch bilan boqdi. Basharasida tabassurga moyil xushvaqtlik kayfiyati paydo bo'ldi. Baribir nigo-hida hamishagi yovvoyilik, ayyorlik, yovuzlik ham besaranjomlik bor edi, shuningdek, onalarga xos mehr, faxr ham bor edi.

Men chiqqan daraxt tagi tulkilar ini joylashgan do'nglikdan ancha pastda, changallar ichida edi. Shu sababli men tulkilarga bildirmasdan istagan paytimda bu yerga kelib ketishim mumkin edi.

Bu yerga ko'p kunlar qatnab, tulki bolalarining qanday o'sayotganini kuzatdim. Ular sal shubha sez-gandanoq boshpanasiga qarab yugurishni juda erta o'rgandi. Sal shitirlagan tovushni eshitdimi, o'zlarini yer ostiga uradigan bo'ldi.

Ba'zi bir jonivorlarda onalik mehri shunday barq urib ko'rinib turadiki, bundan bolalarining ko'ngli quvonadi. Ammo qari Viksen bunday onalardan emas-di. Uning bolalariga bo'lgan mehr-muhabbatida cheksiz zolimlik ham mujassam edi, Masalan, kalamush, qush-larni tiriklayin tutib, ularga tan jarohati yetkazmay olib keladi, sababi, bolalari ularni iloji boricha ko'proq qiy-noq-azoblarga solib yeyishini istaydi.

Tepadagi mevazor bog'da bir sug'ur yashaydi. U beo'xshov, kampsand, u qarag'ay tomirlari orasidan o'ziga in kovlab oldi, bu inga tulkilar o'lib ham kirol-maydi. Unga kirib borish uchun ko'p mehnat qilish kerak. Tulki zoti esa mehnatni xush ko'rmaydi. Ular mehnatdan ko'ra ayyorlikni afzal ko'radi.

Sug'ur har ertalab qarag'ay kundasiga chiqib, oftob-ga isitib yotishni yaxshi ko'radi. Tulkini ko'rishi bi-lan bog'ga tushib, inining bog'ziga borib turadi. Bordi-



yu, tulki yana yaqin kelaversa, u iniga kirib olib, tulki ketmagunicha inidan chiqmaydi.

Bir kuni ertalab er-xotin Olatulki bilan Viksen bolalarini sug'urlar hayoti bilan tanishtirishga ahd qildi, buning uchun mevazordagi aynan ana shu sug'ur bop kelishini o'ylashib, boqqa tomon yo'l oldi. Qari sug'ur ularni payqamadi.

Olatulki kunda yaqinidan avaylab o'tdi, sug'ur shubhaga bormasin uchun hatto boshiniyam qimirlatmadi, o'zini beozorgina tutib, ochiq maydonga chiqib oldi. Sug'ur pastga enib, inining og'ziga borib turdi, so'ng, har ehtimolga qarshi inining ichiga kirib oldi. Viksen xuddi shuni kutayotgan edi. U yugurib borib, kundaning panasiga bekindi. Olatulki esa o'z yo'lida imillab davom etdi. Inda o'tirgan sug'ur hech nimadan hadiksiramay, tomirlar orasidan boshini chiqarib, tevarakka alangladi. Olatulki borgan sayin olislab ketdi, buni ko'rib turgan sug'ur yanada dadil bo'ldi. U inidan chiqib, xavf-xatar sezmagach, kundaga chiqib oldi. Xuddi shunda Viksen joyidan sapchib chiqib, sug'urni tutib oldi, sug'urni hushidan ketguncha uyoqdan-buyoqqa silkiladi.

Hammasini sezib turgan Olatulki ish hal bo'lganini ko'rib, birdan iziga qarab chopdi. Viksen sug'urni tishlab, bolalarining oldiga jo'nadi. Olatulki o'zining yordami kerak emasligini ko'rib, ko'ngli xotirjam bo'ldi.

Viksen sug'urni shunday avaylab olib keldiki, yerga qo'yishi bilanoq sug'ur o'ziga keldi, o'zini-o'zi himoya qilishga chog'landi. Viksen «vanq-vanq-vanq» deya bolalarini chaqirdi, bolalari indan to'dalashib chiqib keldi. Onasi ularning oldiga sug'urni tashladi. To'rtta shumtaka sug'urni har tarafdin o'rab olib, yirtoqsharcha tishlab tortdi, panjalari bilan ezg'iladi. Sug'ur ular bilan hayot-mamot kurashib bordi, panjalaridan qu-



tulib chiqib, changallar ostiga borib yashirindi. Tulki bolalari izidan quvib borib, uning dumini tishlab tortdi, ammo kuchlari yetmadi. Shunda onalari yordamga keldi. Viksen ikki intilishdayoq sug'urni ochiq maydonga sudrab olib chiqib, bolalarining oldiga tashladi.

Tulki bolalarining biri qattiq shikast yemagunicha shafqatsiz o'yin shunday davom etdi. Ozor chekkan tulki chiyillab yubordi, Viksen sapchib turib, sug'urning jonini oldi, ayni vaqtda bolalariga tushlik tayyorladi.

Indan nariroqda siyrak o'tlar bilan qoplangan tekislik bo'lib, tulkilar bu yerda sichqon ovlash bilan mashg'ul bo'ladi. Tulki bolalari xuddi shu yerda onalaridan o'rmonda yashash qonun-qoidalarini, shuningdek, sichqon ovlashni o'rgandi.

Qari Viksen bolalariga dastlab imo-ishoralarni o'rgatdi. Bu imo-ishoralar ma'nosi bunday edi: «Qimir-lamay yotib, kuzatinglar!» «Buyoqqa kelib men nima qilsam, sizlar ham shunday qilinglar!». Mashqlar bir necha marta takrorlandi.

Shunday qilib, go'zal yoz oqshomlarining birida quvnoq tulkilar to'dasi onalari bilan adirga yo'l oldi. Onalari ularga yerga qapishib yotinglar, degan farmon berdi. Zaif chiyillagan ovoz shu atrofda o'lja borligidan darak berdi. Viksen o'rnidan turib, oyoq uchida o't oralab ketdi. U yerga egilmadi, aksincha, qomatini yanada baland ko'tardi, hatto atrofni yanada yaxshiroq kuza-tish uchun orqa oyoqlarida tik turdi. Sichqon yuradigan yo'llar ayqash-uyqash bo'lib yotgan o'tlar orasida edi, shu sababli ularni topishning birdan-bir yo'li har bir qimirlagan giyohni nazorat ostiga olish edi. Tulkilar faqat sokin ob-havo vaqtida sichqon ovlashining boisi ham ana shunda. Bunda hamma narsa sichqonning qayg'usizligini aniqlab, uni ko'z bilan ko'rishni kutmas-dan, ustidan tap etib borishga bog'liq. Viksen shun-



day qildi. U sapchib, panjalari bilan bir tutam xashakni g'ijimladi, xashak ichidan o'lim talvasasida chiyillagan ovoz chiqdi. Sichqon tiriklayin tulki tomog'idan o'tdi. Tulki bolalari onasiga taqlid qilib boshladi. Ularning eslirog'i umrida ilk marta sichqon ushlab, quvonchidan titrab ketdi, o'zining endi chiqqan sut tishlarini sichqonning badaniga shunday yovuzlarcha botirdiki, bu ishidan o'ziyam hayron bo'lib qoldi.

Tulki bolalari qizil olmaxon bahona yana bir saboq oldi. Shu yaqinda bir to'polonchi, qo'poldan-qo'pol olmaxon yashaydi, u har kuni daraxtning tulkilar chiqolmaydigan eng baland shoxiga chiqib olib, tulkilarni so'kadi. Olmaxon u daraxtdan bu daraxtga irg'ib o'tayotganda tulkilar uni tutib olish uchun ko'p urindi, ammo foydasiz bo'ldi. Olmaxon bir futcha balandda o'tirib olib, tulkilarning ustiga tupurdi, tulkilarni og'ziga kelgan gap bilan so'kdi. Olmaxonning qanday jonivor ekanini yaxshi bilgan qari Viksen esa qulay payt poyladi, shu payt keldi deguncha ishga kirishdi.

U bolalarini bir pana joyga yashirib qo'ydi, o'zi esa ochiqdagi so'qmoq o'rtasiga chalqancha tushib yotib oldi. Kaltabin olmaxon shoxma-shox irg'ishlab, tulkining tepasiga yetib keldi-da, yana so'kib boshladi. Tulki pinaginiyam buzmedi. Shunda olmaxon unga yanada yaqin kelib, boshi uzra to'xtab, so'kishda davom etdi:

– Hey, yaramas! Hey, yaramas!

Viksen murdaday bo'lib yotaverdi. Olmaxon hayron bo'lib, daraxt tanasi bo'ylab pastga tushdi, tevarakka alanglab, yugurib borib narigi daraxtga chiqib oldi, shoxga joylashib o'tirib olib, qari tulkini so'kib qo'yaverdi:

– Hey ablah! Hey zararkunanda, ablah! Chi-i-yq, chi-i-yq!

Viksen shunda ham qimmetmadi.



Olmaxon tulkinging yotishiga juda qiziqib qoldi. U o'zi tabiatan juda qiziqqon, oldi-qochdi gapga o'ch edi, shu sababliyam daraxtdan tushib, tulkinging oldiga chopib keldi. Viksen nafasiniyam chiqarmadi. «O'lib qoldi deyman-ov!» – xayol qildi olmaxon. Hatto tulkingning bolalari ham tashvishda qoldi: onamiz uxlab qolmadimikin? Olmaxonning toqati toq bo'ldi. U tulkinging boshiga bir parcha daraxt po'stlog'ini tashlab ko'rdi. Viksen hamon jim. U so'qmoq bo'ylab bir-ikki marta uyoqdan-buyoqqa borib kelib, endi tulkinging shundaygina biqiniga borib to'xtadi. Shunda tulki birdan sapchib turib, olmaxonning bo'g'zidan oldi. Tulkilardan olmaxonning suyagiyam qolmadi.

Tulki bolalari ana shunday tarbiya ko'rib o'sdi, onalari ularni indan olisroqqa olib borib, iz olish, hid bilish sirlariniyam o'rgatdi.

Har bir jonivorning o'ziga xos ov qilish hunari bo'ladi, bu hunarni egallamasa bo'lmaydi. Har bir jonivorning boshqalarga nisbatan ustun tomoni bo'ladi, busiz u kun ko'rolmaydi, ayni vaqtda boshqalardan zaif tomoni ham bo'ladi, shunday bo'lmasa uning dastidan o'sha boshqalar yashay olmaydi. Masalan, olmaxonning zaifligi uning o'ta qiziqqonligi, tulkinging zaifligi esa daraxtga chiqolmasligidir. Viksen shularni nazarda tutib, bolalarini tarbiyalashda asosiy e'tiborni boshqa jonivorlarning zaif tomonlaridan qanday qilib foydalanish, o'zlarining ayyorlik fazilatlarini qanday qilib ishga solishga jalb etdi.

Tulkilar ota-bobolaridan tulkilikni o'rgandi. Qanday o'rganganlarini bilib bo'lmaydi, ammo qanday o'rgangan bo'lsalar ham, o'z ajdodlaridan o'rgangan.

Garchi so'z bilan aytmagan bo'lsalar-da, men tulkilardan ko'p tulkiliklarni bilib oldim. Mana, tulkilarning ayrim tulkiliklari:



Zinhor-bazinhor o'z izingda uxlama.

Burning ko'zingdan oldinda yuradi, shunday ekan, avvalo burningga ishon.

Faqat nodonlarga shamolga qo'shilib chopadi.

Oqar suv ko'p dardlarga davo.

O'ydin-chuqur jar turganda tekis yo'ldan yurma.

Zinhor-bazinhor to'g'ri yo'ldan yurma, izingni hamisha chalkashtirib yur.

G'ayritabiiy ko'ringan jamiki narsa shubhali ham xavflidir.

Chang bilan suv izni yo'qotadi.

Quyvon bor o'rmonda sichqon ovlama, tovuqxona-dan esa quyvon ovlama.

O't-o'landan olisda yur.

Tulki bolalari bu maslahatlarni quloqlariga quyib oldi. Ular yana boshqa foydali o'gitlarni ham yaxshi bilardilarki, «agar izda hech qanday hid bo'lmasa, uni poylab borma, foydasiz», «quvib borayotgan narsangning hidini ololmadingmi, demak, shamol sen tarafdin esyapti, demak, shamol sening hidingni g'animingga olib boradi».

Tulki bolalari qadrdon o'rmonlarida yashovchi deyarli barcha qush, hayvonlarni bilib oldi, bo'yiga yetib, onalari bilan olis-olislariga safar qilganda boshqa jonivorlarni ham ko'rib keldi. O'zlaricha, olamdagi barcha jonivorlarning hidini bilib olganday bo'ldi. Bir kechasi onasi ularni ochiq dalaga olib bordi, borsalar, dalada bir qop-qora yalpoq narsa yotibdi. Onasi ularni xuddi shu narsani hidlatish uchun olib keldi. Ular yalpoq narsa oldiga borib, uni hidlashlari bilan birdan junlari hurpayib, seskanib ketdi, hid go'yo qonlariga o'tib, qalblarida nimagadir nafrat, nimadandir qo'rquv tuyg'usini uyg'otdi. Ularga bu hid qanchalar ta'sir qilganini ko'rgan onasi shunday dedi:

– Bu – odam hidi!



III

Hamon tovuqxonamizdan tovuqlar yo'qolaverdi. Men tulkilar inini ko'rganimni hech kimga aytmadim. Chinimni aytsam, menga o'zimizning tovuqlardan ko'ra shu mayda-maydagina tekinxo'r tulki bolalari yoqib qoldi, tog'am esa birortayam gap topolmay qaytib kelganimni ko'rib, meni o'rmonni, umuman, ovni bilmaslikda aybladi. Tog'amning ko'ngli uchun yana tozini ergashtirib o'rmonga yo'l oldim, bir ochiq nishablikdagi to'nkaga joylashib o'tirib, itga tulki izlashni buyurdim.

Uch daqiqa ham o'tmay, itning hurib xabar berganini eshitdim: «Tulki, tulki! Pastdagi darada tulki bor ekan!»

Ko'p o'tmay, daryoga qarab kelayotgan Olatulkini ko'rdim. U daryo yoqalab suv kechib, ikki yuz qadamcha yurdi, so'ng, to'g'ri men tarafga yo'l oldi. Men shundaygina ko'zga ko'rinadigan joyda o'tirgan bo'lsam-da, tulki meni ko'rmadi, yelkalari osha itga qarab-qarab, tepaga o'rladi. Mendan o'n futcha narida to'xtab, menga teskari o'tirib oldi, bo'ynini cho'zib, itni kuzatdi.

Renjer hurib, oqar suvgacha chopib keldi, suvda hidni yo'qotib, hayron bo'lib qoldi. Izni topishning faqat bir yo'li qoldi: u endi daryoning har ikki qirg'og'i bo'ylab yurib, tulki qayerdan qirg'oqqa chiqqanini bilishi kerak edi.

To'g'rimda o'tirgan tulki itni yaxshiroq ko'rish uchun joylashibroq o'tirdi, xuddi odamga o'xshab, itni e'tibor bilan kuzatdi. Olatulki shunday yaqinimda ediki, men uning it har ko'ringanda junlari qanday tikrayib ketishigacha ko'rib turdim. Hatto yuragining urishini, ko'zlarining yonishini ham his qilganday, ko'rganday bo'ldim. U itni o'z nayrangiga uchirganiga to'la amin bo'ldi. U quvonchidan joyida o'tirolmay qoldi, zavq bilan uyoq-buyog'iga chiqqalib, ba'zan tentirab yur-



gan itni tomosha qilish uchun orqa oyoqlarida tik turib qaradi. Og'zi qulog'iga yetib tirjayib, pishillab-pishillab entikdi.

It izni qidirib, ko'p tentiradi. Nihoyat, topdi, ammo iz shunday eskirib, o'z rangini yo'qotib qo'ygan ediki, topdim, deb hurib o'tirmasa ham bo'lardi.

It tepaga qarab yurishi bilan tulki o'rmonga yo'l oldi. Men hamon uni shundaygina yonida o'tirib kuzatdim. Shunday qilib, qari tulki hayot-mamoti yigirma daqiqa mobaynida eng ashaddiy g'animi qo'lida bo'lganini bildi.

Renjer ham payqamay, yonimdan o'tib ketishiga oz qoldi, ammo men uni chaqirib oldim. It bir seskanib, menga qarab yurdi, menga xijolatomuz termulib, oyoqlarim ostiga cho'zildi.

Bu hangoma bir necha kun davom etdi, yana-tag'in uyning shunday yaqinida, daryo ortida bo'ldi. Nihoyat, tog'amizning toqati toq bo'ldi, o'zi ovga jo'nab, o'sha ochiq joyda o'tirib oldi. Olatulki yana o'sha nodon itning tentirashini tomosha qilish uchun nazorat joyiga keldi, yana yangi muvaffaqiyatidan quvonib, kulib o'tirib edi, tog'amiz o'ylab-netib o'tirmay, uni yelkasidan otib tashladi.

IV

Tovuqlar borgan sayin kamayib qolaverdi. Tog'amiz g'azab otiga minib, tulkilar bilan o'zi kurash olib borishga ahd qildi. O'rmonga zaharlangan tuzoq qo'yib chiqdi. U hamon mening ustimdan kulib, biror nima otib kelish uchun har kechqurun yelkasiga multiq osib, ikkita itni ergashtirib, o'rmon oralaydigan bo'ldi.

Viksen zaharlangan tuzoq nima ekanini yaxshi bildi. U yo tuzoqni yonlab qaradi, yo unga juda ehtiyo-



korona munosabatda bo'ladi. U bir safar shunday tuzoqdan birini topib olib, o'zining eski g'animi bo'lmish sassiqko'zanning iniga tashlab yubordi. Shundan buyon, shu sassiqko'zanning qorasi ko'rinmay qoldi!

Avvallari tulkilar inini itlardan Olatulki qo'riqlar edi. U endi yo'q, shunday ekan, bolalarni Viksen qo'riqlaydigan bo'ldi. Endi Viksenning inga olib keladigan izlarni yo'q qilishga, yaqin kelib qolgan g'animni adashtirishga vaqti qolmagan edi.

Qiyomat-qoyim bo'ldi. Renjer yangigina izlarni olib, inga jo'nadi, Skot laqabli ikkinchi it ham hamma tulki o'z inida ekanidan xabar berib, uyam inga yo'l oldi.

Sir ochildi, tulki bolalari boshi uzra halokat xavfi aylandi. Bir xizmatkorimiz kelib, lom, belkurak bilan inni kovlay boshladi, biz itlar bilan qarab turdik. Shu yaqinda qari Viksen paydo bo'ldi. Uni itlar oldiga solib quvdi. U daryo yoqalab chopib, bir qo'yning ustiga minib oldi. Yuragi chiqib ketgan qo'y ustidagi tulki bilan bir necha yuz qadam chopib bordi, ko'p o'tmay, ustidagi tulki yo'lda tushib qoldi. U izidan quvib kelayotgan itni ana shunday qilib adashtirib ketdi! So'ng xotirjam bo'lib, inga yo'l oldi.

Izni yo'qotgan itlar ham inga qarab yurdi, kelib, bizni o'z makonidan chalg'itish uchun uyoqdan-buyoqqa zir yugurayotgan o'sha tulkini ko'rdi.

Xizmatkor Poddi lom va belkurak bilan inni kovlashda davom etdi. U kovlayotgan chuqurning ikki yonida bir to'p sap-sariq qum paydo bo'ldi, chuqur ichidan uning faqat yelkasi ko'rinib turdi. U bir soatlar chamasi ter to'kdi, nihoyat, tulki inini ochib:

— Mana, ular, ser! — dedi.

Inning bir chekkasida to'rtta maydagina tulki bolasi pis qiyotardi.



Men o'rtağa tushgunimcha belkurak zarbidan, kichkina yirtqich Skotning hamlasidan tulki bolalarining uchtasi nobud bo'ldi. To'rtinchisini dumidan tortib olib, osmonga ko'tarib turdim, itlarning unga bo'yi yetmadi.

Tulki bolasi chinqirib yubordi, onasi uning ovozi eshitib, bekinib yotgan yeridan chopib chiqib keldi. U bolasini aylanib chopdi. Uni allaqachon otib tashlashardi, lekin itlar uni o'rab olib, otishga xalaqit berdi, izidan yugurtiraverib holdan toydirgan g'animini himoya qilayotganlarini anglab yetmadi.

Omon qolgan tulki bolasini qopga soldik, u miq etmay yotaverdi, juvonmarg bo'lganlarini esa inga qo'yib, ustidan tuproq tashlab yubordik.

Mash'um ishni qilib bo'lib, uyga keldik, tulki bolasini zanjirga bog'lab qo'ydik. Uni nega omon saqlab qolganimiz sababini hech kim bilmadi, ammo hammaning ko'nglida unga nisbatan achinish hissi paydo bo'ldi, shu boisdan ham uniyam yo'q qilish fikri hech kimning xayoliga kelmadi.

U bir tulki bolasiga, bir buzoqqa o'xshab ketadigan norasida jonivor edi. Serjun tumshug'i bilan tanasi buzoqqa kelbat berardi, ammo sarg'ish ko'zlari yovvoyi, ayyorona yonardi.

U yaqiniga biror odam yo'lasa, tezda qutiga kirib ketar, kelgan odam ketsa ham qutida soatlab bekinib yotardi.

Men endi uni arg'uvon daraxti kovaklaridan emas, o'z xonamning derazasidan kuzata boshladim. Uni o'ziga tanish turli xil tovuqlar toifasi o'rab oldi. Kun kech bo'layotganda tovuqlar yanada uning yaqiniga bordi. Birdan zanjir shiqirlab, tulki bolasi yaqinidagi bir tovuqqa yopishdi. Zanjir tortib qolmaganda u o'z tovuqni olardi. U o'z zarbi bilan orqasiga yiqilib tushib,



yana turdi-da, qutiga kirib ketdi. U tovuqni olish uchun yana ko'p urinib ko'rdi, endigi urinishlarida albatta zanjirning uzunligini e'tiborga olib urindi, ammo tovuqqa tumshug'i yetmadi.

Kech kirishi bilan tulki bolasi bezovta bo'la boshladi. Qutidan tashqari chiqib, biron sharpani sezdimi, darrov iniga kirib ketaverdi. Zanjirini silkib, old oyoqlari bilan yerga bosib, tishlay boshladi. Birdan go'yo bir nimani eshitayotganday jim bo'lib qoldi, qop-qora tumshuqchasini osmonga cho'zib, uzuq-uzuq ovoz chiqardi.

U ikki marta shunday qildi. Ora-orada zanjirini tishlab, atrofini aylanib chopdi. Nihoyat, qayerdandir qari tulkining javob sadosi keldi: «Vanq-vanq!». Bir necha daqiqa o'tib, o'tinlar uyumi ortida qandaydir sharpa paydo bo'ldi. Tulki bolasi avval qutiga kirib bekindi, keyin yana chiqib quvonch bilan onasining bag'riga talpindi.

Onasi uni tezlik bilan opichlab olib, qochib ketmoqchi bo'ldi. Ammo na iloj! Zanjir uni onasi quchog'idan tortib olib, yerga chalqancha yotqizdi. Onasi ochilgan derazani ko'rib, o'tin uyumlari osha qochib ketdi.

Bir soatlardan keyin tulki bolasi g'ingshimay, tipirchilamay qo'ydi. Derazadan mo'ralab, oy yorug'ida yerga uzala tushib yotib, nimanidir tinimsiz tishlab tortayotganini ko'rdim. Temirning shiqirlashidan nima gapligini bildim. Berahm zanjir qo'yib yuborsa edi, Tin laqabli bu tulki bolasi hozir borib, odatdagidek onasining pinjiga kirib, uni emib yotgan bo'lardi.

Tashqariga chiqsam, ona tulki allaqachon qorong'i o'rmonda g'oyib bo'lgan, Tin yashaydigan quti oldida qontalash bo'lgan ikkita o'rmon sichqonining o'ligi yotibdi, uni mehribon onasi bolasiga kechki ovqat uchun olib kelibdi.

Malab tulki bolasining zanjiri tishlayverganidan haddan ziyod yaltirab ketganini ko'rdim.



O'rmonda tulkilarning yakson bo'lgan ini atrofini aylanib yurib, yana Viksenning iziga yo'liqdim. Boshi qayg'uda qolgan bechora Viksen kelib, yer ostida qolgan bolalarini kovlab olibdi. Uchala bolayam qatorgina bo'lib yotar, ularni onasi yalayverib, pok-pokiza qilib qo'ygan edi. Yonlarida esa yaqindagina onalari ular uchun olib kelgan bizning ikkita tovug'imiz yotardi. Tevarak-atrofdan tulki izlari ko'p edi. U kechasi bolalarini shu yerga olib chiqqan, ular uchun kechki tamaddi olib kelgan edi. U bolalarining yoniga cho'zilib, o'zining onalik burchini bajarish ishtiyoqi bilan ularning labiga emchaklarini tutgan edi. Ammo o'zining jundor bag'rida jonsiz, qotib qolgan jasadlarni, yalab-yulqashlarga tamoman beparvo bo'lib qolgan jonsiz, sovuqdan-sovuq tumshuqchalarni ko'rgan edi. Ona tulki shu kundan e'tiboran xonavayron makoniga qayta qadam bosmadi, qadam bosib nimayam qilardi, bolalari olamdan o'tgan bo'lsa...

V

Bizning asirimiz Tin onasining omon qolgan yakka-yu yagona zurriyoti bo'lib, onasi bor mehr-muhabbatini shu yolg'iziga to'kkan edi.

Tovuqxonani qo'riqlash uchun itlar qo'yildi, xizmatkorimizga, bordi-yu, qari tulki kelib qolsa shartta otib tashlash topshirildi. Mengayam shunday topshiriq berildi, lekin men uni ko'rmaslikka qaror qildim.

Tovuq kallalariga zahar sepilib, o'rmonga sochib yuborildi, uni tulkilar xush ko'radi, itlar esa yemaydi. Buyog'i Tinning oldiga kelib-ketadigan yakka-yu yagona yo'l ham xavfli, qolaversa, yo'l o'tinlar uyumi ustidan o'tadi... Ammo qari Viksen har kechasi bolasiga



yangi tovuq yo boshqa biror nima olib kelib turdi. Men uni doim ko'rib yurdim.

Ikkinchi kechasi zanjir shiqirlashini eshitib, derazadan mo'raladim, quti oldida zo'r berib yer kovlayotgan qari tulkini ko'rdim. Tulki chuqurni tanasining yarmi sig'adigan darajagacha kovladi, so'ng bolasi bog'langan zanjirning yig'ilib qolgan joyini chuqurga solib, ustidan tuproq tashladi. U o'zicha bolasini shu yo'l bilan zanjirdan qutqarib olmoqchi bo'ldi, Tinni bo'ynidan tortib, o'tinlar to'dasi ustiga qarab yugurdi, hay attang-a! – zanjir tortib qolib, bolasi orqasi bilan yumalab tushdi.

Bechora maydagina jonivor zorlanib ingillab, qutisiga qarab o'rmaladi. Yarim soatlardan keyin it hurishi eshitildi. It ovozi borgan sayin olislab bordi, bildimki, it Viksenni quvib boryapti.

It ovozi tobora olislab, oxiri tindi. Viksenni quvib ketgan it ertalab qaytib kelmadi, sababini keyin bildik. Ayyor Viksen temir yo'l nima ekanini bilib olib, undan foydalanishning turli yo'llarini o'ylab qo'ydi. Shu yo'llardan biri, bordi-yu, it quvsa, kelayotgan poyezdning yo'lini kesib qochish edi. Shunday qilsa, avvalo poyezd yo'l hid olmaydi, qolaversa, o'tib ketgan poyezd tulkinining hidini yo'q qilib ketadi, yanayam qolaversa, shasht bilan quvib kelayotgan it dovdirlik qilib, poyezdning tagiga kirib ketishi ham mumkin. Yana bir yaxshi yo'li, ammo amalga oshirish qiyin bo'lgan yo'li, bu temir yo'lning do'nglikka ko'tarilib ketgan joyi bo'ylab, parovozning oldiga tushib chopish edi. Bunda parovoz itni bosib ketishi hech gap emas edi.

Viksen xuddi ana shu nayrangini juda ustomonlik bilan amalga oshirdi, biz qari Renjerning qolgan-qutgan bo'laklarini temir yo'l ko'tarmasi pastidan topdik. Viksen undan yovuzlarcha o'ch oldi.



U shu kechasi yana keldi. Bolasining oldiga yana bir tovuq tashlab, o'zi yerga cho'zildi, charchaganidan nafasi qaytib, harsillab nafas oldi. Viksen olib kelgan ana shu tovuq tog'amizni kechasi uning iziga tushishga undadi.

Men Viksenga mehr qo'yib qolgan edim, shu boisdan ham bo'lajak ur-surga aralashmadim. Tog'amiz kelasi kechasi qo'liga qurol olib, bir soatcha qorovullik qildi.

Ertalab turib, Viksen baribir bolasini och qo'ymaganini ko'rdik. O'z navbatida tovuqxonamizdan yana bir tovuq yo'qoldi. Buni ko'rgan tog'amiz yana qo'liga qurol olib, kechasi bilan soqchilik qilib chiqdi.

Qorong'ida o'q ovozi jarangladi, Viksen og'zidagi o'ljasini tashlab qochdi. Kechasi bilan yana bir bor Tin-ning oldiga kelishga urinib ko'rdi, biroq yana o'q otil-di. Ertalab zanjirning yanada yaltirab qolgani shuni bildirdiki, Viksen qanday yo'l bilan bo'lmasin, yana kelgan, Tinni ozod qilish uchun zanjirni soatlab tishlab tortgan edi.

Bunday mardlik, bunday sodiqlik Viksenga nisbatan hurmat uyg'otmay iloji yo'q edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, kelasi kechasi hech kim qo'liga qurol olib, qorovullik qilmadi. O'zi, uni ta'qib qilishdan nima oqibat? Umuman, foydasi yo'q. Qolaversa, uch marta o'q uzib haydagandan keyin ham bolasini ovqatlantirish, ozod qilish uchun yana qaytib kelarmikin? Qaytib kelishga yuragi betlarmikin?

Viksenning mehri – ona mehri. To'rtinchi kechasi Tin zorlanib uvillaganda, o'tinlar uyumi uzra yana o'sha tumanday sharpa paydo bo'ldi, buni faqat yolg'iz men ko'rdim. Bu safar uning og'zida hech qanday o'ljasi yo'q edi. Nahotki, shunday bir dovyurak, ko'pni ko'rgan tulki mag'lubiyatga uchragan bo'lsa? Balki u Tinni asirga



olgan odamlar uni o'zlari boqadi, degan xayolga bordimikin?

Hecham-da. Bu yovvoyi o'rmon onasining mehr-muhabbati uning qahr-g'azabi kabi chayir edi. Uning birdan-bir niyati bolasini ozod qilish edi. U shu niyatini amalga oshirish uchun jon-jahdi bilan intilar edi. U qo'ldan kelgan hamma ishni qildi, hatto o'z jonini xavf ostida qoldirib yelib-yugurdi. Qanday qilib bo'lsa ham bolasini qutqarish uchun hech nimadan qaytmadi.

U bu galgi kelishida soyaday kelib, soyaday ketdi. Tin onasi otib yuborgan narsani ilib olib, mayda tishlari bilan g'arch-g'urch chaynab, chapillatib yeya boshladi. Og'zidagini oxirigacha yeb bo'lmagan ham edi, birdan ichida bir nima tortishib og'ridi, Tin qusa boshladi. Tanasi tortishib, yana qo'yib yubordi, shunda, joni chiqib ketdi.

Qari tulkinging qalbi onalik mehri bilan limmo-lim edi. U zahar, zaharlangan tuzoq nimaligini yaxshi bilardi. Agar bolasi yonida yurganda ungayam o'rgatgan bo'lardi. Ammo u hozir ona sifatida ikki narsadan birini tanlashi kerak edi. Yo g'aribona asirlik, yo bevaqt o'lim. U qalbidagi onalik mehr-muhabbatini yengib, bolasiga bevaqt o'limni afzal ko'rdi.

Hayvonlar izi qorda yanada yaxshiroq ko'rinadi. Men qishda izlarni qarab yurib, Viksen endi Erindel o'rmonlarida yurmay qo'ygana amin bo'ldim.

Balki u achchiq xotiralardan xoli yashash uchun olis-olislariga ketgandir?

Balki u ham o'rmondagi barcha jonivor onalar kabi o'z achchiq hayotiga o'zi yakun yasagandir?

Balki omon qolgan yakka-yu yagona zurriyotini asirlikdan xalos etish uchun qo'llagandagi yo'lni qo'llagandir?..



LOBO

I

Yangi Meksika shimolidagi ulkan chorva yaylov Kurrumpo deb ataladi. Yaylovning o'rkach-o'rkach adirlari bor, sero't-sero't o'tloqlari bor, poda-poda mollari bor, soylarida zilol-zilol suvlari bor. Zilol suvlari oqib borib-borib, Kurrumpo daryosiga quyiladi, shu boisdan ham yaylov ana shu daryo nomi bilan ataladi. Yaylovda Lobo degan bir qari bo'ri hukm suradi.

Qari Lobo arloni bo'ri, olis yillardan buyon Kurrumpo vodiysi mollarini qiyratib kelayotgan kulrang bo'rilar galasining arlonisi. Vodiy cho'pon-cho'liqlari Loboning kimligini yaxshi biladi, darhaqiqat, Lobo galasi doxil bo'lgan makon qiyomat-qoyim bo'lib, podachilarni zir qaqshatadi. Qari Lobo bahaybat bo'ri, ayyor ham kuch-qudratli bo'ri. U tunlari uvillaganda vodiylilar uni ovozidan bilib oladi. Boshqa bo'rilar podachilar manzilgohi tevaragida soatlab uvillasa ham podachilarning parvoyiga kelmaydi, ammo darada qari Lobo uvillashi yangrasa, podachilar tahlikaga tushib qoladi, biladilar, ertalab mollari kamayib qoladi.

Loboning galasi unchalik katta emas. Nimaga katta emasligini o'ylab o'yimga yetolmadim. Odatda Loboday qudratli bo'ri tevaragiga bo'rilar ko'p yig'iladi. Kim biladi, ehtimol, Loboning o'zi galasining ko'payishini xohlamayotgandir, ehtimol, tabiatidagi johillik boshqa bo'rilarning galaga kelib qo'shilishiga yo'l bermayotgandir. Nimagaligini aniq bilolmadim, ammo bir narsani yaxshi bildimki, Loboning umri so'ngida uning galasida bor-yo'g'i beshta bo'ri qoldi. Ammo beshtasiyam shon-shuhrat qozongan, kuch-qudratli bo'ri, oz bo'lsayam soz bo'ri. Ayniqsa, Loboning o'ng



qo'li bo'lmish birovi ulkandan-ulkan bo'ri. Ammo uyam kuch-qudrat ham ayyorlik bobida arloni Lobo oldidan o'taversin.

Galadagi har bir bo'rining o'z fe'l-atvori, rang-ro'yi bor. Birovi o'ta go'zal, oppoq tanli bo'lib, meksikaliklar buni Loboning jufti haloli deya o'ylab, uni Blanka deb ataydi. Yana bir sariqrog'i o'ta uchqur bo'lib, aytishlaricha, jayronlarni ham quvib yetib oladi.

Bo'rilar taqdir-mamoti podachilar qo'lida qoldi, podachilar bo'lsa ularning ertaroq gumdon bo'lishini orziqib poyladi, bitta bo'ri terisini olib kelgan odamga podasidagi manman degan g'unajinlarni berib yubormoqchi bo'ldi. Ammo hech kim bo'ri terisini olib kelolmadi. Bo'rilar ovchilarni xuddi mazax qilayotganday, ular qo'ygan zaharli go'shtlarni aylanib o'tib, yo'llarida davom etdi. Besh yil mobaynida Kurrumpo podachilarining har kuni bittadan molini yeb, jami ikki mingdan ziyod molni yo'q qildi, yana-tag'in eng sara mollarni nobud qildi.

Azal-azaldan bo'ri hamisha och bo'ladi, shu sababli yo'lida duch kelgan narsani yeb ketaveradi, degan bir naql bor. Ayni vaqtda bu naql haqiqatga mos kelmaydi, boisi, tiqmachoqday xomsemiz bo'rilar tanlab ovqat yeydi. Bo'rilar o'z ajali bilan o'lgan mollarni, o'lat olib ketgan yo nimjonligi tufayli qurbon bo'lgan mollarni, hatto podachilar so'ygan mollarni yemaydi, ulardan hazar qiladi. Bo'rilar bir yashar buzoqlarni bo'g'izlab, eng mazali joylarini tushlik qilib yeydi. Qarib qolgan ho'kizlar bilan sigirlarniyam yemaydi. Ular, shuningdek, qo'y go'shtiniyam yemaydi, ammo gohi-gohida qo'ylarni ermak uchun bo'g'izlab turadi. Masalan, 1893-yil noyabr kechalaridan birida Blanka bilan sariq bo'ri ikki yuz elliktacha qo'yni birin-ketin bo'g'izlab, go'shtlaridan ta'm ham ko'rmadi.



Bo'rilar galasining talon-taronchilik sarguzashtlari haqida ko'p gaplarni gapirib berishim mumkin. Ularni qirib tashlash uchun har yili turli-tuman chora-tadbirlar ko'rildi, ammo bo'rilar o'z ta'qibchilarining barcha hiyla-nayranglariga, yugurib-yelishlariga chap berib, rohat-farog'atda yashadi.

Loboning terisi uchun katta mukofot qo'yildi, oqibat, uni tezroq qo'lga olish maqsadida jamiki joylarga zahar solingan go'shtlar qo'yib tashlandi, ammo Lobo hammasiga chap berdi. Lobo faqat multiqdan qo'rqib yashadi. Kurrumpoliklar multiqsiz yurmasligini bilib, odamlarga hamla qilmadi, aksincha, odamlarga ro'baro' kelmaslikka intildi. Natijada, jamiki gala hatto kunduz kuni olisdan odam sharpasini sezsayam, qochib qoladigan odat chiqardi. Lobo o'z galasidagi bo'rilariga faqat o'zlari bo'g'izlagan mol go'shtini yeyishga ixtiyor berdi, bu bilan ularni har xil ko'ngilsizliklardan asrab qoldi. Arloni Lobo hidni yaxshi biladi, shu boisdan ham odam qo'li tekkan yo zaharlangan go'shtni darhol payqab, galani bundan ogoh qiladi.

Kunlarning birida bir podachi qari Loboning tanimol bo'lib qolgan uvillashini eshitib, ovoz kelayotgan yoqqa pisib bordi, shunda, bo'rilar galasi bir to'da molni o'rab turganini ko'rdi.

Lobo chetroqdagi do'nglikda o'tiribdi, Blanka esa galani olg'a undab, bir g'unajinni tushlik qilish uchun uni chetga haydab olib chiqishga urindi. Ammo mollar bir yerga to'p bo'lib, bo'rilar shoxlash uchun shaylandi.

Arloni bo'rining toqati toq bo'ldi, xirillab, irillab, mollarga yopishdi.

Mollar qo'rqib ketib, o'zlarini chetga oldi. Lobo bundan foydalanib, to'da o'rtasiga yorib kirdi. Mollar bomba parchalari misol tevarakka otildi. Tushlik uchun



mo'ljallangan g'unajin ham qochib qolmoqchi bo'ldi, ammo u yigirma besh qadam bosmasidanoq izidan Lobo yetib bordi. Lobo g'unajinning bo'ynidan olib, bor kuchini yig'ib to'xtadi, shunda, g'unajin «yerga» gurs etib tushdi. Lobo shunday shiddat bilan hamla qildiki, g'unajin oyog'i osmondan kelib yerga tushdi. To'g'ri, Lobo ham yiqilib tushdi, ammo u darhol o'zini o'nglab oldi. Bo'rilar galasi g'unajinga yopishib, uni birpasda saranjom-sarishta qildi. Lobo galaga qo'shilmay, ularga qarab turdi. Go'yo: «Bekordan-bekor vaqtini o'tkazgandan ko'ra, birortalaringiz oldinroq shunday qilsalaringiz bo'lardi-ku?» – deyayotganday bo'ldi.

Podachi barchasini o'z ko'zi bilan ko'rib, bo'rilar ustiga ot qo'ydi. Bo'rilar qochib qoldi. Podachi bildiki, bo'rilar hali o'z o'ljalari oldiga qaytib keladi, shu sababliyam g'unajin go'shtining uch joyiga shishadagi strixnün doridan sepib keldi. Ertasiga bo'rilar murdasini ko'rgani kelib, hayron bo'lib qoldi. Bo'rilar g'unajinni pok-pokiza yeb, zahar sepilgan joylarini avaylab olib tashlabdi.

Arloni bo'ri podachilar ko'ngliga dahshat solgandan-dahshat soldi, oqibat, uning terisi uchun qo'yilgan mukofot ham yil sayin qimmatlab bordi, borib-borib, Kurrumpoda hali-hozirgacha ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan bahoga – ming dollarga yetdi.

Texaslik Tennerey degan ovchi mukofotga o'ch odam bo'lib, ming dollar daragini eshita solib Kurrumpo darasiga ot qo'yib keldi. Bo'ri ovi uchun o'zi bilan birga yaxshi-yaxshi multiqlari, otlari hamda bo'ribosar itlarini olib keldi. U Texasda shu bo'ribosar itlari bilan bo'rilarining sho'rini quritib keldi, shu boisdan ham bir-
 ikki kun ichidayoq Loboning terisini egarim qoshiga ila-
 man, deya o'yladi.



Shunday qilib, Tennerey g'ira-shira yoz tongida ovga yo'l oldi. Bo'ribosarlar ovga borayotganlaridan zavqlanib vovulladi. Ular ikki chaqirimcha yo'l yurgan edilar hamki, favqulodda Loboning mashhur galasiga duch keldi. Bo'ribosarlar jazava bilan hurib, olg'a tal-pindi. Itlar Tennerey yetib kelib, bo'rilar ni otib olmagunicha ularni alahsitib ushlab turishlari kerak. Texas yalangliklarida buning yo'li oson, ammo Kurrumpoda shart-sharoit boshqacha-da. Buning ustiga, qari Lobo yuradigan yo'lini bilib yuradi. Serqoya Kurrumpo daryosi butun yaylov bo'ylab irmoq-irmoq bo'lib oqib, daralarga bo'linib ketadi. Arloni bo'ri ana shu daralarning eng yaqiniga yo'l oldi, suvdan suzib o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Shundan keyin bo'rilar galasi har tarafga qarab qochib qoldi. Ketidan itlar quvib ketdi. Bular yana bir yerga to'planib, ularga yetay-yetay deb qolgan itlarga hamla qildi, keyinda qolganlari yetib kelgunicha ularni biryoqli qildi. Tennerey kechqurun itlarini yiqqanida bor-yo'g'i oltitasi qaytib keldi, xolos. U baribir o'z niyatidan qaytmadi, yana ikki marta Loboning terisini shilib olishga urindi, ammo niyatiga yetolmadi. Eng so'nggi martasida eng yaxshi otidan ayrilib qoldi. Oti yiqilib tushib, shu zahotiyiq jon berdi. Shu ko'rgilikdan keyin Tennerey arloni bo'ridan qo'lini yuvib qo'ltiqqa urib, Texasga qaytib ketdi. Lobo Kurrumpoda hukm surib yuraverdi.

Kelasi yili mukofot kushandasi bo'lmish yana ikkita ovchi keldi.

Ovchilarning har biri o'zicha, bu mashhur bo'rini aynan men qo'lga tushiraman, deya o'yladi.

Ovchilarning birov i o'z niyatini yangi o'ylab topilgan zaharni yangicha joylashtirib qo'llash bilan amalga oshirmoqchi bo'ldi. Kanadalik fransuz bo'lmish ikkinchi ovchi ham zahar qo'lladi, ammo zaharga dalo-yu



afsun qo'shib qo'lladi. Boisi, Loboni shunchaki oddiy bo'ri emas, yo'q, u alvasti, shunday ekan, uni shunchaki hiylayi nayranglar bilan qo'lga tushirib bo'lmaydi, deya o'yladi.

Ammo ustomonlik bilan qo'yilgan zaharlar ham, duo-yu afsunlar ham kulrang bo'rining korini qilolmadi. U o'z galasi bilan haftalab talon-torojlik qilib, ayshini surib yuraverdi. Ovchilarning hafsalasi pir bo'lib, o'zga o'lkalarga ketib qoldi.

Kurrumpo daryosining kichkinagina bir irmog'i bo'yida, qoyalar oralig'idagi xushmanzara darada Jo Kalon deganning fermasi bor.

Lobo o'z jufti haloli bilan fermadan bor-yo'g'i ming yardcha keladigan yerda in kovlab, bolalarini parvarishlash bilan mashg'ul bo'ldi.

Bo'rilar yoz bo'yi shu yerda yashadi. Jo Kalonning qo'y, mollari-yu itlariga qiron keltirdi. Jo Kalonning tuzoqlari-yu zaharlarini ko'rib qolib, uning anoyilarcha ishlarini mayna qilib yashadi. G'orlar va qoyalar oralig'ida bexatar kun kechirdi. Jo bo'rilarini qanday qilib yo'q qilishni, bir ko'ngli dinamit qo'yib qirib tashlashni o'yladi. Bo'rilar hamon sog'-salomat, talon-toroj kun kechirishda davom etdi.

– Lobo yozda manavi yerda yashadi, – dedi Jo Kalon menga toshloq enishni ko'rsatib. – Unga hecham bas kelolmadim. Aksincha, u meni istagan ko'yiga solib o'ynatdi.

II

Men 1893-yilning kuzida bu abjir qaroqchini o'z ko'zim bilan ko'rib, boshqalardan ko'ra yaxshiroq bilib olmagunimcha, podachilarning gapiga ishonmadim.

Men bundan bir necha il muqaddam bo'ri ovi bi-



lan shug'ullangandim. O'shanda Bingo hali hayot edi. Keyin-keyin kasbi korim o'zgarib, yozish-chizishga berilib ketdim. Stol-stuldan qimirlamaydigan bo'lib qoldim. So'ng, turmush tarzimni o'zgartirib, qaylarga dir ketib qolgim keldi. Shunda, kurrumpolik bir oshnam meni o'z fermasiga taklif qilib, kel, qaroqchi bo'rilarga balki sen bas kelarsan, deb qoldi. Bajonidil rozi bo'lib, oshnamning fermasiga yo'l oldim.

Dastlabki kunlar otda yurib, tevarak-atrofni o'rganib oldim. Menga tevarakni ko'rsatib yuruvchi odam ah-yon-ahyonda oldimizdan chiqib qoladigan, hali junlari to'kilmagan mol suyaklarini ko'rsatib: «Ana, u qilgan ishlar!» – deya izoh berib bordi.

Yurib-yurib shu narsaga amin bo'ldimki, Loboni bu adir-u daralarda it va otlar bilan ta'qib etishdan foyda yo'q. Yakka-yu yagona yo'li qopqon bilan zahardan foydalansa bo'ladi.

«Alvasti bo'ri»ni qo'lga tushirish uchun qo'llangan hiyla-yu nayranglarimni batafsil aytib o'tirmayman. Uni zaharlayman deb strixnin, margimush, sianistiy kaliyni aralashtirib berishdan, turli-tuman go'shtlarni zaharlab qo'yishdan armon qolmadi. Har ertalab ishlarimning natijasini bilib kelish uchun borib, hafsalam pir bo'lib qaytib kelaverdim. Qari Lobo men o'ylagandan ham ayyor bo'lib, barcha nayranglarimga chap berib ketdi.

Loboning bag'oyat ziyrakligini bildiruvchi bir voqeani aytib beraman.

Bir kekxa ovchining maslahatiga binoan bir tishlam pishloqni hozirgina so'yilgan buzoq buyragi moyida eritib oldim. So'ng, temir hidi kelmasligi uchun pishloqni chinni idishda pishirib, suyak pichoq bilan qirgdim. Sovigach, bo'lak-bo'laklarga bo'ldim. Har bir bo'lakni teshib ichiga strixnin, sianid kaliy solingan hid chiqarmaydigan xaltachalarni joylashtirdim. Teshiklarni pish-



loqning o'zi bilan bekitib qo'ydim. Bu ishni buzoqning iliqqina qoniga botirib olingan qo'lqoplarni kiyib amalga oshirdim, hatto pishloqqa nafasimni tekkizmaslikka urindim. Hammasi tayyor bo'lgach, pishloqni buzoq qoni surtilgan teri xaltaga soldim, otlarib, yo'lga tushdim. Buzoqning jigari bilan buyragini arqonga bog'lab, sudrab boraverdim. Har to'rt milda zahar solingan pishloqdan tashlab-tashlab, o'n milcha yo'l yurdim. Zahar tashlayotganimda unga qo'limni tekkizmaslikka harakat qildim.

Nazarimda, Lobo bu yerlarda har haftaning boshida paydo bo'lib, boshqa vaqtlari Serra Grande tog'lari etaklarida yursa kerak.

Taxminim to'g'ri chiqdi. Bir dushanba kuni oqshom vaqti-oqshom vaqti bo'ri uvillashi eshitildi. Biz bu mahal narsalarimizni saranjomlab, ketishga hozirlanayotgan edik. Podachilardan biri uvillashni eshitib bo'lib dedi:

– Ana, nihoyat keldi! Endi ertagacha oyoq ilib qaraymiz.

Men hiylayi nayranglarim samarasini tezroq bilish uchun sahar mardondan otlandim. Xiyol o'tmay, Lobo galasining izini oldim. Loboning izi boshqa bo'rilar izidan xiyla katta, shu boisdan ham uning izini olish oson bo'ldi.

O'zimcha, bo'rilar galasi men arqonga bog'lab sudrab yurgan pishloq hidini olgan, Lobo dastlabki pishloqni iskab ko'rib, yutib yuborgan, deya o'yladim. Ichimimdan quvondim.

– Oxiri qo'lga tushding-a! – dedim o'zimcha. – Endi o'lmaningniyam ko'raman!

Loboning ulkan panjalari tuproqda qoldirgan izlardan ko'z uzmay, ot qo'yib boraverdim. Izlar meni



galdagi pishloq tashlangan joyga olib keldi. Qarasam, bu pishloq ham g'oyib bo'пти.

Shunday quvondim, shunday quvondim!

Mana, nihoyat u qo'lga tushdi! Hademay galasidagi bo'rilar ham qo'lga tushsa ajab emas. Ammo arloni bo'rining ulkan izlari o'z yo'lida davom etdi. Men uzangida tik turib, tevarak-atrofga qaradim, ammo biron yerda bo'ri jasadini ko'rmadim.

Shunday bo'lsa-da, izni olib boraverib, uchinchi pishloqning ham yo'qolganini ko'rdim. Izlar esa yo'lida davom etib, to'rtinchi pishloq turgan yerga qarab ketibdi. Shunda men Lobo pishloqlarni yemay, og'zida bir joyga olib borib to'plab, o'zining tezagi bilan ko'mib ketganini ko'rdim. Bu, albatta, Loboning mening hiylayi nayrangimga nisbatan bildirgan nafrati ifodasi edi. U ana shunday ish qilib, ko'z qorachig'iday asrayotgan galasini ergashtirib, boshqa yoqlarga qarab ketibdi...

Men bor-yo'g'i birgina voqeani gapirib berdim, xolos. Ammo shu voqeaning o'zigina bu yirtqichni zahar yo'li bilan yo'q qilib bo'lmasligini bildiradi. Shundan keyin hafsalam pir bo'lib, qopqonlar olib kelishni buyurdim, qopqonlar kelgunicha dasht chiyabo'rilar va boshqa shu kabi yirtqich hayvonlarni ov qilib, kunni kech qildim.

Bir kuni, Lobo naqadar ayyor ekanligining yana bir bor shohidi bo'ldim. Loboning galasidagi bo'rilar qo'ylarni garchi yemasalar-da, ularni ermak uchun hurkitib, qo'rqitib, o'ldirib ketaverdi. Odatda, qo'ylar bir necha ming tuyoqlarga bo'linib, suruv-suruv qilib boqiladi. Kechalari otarlar bir-birlariga yaqin podayotoqlarda yotadi. Tevaragida cho'ponlar qorovullik qilib chiqadi. Qo'y degani juda befarosat jonivor bo'lib, bo'lar-bo'lmas hadikdan o'zlarini uyoqdan-buyoqqa olib uradi. Ammo qo'ylarning yaxshi bir odati bor. Ular hamisha serkalarga ergashib yashaydi. Shu boisdan ham



cho'ponlar har bir otar ichiga bir nechta serka qo'shib qo'yadi. Qo'ylar soqoldor birodarlarini o'ta dono zotlar deb biladi, shu sababliyam, bordi-yu, kechasi biror xavf-xatar sodir bo'lsa, yoppasiga ana shu serkalar atrofiga to'planadi.

Noyabr oyining so'nggi kechalaridan birida ikkita cho'pon bo'rilar hamlasidan uyg'onib ketdi. Qo'ylar odatlari bo'yicha serkalar tevaragiga jam bo'ldi, serkalar qo'ylar kabi qo'rqib, dovdirab qolmay, joylarida mardona turdi. Hay-hay-hay! Bu safar otarga hamla qilgan bo'ri uncha-muncha bo'rilaridan emasdi! Qari Lobo, «alvasti bo'ri», qo'ylarning suyangani tog'i serkalar ekanini cho'ponlardan yaxshi biladi. U shu sababliyam g'uj bo'lib turgan qo'ylar ustidan sakrab o'tib, eng avvalo serkalarni bo'g'izlab tashladi. Bechora qo'ylar shu zahotiyoq sochilib ketib, boshlari oqqan yoqqa qarab yo'l oldi.

Shu voqeadan keyin bir necha hafta mobaynida deyarli har kuni cho'ponlarni uchrataverdim, har bir uchragan cho'pon tashvish bilan hadeb bir gapni so'rab-surishtiraverdi:

– Mabodo biron yerda «OTO» degan tamg'a bosilgan qo'yga ko'zingiz tushmadimi?

Men ham o'z navbatida bir xil javob beraverdim:

– Javohir bulog'i bo'ylarida bo'rilar bo'g'izlab ketgan besh-oltita qo'y jasadiga ko'zim tushganday bo'lib edi.

Yoki bunday javob berdim:

– Yo'g'-a, ko'zim tushmadi. Ammo Xuan Meyerning aytishicha, u bundan ikki kun muqaddam Qarag'ayzor adirida bo'rilar yaqinda bo'g'izlab ketgan yigirmatacha qo'yning o'ligini ko'ribdi.

Nihoyat, buyurgan qopqonlarim keldi. Ikkita yordamchim bilan bir hafta mobaynida qopqon qo'yish bilan mashg'ul bo'ldik. Qo'limizdan kelgan bor hunarimizni, mehnatimizni ayaqadik. Ertasiga qopqonlarni



ko'zdan kechirgani borib, u qopqon bilan bu qopqon o'rtasidagi Loboning izlariga ko'zim tushdi. Izlarni kuzatib, kechasi bu yerda nimalar bo'lganini bilib oldim.

Izlar aytib turibdi, Lobo kechasi bilan izg'ib yurgan, qopqon har qancha yashirilgan bo'lmasin, u bari-bir topib olgan. So'ng, orqasidan kelayotgan galasini to'xtatib, yerga ko'milgan qopqonni, zanjir va g'o'lasini bilan qo'shib kovlab olgan. Yo'lida davom etib, boshqa qopqonlarni xuddi shunday kovlab olavergan. Keyin, yo'lida qandaydir bir hadik sezib, boshqa yoqqa burilib ketgan.

Shunda, xayolimga yangi bir fikr keldi. Yangi fikrimga binoan qopqonlarni «N» harfi shaklida qo'ydim. Ya'ni, qopqonlarni so'qmoqning har ikkala tarafiga qatorlashtirib qo'yib chiqdim, bittasini esa naq o'rtasiga ko'ndalang qilib qo'ydim. So'ng, yangi nayrangimning samarasini poyladim, ammo ovim yana baroridan kelmadi.

Izlardan bildimki, Lobo so'qmoq bo'ylab kelib, qator qopqonlar o'rtasidan yuribdi, kelib-kelib naq o'rtaga qo'yilgan qopqonni payqab qolibdi-da, taqqa to'xtabdi.

Lobo so'qmoq o'rtasidagi qopqon oldidan o'nggayam, chapgayam burilmay, ketiga qayrilibdi, panjalarini hozirgina kelgan izlariga avaylab, ohista-ohista qo'yib, qaltis joydan qaytib ketibdi. So'ng, qopqonlar oldiga boshqa tarafdin aylanib borib, orqa oyoqlari bilan tosh-tuproqlarni tirnab otib, jamiki qopqonlarni yopib ketibdi.

U ana shunday ustomonlik bilan barcha dardi balolardan eson-omon chiqib ketdi, har qancha hiyla-nayrang ishlatmayin, baribir bo'lmadi, u qutulib ketdi. U hali o'z zafarli yurishida davom etardi, ammo mash'um oshiq-ma'shuqlik mayli uning boshiga yetdi. Ammo nomi yakkama-yakka olishuvlarda mag'lubiyat



nimaligini bilmay, kelib-kelib ishongan birodarining birgina ehtiyotsizligi tufayligina halok bo'lgan qahramonlar nomi qatoridan joy oldi.

III

Bo'rilar izini kuzatib yurib, Loboning galasida favqulodda bir o'zgarishlar ro'y berayotganini payqab qoldim. Masalan, arloni bo'rining ulkan izlari oldida ba'zan mayda-mayda bo'ri izlari paydo bo'ladigan bo'lib qoldi. Nima gapligini bilolmay, hayron bo'lib yurdim.

Shunda, podachilardan biri shunday deb qoldi:

– Men bugun ularni ko'rdim. Qarasam, Blanka bari-dan oldinda olchoqlik qilib borayotgan ekan.

Shundagina nima gapligini bildim:

– Tushunarli, demak, Blanka chindan ham urg'ochi bo'ri, bo'lmasa Lobo o'zidan oldinda yuradigan bo'rining kunini ko'rsatib qo'yardi.

Bu gapdan keyin menda yangi bir fikr paydo bo'ldi. Bir buzoqni so'yib, tanasi tevaragiga ikkita qopqonni ko'zga ko'rinarli qilib qo'ydim. Bo'rilar jonivorlar kal-lasini xush ko'rmaydi, unga qayrilib ham qaramaydi. Shu sababliyam men buzoqning boshini kesib olib, sal nariroqqa olib borib qo'ydim, oltita baquvvat po'lat qopqonni har xil hidlardan forig' qilish uchun yaxshilab shamollatib, keyin buzoqning kallasi atrofiga yaxshilab yashirib qo'ydim. Bu ishlarni qo'llarim, poyabzallarim va asbob-anjomlaringa buzoq qonini surtib amalga oshirdim. Tevarak-atrofga, shuningdek, kallaning yon-veriga ham qon to'kib chiqdim. Qopqonlarni ko'mib, ustidan chiyabo'ri terisini yurgizib oldim, tuproqqa ham bo'ri izlarini tushirdim. Buzoqning kallasi bilan butun orasida torgina bir po'lak bo'sh qoldi. Men xud-



di ana shu yerga eng yaxshi qopqonlarimni o'rnatib, buzoqning kallasiga matab qo'ydim.

Bo'rilar bironta masliq isini olsalar, garchi yegilari kelmasa-da, uni bir hidlab o'tib ketish odatlari bor. Men, ehtimol, bo'rilar galasi shu odatlari tufayli tuzog'imga ilinar, deya umidlandim. Baribir Lobo mening tuzoqlarimni payqab qolib, galasini unga yaqinlashtirmasligiga ko'zim yetib turdi. Shunday bo'lsa-da, bir chetda go'yo keraksiz narsaday bo'lib yotgan buzoq kallasidan umidimni uzmadim.

Ertasi kuni ertalab qopqonlarni ko'zdan kechirish uchun bordik. O, qanday xushvaqt kun! Biz u yerda bo'rilar izini ko'rdik! Nimagadir buzoqning kallasini bilan qopqonlar ko'rinmadi. Shoshib-surinib, izlarni ko'zdan kechirib, Lobo chindan ham galasini tuzoqqa yaqin yo'latmaganiga amin bo'ldik. Ammo uncha katta bo'lmagan bir bo'ri buzoq kallani hidlab ko'raman deb, qopqonga tushib qolibdi.

Biz izni olib, bir chaqirimdan mo'lroq yo'l yurdik. Bil-sak, bu sho'rpushona bo'ri Blanka ekan. U bizni ko'rib, qocha boshladi. Buzoqning kallasini og'irlik qilayotgan bo'lsa-da, piyoda bo'lib quvayotgan yo'ldoshimdan tezroq chopdi. Ammo buzoq kallaning shoxlari toshlarga ilinib qolib, biz unga qoyalar oldida yetib oldik.

Men chiroyli bo'ri ko'rib, Blankadayini ko'rmagan edim. Blanka tep-tekis quyuvq junli, oppoqdan kelgan bo'ri edi.

Blanka bizga burilib, jangari qiyofada uvilladi. Uning uvillashi cho'ziq, iltijoli nido bo'ldi. Shunda, olis adirlardan Loboning javob nidosi eshitildi. Blanka so'nggi marta uvilladi. Bu orada biz uning oldiga yetib keldik. U endi jon-jahdi bilan o'zini-o'zi himoya qila boshladi.

Shunda, yo'ldoshim bilan mash'um bir ishga qo'l urdik. Hali-hali eslab, seskayib ketaman, sho'rlik Blan-



kaning bo'yniga men bir yoqdan, yo'ldoshim bir yoqdan uchi sirtmoq arg'amchi soldik, keyin otlarimizni qarama-qarshi yoqqa haydab, bechorani uloq qilib tortqiladik. Blankaning og'zidan tirqirab qon oqdi, ko'zlari so'nib qoldi, oyoqlari yoyilib, holsiz sulayib qoldi. Biz, nihoyat, Loboning galasiga dastlabki o'lim zarbasini bera olganimizdan xursand bo'lib, Blankaning jasadini olib qaytdik.

Vahti-vahti bilan Loboning uvillagan ovozi eshitilib turdi. Aftidan, u adirlarda tentirab, Blankani izladi. U Blankani tashlab ketgisi kelmadi. U endi Blankani qutqarib keta olmasligiga ham ko'zi yetdi, boisi, u hamon multiqdan qo'rqadi.

Lobo uzun kun zorlanib uvilladi, uvillashini eshitib o'tirib, bir podachiga:

– Blanka chindan ham Loboning jufti haloli ekan, – dedim.

Xufton vahti Lobo biz turgan daraga yo'l oldi shekilli, ovozi yaqin-yaqindan eshitila boshladi. Loboning ovozi mungli bo'ldi. U avvalgidek qahr bilan emas, balki g'am-anduh bilan uvilladi. U go'yo jufti halolini yo'qlab: «Blanka! Blanka!» – deyayotganday bo'ldi. Aftidan, bizning izimizni olib, Blanka o'ldirilgan joyni topib keldi shekilli, yurak-bag'irni ezib, hazin-hazin uvillab qo'yaverdi. Ko'nglim o'rtanib ketdi. Toshbag'ir podachilarning-da ko'ngli buzilib ketdi.

Albatta, Lobo jufti halolining qonlari sachrab yotgan yerni ko'rib, nima gapligini bilgan. So'ng, otlarning izini olib, fermagacha kelgan. Kim biladi, balki u Blankani topmoqchi bo'lgandir, balki qasos olmoqchi bo'lgandir. Shu, qasos olmoqchi bo'lgan bo'lsa kerak-ov. Chunki bechora qo'riqchi itimizni fermakishitiribdan ellik qadamcha nariga ila-

tekshirib, bu safar Loboning yolg'iz o'zi kelganini bilib ol-



dim. Izlar aytib turibdi, Lobo jonidan qo'rqmay, kechasi bilan ferma tevaragida tentirab yuribdi. Men Loboning bunday beg'amligidan foydalanmoqchi bo'lib, yaylovning qolgan joylarigayam qopqon qo'yib tashladim, Lobo yana shu qopqonlarning biriga ilinishga ilindi, ammo undan zo'rlik bilan chiqib ketdi. Men Lobo Blankaning jasadini topib olmagunicha tinib-tinchimasligini yaxshi bilardim. Shu sababliyam uni qo'lga tushirish uchun xuddi ana shu vaziyatdan foydalanmoqchi bo'ldim. Ana shunda Blankani o'ldirib, katta xatolikka yo'l qo'yganimni bilardim. Blankani o'ldirmay, undan tirik qopqon o'rnida foydalanganimda, Loboni dastlabki kechadayoq qo'lga tushirgan bo'lardim. Afsus bilan jamiki qopqonlarimni yig'dim. Hammasi bo'lib bir yuz o'ttizta po'latdan yasalgan bo'ri qopqon bo'ldi. Qopqonlarni daraga boradigan so'qmoqlarning har bittasiga to'rttadan qo'yib chiqdim. Har bir qopqonni alohida-alohida g'o'lalarga matab bog'lab, g'o'lalarni yaxshilab tuproqqa ko'mdim. Qopqonlarni ko'mayotganimda chimlarni yerdan avaylab olib, brezent ustiga qo'ydim, so'ng, odam qo'li tekkanini bilinmasligi uchun chimlarni yerdan qanday avaylab olgan bo'lsam, xuddi shunday avaylab joyiga qo'ydim.

Qopqonlarni qo'yib bo'lib, so'ng, ular orasidan Blankaning jasadini sudrab o'tdim. Bitta panjasini kesib olib, qopqonlar ustiga qator qilib iz qo'yib chiqdim. Xullas, o'zim bilgan bor hiylayi nayranglarimni qo'llab, barcha ehtiyot choralarimni ko'rib, kechroq kulbamga qaytdim. Kechasi Lobo uvillaganday bo'ldi, ammo quloqlarimga ishonmadim. Ertasi kuni o'tlanib yo'lga chiqdim, ammo shimoliy darani aylanib o'tgunimcha bo'lmay, kech bo'lib qoldi, yana izimga qaytib keldim. Kechki nonushta mahali podachilardan biri shunday deb qoldi:

– Bugun ertalab shimoliy daradagi mollar nima tushdi shekilli?



Ertasi kuni otlanib, podachi aytgan yerga kun qaytganda yetib bordim. Yaqinroq borib, kulrang tusli ulkan bir jonivor o'rnidan turib, qochmoqchi bo'layotganini ko'rdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, qarshimda butun Kurrumponi zir titratgan Lobo turardi! U endi qochib ketolmas, qopqonga boplab tushgan edi! Sho'rlik qari qahramon-a! U o'zining jufti halolini izlayverib-izlayverib, oxiri uning tanasi qoldirgan izlarni topib olib, shu izlarning ketidan telbalarcha yuguraverib-yuguraverib, oxir-oqibat, qopqonga tushib qolgan edi. Endi uning to'rtta oyog'ini to'rtta temir iskanja qisib turardi. U taqdirga tan berib yotardi. Tevarak-atrofidagi behisob izlar mollarning izi bo'lib, mollar qo'lga tushgan yirtqichni aylanib-o'rgilib tomosha qilgan, ammo yaqin yo'lashga yuraklari betlamagan edi.

U ikki kecha-yu ikki kunduz qopqonda yotaverib, holdan toydi. Shunday bo'lsa-da, men yaqin borishim bilan junlari hurpayib, o'rnidan sapchib turdi, so'nggi bor dara qoyalarini zir titratib, baland, uzib-uzib uvillab, galasini yordamga chaqirdi. Ammo bironta bo'ri zoti nido bermadi. Shunda u yolg'izlik alamidan jon-jahdi bilan menga yopishdi. Butun sa'y-harakatlari bekor ketdi! Chunki oyoqlaridagi har bir qopqonning og'irligi bir yuz qirq kilocha keladi. U so'yloq tishlari bilan qopqon zanjirlarini shunday g'ijirlatib tishlab tortdi! Uni miltiq qo'ndog'i bilan turtmoqchi bo'lib edim, qo'ndog'ni g'ajib tashladi. Ko'zlari nafrat va g'azabdan qorayib ketdi. Jag' tishlari takillab, qo'rquvdan qalt-qalt etayotgan otim bilan menga hamla qilmoqchi bo'ldi. Ammo ochlik va qonsizlikdan holdan toyib yiqildi. Shunda, u shu vaqtgacha boshqalarga qanday yovuzlarcha munosabatda bo'lsa, men ham unga shunday munosabatda bo'lmay bo'ldim. Ammo ko'nglim erib ketib, yana niyatimdan qaytdim.



– Ey, mahobatli qari yirtqich! Behisob talon-taronchiliklar qahramoni! – deya murojaat qildim qari Loboga. – Sen yana bir necha daqiqadan keyin jonsiz jasadga aylanasan. Shunday qilishdan boshqa ilojim yo'q.

Men shunday deya, unga uchi sirtmoq arqon ot-dim. Arqon boshlari uzra vizilladi. Bo'lmadi, bo'lmadi! U osonlikcha jon beradiganlardan emasdi. U arqonni bo'yniga tushirmasdanoq tishi bilan ilib oldi, so'ng shunday pishiq, yo'g'on arqonni g'ajib-g'ajib, oyoqlari ostiga tashladi.

Yelkamda miltig'im bor edi, ammo uni ishga solib, Loboning ajoyib terisini buzgim kelmadi. Lagerimizga ot choptirib borib, bir podachi bilan yangi arqon olib keldim. Loboga bir payrahani otib yubordik, u payrahanini tishlari bilan ilib olib, yerga tashlagunicha, arqonimiz vizillab borib, bo'yniga o'raldi. Loboning qahr-g'azabga to'la ko'zlari so'nib boshladi. Shunda men yordamchimga:

– Qo'y, uni o'ldirmaymiz! Uni lagerga tiriklayin olib boramiz! – deya qichqirdim.

Lobo juda charchadi. Biz bundan foydalanib, uning qoziq tishlari orasidan yo'g'on tayoqni o'tkazib olib, jag'larini pishiq arqon bilan shu tayoqqa tang'ib bog'ladik. Tayoq arqonni, arqon tayoqni ushlab turdi. U beziyon jonivor bo'lib qoldi. Jag'lari tortib bog'langanini bilib, tipirchilamay qo'ydi, ovoziyam o'chdi. Bizga mo'ltirab qarab, shunday deyayotganday bo'ldi:

«Mana, nihoyat, meni yengdilaring. Mayli, endi bilganlaringni qilinglar!»

U shu daqiqadan boshlab, bizga qaramay qo'ydi.

Biz uning oyoqlarini tang'ib bog'ladik. Oyoqlarini bog'layotganimizda aqalli ingramadi, biron mara uyil-lamadi, bizga qayrilib ham qaramadi. Keyin uni bir amallab otga o'ngardik. U xuddi uyquda yotganday bir



maromda, sokin nafas oldi, ko'zlari yana porlab yondi. Ammo bu ko'zlar endi bizga qaramasdi. Uning ko'zlari mashhur galasi tarqalib, parokanda bo'lib ketgan olis adirlarda edi.

Biz fermaga omon-eson yetib keldik. Loboning bo'ynidagi arqonni bo'yinbog' zanjir bilan almashtirib o'tloqqa bog'lab qo'ydik.

Men ana shunda uni birinchi marta yaxshilab ko'zdan kechirib chiqdim. Shundan keyin jonli qahramonlar hamda beshafqat hukmdorlar to'g'risida to'qilgan mish-mishlarga ishonmay qo'ydim. Qarasam, Loboning bo'ynida hech qanday tilla bo'yinbog', yelkasida alvastilar bilan tuzgan ittifoqlik ramzining hech qanday teskari tasviri yo'q ekan. To'g'ri, biqinida bir katta chandig'i bor ekan. Ammo bu chandiq Tennerey ovchining Yunona laqabli olg'ir iti o'limi oldidan qoldirgan yodgorlik edi.

Men Loboning oldiga go'sht bilan suv qo'ydim, ammo u qayrilib ham qaramadi. U bag'rini yerga berib, sariq ko'zlarini o'zi hukm surgan olis dasht-u daralarga tikib yotardi. Unga qo'limni tekkizib ko'rdim, u shundayam qimir etmadi. Quyosh botgandayam dashtlarga termulib yotdi.

Men kechasi Lobo o'zining galasini chaqirishini poylab yotdim. Ammo u qopqonga ilinib, g'arib bo'lib qolganida galasini yo'qlab uvillagan, o'shanda birontayam bo'ri nido bermagan edi. Shu sababliyam, endi uvillamadi.

Emishki, sher kuch-quvvatdan qolsa, burgut erkidan ajrasa, kaptar juftidan ayrilsa, yuragi yorilib o'lar emish. Bu yirtqichning yuragi birvarakayiga uchta musibatni ko'tara olarmikin? U ham kuch-quvvatidan, ham erkidan, ham juftidan ayrildi. Ertalab qarasam, hamon dam olayotganday osoyishtagina yotibdi. Ammo... jonsiz yotibdi. Men uning bo'ynidan zanjirini



yechib tashladim. Jasadini bir podachi bilan sudrab, Blankaning jasadi yotgan bostirma ostiga olib bordik. Loboning jasadini Blankaning yoniga qo'ydik. Podachi Loboga qarab, shunday dedi:

– Sen shuni izlab yurganmiding? Mana, nihoyat, yana topishding!

KULRANG AYIQ HAYOTI

I

Bundan olis-olislarda, G'arbning ichkarisida, Kichik Payni daryosining yuqori oqimida, Palett fermasi qaror topgan yerda bir kulrang ayiq sokin hayot kechiradi. Ayiq faqirlarning faqiri bo'lib, qiladigan ishi bolalarini tarbiya qilish bilan mashg'ul bo'ladi. Ayiqlar onasining hayotdan tilaydigan bor-yo'q tilagi, uni bolalari bilan o'z holiga qo'ysalar bo'ldi.

Iyul oylari edi, ayiqlar onasi bolalarini Greybul daryosi bo'ylariga olib borishga, u yerda ularga yertut nima ekanini, uni qanday qilib qidirib topish kerakligini o'rgatishga qaror qildi.

Ayiqlar onasi bolalarini dunyodagi eng ko'rimli, eng aql-idrokli ayiqchalar deb biladi. Bizning ona ayig'imizning to'rtta bolasi bo'lib, boshqa ulkan ayiqlarning bolasi esa ikkitadan oshmaydi.

Shunday qilib, baroq ayiqchalar daryo yoqasida go'zal yozdan oromlanib, turli-tuman mazali yeguliklardan bahramand bo'lib, kunni xushvaqt o'tkazdi. Onasi ular uchun yo'lda uchragan har qanday kunda, har qanday yalpoq toshni to'nkarib berdi. Ayiqchalar yop-pasiga toshlar ostiga yopirilib, yashirinib yotgan qumursqalarni yalab-yulqab qo'ydi. Ayiqchalar to'star



ostiga yopirilganda onalari qo'lidagi toshni hech qachon tashlab yubormasligiga ishonchlari komil. Onalarining ulkan panjalari, kulrang junlari ostidagi keng yelkalarini ko'rgan odam bunday xayolga bormaydi ham. Yo'q, yo'q, bu qudratli panjalar toshni tashlab yubormaydi, ayiqchalar bunga amin. Shu boisdan ham ular har bir kunda ostiga bir-birlarini turtib, itarib, xuddi cho'chqa, kuchuk, mushuklar to'dasiday chinqirib, chiyillab, g'ingshib yopishdi. Ayiqchalar tog'dagi kundalar ostida in qo'yadigan qoramtir mayda qumursqalarni yaxshi bilib oldi. Ular umrida birinchi marta bo'limli, mazali o'rmon qumursqalari to'dasiga duch keldi. Ayiqchalar tevarakka yugurib, uchib yurgan qumursqalarni tili bilan ilib olishga urindi. Biroq ularning tiliga qumursqalardan ko'ra ko'proq qumanjir tikanlari bilan qum donalari ilashaverdi. Shunda, ayiqlar onasi o'z tillarida bolalariga shunday dedi:

– To'xtanglar, bolalarim, qumursqa ovlashni o'zim ko'rsataman.

U qumursqa inining uchini turtib buzdi, so'ng ulkan panjasini inga yoni bilan qo'yib turdi, bir necha daqiqadan keyin kaftlarini qumursqa bosdi, shunda ayiqlar onasi barchasini birvarakayiga og'ziga solib, chapillatib chaynadi. Shundan keyingina ayiqchalar nima qilish kerakligini tushundi. Ular o'zining ikki panjasiniyam inga soldi. Ayiqchalar goh o'ng, goh chap panjalarini yalab, bordi-yu, unisi bunisining panjasiga tumshug'ini cho'zsa, bir-birini turtkilab, uzoq o'tirdi. Xiyol o'tmay in huvillab qoldi, shirintomoqlar yana biror yegulik topishga chog'landi.

Qumursqa degani xiyla sho'rtak yegulik, shu boisdan ayiqchalar suvsirab qoldi. Ayiqlar onasi ularni pastdagi daryoga ergashtirib bordi. Suvda miriqib pishmishib, qirg'oq yoqalari yurib, daryoning suv osti-



da baliqlar ko'rinib turgan joyiga keldi. Suv daryoning qorayib turgan eng chuqur joyi bo'ylab oqyapti, ammo juda oz oqyapti. Shunda ayiqlar onasi bolalariga dedi:

– Endi shu qirg'oqda o'tirib turinglar, men sizlarga yangi hunar o'rgataman.

Ayiqlar onasi quyiroqdagi bir chuqur oldiga keldi, suv ostidan ulkan balchiq bo'lagini ko'tarib oldi. So'ng yuqorigi chuqurga keldi-da, lapanglab, shovqin-suron bilan o'zini suvga otdi. Baliqlar kutilmagan xavfdan zir qochib, o'zlarini balchiqlar orasiga urdi, nodonroqlari loyqa suv oqimi bo'ylab ketdi. Hushi o'zlariga kelguncha bo'lmay, sertosh sayozlikka chiqib qolganlarini bilmay qoldi. Ayiqlar onasi ularni bittalab ushlab, qirg'oqqa ota boshladi. Ayiqchalar bu g'alati kichkina ilonchalarga olatasir yopishib, qorinlari nog'oraday do'ppayguncha ularni pok-pokiza tushirdi.

Kun qizidi, ayiqchalarning qorni to'yib, uyqusi keldi. Ayiqlar onasi ularni xilvat bir yerga ergashtirib bordi, ayiqchalar onasining pinjiga tiqilib, uyquga ketdi.

Ayiqchalar bir soatlar chamasi uxlab, so'ng, esnab, kerisha boshladi. Kenja ayiq Paxmoq tumshug'ini bir daqiqacha cho'zib turib, yana onasining ulkan panjalari orasiga tiqdi. Bu kichkinagina nozik-nihol onasining erka bolasi edi. To'ng'ich ayiq Ueb chalqancha yalpayib yotib, yerdan chiqib turgan tomirni tortish bilan mashg'ul bo'ldi. U o'zicha g'ingshib, tomir yerga yotavermagach, uni goh tishlab tortdi, goh panjalari bilan tekisladi.

Bevosh Qashqa Jingalarning qulog'idan tortib, undan oladiganini oldi. Ular olishib qoldi, yumaloq yostiqlik bo'lib, ko'm-ko'k o'tlar uzra pastga yumalab ketdi, eslarini yig'ib olguncha bo'lmay, daryo bo'yiga yumalab kelib qoldi.



Shu payt yordam so'ragan chinqiriq eshitildi. Mit-tigina ayiq polvonchalarning chinqirig'i qo'rqinchli bo'ldi.

Nozik ta'bli ayiqlar onasi birpasda misoli devga aylandi. U bir zumda bolalarining oldiga yetib bordi, xayriyat, o'z vaqtida yetib keldi. Chunki xuddi shu vaqt ulkan tog' buqasi Jingalani sariq it deb o'ylab, unga hamla qilmoqchi edi. Ayiqlar onasi o'kirib, buqaga tashlandi.

Buqa qo'rqmadi. U dahshatli bo'kirib, ayiqlar onasi-ga qarab yurdi. Buqa suzish uchun boshini endi eggan ham edi, ayiqlar onasi uning boshiga boplab zarba berdi. Buqa o'ziga kelib, ko'zini ochib, ustida o'tirgan ayiqlar onasini ko'rdi.

Buqa quturib bo'kirdi, ustida ayiq bilan o'zini goh oldinga, goh orqaga tashladi. Nihoyat, qirg'oqning kemtik yeridan daryoga yumalab tushdi, shundagina ona ayiq uni tinch qo'ydi.

II

Badavlat chorvador – keksa polkovnik Pikett o'z qaramog'idagi podani aylanib chiqdi. Qir ostidan o'tayotib, qayerdandir shu yaqindan mol bo'kirganini eshitdi. «Ho'kizlar shoxlashayotgan bo'lsa kerak», o'yladi o'zicha.

Avval-avval bu ovozga e'tibor bermadi. Keyin qara-sa, podasining bir to'dasi tuyoqlari bilan yer tinayapti. Yaqinroq kelib qarasa, «podaning sultoni» bo'lmish ul-kan buqa qonga belangan. Iyiqlari, biqinlari timalgan, boshi yorilgan.

Bu, ayiqning ishi, – ming'illadi Pikett.

Mittig'i yelkasida edi, shu sababliyam tezda buqa kelgan izdan yo'l oldi. Ona zag'chalar bosib yotgan



Greybul daryosi kechuviga yetib keldi, daryodan kechib o'ta boshladi, qirg'oqning nuragan yeriga kelganda suvdan boshini ko'tarib, shunday oldida ayiqlar onasi bilan to'rtta bolasini ko'rdi.

Ayiqlar onasi, odamlar hamisha miltiq olib yurishini yaxshi bilardi. Shu boisdan ham bolalariga shivirladi:

– O'rmonga qochamiz.

Ayiqlar onasi o'z jonidan emas, mitti bolalari hayotidan qo'rqdi. U bolalarini chakalakzor o'rmonga ergashtirib jo'nadi, xuddi shu payt qo'rqinchli otishma boshlandi.

Paq! – halokat xavfini sezgan bechora ayiqlar onasining yuragi orqasiga tortib ketdi.

Paq! – bechora jajjigina Paxmoq ingrab, yumalab qoldi.

Ayiqlar onasi qahr bilan iziga qaytib, odamga hamla qildi.

Paq! – u og'ir yaralanib, ag'nab tushdi. Qolgan ayiqchalar nima qilishlarini bilmay, onasining oldiga qaytib keldi.

Paq, paq! – Qashqa bilan Jingala o'lim talvasasida onasining yoniga yiqildi.

Qo'rqib, esankirab qolgan Ueb Qashqa bilan Jingalani gir aylanib chopdi. Keyin qandaydir bir xayolga borib, beixtiyor o'rmonga qarab qochdi. Ammo so'nggi o'qdan qochib qutulolmadi. O'q orqa oyog'iga tegib, uni mayib qildi.

Cho'loq ayiqcha tuni bilan o'rmon kezdi. Bechora Ueb uch oyoqlab yurdi. Mayib oyog'ini bosmoqchi bo'lganda, undan qon sizilib oqdi. Shunda u ingrab, ho'ngillab yig'lab, onasini yo'qladi:

– Ena, ena, enajon! Qayerdasan, enajon!

Ayiqcha sovuq qotdi, qorni ochdi, mayib oyog'ini og'rigandan-og'ridi. Onasi bo'lsa ovoz bermadi.



esa onasining oldiga qaytib borolmadi. Daraxtlar oralab tentirab yuraverdi.

U favqulodda g'alati bir hidni sezdi, nima qilishini bilmay, bir daraxtga o'rmalab chiqib oldi.

Pastga mo'ralab, bir nechta uzun bo'yli, ingichka oyoqli jonivorlarni ko'rdi. Ueb bunday jonivorlarni bir safar onasi bilan ko'rib edi. U o'shanda bu jonivordan qo'rqmagan edi, hozir esa qo'rqqanidan daraxtga yopishib oldi. Ulkan jonivorlar daraxt oldiga kelib, tumshuqlarini havoga cho'zdi-da, ko'p o'tmay ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Bechoragina Ueb ertalabgacha daraxt ustida o'tirib chiqdi, sovuq qotganidan zo'rg'a yerga tushdi. Ko'p o'tmay kun chiqib, ancha isib qoldi, meva, qumursqa izlay boshladi. Chunki u juda och edi.

So'ng, o'zining qadrdon Payni daryosiga yo'l oldi. Mayib oyog'ini muzday suvga solib turdi. So'ng toqqa qarab jo'nagisi keldi, ammo ko'ngli onasi bilan jigarlarining jasaki qolgan yerga borishni buyurdi. Tushdan keyin kun isib ketdi, u o'rmon oralab pastga yurdi, keyin Greybul daryosi qirg'oqlari bo'ylab ketdi. Ueb yurib-yurib, kechagina onasi bilan baliq yegan yerga yetib keldi. Tevarakda haliyam baliq boshlari sochilib yotibdi. Ueb ularni ochko'zlarcha terib oldi. Qayerdandir qo'lansa hid keldi. Hid Uebni qo'rqitib yubordi. U onasini so'nggi bor ko'rgan yerga yaqin kelganda hid yanada kuchaydi. Daraxtlar orasidan mo'ralab, o'laksa talashayotgan chiyabo'rilarni ko'rdi.

Ueb o'laksa nimaniki ekanini bilolmadi. Ammo shu narsaga amin bo'ldiki, bu yerlarda uning onaginasidan nom-nishon ham yo'q edi. Hid esa borgan sayin kuchayib Uebning ta'bini xira qildi. U ohista ketiga burilib, chakalakzor o'rmonga yo'l oldi, endi bu yerlarga qaytib qadaman bosmaslikka ahd o'ldi. U hamon onasini ko'rgisi



keldi, ammo onasini izlash befoydaligini anglab, ko'ngli o'ksidi.

Qahraton tun boshlandi. Bechoragina ayiqcha hamon onaginasini qo'msadi, onaginasini sog'indi. Jajjigina sag'ir ayiqcha achchiq-achchiq hiqillab yig'lab, uzoq vaqt uyoqdan-buyoqqa tentirab yurdi. U betob edi, u yolg'iz edi, uni mayib oyog'i qiynar edi. U ona sutiga tashna edi, u endi ona sutining mazasini umrbod tatib ko'rmaydi!

U hiqillab yig'lab yurib-yurib, ichi kovak daraxt kundasiga duch keldi. Shu kovakka kirib oldi. U joylashib olib, o'zini men onaginamning serjun quchog'ida yotibman, deya xayol qildi, shunday shirin xayol og'ushida uyquga ketdi.

III

Ueb tabiatan ma'yus ayiqcha edi, baxtsizlik esa yanada ma'yus qilib qo'ydi.

Barcha ishlari teskari ketdi. U Payni daryosi oqimi bo'ylab ketgan o'rmondan hech qayoqqa chiqmaslikka intildi. Kunlari o'ziga yegulik izladi, tunlari kunda kovagida yotdi. Bir kechqurun nishlari qumanjirning tikaniday o'tkir bir ulkan jayra kelib, uning kulbasini tortib oldi. Bechora ayiqcha nima qilishini bilmay, o'ziga boshqa panoh izlab ketdi.

Ueb Greybul daryosi bo'ylariga tushib, bir vaqtlar onasi ko'rsatib ketgan mazali tomirlarni izladi. Biror-bir tomir topgunicha bo'lmay, qandaydir bir indan bir kulrang maxluq otilib chiqib, shovqin-suron bilan ayiqchaga yopishdi. Bu bo'rsiq edi. Bo'rsiq Uebning ko'ziga juda abjirday ko'rindi, buning ustiga Ueb xasta, cho'la. Shu boisdan ham u qochib qoldi, shu yaqindagi daraga buri-ladigan dovonga yetganda to'xtadi. Xuddi shu yerdan



uni chiyabo'ri ko'rib qolib, quva ketdi, o'zi quvgani yetmaganday, boshqa bo'rilariniyam yordamga chaqirdi. Ueb duch kelgan daraxtga chiqib oldi. Chiyabo'rilar daraxtga sapchib, ulidi. Ular, ayiqcha daraxtga chiqib xotirjam o'tiribdimi, demak, shu yaqinda onasi ham bor, yaxshisi uni tinch qo'yish kerak, degan xulosaga kelib, tarqab ketdi.

Chiyabo'rilar ko'zdan g'oyib bo'lgach, Ueb daraxtdan tushdi. U Payni daryosiga qaytib bormoqchi bo'ldi. Aslida-ku, Greybul daryosi bo'ylarida yegulik ko'p edi, lekin onasiz qolib, uyoqlarga borolmay qoldi, borsa, albatta uni turtkilaydilar. Payni bo'ylarida esa uning oromini hech kim buzmaydi. Buning ustiga Paynida daraxtlar ko'p bo'lib, bordi-yu, g'animga duch kelsa u darhol shu daraxtlardan biriga chiqib oladi.

Lat yegan oyog'i juda sekinlik bilan bitdi. Aniqrog'i, oyog'i butunlay sog'ayib ketmadi. Yara bitdi, og'riq o'tdi, ammo lat yegan oyog'i sog' oyog'iday bo'lmadi, oqibat, u oqsoq bo'lib qoldi. Bu nogironlik daraxtga chiqayotganda, g'animdan qochayotganda juda-juda bilindi.

Sag'ir Uebning g'animlari ko'p edi, birodarlari esa deyarli yo'q hisobi edi. Uning yakka-yu yagona birodari olamdan o'tgan onasi edi. Onasidan juda erta ajralgan bechoragina Ueb ko'p ko'rgiliklarni ko'rdi, tabiat ato qilgan chayirligi tufayligina barcha ko'rgiliklarga bardosh berdi.

Shu yili kedr g'uddalari bo'liq bo'ldi. Har shamol turganda g'uddalar xuddi chaqilgan yong'oqday yerga to'kilaverdi. Uebga jon kirdi. Sog'ligi yaxshilanib, kuchiga kuch qo'shildi. Har kuni duch keladigan jonivorlar endi unga teginmaydigan bo'ldi. Bir kun ertalab kedr yong'oqlarini chaqib o'tirib yedi, tog'dan ulkan qora ayiq tushib keldi. Ueb darhol bir daraxtga chiqib oldi.



Qora ayiq kulrang ayiq isini olib, avvaliga qo'rqib turdi. So'ng, daraxt ustidagi maydagina bir ayiqcha ekani ni ko'rib, dadillandi, o'kirib, Uebning izidan jo'nadi. Yuqoriga o'rmalab boraverdi. Ueb qanchalik yuqorilamasin, qora ayiq ham uning izidan qolmadi. Nihoyat, bizning jajji ayiqchamiz eng yuqoridagi ingichka shox uchiga chiqib bordi. Qora ayiq uni xuddi shu shoxdan yerga otib yubordi. Ueb badanlari yorilib, timalganidan ingrab-ingrab, oqsoqlanib jo'nab qoldi. Qora ayiq uni quvib yetmoqchi bo'ldi, lekin shu yaqinda kulrang ona ayiq bor deb o'ylab, qo'rqdi. Qora ayiq Uebni kedr o'rmonidan ana shunday qilib haydab yubordi.

Greybulda yegulik narsalar juda oz qoldi. Meva-chevalar pishib o'tib ketdi, baliq, qumursqalar ham qolmadi.

G'aribgina Ueb qorin tashvishida olis-olislarga qarab ketdi. U daryo yoqalab, Mititse darasi tarafga borib qoldi.

Marmarakzordan bir chiyabo'ri chiqib, uni oldiga solib quvdi. Ueb jonining boricha qochdi, ammo chiyabo'ri unga yetib oldi. Ueb jon-jahdi bilan ketiga buriilib chiyabo'riga yopishdi. Esankirab qolgan chiyabo'ri qo'rqqanidan dumlarini qisib qochib qoldi.

Ueb hayotida ilk bor shuni anglab yetdiki, o'rmonda halovat kurashlar evazigagina qo'lga kiritilar ekan.

Afsuski, bu yerlarda ham yegulik narsalar kam ekan. Shunda Ueb Mititse darasining eng olis kedr o'rmonlariga yo'l oldi. U bu yerda onaginasini otib tashlagan xuddi o'sha odamga o'xshagan bir odamni ko'rdi. Xuddi shu daqiqada «paq!» etgan ovoz eshilib, tepasidagi marmarak shoxlari yerga uchib tushdi. Ueb shunday yugurdiki, hali umrida bunday yugurgan emas. Bir jarlikka duch kelib, shu jar ichidan daraga qarab chopdi. Ikki qoya o'qiligidagi yoriqqa ko'zi tu-



shib, shu yerga bekinishga ahd qildi. Biroq yoriqqa yaqin borganda undan bir mol chopib chiqdi. Mol pishqirib, shoxdor boshini silkidi.

Ayiqcha shu yaqinda yotgan daraxt kundasiga sapchidi. Kutilmaganda kundaning narigi uchida yovvoyi mushuk paydo bo'ldi. Bechora Ueb bu yerdan ham jo'nashga majbur bo'ldi. Chunki yovvoyi mushuk unga nisbatan g'animlarcha munosabatda bo'ldi, u bilan o'chakishib o'tirishning esa aslo vaqti emas. Bechora ayiqcha alam bilan shu narsaga amin bo'ldiki, dunyo deganlari g'animga to'la ekan! U noiloj qolib, serqoya qirg'oq bo'ylab pastga tushdi-da, o'rmonning ichkarisiga yo'l oldi.

Biroq uning poyqadami bu yerdagi olmaxonlarga yoqmadi, olmaxonlar shovqin ko'tardi. Olmaxonlar o'z qaramoqlaridagi yong'oqlardan xavotir oldi, ayiqcha yong'og'imizni o'g'irlab ketadi, deb o'yladi. Ular Uebning izidan shoxma-shox irg'ishlab borib, uni shovqin solib so'kdilar, bu shovqinlari bilan ayiqqa bas keladigan biror g'animni yordamga chaqirdilar. Bu olmaxonlarning ayyorligi edi.

Biror-bir g'anim ko'rinmasa-da, ayiqcha bezovta bo'ldi, o'rmonning eng chekkasiga ketishga urindi, chunki uyoqda yeguliklar oz bo'lsa ham har holda g'animlar kam edi. U faqat shu yerda, o'tloqning chetida beg'alva orom olishi mumkin edi.

IV

Sonsiz g'animlar ta'qibi Uebning qonini qaynatib yubordi.

Nimaga hamma unga, bir bechora ayiqchaga tinchlik bermaydi? Nimaga hamma, ha, hamma-hamma uni ko'rganini ko'zi yo'q? Eh, o'nginasi tirilib kelsa edi! Eh,



uni qadrdon o'rmonidan quvib yuborgan o'sha qora ayiqqa kuchi yetsa edi! Uni hatto bir sho'rtumshuq yovvoyi mushuk haydab yubordi-ya! Inson degan zot esa uni otmoqchi bo'ldi!

U g'animlaridan nafratlandi, ularning basharasini eslab qoldi.

Ueb bu safar qulayroq maskanga joylashib oldi. Tevarakda yong'oqlar ko'p edi. Buning ustiga dimog'i olmaxonlarning qishga jamg'argan yemishlari qayerdaligini sezdi. Ueb bu jamg'armani yeb qo'ysa, albatta, olmaxonlarga qiyin bo'ladi. Lekin u xursand bo'ldi, chunki yong'oq deganlari ko'p mazali taom-da. Kunlar qisqarib, tunlar muzladi. Ueb to'lishib, bir tekis bo'lib qoldi.

U endi Mititse darasi o'rmonlari bo'ylab sayr qiladigan bo'ldi. Ko'p vaqtini o'rmon yuqorisida o'tkazdi, ba'zan yegulik qidirib daryoga ham kelib ketdi. Bir kechasi daryo yoqalab borayotib, dimog'i juda mazali bir hidni tuydi. Ueb qiziqsinib suv oldigacha keldi. Hid suv yuzasida suzib turgan daraxt kundasidan keldi. Ueb suvga kirib, kunda oldiga bordi, shunda, bir nima «shiq» etdi, uning bir oyog'i suv qunduziga qo'yiladigan temir qopqonga tushdi.

Ueb o'kirib, jon-jahdi bilan o'zini orqaga otdi. Qopqonning qozig'ini sug'urib yubordi. Qopqondan qutulish yo'lini izladi, bo'lmadi, so'ng uni sudrab chakalakzor tarafga yurdi. U qopqonni tishi bilan tishlab olib tortmoqchi bo'ldi, lekin muzday temirni joyidan qo'zg'atolmadi. Qopqon oyog'ida sudralib kelaverdi. Ueb har qadamda to'xtab-to'xtab yurdi, chunki qopqon oyog'ini og'irlashtirib yerga bosdi, oyog'ini qisdi, oyog'ini kesdi. U qanday qilib bo'lmasin, qopqonni tashlab ketish uchun uni sudrab daraxtga chiqdi, bo'lmadi, qopqon oyog'iga chayirday yopishib turaverdi. O'rmon ichiga kirdi, joy-



lashib o'tirib, qopqondan qanday qilib qutulish yo'lini o'yladi. Bu kasofatning nima ekanini o'ylab o'yiga yetolmadi. Uning ko'k-sariq ko'zlari bu yangi g'animga nisbatan qo'rquv ham nafrat bilan yondi.

Ueb changal tagiga yotib qopqonni tishlab torta boshladi. Bir uchini oyog'i bilan bosib turib, bir uchini tishlab tortdi. Qopqon ochilib, Uebning oyog'i ozod bo'ldi.

Vaholanki, Ueb qopqonning har ikki prujinasini ayni bir vaqtda tasodifan buragan edi, oyog'i qanday qilib chiqib ketdi, o'ziyam bilmay qoldi. Ammo qopqon uning xayolida mahkam o'r mashib qoldi, qopqon deganda shunday xulosaga keldi: «G'animlar orasida shunday bir maydasi borki, u suv ostida yashirilib yotadi, ayiqchalar-ga sezdirmay hamla qiladi. Bu g'anim ko'p hid taratadi. U dabdurustdan oyoqdan oladi, uni tishlab bo'lmaydi. Faqat kuch bilan burab, undan qutulish mumkin».

Jajjigina Uebning qopqonga tushgan oyog'i bir hafta-cha og'rib yurdi. Ayniqsa, daraxtga chiqayotganida yomon og'ridi.

Kuz kirdi. Gulduragan bug'u ovozlari tog'larni larzaga soldi. Ueb bu ovozlarni har kechasi eshitdi. U bir necha bor ulkan shoxli bug'ulardan qo'rqib, daraxtlar-ga chiqib qochdi. O'rmonga ovchilar keladigan bo'lib qoldi, yuqori tarafdin esa yovvoyi g'ozlar g'ag'illashi eshitaladigan bo'ldi. Shuningdek, o'rmonda yangi-yangi hidlar paydo bo'ldi. Ueb shu hidlardan birini mo'ljallab bordi. Bir nechta mayda-chuyda xodalar uyumiga duch keldi. Mazali hiddan bo'lak yana bir shunday bemaza hidni sezdi, bu odamning hidi bo'lib, u bu hidning nim-aligini onaginasini yo'qotgan kuni yaxshi bilib olgan edi. Bu hid unchalik o'tkir anqimayotgan edi. Shunday bo'lsa ham Ueb tevarakni yaxshilab iskab chiqdi, bu hid narigi xodalar uyumidan kelayotganiga amin bo'ldi. Mazali hid esa orqadagi chakalak ostidan kelayotgan



edi. U orqadan aylanib kelib, chakalakni joyidan surdi, qo'yilgan tuzoqqacha bordi, qarasa – bir parcha go'sht turibdi. U go'shtni olishi bilanoq, xoda uyumi yerga ag'nab tushdi.

Ueb bu kutilmagan tasodifdan sapchib tushdi, har holda, bir parcha go'shtni olib, qochib qolishga ulgurdi. U «bemaza inson hidi hamisha yaxshilikka olib bormasligiga» yana bir bor ishonch hosil qildi.

Havo borgan sayin sovidi, Uebning uyquasi keldi. U odatda sovuq kunlari kun uzog'i uxlar edi. Yana shunday uxlay desa, yotadigan tayin joyi yo'q. Har holda, kun ochiq vaqtlari, bo'ron turgan paytlari panalaydigan bir-ikkita joylari bor edi. Shulardan biri tomirlar tagidagi in bo'lib, u shu yerni juda xush ko'rar edi. Shamol turib, qor yog'ib boshlaganda Ueb shu inga biqinib yotib olib, uyquga ketdi. Bo'ron zo'raygandan-zo'raydi, qor kuchaydi. Qor daraxt shoxlarini yopib, ularni egib yubordi, bo'ron shoxlarni qordan ozod qildi, yana shoxlarga qor tushdi. Qor tog'larga yog'di, daralarga yog'di, jarlar qorga to'ldi. Uebning makoni uzra qor uyumi paydo bo'ldi. Qor uyumi Uebni sovuqdan saqladi. Ueb o'zining serjun po'stiniga o'ralib, uxlagandan-uxladi.

V

Barcha ayiqlar kabi Ueb ham qishi bilan uxladi. Bahor kelganda uyg'onib, o'zining xo'p ham ko'p uxlaganini angladi. U uyqu davomida unchalik o'zgarmadi. Faqat yetilib, biroz ozdi, xolos. U juda och edi, shu sababliyam makonini hamon qoplab yotgan qor uyumini yorib chiqib, o'ziga tamaddi izlab ketdi.

Biroq hali kedr yong'og'i ham, meva ham, qumursqa ham yo'q edi. U havoni hidlab, dimog'i bir hidni tuydi, shu hidni olib, jarga yotib oldi, qarasa – qishda otib



o'ldirilgan bug'u jasadi yotibdi. Bizning Ueb undan to'yganicha yedi, qolganini boshqa kunlar uchun yashirib qo'ydi.

U har kuni shu yerga kelib, qornini to'yg'azdi. Ko'p o'tmay bug'u o'laksasidan asar ham qolmadi, u ikki oycha och yurdi. Ueb shu oylar mobaynida xiyla ozdi.

Bir marta Vorxaus vodiysiga borib qoldi. Vodiy ancha iliq, quyosh taftiga serob ekan, ko'katlari nish urib qolgan ekan. Shu vodiya Uebning qorni to'ydi. U yanada pastga, quyuq o'rmonzor sari yurib edi, dimog'iga yana bir kulrang ayiq hidi keldi. Ueb shu hidni olib bordi, ayiqlar yuradigan so'qmoq oldidagi yolg'iz daraxtga duch keldi. U orqa oyoqlari bilan turib, daraxtni iskab ko'rdi. Daraxtdan ayiq hidi keldi. Tananing yuqorirog'ida ayiq junlari ilashib yotibdi. Demak, daraxtga juda katta ayiq suykalgan. Ueb uzaldi, ammo ayiq junlariga bo'yi yetmadi. U hayajonlanib ketdi. U ko'pdan buyon o'z ajdodiga mansub biror ayiq bilan ko'rishishni istar edi. Inchunin, uni vahima ham bosdi. Chunki u o'zining tanho kechayotgan hayotida ko'rgani nuqul g'anim bo'ldi. U bu ulkan ayiq bilan qanday qilib bo'lmasin, ko'rishish yo'lini o'yladi.

Ueb o'ylab o'yiga yetgunicha, tog' o'ngirida o'sha qari ayiq qora berdi. Qari ayiq boshini egib kelar, goho to'xtab, panjalari bilan yerdan yovvoyi sholg'om, maza-li tomirlar kovlab olar edi.

Qari ayiq ulkan afsonaviy maxluqqa kelbat berar edi. Ueb unga ko'zi tushib, ko'nglida bir hadik sezdi, daraxtlar oralab chopib, tepalikka chiqib oldi. Shu yerdan turib, qari ayiqni poyladi.

Qari ayiq Uebning izini ko'rib qoldi. U qahr bilan o'kirib, izni olib daraxtga qarab yurdi. Orqa oyoqlari bilan ulkan turib, daraxt tanasidan o'sib chiqqan butoqlar yula boshladi. So'nangiyana Uebning izidan yo'l



oldi. Ueb juda qo'rqib ketib, yana Mititse darasiga qarab qochdi. Darada yegulik narsalar juda tanqis bo'lganligi sababli buyoqlarga o'zga ayiqlar qadam bosmasligiga Uebning aqli yetdi.

Yoz yaqinlashib qolib, Uebimizning dangasalik fe'li tutdi. Badani qichiganda iflos yerga yumalab, yelkasini tomirlarga, toshlarga ishqadi. U endi daraxtlarga chiqolmay qoldi. Chunki tirnoqlari haddan ziyod o'sib ketdi. Oldingi oyoqlari yetilgan bo'lsa-da, ammo burungi kuch-quvvatini yo'qotib, bo'shashib qoldi. U yangi bir odat chiqardi: daraxtga suykalayotganda tumshug'ini iloji boricha balandroq ko'tarishga urindi. Daraxtga har gal kelganda tumshug'ini yanada yuqoriga ko'tara berdi. Natijada, u borgan sayin o'sib, kuch-quvvatga to'lib bordi.

Ueb Mititse darasining goh uyog'ida-goh buyog'ida kezib yurib, o'zini bu yerlarning egasiday his qildi. Turli-tuman daraxtlarga suykalib, barchasida iz qoldirdi. Shunday yo'l bilan yuradigan yo'llariga belgi qo'yib chiqdi.

Yozning so'nggi kunlari edi. Bir kuni Ueb o'z qaramog'idagi yerlarda qora ayiqni ko'rib qoldi. Uebning qahri keldi. Qora ayiq yanada yaqinroq keldi, shunda Ueb uning jigarrang-qizilchadan kelgan basharasini, ko'krigidagi oq qashqani, chinqoq qulog'ini aniq ko'rdi, dimog'i hidini sezdi. Bu hid bir vaqtlar uni Payni dar-yosiga quvib yuborgan qora ayiq hidi edi. Qora ayiq juda kichrayib qolgan edi! U bir vaqtlar Uebning ko'ziga juda ulkan bo'lib ko'rinardi. Endi esa Ueb uni panjalari bilan bir solib yumalatishiga ko'zi yetdi. Endi Ueb bu qizilburun ayiqdan o'ch olishga qudrati yetishini ang-lab, ich-ichidan quvondi. Buni sezgan qora ayiq o'max-onday pitillab, daraxtning uchiga chiqib oldi. Uebning izidan bormoqchi bo'lib, daraxtga shuncha tirmashdi,



ammo chiqolmadi. Niyatidan voz kechib, nari ketdi, qora ayiqning zaharxanda yo'talishini eshitib, qahri keldi, bir necha bor iziga qaytib, yana ketdi. Shu kuni kechroq qora ayiq chiqib olgan daraxtga yana qaytib keldi, ammo qizilburunni topolmadi.

Yoz oxirlab qoldi. Dara yuqorisida yemish kamayib qoldi. Bir kechasi Ueb yemish izlab Quyi Mititse tarafga jo'nadi. Shamol dimog'iga mazali bir hidni olib keldi, u hidni olib borib, ho'kizning masliqi ustidan chiqdi. Masliq tevaragida bir nechta chiyabo'rilar cho'nqayib o'tirar edi. Ular Uebning ko'ziga u ko'rgan chiyabo'rilar oldida juda mayda, nogiron ko'rinib ketdi. Chiyabo'rilarining birovini o'laksaning shunday boshida turar edi. U turgan yerida o'zicha osmonga sapchir, hech qayoqqa ketmas edi. Ueb uni ko'rib, ko'nglida yashirinib yotgan eski dardi qo'zg'adi. U chiyabo'riga tashlandi, uni panjalari bilan bir urib, bir parcha po'stakka aylantirdi-qo'ydi. To'g'ri, chiyabo'ri ham uni tishlab-tishlab oldi, ammo qovurg'alari ayiqning panjalari orasida qisir-qisir sindi, ayiq o'z og'zida uning iliq qoni mazasini tuydi. Ueb huzur qildi! Ueb la'nati temir hidini sezib, chiyabo'rini yerga tashlab yubordi: chiyabo'rining jasi qopqonga tushib qolgan, shu tufayli u turgan joyida sapchigan ekan.

Ueb bir necha qadam bosib edi, birdan «shiq» etgan tovush chiqdi, oyog'i beixtiyor bo'rilarga qo'yilgan qopqonga tushib qoldi.

U darrov bir vaqtlar qopqondan qanday qilib ozod bo'lganini esladi. Orqa oyog'i bilan ikkala prujinani bosib turib, oyog'ini tortib oldi.

Tevarakdan Ueb uchun jirkanchli bo'lgan odam hidi chiqdi. U daryo oqimi bo'ylab pastlab ketdi, biroq odam hidi shu yoqqacha keldi. Noiloj qolib, yana kedr o'rinlariga qarab jo'nadi.



VI

Ayiqchamizning hayotida uchinchi yoz keldi. Ueb katta ayiq bo'lib qoldi. Lekin hali ayiq desa deguday ulkan, kuchga to'lmagan edi. Ammo junlari ko'zni o'ynatdi. Shu boisdan ham Shoshon tog'larida yashovchi Spavat degan hindu ovchi bir necha bor ayiqning izidan tushdi, xuddi shu ovchi ayiqqa «Ueb», ya'ni «yarqiroq po'stin», deya nom berdi.

Spavat binoyiday ovchi edi. U bir kuni Mititse dar-yosining yuqori oqimida Ueb suykalgan daraxtni ko'rib qoldi. Spavat, daraxtga suykalgan ayiq ulkan ayiq ekanini, u qayerda bo'lsa ham shu atrofdan ekanini sezdi. U vodiyni ko'p kezdi, nihoyat, Uebni otib, yelkasidan yarador qildi. Ueb og'riqdan ingrab yubordi, ammo g'animi bilan olishgisi kelmadi. U vodiy bo'ylab yuqoriga yo'l oldi, tog' etagidan o'tib, ovloq bir joy topib, yotib oldi. Ko'nglining mayliga qarab, yarasini davoladi. Yarasini tinimsiz yalab turdi, qimirlamasdan yotdi. O'z-o'zini davolashning bundan afzal yo'li yo'q edi. Yarasini yalab, undan har xil iflosliklarni olib tashladi, yarasi tevaragidagi junlar tupugi tegib, bir-biriga yopishib qoldi, oqibat, junlari yarani tashqi ta'sirdan – shamoldan, chang, zararkunandalardan pana qildi.

Ammo Spavat Uebning izidan keldi. Ueb yotgan yerida tobora yaqinlashib kelayotgan g'anim hidini sezdi, tog'ning yuqorirog'iga chiqib bekindi. Ueb ko'p o'tmay bu yerda ham ovchi hidini oldi. Ayiqchamiz yana yo'lga tushdi. U g'animidan chekinib boraverdi, nihoyat, Spavatning ikkinchi o'qi unga yangi dard keltirdi. Shunda, Uebning qahri qaynab ketdi. Onaginasini olamdan o'tgandan buyon odam, temir, miltiq hididan qo'rqib qolgan edi. Ayni shu daqiqada esa tanasida qo'rquvdan



asar ham qolmadi. Og'riqlarga zo'rg'a bardosh berib, tog'ning yanada yuqorisiga ko'tarildi, katta kamar ostidan o'tdi, uni aylanib o'tib, yana yuqori ko'tarildi, so'ng kamarga qaytib kelib, unda bekinib yotib oldi.

Spavat ayiqning izidan keldi. Miltiq bilan pichoq olib olgan Spavat shoshib-surinib izlarni kuzatdi. Izlardagi qonni ko'rib, xursand bo'ldi. O'zida yo'q quvonib, sertosh tog' yonbag'ri bo'ylab yuqoriladi. Do'ngda Ueb bor azoblari, g'azablarini ichiga yutib, payt poylab yotdi. Tinib-tinchimas ovchi unga tobora yaqinlashib keldi. Uning butun diqqat-e'tibori qonli izlarda. U shu sababliyam do'nglikka aqalli biror marta boshini ko'tarib qaramadi.

Ueb esa unga o'lim tilab kelayotgan hinduni aniq ko'rib, qo'lansa hidini sezib turdi. U bor kuchini yig'ib, qaltirayotgan yarador oyog'ini bosib, o'rnidan turdi. Bor sabr-toqatini yig'ib, payt poyladi. Qulay payti kelib, sog'lom panjasi bilan Spavatni shunday soldiki, hindu miq etgan ovoz chiqarolmay uchib tushib, pastga yumalab ketdi. Bu zarbada Uebning ovchiga nisbatan bo'lgan nafrati jamlangan edi. U shundan keyin yarasini davolash uchun xoliroq makon izlab ketdi. Ueb shu kundan boshlab Spavat hinduni qaytib ko'rmadi. Ko'ngli xotirjam bo'ldi.

Shunday qilib, bizning Uebimiz tinchlik, osoyishtalikda yashash uchun kurashish, yana ham kurashish kerakligini ana shunda bildi.

VII

Yillar ketidan yillar o'tdi. Har qish kelgan sayin Ueb kamuyqu bo'lib qoldi, har bahor kelganda erta uyg'onadigan odat chiqardi. U ulkan ayiq bo'ldi, u bilan yuzna-yuz bo'ladigan g'animlariyam kamaydi. Olti yil



deganda bahaybat, baquvvat, ma'yus ayiq bo'lib yetildi. U onaginasi bilan jigarlarini yo'qotgandan buyon mehr-muhabbat nima, do'stlik nimaligini bilmay o'sdi.


Muhabbat fasllari ketidan muhabbat fasllari o'tdi. Ammo Uebning biror ayiqqa ko'ngil berganini hech kim ko'rmadi, hech kim eshitmadi. Ueb yoshligida qanday yolg'iz bo'lsa, kuch-quvvatga to'lganida ham shunday yolg'iz bo'lib qoldi. Ayiqlarga esa yolg'izlik yarashmaydi. Uning ma'yus, badqovoqligi kuchi bilan birga yetildi. Uebga duch kelgan odam uni g'oyatda xavfli ayiq deyishi turgan gap edi.

Ueb Mititse darasiga qadam qo'ygandan buyon shu yerda yashab qoldi. Fe'l-atvori qopqonlarga oid sarguzashtlar, turli yovvoyi hayvonlar bilan bo'lgan olishuvlar jarayonida shakllandi. Endi unga hech qaysi bir hayvon pisand bo'lmay qoldi. Qopqonlardan ham qo'rqmaydigan bo'ldi, chunki u temir bilan odam hidini juda yaxshi payqab oldi. Ayniqsa, olti yoshida boshidan kechirganlari Uebga ulkan saboq bo'ldi.

Bir kuni u havoni iskab, o'rmonda qandaydir bir o'laksa borligini sezdi. Hidni olib borib, mazali bug'u go'shtiga duch keldi.

Go'sht sochilib yotibdi. Tevarakdan odam bilan temirning bilinar-bilinmas qo'lansa hidi anqidi. Go'sht Uebning ko'zini o'ynatdi... U go'shtni gir aylandi, orqa oyoqlarida tik turib, unga balanddan qaradi, so'ng, ehtiyot bilan oldinga yurdi. Shunda, birdan o'kirib, o'zini uyoqdan-buyoqqa otdi. Oldingi chap oyog'i ayiqqa qo'yiladigan qopqonga tushib qoldi. Bu Ueb osongina qutulib ketadigan qunduz qopqoni emas edi, bu bir pud keladigan ayiq qopqoni edi.

U g'azab bilan qopqonni tishlab torta boshladi, talvasaga tushib, og'zidan ko'piklar oqdi. U o'zining eski usulini qo'lladi. Qopqon prujinalariga orqa oyoqlarini ti-



rab, o'zining bor og'irligini tashladi, bo'lmadi. Shunda u qopqonning qozig'ini sug'urib oldi, qopqonni shaldir-shuldir qilib, toqqa sudrab ketdi. Yo'l-yo'lakay bir necha bor qopqondan qutulish yo'lini qildi, bo'lmadi. Yo'lda ko'ndalang bo'lib yotgan daraxt kundasiga duch keldi. Shunda, Uebning xayoliga yaxshi fikr keldi. Kunda oldiga kelib, zabardast yelkasini kundaga tiradi, orqa oyoqlarini qopqon prujinasiga qo'yib, bor kuchi bilan bosdi. Bu safar prujinalar bardosh berolmadi, qopqon ochilib, Ueb oyog'ini chiqarib oldi. Oyog'ini-ku, chiqarib oldi, ammo shart qirqilgan bosh barmog'i qopqonda qolib ketdi.

Bechoragina ayig'imiz yana yarasini davolash bilan mashg'ul bo'ldi. Bir necha vaqtlar chapaqay bo'lib qoldi. Masalan, biror toshni ag'darmoqchi bo'lsa, oldingi o'ng oyog'ida turib, chap oyog'i bilan ishladi. Shu sababli bizning Uebimiz bir qancha vaqt tosh, kundalar ostida bo'ladigan mazali yeguliklarni ololmay, benasib bo'lib qoldi.

Nihoyat, yarasi bitdi! Ammo bu voqea Uebning ko'nglidan ketmadi. Shundan buyon inson bilan temir hidi Uebning jinini qo'zg'aydigan bo'ldi.

VIII

Bir safar Ueb o'ziga taalluqli yerning eng olis chekkasiga borib qoldi. U bu yerlarda ko'pdan buyon bo'lmagan edi, shu boisdan odamlar yashaydigan bir kulbaga ko'zi tushib, hayron bo'lib qoldi. Ueb tevarakni aylandi, shamol esayotgan tarafga o'girilib havoni hidladi, shamol dimog'iga inson bilan miltiq hidini olib keldi, uning qahri qaynadi. Shu payt «paq!» etgan tovush yangradi, Ueb cho'loq chap orqa oyog'ida kuchli og'riq sezdi. Ueb o'girilib, yangi qurilgan kulbaga chopib borayotgan odamni ko'rdi. Bordi-yu, Ueb



yelkasidan o'q yeganda ojiz bo'lib qolardi, ammo u boryo'g'i oyog'idan yaralandi, xolos.

Uebning qudratli panjalari qarag'ay xodalarini misoli cho'pday o'ynatadi, bu panjalarning bir zarbasi eng zo'r tog' buqasini chalpak qiladi, tirnoqlari qoyadagi har qanday ulkan toshni uzib oladi, jon oluvchi oddiy bir miltiq uning uchun nima degan gap?

Kechqurun Uebni otgan odamning o'rtog'i uni kulbasiga izlab keldi. U kulbadan o'rtog'ining jasadini topdi. U kulba oldidagi qonlarni, o'rtog'i qaltiroq qo'li bilan gazeta orqasiga bitgan nomani ko'rib, nima gapligini tushundi.

Nomada shunday so'zlar bor edi:

Ueb abjag'imni chiqardi. Men uni suv bo'yida ko'rib otgan edim.

Kulbamga qarab qochgan edim, izimdan yetib oldi. A'zoyi badanim zirqirab og'riyapti! Jek.

Jekning o'rtog'i Miller nomani o'qib bo'lib, shu ayiqni otib o'ldirishga qasam ichdi. U Uebning izini olib, daraga jo'nadi, kun bo'yi tentirab yurdi. Tuzoq tashladi, qopqon qo'ydi, ammo Uebning qorasiniyam ko'rmadi. Nihoyat bir kuni Miller qarsillagan, dukillagan tovushlarni eshitdi, so'ng, bir nafar ohuni hurkitib, nishablikdan o'rmon sari yumalab ketgan ulkan toshga ko'zi tushdi.

Miller avvaliga ko'chki ko'chyapti, deb o'yladi. So'ng, Ueb qumursqa qidirib tosh ag'darayotganini bildi.

Shamol Ueb tarafdand esdi, shu boisdan ham odam hidini sezmad, Miller bundan foydalanib ayiqni yaxshilab ko'rib oldi.

Ulkan Ueb oqsoqlanib, oyog'i og'riganda ingrab, tomoq dardida izg'idi.



Miller o'zini panaga olib, o'zicha o'yladi: «Uni hozir yerga yo yumalataman, yo xato ketaman».

U chiyillatib hushtak chaldi.

Ayiq qoqqan qoziqday qotib qoldi, quloqlarini ding qildi. Miller uning boshini mo'ljalga oldi. O'q Uebning ulkan jundor boshini yalab ketdi, xolos. Ueb, otgan odam tutun chiqqan yerda ekanini angladi, lapanglab, o'sha yoqqa yugurdi, g'animiga yopishdi.

Miller miltig'ini tashlab qochdi, shu yaqindagi yakka-yu yagona uzun daraxtga chiqib oldi. Ueb daraxt tevaragida bekordan-bekorga asabiylashib, daraxt po'stloqlarini tishlab, tirnab yurdi. Chunki u ovchi chiqib borgan shoxgacha baribir chiqolmasdi.

U daraxt ostida to'rt soatcha aylanib yurdi, so'ng, ohista-ohista changalzor oralab, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Miller Uebning chindan ham ketganiga ishonch hosil qilish uchun daraxt uchida yana bir soatcha o'tirdi. So'ng daraxtdan tushib, miltig'ini oldi-da, kulbasiga yo'l oldi. Bizning Uebimiz juda ayyor edi. U jo'rttaga daraxtdan olislab, yana iziga qaytib keldi, panalab, daraxtni poyladi. Miller yerga tushib, daraxtdan xiyla olisladi, endi har qancha yugursayam daraxtga yetib kelolmaydigan masofaga borib qoldi. Ana shunda bizning Uebimiz ovchini quvib boshladi! Yarador bo'lsa-da, Millerdan ko'ra ildamroq chopdi. To'rt milcha chopib, Millerga yetib oldi, inson ayiqni nima qilmoqchi bo'lgan bo'lsa, aksi bo'ldi, ayiq insonni shunday qildi.

Oradan ko'p vaqtlar o'tgandan keyingina Millerning o'rtoqlari uning miltig'ini topib oldi, nima gapligini bildi. Shundan keyin Mititse vodiysidagi kulba buzib tashlandi. Chunki unga hech kim ko'chib kelmadi. Aniqrog'i, dahshatli ayiq hukmronlik qilayotgan bu ko'imsiz yerlarda hech kimning yashagisi kelmadi.



IX

Kunlarning birida Mititse daryosi yuqori oqimida oltin topildi. Darrov oltin izlovchilar paydo bo'ldi. Ular tog' qoyalari oralab izg'idi, yerlarni kovlab, ariq suvlarini loyqalatib tashladi. Ularning ko'pchiligi yoshi o'tib qolgan odamlar edi. Ular ayiqlar misol doimo tog'da yashadi. Ayiqlar kabi duch kelgan yerni kovlab, qazib tashladi, ammo ayiqlardek mazali, sog'lom tomirlar izlab emas, yeb bo'lmaydigan sariq qum izlab shunday qildi. Xuddi ayiqlardek ular ham osoyishtalik istadi, o'z holiga qo'yishlarini istadi.

Oltin izlovchilar bizning Uebimiz bilan kelishib ketdi. Ueb ularni dastlab ko'rganda orqa oyoqlarida tikka turdi, ko'zlari nafrat bilan yondi. Oltin izlovchilarning keksarog'i yonidagiga shunday dedi:

- Indama, sen indamasang, uyam indamaydi!
- Qara, qanday bahaybat-a! – hayajonlanib dedi unisi.

Ueb ularga yopishmoqchi edi, lekin nimagadir niyatidan qaytdi. U, albatta, odamlarning gapiga tushunmadi, ammo ular bilan shu kungacha ko'rgan odamlari o'rtasida farq borligini angladi. Ueb yana odam, temir hidini sezdi, lekin bu g'alati hid unday qo'lansa emas edi, shu sababliyam uning achchig'i kelmadi.

Odamlar turgan joylarida qotib turaverdi. Shunda Ueb bo'g'iq o'kirib, shashtidan tushdi, indamay burilib ketdi.

Shu yil oxirida bizning Uebimiz yana haligi qizilburun ayiqqa duch keldi. Qizilburun maydagina bo'lib qolibdi! Ueb uni bir urib, Greybul daryosidan oshirib yuborishi mumkin edi!

Qora ayiq Uebni ko'rib qolib, apil-tapil daraxtga chiqib oldi. U baqaloq xomsemizligidan hansirab nafas oldi. Ueb daraxt oldiga keldi, uzalib, panjalarini to'qqiz futcha yuqoriga cho'zdi. Daraxt po'stlog'ini sidirib oldi. Daraxt ayiq



panjalari zarbasidan larzaga keldi, shoxida o'tirgan qora ayiq qalt-qalt qaltirab, qo'rqqanidan chinqirib yubordi.

Ueb qora ayiqqa qarab, o'sha Payni daryosi, yemishga serob o'rmonlarni esladi. U daraxt shoxida qaltirayotgan ayiqni o'z holiga qoldirib, Payni daryosiga yo'l oldi. Ko'p o'tmay meva-cheva, qumursqalarga mo'l Payni o'rmonlariga yetib keldi.

Payni o'rmonlari shunday xushro'y, shunday xushro'y! Aftidan, bu yerlarga hali birontayam kulrang ayiq qadam qo'ymagan edi. Chunki bu xushmanzara yerlarga qora ayiqlar hukmronlik qilardi. Endi esa ularga quloq solmasayam bo'ladi.

Uebning dimog'i chog' bo'ldi. U avvalambor cho'milib, pok-pokiza bo'ldi. So'ngra Payni daryosi bilan Greybul soyining qoq o'rtasidagi daraxt oldiga keldi. Yelkasi bilan daraxtga suykalib, yerdan sakkiz futch baland keladigan joyga tamg'a qoldirdi.

Ueb ertasi kunlari Shoshon tog'larining quyi qiya-liliklari bo'ylab kezdi. Qadam qo'ygan yerlarini o'ziga qaram qilib olaverdi. Masalan, qora ayiq suykalib ketgan qurigan daraxtni uchratsa, bahaybat panjalari bilan bir urib, yumalataverdi. Bordi-yu, bironta ko'm-kuk daraxt tanasida qora ayiq belgisini uchratsa, shu daraxtning yanada yuqorirog'iga temirday panjalari bilan o'zining tamg'asini o'yib qoldirdi.

Bu yerlarda qora ayiqlar ko'p hukmronlik qildi. Ular olmaxonlarning daraxt kovaklariga yashirib qo'ygan jamg'armalarini yeb tamomladi. Olmaxonlar endi topgan-tutganlarini toshlar ostiga bekitib qo'yadigan bo'ldi. Chunki qora ayiqlar bu toshlarni ko'tarolmaydi. Ueb esa ularni osongina to'nkarib tashlab, ostidagi yemishni olib yedi. U o'rmondagi har to'rt yoki beshinchi tosh ostidan olmaxonlar nasibasini topib yedi, ba'zan mo'l-kol ovqat topdi. Ueb ularni bamaylixotir, pok-pokiza



tushirdi. Ueb qayerdan yurgan bo'lsa, barcha yerga manavinday ayiqcha yozma qoldirdi:

«Chegarani buzuvchilar, ehtiyot bo'linglar!»

Bu yozmalarni daraxt tanasining yuqorisiga bitdi, unga faqat o'zining bo'yi yetardi. Bu daraxt oldiga qadam bosgan kimsa Ueb qoldirgan belgi, hid hamda junlarini ko'rib, bu yerlarni ulkan kulrang ayiq makon etganini bilib olar edi.

Uebning onaginasini omon bo'lganda edi, unga bahori yaxshi kelgan yerning o'zi yomon bo'lishini o'rgatar edi. Ammo Ueb boshidan kechirgan hayotiy tajribasidan kelib chiqib yashadi, yil fasli almashganda yashash joyini almashtirdi.

Masalan, ilk ko'klamda poda boqiladigan, bug'ular yuradigan yerlarda yashagan yaxshi. Chunki bu yerlarda qishdan chiqolmay qolgan mollarning o'laksasi ko'p uchraydi.

Yoz boshlarida oftob tafti uradigan adir yonbag'irlarida yemish topish oson. Mazali tomirlar, hind sholg'omi topiladi. Yoz oxirlarida esa daryo bo'yidagi o'tlanlarning mevasi pishadi. Kuzda bo'lsa qarag'ayzor o'rmonlarda istagancha yemish topiladi, shulardan bahramand bo'lib, qishga kuch-quvvat to'plasa bo'ladi.

Ueb har yili u yerdan-bu yerga ko'chib, qo'l ostidagi yerlarni ko'paytirdi.

U Payni hamda Mititse daryolarining cho'miladigan joylarini qora ayiqlardan xalos etdi, suvning narigi bo'yidagi Vorxaus vodiysiga o'tib borib, uni bir vaqtlar xuddi shu yerlardan quvib yuborgan o'sha qora ayiqni o'ldirdi.

Ueb nafaqat yangidan-yangi yerlarni zabt qila oldi, shuningdek, uni himoya ham qila oldi.

Bir kuni Uebga qarashli Mititse daryosining o'rta oqimida ferma qurish uchun qulay joy izlab yurgan odam-



larning qarorgohlari paydo bo'lib qoldi. Ueb ularning otlarini haydab yuborib, qarorgohlarini buzib tashladi.

Shunday qilib, shu yaqindagi jamiki jonivorlar, odamlar Franko cho'qqisidan tortib Shoshon tog'lari yoymalarigacha bo'lgan yerlar Ueb degan ayiqqa qarashli ekanini, u kerak bo'lsa o'z mulkini har qanday shumqadamdan himoya qila olishi mumkinligini bilib oldi.

Darhaqiqat, Ueb favqulodda baquvvat ayiq edi, unga hech kim ochiqdan-ochiq hamla qilolmasdi. Shunda, g'animlari uni ayyorlik yo'li bilan yengmoqchi bo'ldi. Ammo uyam anoyi emasdi, yoshligida qopqonga tushgan hangomalari hamon esida edi. Shu boisdan u inson bilan temir hidi anqigan yerga yaqin yo'lamadi, natijada, g'animlari qo'rgan qopqonga tushmadi.

Shunday qilib, Uebning tanho umri tog'larda yemish izlab, ulkan toshlarni koptokmisol yumalatib, bahaybat daraxt kundalarini gugurt cho'pday ag'dar-to'ntar qilib o'tdi. Tog' va yoymalardagi jonivorlar Uebning kimligini yaxshi bilib oldi, bir vaqtlar baxtiqaro bo'lib yurgan Uebni endi ko'rganlar uning oldiga tushib qochadigan bo'ldi.

Ueb, bir vaqtlar uni bir qora ayiq xo'rlagani uchun juda ko'p qora ayiqlarni nobud qildi. Daraxtlarga chiqib qochgan yovvoyi mushuklarni quvib borib, bordiyu, daraxt qurigan bo'lsa, uni yerga ag'natib, ustidagi mushuk-pushugi bilan bo'lak-bo'lak qilib tashladi. Hatto yovvoyi otlar galasining mag'rur ayg'iri ham Uebga duch kelsa, unga yo'l beradigan bo'ldi. Ueb paydo bo'lganda ulkan bo'z o'rmon bo'rilar, tog' yo'lbarzlari ham o'ljalarini tashlab qochadigan bo'ldi. Ueb marmarakzor yoymalarda qora berganda, kiyiklar ko'ziga qaramay qochdi. Yo'lida biror farosatsiz ulkan tog' buqasi uchrab qolsa, Ueb uni bahaybat panjalari bilan bir urib, qovurg'asini sindirib ketaverdi. Yosh-



ligida ko'rgan ko'rgiliklari endi asqotdi, u irodali, tajribali ham aqlli ayiq bo'ldi.

Uebning tanholikdagi hayoti ana shunday o'tdi. Hamisha qovoq solib, hech nimadan tap tortmay, doim olishuvga shaylanib yurdi, hayotdan hamisha bir tilakni tiladi: uni tinch qo'ysalar bas. U bor-yo'g'i bir narsadan – o'zining ulkan kuch-qudratidan zavq oldi, dabdalasi chiqqan g'animi sulayib qolganda, bahaybat toshni ko'tarib otganda, uning siniq parchalari osmonga sachraganida, ko'ngli zavq-shavqqa to'lib ketdi.

X

Kimda-kim hidni yaxshi bilsa, u har bir narsaning o'ziga xos hidini aniq farqlay oladi. Ueb butun umri davomida turli-tuman hidlarni o'rgandi. Tog'larda anqiydigan ko'pgina hidlarni yaxshi ajratib oldi. Ueb har bir narsani uning hididan biladigan bo'ldi.

Har bir narsa Uebni o'ziga chorladi: «Mana men!»

Archa, na'matak mevalari, qulupnaylar nafis, xushovoz bilan kuyladilar: «Mana biz, mevalarmiz, mevalarmiz!»

Ulkan ignabargli o'rmonlar bor ovozlari bilan kuyladilar: «Mana biz, qarag'aylarmiz, kedrlarmiz!»

Ueb shu o'rmonlar oldiga kelib, yanada nafis kuyni eshitdi: «Mana biz, kedr yong'oqlari!»

May oyi yellari mevali tomirlar qo'shig'ini olib keldi: «Biz mazali tomirlarmiz, biz mazali tomirlarmiz!»

Ueb tomirlar oldiga borib, har birining qo'shig'ini alohida-alohida eshitdi.

Har bir tomir o'zining dil so'zlarini aytdi: «Men pishib yetilgan, mazali, ulkan tomirman!»

Yana biri katta ketdi: «Men yaramas, qattiq tomirman!»

Barq urib yetilgan kuz qo'ziqorinlari baralla ovoz berdi: «Men bo'liq, to'yimli qo'ziqorinman, mana men!»



Zaharli qo'ziqorin, qurbaqasallalar qichqirdi: «Men qurbaqasallaman, menga teginma, og'rib qolasan!»

Gullarning-da o'z ovozi bor. Dara yonbag'ridagi qo'ng'iroq gullar o'z bandlariday nozik, osmonrang gulbarglariday nafis qo'shig'ini aytdi. Ammo Ueb gullar qo'shig'iga qiziqmadi, gullar qo'shig'ini eshitmadi.

Shunday qilib, har bir qimirlagan jon, har bir gul, har bir qoya, tosh Uebning dimog'iga o'z dardini aytdi. Uebning katta-katta, hamisha nam burunlari tun-kun, tumanli, yorug' havo kunlari zarur narsalarni tez ilg'ab oldi. Ahamiyatsiz narsalar oldidan beparvo o'tdi. Kunlar o'tgan sayin dimog'iga ishonib yashadi. Ko'zlari bilan quloqlari ming gapirsayam ishonmadi, faqat dimog'ining: «Ha, shunday!» degan gapiga ishondi.

Ueb yuzlab hidlarni tanib oldi, minglab hidlarga e'tibor bermadi, ko'plari dimog'iga yoqmadi, yana ko'plari qahrini qo'zg'adi.

U Payni darasi yuqorisiga borib edi, g'arbdan esayotgan shamol dimog'iga g'alati bir hidni olib keldi. Ueb hidga e'tibor bermadi, hid juda qo'lansa edi. U har ehtimolga qarshi hid kelayotgan tarafga yaqin bormadi.

Bir kuni shimol shamoli dimog'iga o'zgacha bir g'alati hidni olib keldi. Ueb bu hiddan tezroq qochib qolgisi keldi.

Ueb endi yosh emas edi. Mana, qachonlardir ko'p martalab yaralangan orqa oyog'i og'rib boshladi. Havo ayniganda, kechasi sovuq bo'lganda ertasiga oyog'ini zo'rg'a bosadigan bo'ldi. Oyog'i og'rib, oqsab yurgan kunlarining birida g'arb shamoli dimog'iga yana o'sha g'alati hidni olib keldi.

Ueb bu nimaning hidi ekanini bilolmadi, ammo ich-ichidan bir nido uni hid tarafga undadi: «Bor!»

Qorni to'q hayvon yemish isini olsa, ko'ngli ayniydi, qorni och hayvon yemish isini olsa, ko'ngli ketadi. Shu



paytgacha g'arb shamoli olib kelayotgan g'alati is Uebning ko'nglini aynitayotgan edi. Endi esa shu isga ko'ngli ketdi. U o'zicha ping'illab, yuziga urilgan changallarni chetga surib, so'qmoq bo'ylab toqqa o'rladi.

G'alati hid borgan sayin zo'rayib, uni chorladi. Ni-hoyat, umrida qadam qo'ymagan yerga yetib keldi. Bu oppoq qumlar qoplagan tog' nishabligi edi. Kamar yorig'idan chakillab suv tomar, o'radan g'alati bug' chiqardi. Uebning dimog'i qomatga keldi: qanday no-tabiiy hid! U kamarning ustiga chiqdi. Bir ilon qumni oralab yurdi. Ueb panjalari bilan ilonni shunday soldi, zarbidan tevarakdagi daraxtlar zirillab ketdi, bir tosh chirsillab maydalanib, pastga uchib ketdi. Yana-tag'in Ueb shunday o'kirdi, daradan aks-sado keldi. So'ng bug' qoplab yotgan o'ra oldiga keldi. O'ra to'la suv edi, suv ohista to'lqinlanib, bug'lanib turardi. Ueb suvga oyog'ini tiqib ko'rdi. Suv iliq bo'lib, oyog'iga xush yoqdi. Shunda Ueb har ikkala oyog'iniyam suvga soldi. Keyin o'ziyam butunlay kirib qo'ya qoldi, suv qirg'og'idan toshdi. Ueb osmonrang iliq suvda yalpayib yotib oldi. Boshi uzra iliq bug'lar aylandi.

Serqoya tog'larda bunday shifoli buloqlar ko'p, ammo Uebga qarashli yerlarda bor-yo'g'i bitta edi. U bir soatlarcha suvda yotdi. So'ng, kamarga o'rmalab chiqdi. Oyog'idagi og'riq qolib, o'zini yengil, yaxshi his etdi.

U silkinib, tevarakka junlaridan suv sachratdi, so'ng oftobro'y do'nglikka yo'l oldi. Uzala yotib, o'zini oftobga tobladi. Keyin buloq bo'yidagi daraxtga yelkasi bilan suykalib, belgi qoldirdi. Buloqqa ko'p jonivorlar kelib, dardiga malham topib ketgani shundaygina sezilib turardi. Ammo Ueb sezib-sezmaslikka oldi.

Shunday qilib, buloq bo'yida e'lon paydo bo'ldi, e'lon o'zining hidi, junlari bilan barcha jonivorlarni mana bunday ogohlantirdi.



«Yaqin yo'lama, bu mening cho'miladigan bulog'im! Ueb».

Ueb yelkalari quriguncha oftobda isinib yotdi. So'ng chalqancha yotib, qornini oftobga tobladi, u yonidan-bu yoniga ag'darildi. O'zini yanada yaxshi his qildi. Albat-ta, o'ziga-o'zi: «Oyoq og'riqdan qiynalib yurib edim, shi-foli buloq malham berdi», deyolmaydi, lekin: «Oyog'im zirqirab og'rib edi, badhid buloqda cho'mildim-u, xiyla yaxshi bo'lib qoldim», deya oladi.

Shundan buyon oyog'i og'risa, buloqqa kelib cho'-milib, dardini davolab ketadigan bo'ldi.

XI

Yillar ketidan yillar o'tdi. Ueb o'sishdan qoldi, ammo oqarib, yanada zahar, yanada dahshatli bo'lib qoldi. Qaramog'idagi yerlar yanada ko'paydi. Har bahorda o'z yerlarini aylanib yurib, qish izg'irinlari o'chirib yubor-gan belgilarini qaytatdan tiklab chiqdi. Yana aniqrog'i, Ueb bahorda yemish izlab izg'idi. Chunki bahorda loyqa chuqurlar serob bo'lar edi.

Uebning badani qattiq qichiy boshladi, chunki qi-shi bilan yotaverib zaiflashib qolgan junlari to'kilib boshladi. U muzday loyga ag'nab oldi, keyin daraxtga suykaldi, shunday maza qildi, shunday maza qildi, tarif yo'q! Har bahorda ana shunday daraxtma-daraxt suykali yurishlari ayni vaqtda o'chib qolgan belgilarini qayta jonlantirdi.

Shunday kunlarning birida Payni daryosi etaklarida Palett fermasi qaror topdi. Fermadagilar ko'p o'tmay «qari alvasti» Uebni ko'rib qoldi. Mollarga tamg'a bo-suvchilar Ueb bor ekan, bu atrofda boshqa ayiqlar yur-masligiga amin bo'ldi, Uebning esa yo'lini to'smaslik, u bilan o'chakishmaslikka qaror qildi. Ular Uebni kam



uchratdi, ammo izlarini har qadamda ko'rdi. Ferma xo'jayini ashaddiy ovchi bo'lib, u Ueb bilan qiziqib qoldi. U bu qari ayiq sarguzashtini Pikettdan so'rab, unchamuncha bilib oldi, ammo u Ueb haqida Pikett bilmagan narsalarni ham bilar edi. Masalan, Ueb janubda Yuqori Viggins xarobalari, shimolda esa Sassiqlik suv atroflarida yurishini, shuningdek, g'arb bilan sharqda Mititsedan tortib to Shoshon tog'larigacha kezib yurishini bilardi. Shuningdek, Ueb ayiqqa qo'yiladigan qopqon nima ekanligini ovchilardan ko'ra yaxshiroq tushunishini ham biladi. Yana shuni biladiki, Ueb qopqonga tushmaydi, aksincha, uni aylanib o'tadi, qopqonga teginmay, qozig'ini sug'urib oladi. Ba'zan esa bironta xodani ataylab qopqonga bosib, uni bezarar qiladi.

Ferma xo'jayini e'tibor berib, Ueb yozning issiq kunlari hamda qish uyquasi mavsumida qayerlargadir ketib qolishini bilib oldi.

XII

Bundan ko'p yillar muqaddam hukumat Yelloustonning yuqorisidagi yerlarni xilvat qo'riqxonaga aylantirdi. Ulug' mamlakatning jonivorlari osoyishta hayot kechirishini istadi. Darhaqiqat, u yerdagi jonivorlar, qushlar qo'rquv nimaligini bilmay kun kechirdi. Sokin o'rmonlar bolta nimaligini bilmadi, ariqli suvlarini zavod, konlar bulg'amadi. Bu yerlar o'zining tabiiy chiroyini saqlab qoldi.

Qo'riqxonadan yovvoyi jonivorlar xabar topdi. Jonivorlar qo'riqxonaning tevaragi o'ralmagan bo'lsa-da, uning qayerdan qayergacha ekanini yaxshi bilib oldi. Ular bu yerda osoyishta umr surdi, fe'l-atvorlarini o'zgarib qoldi. Chunki odamlar bilan bemalol yuzmayuz bo'ladi, hech qanday hadik sezmaydi, o'zlarini



odamlarga hamla qilmaydi. Qo'riqxonada yemish mo'l edi. Shu boisdan ham Yelloustonda jonivorlar soni bor-gan sayin ko'paydi.

Qo'riqxonaning qoq o'rtasida «Buloq mehmonxonasi» tashkil etdilar. «Buloq mehmonxonasi» atrofiga ayiqlar ko'p to'planadigan bo'ldi. Mehmonxonadan to'rt milcha olisda, o'rmon ichida bir sayhonlik bo'lib, xizmatkorlar qolgan-qutgan ovqatlarni shu yerga tashlab keladi. Bu yemish qoldiqlari ayiqlar uchun edi. Ayiqlar esa turli-tuman, ko'p edi: qora, qo'ng'ir, sariq, kulrang, kumush tusli ayiqlar, katta-kichik ayiqlar. Ular orasida butun boshli oilalilar, yolg'iz daydilari ham bor edi. Qo'riqxonada bir-birini qiynash mumkin emasligini ular yaxshi biladi, shu sababli eng beboshlariyam odob bilan yuradi. Mehmonxona atrofiga o'nlab ayiqlar kun kechiradi, birortasiyam odamzodga hamla qilmaydi.

Ayiqlar mehmonxonaga har yili kelib ketadi. Xizmatkorlar ularning ko'pchiligini tanib ham oldi. Ayiqlar yoz mavsumi boshlanib, mehmonxona ochilganda keldi, yopilganda yana kelgan yerlariga qaytib ketdi. Ular qayerdan kelib, qayerga ketayotganidan hech kimning xabari bo'lmadi.

Bir kuni Palett fermasi xo'jayini Yellouston qo'riq-xonasiga kelib qoldi. U mehmonxonaga qo'nib, ayiqlarni ko'rgani sayhonlikka yo'l oldi. U yerda bir nechta qora ayiq sarqit ovqatlarni yeyayotgan edi. Ular kechqurun joyni ulkan kulrang ayiqqa bo'shatib berdi. Yo'l boshlovchi uni Palett xo'jayiniga ko'rsatib, shunday dedi:

– Bu qo'riqxonamizdagi eng ulkan ayiq. Yaxshiyamki, u og'irgina, bo'lmasa nima hangomalar bo'lmasdi deysiz.

– Manavi ayiqmi? – hayron bo'lib so'radi xo'jayin.

U ayiqni e'tibor bilan kuzatdi. Ayiq odatdagiday lapanglab, go'yo dalada bir g'aram pichan siljiyotganday salobat bilan yurdi.



– E, bu mititselik o'zimizning Ueb-ku! U juda qo'rqinchli ayiq, bir paytlar Katta Shox hovuziga to'nkalarni yumalatib yuborgan ham shu edi.

– Bekor gap, – dedi yo'l boshlovchi. – Bu ayiq har yili iyul-avgust oylarida keladi, u shu yaqin atrofda yashaydi.

Iyul-avgust oylarida keladi? Demak, shu ayiq Ueb bo'ladi. U xuddi shu oylari biz tarafdan g'oyib bo'lib qoladi, – dedi ferma xo'jayini. – Ana qarang, orqa oyog'i oqsaydi, oldingi oyog'ining tirnog'i yo'q. Bu ayiq qayerda yozlar ekan deb hayron bo'lardim-a! Lekin bu qari battolning o'z makonidan olisda bunchalik tinchgina yurishini xayolimgayam keltirmagan edim.

Ueb Yellouston qo'riqxonasida juda mashhur bo'lib ketdi. Bir safar bevoshlik qilib qo'ydi. O'shanda qo'riqxonaga dastlab kelgan yili bo'lib, bu yerning tartib-qoidasini hali yaxshi bilmasdi.

Bir kuni mehmonxona oldiga kelib, katta eshikdan to'g'ri ichkariga yo'l oldi. Sakkiz futcha keladigan gavdasini oldinga tashlab, idoraga kirib bordi.

Mehmonxonadagilar qo'rqib, chor tarafga qarab qochdi. Ueb idoraga kirdi. Ichkarida o'tirgan idorachi stoldan sapchib o'tib, o'zini telefonxonaga urdi-da, ichkaridan qulflab oldi.

Idorachi qo'riqxona boshqaruvchisiga sim qoqib, qari ayiq idoraga kirib o'tirib oldi, ko'rinishidan mehmonxonaga xo'jayinlik qilmoqchi, dedi. U, shuningdek, ayiqni otib tashlasam maylimi, deb so'radi. Savoliga qo'riqxonada otish mumkin emas, faqat o't o'chiruvchilar shlangidan foydalanish mumkin, degan javob oldi. Idorachi shunday qildi. Buni kutmagan ayiq idoradan chiqib qochdi. Gurs-gurs qadam bosib, orqa eshikka qarab yurdi. Oshxonadan o'tayotib, osig'lik turgan ho'kiz sonini olib qochdi.



Ueb ana o'shanda bir bevoshlik qilib qo'ygan edi. O'shandan keyin qandaydir bir ayiq uning achchig'ini keltirdi, u yana jamoat tartibini buzdi. Bu ayiq qora ayiqlar nasliga mansub bo'lib, o'zining hazilkashligi bilan mashhur edi. Uning bir ko'rimsiz, nimjon bolasi bo'lib, u shu bolasi bilan g'ururlanar, bolasi uchun har nimaga tayyor edi. Onasining erkasi bo'lmish bolasi o'zini olamdagi jamiki erkalar kabi olchoq tutardi. Onasi juda ulkan, urushqoq edi. Boshqa qora ayiqlarga hukmronlik qilardi. Shu ayiq bir safar bizning Uebni haydab yubormoqchi bo'ldi. Shunda Ueb uning quloq-chakkasiga shunaqayam soldi, u koptokdek uchib ketdi. Ueb uni oldiga solib quvdi, qo'riqxonaga intizomini buzgani uchun uni o'ldirmoqchiyam bo'ldi. Ona ayiq undan daraxtga qochib chiqib qutuldi. Qarasa, bechora bolasi allaqachon daraxt ustida o'tirar, qo'rqqanidan qalt-qalt qaltirardi.

Ona ayiq bilan bo'lgan bordi-keldi shunday tugadi. U endi Uebga osilmaydigan bo'ldi. Xizmatkorlar Ueb og'irgina ayiq degan xulosaga keldi. Ko'pchilik xizmatkorlar, bu ayiq hali miltiq, qopqon bormagan bir chekkadan kelgan, shu boisdan ham odobli bo'lsa kerak, deb o'yladi.

XIII

Bitterrut kulrang ayiqlari dunyodagi eng yovuz ayiqlar ekani barchaga ma'lum ham mashhurdir.

Bitterrut tizmalari tog'ning chiqib bo'lmaydigan yeriga joylashgan. Tizmalarda bir-biri bilan kesishib ketgan chuqur jarliklar ko'p bo'lib, ularda changallar o'sib yotibdi.

U yerga otda borib bo'lmaydi, u yerda otish ham qiyin.

Shu boisdan ham unda ayiqlar ko'p yashaydi. Ovchilar ayiq ovlagani ko'p-ko'p kelib turadi.



Bitterrut ayiqlarini «paxmoq ayiq» deb ataydilar. Paxmoq ayiqlar juda ayyor, dovyurak bo'ladi. Qari paxmoq ayiqlar o't-o'lan bilan tomirlarni botaniklardan yaxshi biladi, qopqonni esa oddiy ovchilarga nisbatan durust tushunadi. Chuvalchang kabi hasharotlar qayerda, qachon paydo bo'lishini aniq biladi. Bir mil naridan turib, kelayotgan ovchi yonida zahar bormi, it bormi, qopqon bormi, miltiq bormi yo shularning barchasi bormi, shuni aniq sezadi. Paxmoq ayiqlarning yana bir fazilati, ular ovchilarni hamisha dog'da qoldirib keladi: paxmoqlar nimani niyat qilsa, niyatini g'oyatda tez, oxirigacha bekam-u ko'st qiladi.

Masalan, odamzod bilan yuzma-yuz kelsa, unga hamla qilish yo qochib qolish kerakligini tezda amalga oshiradi. Bordi-yu, hamla qilsa, unda, so'nggi nafasigacha olishadi.

Bedlend ayiqlari esa unday emas. Ular hurpayib, ovozini qo'yib o'kirib turaveradi. Oqibat, ovchi uni otishga ulguradi. Shu sababliyam Bedlend ayiqlarining ko'plari qirib tashlangan.

Paxmoq ayiqlar – boshqa gap. Ular nima qilishini hech qachon bilib bo'lmaydi. Bitterrut ayiqlari xavf-xatardan qanday qilib qutulishni yaxshi bilib oldi, shu sababliyam juda ko'p oq tanli ovchilar ta'qibiga qaramay, yil sayin ko'payib bordi.

Ammo har qanday yemishga boy yer ham barcha ayiqlarni birdek boqolmaydi, ko'plari boshqa yoqlardan yemish qidirishiga to'g'ri keladi. Bir yoshgina paxmoq ayiqning taqdiri ham shunday bo'ldi. U tug'ilgan yerini tark etib, o'zga yoqlarga yemish izlab ketdi.

U unchalik bo'ychan emasdi, ammo har qanday yerda ishini bitirib ketadigan ayyor edi. U Bug'ular dar-yosi tog'lariga borib, tevaragi tikanli sim bilan o'ralgan Ilon yoymasiga kirib qoldi. Bu yer unga yoqmadi, yana



yo'lga tushdi. Bir tasodif bo'lib, Yellouston qo'riqxonasi tarafga borolmay qoldi, agar borganda o'sha yoqda kun kechirib ketgan bo'lardi. Ilon daryo tog'iga borsa, u yerda meva-chevadan ko'ra ovchi ko'p ekan. Keyin Teton tog'lariga o'tib ketdi. Bu yerda Jekson-Xoul koloniyasiga qarashli odamlar g'ij-g'ij ekan.

Shundan keyin paxmoq ayiq Gros-Ventr tizmalari va Shamol daryosi suvi bo'linadigan joy orqali Greybulning yuqori oqimi tarafga kelib qoldi. Bu yerlar esa Uebga qarashli edi. Shunday qilib, paxmoq ayiq Uebning taqdiriga ta'sir qiladigan bo'ldi.

Paxmoq ayiq Jekson-Xoul koloniyasini tark etgandan buyon odam zotini ko'rmadi. Noz-ne'matga boy Ueb yerlari paxmoq ayiqqa jannat bo'lib ko'rindi. Yo'lida uchragan noz-ne'matlardan tatib yurib, favqulodda Ueb belgi qo'yib ketgan daraxtga ko'zi tushdi: «Chegarani buzuvchilar, ehtiyot bo'linglar!»

Paxmoq ayiq daraxtga teskari o'girilib, hayron bo'lib qoldi: «Bachchag'ar, qanday ulkan ayig'-a!»

Ueb qoldirgan belgi daraxtning ancha yuqorisida bo'lib, unga o'zidan boshqaning bo'yi yetmas edi. Bunga aqli yetgan ayiqlar indamay ketib qolardi. Lekin Tepakal laqabli bu paxmoq ayiq ketmadi, u, agar shu ulkan ayiq bo'lmasa, bu yerlarda yashash juda maza ekanini angladi. Tevarakni diqqat bilan kuzatib hidlab, ulkan ayiq yo'qligiga ishonch hosil qildi, so'ng yana yemish izladi. Ueb belgi qoldirgan daraxtdan ikki odimcha narida yotgan qarag'ay to'nkani ko'rib qoldi. U Bitterrut tog'larida xuddi shunday to'nkalar ostidan sichqon inini topib olardi. To'nkani ag'darib, bu gal hech nima topolmadi. To'nkani Uebning belgisi bor daraxtga qarab yumalatib yubordi. Shunda, uning shum xayotiga bir fikr keldi. Boshini uyoqdan-bu yoqqa irg'ab, to'nkaga, keyin daraxtga qaradi. So'ng, to'nka ustiga



chiqdi, teskari o'girilib, yag'rini bilan daraxtga suykalib, daraxt tanasiga o'zining belgisini qo'ydi, U qo'ygan belgi Uebning belgisidan xiyla yuksak edi. U daraxtga ko'p suykaldi. Keyin ko'lmak suvni topib olib, unda boshi bilan yelkalarini yaxshilab yuvib oldi, yana qaytib kelib, to'nkaga chiqib, yag'rinini daraxtga ishqadi. Natijada, daraxt tanasida juda yirik, chuqur tamg'a paydo bo'ldi. Tepakalning ishi bu jannatmakon yerlar hokimini olishuvga chorchash belgisi edi. U to'nkadan tushib, uni nariga yumalatib yubordi.


Tepakal dushmanlardan xavfsirab, tevaragiga alanglab-alanglab, dara pastiga yo'l oldi.

Ueb o'z qaramog'idagi yerlarda begona ayiq yurganini darrov payqadi, yirtqichligi qo'zg'adi. Haftalab begona ayiqni ta'qib qildi. Lekin shum Tepakal qorasini ko'rsatmadi. U Ueb belgi qo'ygan har bir daraxtga yanada yuqoriroqdan belgi qoldirib ketaverdi.

Har gal belgi qo'yayotganda oyoqlari ostiga har xil to'nkalar, toshlarni qo'ydi, do'ngliklardan foydalandi.

Ko'p o'tmay Ueb yangi belgilarni ko'rib qoldi, qarsa, qandaydir bir bahaybat ayiq uning tamg'asidan ham yuqoriroqqa o'z belgisini qo'yib ketibdi. Ueb bunday ulkan g'animga bas kela olishiga ko'zi yetmadi. Ammo u odaticha tap tortmay, olishuvga shay bo'lib yurdi. Har kuni o'z yerlari bo'ylab sayr qilib, g'animini poyladi. Har kuni g'anining izini, u qo'yib ketgan yangi belgilarni ko'rdi.

Qari Uebning ko'z nuri so'nggi vaqtlarda xiyla xiralashib qoldi, yakka narsalar ko'ziga ayqashib ko'rinadigan bo'ldi. U shu boisdan ham Tepakalning isini oldi, ammo o'zini ko'rolmadi. Uebning tishlari, tirnoqlari tushib, yeyilib qoldi, tinchligi xavf ostida qoldi. Eski dardlari tez-tez qo'zg'aydigan bo'ldi, u agar yuzma-yuz kelsa har qanday g'anim bilan, hatto bir to'da g'anim bilan ham



olishuvga tayyor bo'lib yurdi. Ammo tun-u kun g'anim poylash, diqqatbozlik, g'animning pand berib ketishidan hadiksirab yashash Uebning ruhiga, tan sog'ligiga katta ziyon bera boshladi.

XIV

Tepakal ham hushyor bo'lib yurdi. Izlarini adashtirdi, Ueb bilan yuzma-yuz bo'lish o'lim ekanini tushunib, doimo qochib qolishga shaylanib yurdi.

U bir necha bor xilvatga bekinib, ulkan ayiqni kuzatdi, shamol uning hidini Uebning dimog'iga olib borishidan qo'rqib o'tirdi. Uni bir necha marta o'zining surbetligi omon saqladi. Bir safar Uebdan torgina so'qmoq bo'ylab o'rmalab, qoyaga chiqib qutuldi, chunki Ueb ulkan gavdasi bilan bu so'qmoqdan yurolmas edi.

Tepakal Uebning yerlarida tinimsiz kezib, daraxtlarga o'z belgisini qo'yishda davom etdi.

Bir kuni Tepakal shifoli suv isini oldi, o'sha yoqqa qarab yurdi. Bu qanaqa suv ekanini tushunolmadi, shunday bo'lsa-da, cho'milib, hech qanday foydasini sezmad. Shunda buloq bo'yida Uebning izlariga ko'zi tushdi.

Tepakal izni ko'rgach, buloqni iloji boricha ko'proq bulg'ashga harakat qildi. Bir do'nglikka chiqib, Uebning daraxtdagi belgisidan besh futcha yuqoriroqqa o'z tamg'asini bosdi. Pastga tushib, buloqni iflos qilish uchun suvga kirib, uyog'idan-buyog'iga yugurdi. Ayni paytda atrofdan ham ogoh bo'ldi. Kutilmaganda o'rmon tarafdan g'ala-g'ovur eshitildi, Tepakal joyida qotib qoldi. G'ala-g'ovur borgan sayin yaqindan eshitildi, Tepakal qo'lansa bir hidni – Uebning hidini sezdi. U qo'rqqanidan shoshib-surinib, teskari tarafga qarab yurdi, daraxtlar orasiga bekinib oldi.



Keyingi vaqtlarda Uebning mazasi qochib qoldi. Oyog'idagi eski dardi qo'zg'adi, ikkita o'q qolib ketgan o'ng yelkasi og'rib boshladi. Ueb imillab, oqsab keldi. Dimog'i g'anim hidini sezdi. Loydagi izlarni ko'rdi. Izlar uncha katta bo'lmagan ayiqniki ekanini sezdi, lekin dimog'i ulkan ayiqdan bashorat qildi. Shunda ko'zi o'zining belgisidan ham yuqoriroqdagi begona tamg'aga tushdi. Ueb bu begona ayiq shu atrofda ekanini, hali-zamon kelib qolishi ham mumkinligini his qildi.

Uebning mazasi yo'q, eski og'riqlar tufayli ancha quvvatsiz bo'lib qolgan edi. Bu ahvolda g'anim bilan olishish kaltafahmlik bo'lardi. U shu sababli hatto cho'milishdan ham voz kechib, iziga qaytdi, buloqqa teskari tomonga qarab ketdi. Ueb umrida birinchi marta g'animi bilan olishuvdan voz kechdi.

Bu chekinish Uebning hayotida hal qiluvchi voqea bo'ldi. Afsus, u g'animining izidan bormadi! Yana ellik qadamcha yurganda edi, qo'rquvdan pisib, qaltirab, yuragi taka-puka bo'lib o'tirgan g'animini ko'rardi. Tepakal tevaragi qirlar bilan o'ralgan maysazorda bir to'nka orqasida bekinib o'tirardi. Ueb, shubhasiz, uni narigi dunyoga jo'natardi. U aqalli buloqda cho'milib olsa, yaxshi bo'lardi, yana kuchga to'lib qolardi, Tepakal bilan boshqa biror kun uchrashgan bo'lardi. Ammo u yo'lidan qaytmadi. Hayotida birinchi marta nima qilish kerakligini bilmay, xato qildi.

Ueb og'ir-og'ir oqsab, Shoshon tog'lari etaklari bo'ylab kezdi. Dimog'i badbo'y bir hidni sezdi. U bu hidni ko'p yillardan buyon biladi, ammo nimaning hidi ekanini tushunolmaydi.

Shu hid endi shundaygina oldidan kela boshladi. Ueb bu safar jiddiy qiziqib, hidni olib bordi. Borsa, hid giyoh ham o'smaydigan, turli-tuman suyaklar, qora tanalar sochilib yotgan bir oradan chiqyapti. Avval hay-



ron bo'lib qoldi, keyin o'ra ichida yotgan tanalar hayvonlar jasadi ekanini bildi. Darhaqiqat, dara yuqorisidagi qoyalar yorig'idan halokatga olib keluvchi zaharli yel chiqardi. Ko'zga ko'rinmas bu yel yoriqni to'ldirib, uning pastki chekkasidan yuqoriga ko'tarilardi. Ueb shu yoriq yonidan yurib, dimog'i juda jirkanch bir hidni sezdi. Boshi aylanib, uyqusi keldi. Bu yerdan tezda jo'nab qoldi, dimog'iga yana qarag'ayzor o'rmon hidi urilib ko'ngli yayradi.

Ueb shifoli buloq boshida g'animidan chekinib, boshiga ikkita kulfat orttirdi. Avvalo, bir kelgindiga shifoli buloqni berib qo'yib, u yerga endi qaytib bormaydigan bo'ldi. Qolaversa, oyoq og'rig'ini davolashdan mahrum bo'ldi, og'riq kun sayin zo'rayib, Ueb nafaqat g'animi bilan olishuvga yaroqsiz bo'lib qolaverdi, hatto g'animidan qochib qutulishga ham yaramaydigan holga kela boshladi.

Ba'zan g'animining izini ko'rgan Uebning burungi botirligi tutdi, do'rillagan tovush bilan o'kirib, qaqshab og'riyotgan oyog'ida oqsab, izning ketidan tushdi, ko'rgani ko'zi yo'q g'animini bir urib yo'q qilmoqchi bo'ldi. Lekin ko'zga ko'rinmas g'animini hadeganda uchratavermadi.

Ueb gohida olishuv uchun noqulay yerda yotganida g'animining yaqin kelib qolganini sezdi. Shunda olishuvga qulay joy kelishini poylab, kurashdan voz kechdi. Qulay vaziyat kelganda esa Tepakalga yaqin borishga yuragi betlamadi. Imkoniyat hamisha Tepakal tarafda bo'ldi, chunki u vaziyatni kutib yurdi. Shunday kunlar ham bo'ldiki, Ueb o'zini yomon his qilib, olishuv haqida o'ylab ham ko'rmadi, o'zini tetik sezganda esa g'animi qorasini ko'rsatmadi.

Ueb ko'p o'tmay, g'animining izlari ko'proq Vorxaus vodiysi bilan Payning g'arbiy qirlarida uchrashini payqab qoldi. Chunki bu yerlarda noz-ne'mat ko'p edi.



Ueb o'zining olishuvga qodir emasligini his qilgan kunlari xuddi o'sha yerlardan yiroq yurdi. U endi deyarli har kuni o'zini yomon seza boshladi. Oqibat, kelgindi ayiqqa o'zining eng yaxshi yerlarini berib qo'ydi.

Haftalar ketidan haftalar o'tdi. Ueb o'zining shifoli bulog'iga borib cho'milishi kerakligini angladi, ammo bormadi, natijada, ahvoli borgan sayin og'irlashdi. Endi oyog'idan tashqari o'ng yelkasi ham og'riy boshladi.


Uzundan-uzoq olishuvni kutish uning ko'nglini bezovta qildi, bu bezovtalik gohida uni hayajonga soldi. Bezovtalik undagi botirlikni yemirib bordi, chunki bu botirlik o'z kuchiga ishonchdan paydo bo'lmagan edi. Ueb kuchini to'plab olmagunicha qanday qilib bo'lmasin, g'animi bilan ro'baro' kelmaslik yo'lini izladi.

Shunday qilib, arzimagan bir chekinish butunlay chekinishga olib keldi. Ueb Tepakalga duch kelmaslik uchun Payni daryosi qirg'oqlari yoqalab pastga qarab ketdi. Yemish topish kun sayin qiyinlashdi. Ueb qorni to'yib ovqat yemay, kuch-quvvatdan qola boshladi.

Uebning qaramog'idagi yerlardan unga faqat Payni daryosi etaklari qoldi. Ueb bir vaqtlar bu yerlarda onaginasi, jigarlari bilan birga yashagan edi. U o'zining hozirgi hayotini o'sha yillarda sag'ir qolib, g'arib, bechoralarcha kun kechirgan go'daklik hayotiga o'xshatdi. Balki hozir yonida onaginasi bilan jigarlari bo'lganda o'zini o'zgacha his qilarmidi.

U bir ertalab oqsoqlanib, terakzorni aylandi. Biror butaning olmaxon, qurlardan qolgan qurt yegan meva-chevasini izladi.

Favqulodda shu yaqindan shaldir-shuldir qilib tosh yumaladi, shamol Uebning dimog'iga g'animining qo'lansa hidini olib keldi. U Payni daryosining muzday suvidan shoshib kechib o'tdi. Ueb bir vaqtlari shu daryodan sakrab o'tar edi! A'zoyi badani muzday suv



ta'sirida qaqshab og'ridi. Shunga qaramay, yo'lida davom etdi. Qayoqqa borsin? Uning bor-yo'g'i bittagina yo'li qolgan edi. Bu Palett fermasiga olib boradigan yo'l edi. Ammo u fermaga yetib borgunicha uyoqdan shunday g'ala-g'ovur eshitildiki, oqibat, u iziga qaytishga majbur bo'ldi.

Endi qayerga borsa ekan? Aftidan, o'z yerlarini kelgindi ayiqqa tashlab ketishiga to'g'ri keladi.

Ueb yerlaridan bir begona, bas kelib bo'lmaydigan ayiq tomonidan xo'rlanib, ezilib quvg'indi qilinganiga uzil-kesil ishonch hosil qildi. U yuqoriga, g'arbga tomon yo'l oldi. Uning zabardast oyoqlari avvalgidek chaqqon va baquvvat emasdi, shu sababli har bir tanish to'siqdan oshib o'tish uchun avvalgiga nisbatan uch baravar ko'p kuch sarf qilardi. Buning ustiga g'animidan ogoh bo'lish uchun orqasiga qarab-qarab yurishga majbur edi.

Olis-olislardan Shoshon tog'lari ko'rindi. Ana shu munis tog'larda g'anim zoti yo'q! Tog'lar ortida esa Yellouston qo'riqxonasi bor. Olg'a-olg'a!

U chayqalib, yuqoriga ko'tarila boshladi, dimog'i birdan o'lim hidini sezdi. Hid o'sha o'lim yorig'idan, halokatli yelga to'la o'radan keldi. Ueb odatda bu hidni sezsa, ketib qolar edi, ammo hid bu safar uni o'ziga tortdi, o'ziga chorladi. Yo'lida O'lim Vodiysi paydo bo'ldi.

U o'zining oppoqjunli kulrang tumshug'ini osmonga cho'zdi. O'lim hidi yoqimli, orombaxsh bo'lib tuyuldi.

Ueb hamon serrayib, tevarakka boqdi. Ko'z oldida bepoyon bir yurt yastanib yotibdi. Bir vaqtlar shu poyonsiz yurt unga qarashli edi, u shu yurtga hukmron edi, u shu yurt oralab-oralarab yurganda hech kim, hech narsa unga ro'baro' kelolmas edi. Yoyilib ketgan bu yurt juda xushro'y edi. Ammo hozir Ueb uning chiroyini o'ylamayotgan edi. U bu yurtda yashash naqadar gashli bo'lganini, u bir vaqtlar o'ziga qarashli ekanini,



endi esa uni qo'ldan boy berib qo'yganini o'ylayotgan edi, kuch-qudratdan qolganini, endi qolgan umrini osoyishta yashab o'tishi uchun qulayroq yer topishi kerak ekanligini o'ylayotgan edi.

Ana shu Shoshon tog'lari ortida shunday joy bor, zaif, g'arib Ueb osoyishta hayot kechirsa bo'ladigan makon bor. U joyni qo'riqxonaga, deydilar. Ammo qo'riqxonaga hali olis-ku, unga yetga olarmikin? O'zi, o'sha yoqqa borib nimayam qiladi? Mana shu yerda, shu torgina vodiya ham panoh, orom topsa bo'ladi-ku?

U bir nafas oyoq ildi.

Shunda, shamol bilan kelgan o'lim sharpalari asta-asta o'z ishini boshladi. Uning beshta panohini – hidlash, ko'rish, eshitish, his qilish hamda didini sekin-asta kuchdan qoldirdi. Mana, burni, go'dakligidan buyon jonajon birodari bo'lib kelgan burni unga yordam bermay qo'ydi. Yana bir necha daqiqa o'tdi. Ueb arosatda qoldi. Nihoyat, qari ayiqning eski dovyurakligi tutdi, u vodiya yo'l oldi.

Nafasni bo'g'uvchi o'lim sharpalari boshi uzra aylandi, butun a'zoyi badanini qamradi. Quvg'indi bo'lgan Ueb sekin-asta sertosh yerga egildi, cho'zilib, uyquga ketdi. Uyquga ketayotib, o'zini shunday yaxshi his etdi, shunday yaxshi his etdi, o'sha olis Greybulda, ha, o'shanda onaginasining serjun oyoqlari orasida yotganida o'zini shunday yaxshi his etib edi...

VINNIPEG BO'RISI

I

Men Vinnipeg bo'risini ilk bor 1882-yili vulkan qorbo'ron vaqtida ko'rgan edim. Martning o'rtalarida



bir kundayoq dashtdan o'tib, Vinnipegga yetib boraman, degan umidda Sent-poldan yo'lga tushdim. Ammo shamol hazratlari o'z hukmiga binoan, yer-u zaminga o'zining qaqshatqich izg'irini sochdi. Shiddat bilan tinimsiz yog'ayotgan qor soat sayin avj oldi. Men umrim bino bo'lib bunday izg'irinni ko'rmagan edim. Jamiki olam qorga belandi. Qor, qor, qor. Qor o'ynadi, qor chimchiladi, qor zahrini sochdi, qor uchdi. Oqibat, pishqirib kelayotgan ulkan parovoz tabiatning momiqday muloyim, billurday musaffo oppoq mo'jizasi amriga bo'ysunib to'xtashga majbur bo'ldi.

Odamlar yerga tushib, yo'limizda g'ov bo'lgan qor uyumlarini belkuraklar bilan kurab tashladi, parovozi-miz bir soatdan keyin yo'lga tushdi. Ammo ko'p yurmay yana qor uyumiga duch keldi. Ko'rgiligimizni ko'rdik: kunlar ketidan kunlar, tunlar ketidan tunlar o'tdi. Biz qor uyumiga botib-botib, yana undan chiqib-chiqib, yo'l yurdik. Qor havoda charx urib, elaklab yog'ib turdi.

«Emersonga borishimizga yigirma ikki soat qoldi», dedi konduktor, ammo Emersonga ikki hafta deganda yetib keldik. Emersonning quyuq terakzorlari poyezdimizni qor uyumlaridan xalos etdi. Poyezdimiz tezligini oshirdi. Poyezdimiz ilgarilab borgan sayin terakzorlar quyuqlashib bora-bora bir necha millar bo'ylab yastanib yotgan shinam, ulkan o'rmonga aйланди.

Vinnipeg sharqiga yaqinlashib, Sent-Bonifeys yonida kengligi ellik qadamcha keladigan o'rmon so'qmoq'i oldidan asta-asta o'tayotib, qalbimni tub-tubigacha zir titratgan ajab bir sinoatni ko'rdim.

So'qmoq o'rtasida malla, oq, qora tusli katta-kichik itlar to'lda bo'lib turibdi. Itlar halqa bo'lib, goh o'rta-ga talpinadi, goh keyinlariga tisariladi. Bir malla kuchuk qorga uzala tushib yotib oladi. Bir g'oyat haybatli qora



it negadir o'zini olib qochib, to'da chetidan talpinib huradi. To'da o'rtasida ulkan bir bo'ri vajohat bilan hurpayadi.

Shu chindan ham bo'rimi? U ko'zimga sher bo'lib ko'rindi. U itlar galasi o'rtasida yollarini hurpaytirganicha yolg'iz o'zi dadil, vazmin turibdi. Oyoqlarini keng yoyib, uyoq-buyog'iga olazarak boqib, hamlalarga qarshi shaylandi. Lablari chetini burib, tishlarini irjaytirdi. To'da unga, bo'risifat bir it yo'lboshchiligida taxminan yigirmanchi marta surbetlarcha hamla qildi. Ulkan kulrang bo'ri tishlarini shiq-shiq-shiq, deya dahshatli g'ijirlatib, tevaragiga chang soldi. U angillamadi, uvil-lamadi, ulimadiyam. Aksincha, unga yopishgan itlar jon talvasa bilan angillab, ketlariga chekindi. U taslim bo'lmas, yengilmas, ozor berib bo'lmas bir jonivor bo'lib qoldi.

Men ayni shu daqiqada poyezdimiz yana qor uyumiga botib qolishini juda-juda istadim! Ko'nglim meni shu kulrang jonivor sari chorladi! Men unga juda-juda yordam bergim keldi. Afsuslar bo'lsinki, oppoq so'qmoq orqada, teraklar ortida qolib ketdi, biz esa olg'a yurdik.

Ko'rgan-kechirganim bor-yo'g'i shu bo'ldi. Bir necha kun o'tib, o'shanda g'aroyib voqeani ko'rganimga amin bo'ldim. Men o'shanda yop-yorug' kunda tabiatning ajoyib jonivori – Vinnipeg bo'risining naq o'zini ko'rishga muyassar bo'libman.

Bu qiziq taqdirli bo'ri. U shaharni o'rmondan afzal ko'ruvchi, qo'ylar yonidan beparvo o'tib ketuvchi, nuqul itlarni o'ldiruvchi, faqat yolg'iz o'zi ov qiluvchi bo'ri.

Ba'zi bировlar aytganiday, o'tmish-kechmishni af-sun bilan qaytarar ekanman, men avvalo bu bo'ri-ni-ni-ni mahalliy elga ayon hayotidan aytib beraman. Shaharliklar hali bu bo'rini eshitmaganlar. Masalan, markaziy



ko'chada xizmat qiluvchi puldor baqqol bu bo'ri haqida so'nggi qirg'in bo'lib o'tib, uning tulumu Gayd degan tulumchiga olib kelib berilganda bildi. Gaydning tulumxonasida Chikago ko'rgazmasi uchun bo'rilar tulumi tayyorlanardi, afsuski, 1896-yilda mahalliy maktabga o't tushganda tulumxona ham nobud bo'lib ketdi.

II

1880-yil iyun kunlarining birida xushsurat takasaltang, mehnatdan ko'ra ko'ngilxushlik uchun ov qilib yashashni afzal ko'radigan g'ijjakchi Pol Derosh yelkasiga miltiq osib, o'rmonzor Qizil daryo bo'ylarida daydib yurdi. Shunda, jar ostidagi bir kovakdan chiqib kelgan bo'riga ko'zi tushib, uni shartta otib tashladi. Keyin, inda boshqa bo'rilar bor-yo'qligini bilib kelish uchun itini yuborib, o'zi o'rmalab bordi. U zo'r hayrat, quvonchlar bilan indan sakkizta bo'ri bolasini topdi. Demak, u har biri o'n dollardan to'qqizta mukofot oladi! Bu hammasi bo'lib qancha bo'ladi? Ancha bo'ladi! U tayoq bilan bo'ri bolasining yettitasini urib o'ldirdi, malla iti yordam berib turdi. Inda qolgan oxirgisini o'ldirmadi. Boisi, aytishlaricha, jonivorlarning eng so'nggi norasida zurriyotini o'ldirish insonga baxtsizlik keltirar emish. Shunday qilib, Pol bosh terisi shilib olingan bo'rilar onasi bilan yettita o'lik hamda bitta tirik qolgan bolasini olib shaharga qaytdi.

Xogan degan traktir xo'jasi tirik qolgan bo'ri bolasini sotib oldi. U bo'ri bolasini zanjirga boylab boqdi, shahar itlaridan farqli o'laroq, bo'ri bolasining og'zi hamda ko'kragini doimo bo'sh, erkin qo'ydi. Uni kelib ketuvchilarga ermak bo'lsin uchun hovli yuzida saqladi, kelim ketimlar bo'ri bolasiga itlarini ol-kishlab o'ynadi. Itlar bo'ri bolasini bir necha bor chalajon qilib taladi,



ammo bo'ri bolasi har gal yana sog'ayib, o'zini o'nglab oldi, unga yopishgan g'anim itlar soni esa borgan sayin kamayib bordi. Bo'ri bolasining ko'rmagan kuni qolmadi. U favqulodda traktir xo'jasining kichkinagina o'g'li Jim bilan birodar bo'lib qoldi, bu dunyodagi yakka-yu yagona ilinji bo'lmish ana shu birodarlik uning ko'nglini ko'tarib turdi.

Jim o'z bilganini qiladigan shumtaka edi. U, bo'ri bolasi Jimni qopib olgan itni talagandan buyon uni yaxshi ko'rib qoldi. Shundan buyon bo'ri bolasini erkalatib, unga ovqat berib boshladi. Bo'ri bolasiyam o'z navbatida birodarlik bildirib, faqat Jim bilan oshno bo'ldi, undan boshqa hech kimni yaqiniga yo'latmadi.

Jimning otasi risolaga solib maqtaydigan otalardan emasdi. To'g'ri, u o'g'lini erkalatardi, ammo shu zahoti qahrlandi, o'g'lini arzimagan sabab uchun ayovsizlarcha kaltaklab boshlardi. Ko'p o'tmay Jim buning sabablarini bilib oldi, bilsa, otasi uni biron-bir aybi uchun emas, shunchaki jahli chiqqanidan urar ekan. Shundan keyin Jim otasining qahri qo'zg'aganini sezib qolsa biron xilvat yerga bekinib o'tiradigan bo'ldi. Bir safar darg'azab bo'lgan otasidan qochib, bo'ri bolasining katagiga o'zini urdi. Jimning kulrang birodari katak og'zidan boshini chiqarib, oppoq tishlarini irjaytirib irilladi, bu bilan darg'azab otaga shunday dedi: «Unga bir teginib ko'r-chi».

Traktir xo'jasi bo'ri bolasini otib tashlamoqchi bo'ldi, ammo o'q o'g'liga tegib ketishidan qo'rqib, indamay iziga qaytdi. Yarim soatlardan keyin bo'lgan voqeani eslab, xoxolab kulib yubordi. Shundan buyon sal xavfni sezsa, Jim bo'rining katagiga kirib oladigan bo'ldi, uning yirtqich asir ketiga panalab turganini ko'rganlar ham u biror ayb qilib qo'yganga o'xshaydi, degan xulosaga keladigan bo'ldi.



Xogan xasis odam edi. Shu sababliyam bufetida bir xitoylikni ishlatardi, chunki xitoylik oz haq talab qilardi. U ushoqqina, qotmadan kelgan odam bo'lib, g'ijjakchi Pol u bilan bemalol, ochilib gaplashar edi. Shu boisdan ham kunlarning birida Pol kayf bilan traktirga kelib, xitoylikning yolg'iz o'zini uchratib qolib, undan qarzga mehmon qilishini so'radi. Ammo Tun Lin xo'jayinining buyrug'iga amal qilib, Polning iltimosini rad etdi. Xitoylik unga hurmatsizlik qilgani uchun Pol uning adabini berib qo'ymoqchi bo'lib, peshtaxtaga osildi. Agar shu vaqt qayerdandir Jim paydo bo'lib, Polning oyoqlari ostiga uzun yog'ichni tashlab yubormaganda xitoylik ko'radiganini ko'rar edi. Jimning qilig'i oqibatida g'ijjakchi polga yiqilib tushdi, so'ng o'rnidan turib, sen bola, endi bu ishing uchun boshing bilan javob berasan, deya turib oldi. Ammo Jim yaqinginasidagi eshikdan chiqqan solib, bo'rining katagiga kirib oldi.

Pol qarasa, bolaning homiysi borekan, tunda u qo'liga uzun bir tayoq olib oldi, beriroqda turib, bo'rini savalab boshladi. Kulrang hayvon zanjirini tortib sapchib, o'zini ketma-ket tushayotgan tayoqdan himoya qildi, tayoqni tishlari bilan g'ajidi. Bo'riga qiyin bo'ldi. Shunda Pol tinimsiz nimalardir deyayotgan Jim bo'rining zanjirini yechishga urinayotganini ko'rib qoldi, demak, bo'ri hademay zanjirdan bo'shaydi, u faqat zanjirni tarang tortaverib, o'ziga-o'zi qilyapti, chunki tarang bo'lgan zanjirni yechish ancha mushkul.

Pol hademay quturib sapchiyotgan yirtqich bilan yakkama-yakka olishajagini tasavvur qilib, seskanib ketdi. Shu payt Jimning yolvoruvchi ovozi keldi:

—Biroz sabr qil, bo'rivoy, zanjirni tortma, bo'shatish oson bo'ladi, hozir yechib yuboraman, keyin uni tushlik ovqat qilasan. Tortma, tortma, bo'sh qo'y! Ha, yasha!



G'ijjakchiga shu gapning o'zi kifoya bo'ldi. U ~~estak~~ larni orqasidan mahkamlab yopib, qochib qoldi.



Jim bilan bo'ri o'rtasidagi birodarlik yanada ~~mus~~ tahkamlandi. Bo'ri katta bo'la borgan sayin it ~~bilan~~ aroq hidi keladigan odamdan nafratlana bordi. Jim va boshqa bolalarga bo'lgan mehr-muhabbati esa ~~kun sa~~ yin orta bordi.

III

1881-yilning kuziga kelib mahalliy fermerlar bo'rilar ko'payib, mollarni qirib ketayotganidan nolidi. Zahar, qopqonlar foyda bermadi. Shunday kunlarning ~~birida~~ Vinnipeg klubida taniqli bir nemis sayohatchisi pardo bo'lib, mening shunday itlarim borki, ular yurtimizni bo'rilardan xalos etishga qodirdir, deb qoldi, uning gapi barchani qiziqtirib qo'ydi. Fermerlar ov ishqibozi edi, shu boisdan ham bo'ribosar bilan o'lkani bo'rilardan tozalash, degan gapga qiziqib qoldi.

Ko'p o'tmay nemis Daniya zotlariga mansub ikkita bahaybat itni olib keldi. Itlarning birovini oppoqdan kelgan, birovini qop-qora xollari bor malla it edi. Itlarning har birovini taxminan ikki yuz funtcha kelar, paylari yo'lbars paylaridek chayir edi. Nemis tevarakdagilarga bu ikkala itim manman degan zo'r bo'rini ham oladi, deya maqtandi, odamlar itlarga razm solib, nemisning gapiga ishondi. Nemis itlarining odatini bayon qildi:

– Ularga izlarni ko'rsatsang bo'ldi, armon yo'q, izlar bosilganiga bir kun o'tgan bo'lsa ham shu zahotiyoq iz bo'ylab bo'rini izlab ketadi. Keyin ularni to'xtata olmaysan. Bo'ri qanchalik yo'lini chalkashtirib, o'zini yashirmasin, itlar baribir ularni topib oladi. Bo'ri qochmoqchi bo'lsa, malla it darrov uning sonidan oladi, keyin mana bunday qilib otib yuboradi, – nemis osmonga



non ushog'ini otib ko'rsatdi, – bo'ri yerga qaytib tushmasidanoq oq it uning kallasidan, mallasi esa dumidan oladi, keyin ikkovlari bo'rini tilka-pora qilib tashlaydi.

Odamlar nemisning gaplariga ishondi. Ular itlarni amalda bir sinab ko'rgilari keldi. Ovchilarga Asinibuan-ga bo'ri ovlashga borishni maslahat berdi, ovchilar imil-lab o'tirmasdan shu zahotiyoyq yo'lga tushdi. Ovchilar uch kun bo'ri izlab, hech balo topolmadi, hafsalalari pir bo'lib, bo'ri izlashni butunlay bas qilmoqchi bo'ldi, shunda kimdir traktirchi Xoganning xonaki bo'risi bor-ligini, uni arzon-garovga sotib olish mumkinligini, keyin bo'ri bor-yo'g'i bir yashar bo'lsa-da, ammo itlarni u bi-lan talashtirib, sinab ko'rish mumkinligini aytib qoldi.

Traktirchi o'z bo'risining nimaga kerak bo'lib qol-ganini eshitib, uning narxini keskin ko'tarib qo'ydi. Ya-na-tag'in, bo'rini sotish uchun «vijdoni yo'l qo'ymadi». Ammo ovchilar bo'rining narxini yetarlicha to'lagach, traktirchining «vijdoni yo'l qo'ydi».

Shundan keyin traktirchi kichkina Jimni momosini-kiga jo'natib yubordi, bo'rini katakka qamab, ustidan mixlab tashladi, so'ng aravaga bosib, yaydoq dashtga olib bordi.

Itlar bo'ri hidini olib, olg'a talpindi, nemis ularni zo'rg'a ushlab turdi.

Bo'rini katakdan olib chiqish qiyin bo'ldi. U o'zini orqaga olib, oyoq tirab turib oldi. U o'ziga uzatilgan qo'llarni tishlamadi, faqat qanday qilib bekinish yo'lini izladi. Qiyqiriq, hushtaklardan o'ziga kelib qarasa, ozodlikda yuribdi, shunda u silovsinday pisib, janubga qarab chopib qo'yaverdi.

Nemis shu zahotiyoyq bo'rining izidan itlarni qo'ydi, itlar qahr bilan hurib, bo'rini quvib ketdi.

Odamlar xushchaqchaq xoxolashib, itlarning ketidan ot qo'ydi. Ta'qib boshidanoq bo'ri qochib qutulolmasligi



ayon bo'ldi. Itlar bo'riga qaraganda xiyla epchil edi. Ayniqsa, oq it chopishda har qanday tozidan ham qolishmasdi. Nemis o'zining suyukli iti dasht uzra o'qday uchib borgan sayin bo'riga yaqinlashayotganini ko'rib, tantana bilan zavqlandi. Ko'pchilik itlar yutib chiqadi, deb, garov o'ynamoqchi bo'ldi, bu o'z-o'zidan ravshan bo'lgani uchun hech kim garov o'ynamadi, ammo itlarning qaysi biri zafar qozonadi, degan bahs bilan garov o'ynamoqchi bo'lishdi. Kichkinagina bo'ri endi jonjahdi bilan chopdi, ammo ko'p o'tmay oq it yetib oldi.

– Ana endi qaranglar, – qichqirdi nemis, – bo'ri hozir havoga qanday uchib ketishini ko'rasizlar!

Bir daqiqalardan keyin bo'ri bilan it to'qnashib qoldi, ammo shu zahotiyloq bir-birlaridan ajralib ketdi. Nemis o'ylaganidek, biroviam havoga uchib ketmadi, faqat oq it yelkasidan og'ir yaralanib, o'lmoqdan beri bo'lib, yo'lda qolib ketdi. Endi malla it og'zini katta-katta ochib, bo'rini quvib boshladi. Ular orasidagi olishuv ham xuddi birinchi olishuvdagidek yo'l-yo'lakay, ko'z ilg'amas vaziyatda bo'lib o'tdi. Ana, bo'ri bilan malla it to'qnash keldi. Kulrang hayvon o'zini chetga oldi. Malla hayvon bir sapchib tushdi, shunda biqini qonga belangani ayon bo'ldi.

Shu vaqt nemisning malayi yana to'rtta it yetaklab keldi. Bu itlarniyam bo'rining ketidan qo'yishdi, ovchilar qo'llariga tayoq hamda arqon olib, bo'rini tezroq biryoqli qilish uchun yana uni quvib boshladi, shunda, bir bola yoyma bo'ylab to'pichoq otini yo'rttirib keldi. Otdan tushib, bo'rini o'rab olgan olomonni yorib o'tib, bo'rining bo'ynidan mahkam quchoqlab oldi. U bo'rini «jonajon bo'rivoyginam», «qadrdon bo'rivoyginam», deya suydi. Bo'ri bolaning izlarini yalab, dumini likillatdi. Shunda bola yuzlari ko'zyoshiga belanib, olomonga shunday dedi... Keling, yaxshisi, bola nima deganini



bayon qilmay qo'ya qolaylik. Bola bor-yo'g'i to'qqiz yoshga to'ldi, ammo juda qo'pol bo'lib o'sdi, boisi, qo'lbola traktir muhitida katta bo'lib, turli-tuman sassiq so'kishlarni bilib oldi.

Bola olomonni avval yoppasiga, keyin bitta-bitalab so'kdi, otasiyam quruq qolmadi.

Bordi-yu, kap-katta odam ana shunday kurakda turmaydigan gaplar bilan so'kinsa, turgan gap, kunini ko'rardi. Nachora, bola – bola-da, bolaga qattiq gapirib bo'ladimi? Oxir-oqibat, ovchilar vaziyatni yumshatish yo'lini qildi. Ular yoppasiga qah-qah urib kulib yubordi. Albatta, o'zlarining ustidan o'zlari kulmadi, qaysi tentak o'zining ustidan o'zi kuladi, yo'q, ular mashhur itlari kichkinagina bir bo'ridan pand yegan nemisning ustidan kuldi.

Jim ko'zyoshlarini artaverib ho'l bo'lib qolgan jajji qo'lini cho'ntagiga tiqib, undagi xas-cho'p, obaki qand, tamaki, gugurt, to'pponcha pistonni va boshqa lash-lushlar orasidan ingichkagina chilvir bo'lagini olib, bo'ring bo'yniga boyladi. Keyin, hamon o'pkasini bosolmay hiqillab yig'lab, to'pichoq otiga mindi, bo'rini chilvirdan ushlab yetaklab, uyiga yo'l oldi. Ketayotib, nemis zodagoniga xayrlashuv so'zini aytdi:

– Agar menga ikki chaqa bersangiz, bo'rivoyimni sizga gij-gijlardim, uning changalida maza qilib harom o'lardingiz!

IV

Qish boshlarida Jim og'rib qoldi.

Bo'ri birodarini sog'inib, zorlanib uvilladi, bemorning iltimosiga binoan bo'ri u yotgan xonaga olib kirildi.

Yovvoyi it – bo'ri, ha, ha, yovvoyi it, bo'ri birodarining boshida unga qarab o'tirdi.



Dard avval-avval unchalik xavfli emasday tuyuldi, so'ng birdan avj olib ketdi, barcha tahlikaga tushib qoldi, hayitga uch kun qoldi deganda Jim olamdan o'tdi.


Hammadan ham bo'ri chin ko'ngildan yig'ladi. Kulrang hayvon motam marosimi ishtirokchilariga ergashib, cherkovga bordi, cherkov qo'ng'iroqlari zang chaldi, bo'ri qo'ng'iroq ovozig'a nido berib, faryod bilan uvilladi. Keyin traktir orqasidagi hovliga qaytib keldi, uni yana zanjirlamoqchi bo'lganlarida u devordan sapchib o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Shu qishda daryo bo'yidagi yog'och kulbaga Reno degan kekxa qopqonchi Ninetta nomli binoyidekkina qizi bilan ko'chib keldi. Kekxa qopqonchi kichkina Jimni umuman eshitmagan, daryoning har ikki qirg'og'ida ham bo'ri izlarini ko'rib esa hayron bo'lgan edi.

Qariya Gudzon Quyilmasi Kompaniyasi xizmatchilarining qandaydir bir bo'ri shundoq yonlarida yashayotgani, bo'ri ba'zan shaharga ham oralab qolishi, u ayniqsa Sent-Bonifeys yaqinidagi cherkov yonida yastanib yotgan butazorda ko'p yurishi haqidagi hikoyasini eshitib, bir ishonadi, bir ishonmadi.

Cherkov qo'ng'iroqlari zang urdi, Jim vafot etganda ham qo'ng'iroqlar shunday zang urib edi. Xuddi ana shu payt o'rmondan yolg'iz, ma'yus uvillash eshitildi. Qariya Reno shundagina eshitganlari haqqost rost ekanligiga amin bo'ldi. Qariya bo'ri ovozlari yaxshi bilardi: yordam so'rovchi ovoz, muhabbat ovozi, yolg'izlik ovozi hamda achchiq ovoz. Hozirgina eshitgani yolg'izlik ovozi edi.

Qariya daryo sohiliga tushib, xuddi shunday ovoz berdi. O'rmondan bir qora soya chiqib keldi, muz ustidan yurib, to'nka ustida xuddi to'nkaday qotib o'tirgan odam tarafga keldi. Soya yanada yaqin kelib, odamni bir aylandi, so'ng unga tumshug'ini cho'zdi. Shunda



soyaning ko'zlari olov bo'lib yondi, xuddi qahri kelgan itdek irillab, yana qorong'ilikka singib ketdi.

Shunday qilib, qariya Reno, boshqa shaharliklar shahar ko'chalari bo'ylab ulkan kulrang bo'ri kezib yurishini, u «bir vaqtlar Xoganning aroqxonasida zanjirlab boqiladigan bo'ridan uch baravar katta» ekanligini bilib oldi. U itlarning sho'ri bo'ldi, o'ng kelgan itni o'ldirib ketaverdi. Garchi hech kim ko'rmagan bo'lsa-da, aytishlaricha, bo'ri shahar chetida tentirab yurgan bir nechta mast-alastni yeb ketgan emish.

Men qorga belangan o'rmonda ko'rgan Vinnipeg bo'risi ana shunday bo'ri edi. Men uning tang ahvolda qolganini ko'rib, hatto unga yordam bergim keldi. Ammo u haqda keyinroq eshitgan gaplarim, dastlabki fikrlarimni o'zgartirib yubordi. O'sha olishuv kimning foydasiga hal bo'ldi, bilmayman, faqat shunisini bilamanki, o'shandan keyin odamlar bo'rini ko'p marta ko'rgan, itlarning bir nechtasi bo'lsa yana qaytib ko'rinmagan.

Hali-hozirgacha bironta ham bo'ri bunday g'alati hayot kechirmagan edi. U o'rmon-dashtlarga ketib qolish erki bo'la turib, shaharda telba-teskari, beqaror hayot kechirishni afzal ko'rdi. Har kuni ajalga tik boqib mardona qahramonliklar ko'rsatib yashadi. U odamlardan nafratlanib, itlardan jirkanib hayot kechirdi. Har kuni itlarni gala-gala qilib, oldiga solib quvdi, yakka-yolg'iz uchraganlarini o'ldirib ketaverdi. Mast-alastlarning yuragini yordi, miltiqli odamlarni chetlab yurdi, qopqon, zahar nima ekanligini yaxshilab bilib oldi, qanday qilib bilib oldi, tushuntirib bo'lmaydi, ammo bilib olganligi haqqost rost, chunki bir necha bor zahar sepilgan go'sht bo'lagiga jirkanib qarab, yonlab o'tib ketdi.

Vinnipegda u yurmagan ko'cha qolmadi, tong chog'i uning lip etib paydo bo'ladigan soyasini ko'rmagan




politsiyachi qolmadi, juftgarchi shamol qurg'ur uning kelayotganini bildirganda qo'rqib qaltiramagan it qolmadi. U qiyomat qirg'inni qo'msadi, jamiki dunyo g'animi bo'ldi. Ammo yosh bola degan zotning ko'nglini og'ritmadi.

V

Ninetta dashtda tug'ilib-o'sdi. Ninettaning onasi hindu, otasi normand bo'lib, uning kulrang ko'zlari otasiga kelbat berdi. U o'n oltiga to'lib, o'lkaning eng go'zal qizi bo'lib yetildi. U o'lkadagi manman degan boyvachcha, nufuzli yigitga erga tegishi mumkin edi, ammo nimagadir Pol Deroshga ko'ngli ketdi. Usta o'yinchi, binoyiday g'ijjakchi, e'tiborli yigitcha bo'lmish Pol Derosh jamiki to'y-ma'arakalarga taklif qilinar, shundan bo'lsa kerak, qaytarib bo'lmas darajada ko'p ichardi. U bir safar Ninetta bilan nikohdan o'taman, deb keldi, shunda Reno uni oldiga solib quvib, to'g'ri ish qildi. Ammo buyam foyda bermadi.

Ninetta ko'ngilchan, gapni oladigan qiz bo'lsa-da, ammo tanlagan yigitidan kechmadi. Otasi Polni haydab yuborgan kunning ertasigayoq u bilan o'rmondagi daryo ortida uchrashishga va'da berdi. Ninetta qalin qor oralab uchrashuvga borayotib, izidan bir kulrang hayvon kelayotganini ko'rdi. Hayvonning avzoyi do'stona edi, shu boisdan ham qiz (u hali kelin emas, qiz) undan qo'rqmadi. Ninetta uni kutib turgan Polga yaqinlashganda bahaybat it g'azab bilan irillab, olg'a talpindi. Pol o'girilib qarab, ulkan bo'rini tanidi, yuragi orqasiga tortib, tiraqaylab qochib qoldi. U keyinroq, o'shanda miltiq olib kelaman, deb qochib edim, deya to'qqiz qo'ydi. Miltig'ini qayerga qo'ygani esidan chiqdimi yo daraxt ustiga qo'yganmi, ishqilib, miltig'ini izlab, yu-



gurib daraxt ustiga chiqib oldi. Bu orada Ninetta qor kechib uyga chopib borib, tanish-bilishlariga Polning hayoti xavf ostida ekanligini bildirdi. Juvonmard Pol daraxt ustidan miltig'ini topolmadi, bir shoxni sindirib olib, uchini nayza qilib yo'ndi, nayza uchiga pichog'ini o'ratdi, keyin, uni bo'rining boshiga tiqib olish uchun payt poyladi. Bo'ri daraxt ostiga kelib, dahshatli irilladi, so'ng nariroqqa borib, daraxt ustidagi odamning yerga tushishini poylab o'tirdi. Ammo olomon yaqinlashib qolib, bo'ri o'z yo'liga ketdi.

G'ijjakchi Pol o'z ko'nglini yolg'iz Ninettaga bayon eta olardi. Chunki Ninetta hamon uni sevardi. Ammo otasi Polga jirkanish bilan qarardi, shuning uchun ular Pol itlar bilan Garri qal'asidan Aleksandr qal'asiga xat-xabarlarni berib qaytishi bilanoq pinhona nikohdan o'tmoqchi bo'ldi. Pol tajribali it haydovchi hisoblanardi, chunki u ayovsiz odam edi.

Pol azonda turib, yo'l oldidan otib oldi, so'ng o'zini tetik his qilib, daryo tomon pastlab ketdi. Chanaga qo'shilgan uchta it qor uzra yelday yelib ketdi. Itlar yo'g'onaday ulkan va kuchli, qaroqchiday shiddatli, dahshatli edi. Chana Renoning daryo bo'yidagi kulbasi yonidan shiddat bilan o'tdi, Pol qo'lidagi darrani boshi uzra silkiganicha chana ketidan chopib, ostonada qarab turgan Ninettasiga qo'l silkidi.

Xiyoldan so'ng shiddatli itlar qo'shilgan chana bilan mast haydovchi daryo burilishidan o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi, shundan keyin g'ijjakchi Polni ko'rdim, degan odam bo'lmadi.

Kechasi itlar bitta-bitta bo'lib, yana Garri qo'rg'oniga qaytib keldi. Itlar bir necha joyidan yaralanib, qonga belangan, eng ajablanarli joyi, ularning qorni to'q edi.

Odamlar iz olib ketdi. Ular dastavval Pol olib ketgan paketni topib oldi. Keyin chananing bo'lak-so'lagini



topdi. So'ng, paketdan sal narida yotgan g'ijjakchi kiyimining yirtiqclariga ko'zlari tushdi.

Barchasi ravshan bo'ldi, itlar o'z haydovchisini talab yegan.


Itlarning egasi bu ko'rgilikni eshitib, juda diqqat bo'ldi, endi u itlari uchun javob beradi. Shu boisdan ham u odamlarning gapiga ishonmay, o'zi borib ko'rib kelmoqchi bo'ldi. Reno unga hamroh bo'lib bordi, uch milcha yo'l yurmaslaridanoq qariya daryoning janubiy sohilidan g'arbiy sohiliga o'tgan, keyin chananing izidan yurgan yirik-yirik izlarga ishora qildi. Itlarning egasiga o'girilib, inglizchani buzib gapirdi:

– Chana izidan ulkan bo'ri yurgan.

Ular shu izlarni olib, daryoning g'arbiy sohiliga o'tdi. Izlardan ko'rinishicha, bo'ri Kildonan o'rmonlari ortiga kelganda chopmay, asta-sekin yurgan, chanani boshqa quvmay, o'rmonga kirib ketmoqchi bo'lgan. Ammo Pol xuddi shu bo'ri to'xtagan joyda nimadir bir nimani, ehtimol, paketni tushirib qoldirgan. Bo'ri tushib qolgan narsani hidlab ko'rib, bir paytlar uning boshini urib yorgan Pol pianista ana shu chanada ketayotganini sezib qolgan.

Yana bir milcha yo'ldan keyin yugurgan bo'ri izlari qorda chanaga borib taqaldi. Shundan keyin qordagi odam izlari yo'qoldi, chamasi, u chanaga chiqib olib, itlarni tezlatib haydagan. Chanani yengillatish uchun yuklarni birin-ketin yerga tashlab ketgan. Shu sababliyam paket qorda yotibdi.

Itlar qamchi ostida shunday yelib-yuguribdi! Ana, Polning pichog'i qorda yotibdi. Aftidan, u o'zini bo'ridan himoya qilaman deb, pichog'ini tushirib qo'ygan. Mana bu yerda bo'ri izlari yo'qolgan, chana bo'lsa o'qday uchib boravergan, demak, bo'ri chanaga chiqib olgan. Itlar dahshat ichida yanada yelib-yugurgan, afsuski,



bo'ri chana ustida borgan. Yana bir daqiqadan keyin barcha ishlar barbod bo'lgan. Chanadagi odam bilan bo'ri yo'lda tushib qolgan. Bo'ri izi yana janubiy sohilda paydo bo'lib, so'ng o'rmonga kirib yo'qolgan. Chana esa chap sohil bo'ylab bir milcha yo'l yurib daraxt tomirlariga borib urilib, chilparchin bo'lgan.

Reno qordagi izlarni sinchiklab qarab shu narsaga amin bo'ldiki, itlar yo'l-yo'lakay ayqash-uyqash bo'lib, bir-birlarini talagan, keyin shataklarini uzib chiqib, so-biq zulmchilarining jasadini topib olib, ziyofatxo'rlik qilgan.

Ko'rinib turibdi, yaxshi gap kam, yomon gap ko'p. Shundan keyin itlar qotil, degan shubhaga barham berildi. Jamiki javobgarlik bo'rining bo'yniga qo'yildi. Reno fojiani ko'rib bo'lgach, bir daqiqa o'tgan zahotiyoyq yengil tin olib, dedi:

– Bu Vinnipeg bo'risining ishi. U bu ishi bilan mening qizimni Poldan qutqarib qoldi. Vinnipeg bo'risi bolalarga g'amxo'r bo'ri.

VI

Polning o'limi hal qiluvchi katta ovga sabab bo'ldi, ov Jim vafotidan keyin roppa-rosa ikki yil o'tgach, hayit kuniga belgilandi. Ovg'a chor tarafdin itlar olib kelishdi. Polning chanasiga qo'shilgan itlar egasi o'z itlarining ovda ishtirok etishini zarur deb bilib, ularni ham ovga olib keldi. Shuningdek, ovda dog zotli itlar, izquvar itlar, o'zining avlod-ajdodini bilmaydigan ko'ppak itlar bo'ldi. Ovchilar ertalab Sent-Bonifeys janubidagi o'rmonni oralab qarab, hech nima topolmadi.

Shunda telefon orqali shaharning g'arbidagi Asinibuan o'rmonlarida bo'ri izlari paydo bo'lganligi haqida xabar



keldi. Ovchilar bir soatdan keyin Vinnipeg bo'risining yangi izlarini qidirib jo'nadi.

Ana, ular yo'lda boryapti. Bir gala it, bir guruh otliq hamda erkaklar bilan bolalardan iborat piyoda ovchilar.

Bo'ri itlardan qo'rqmaydi, inson qo'lidagi mil-tiqdan qo'rqadi. U Asinibuan o'rmonlarining quyuq yerlarini mo'ljallab jo'nadi, otliqlar tep-tekis yerlardan yo'l olib, ko'p o'tmay bo'riga yetib oldi va uni iziga qaytishga majbur qildi. Bo'ri Kolon-Krik jarini yoqalab chopib, boshi uzra g'izillab uchib o'tayotgan o'qlardan o'zini olib qochdi. So'ng tikanli sim to'siqlarga qarab chopdi, undan sakrab oshib o'tib, birpas bo'lsa-da, otliqlar ko'zidan pana bo'ldi, ammo u sim to'siqlar emas, jardan qolmasligi kerak edi, chunki jarga o'q yetmasdi. Bu orada itlar bo'riga yaqin kelib qoldi. Bo'ri itlar bilan yuzma-yuz bo'lishni, mayli, itlar qirqta bo'lsin, ellikta bo'lsin, ular bilan bir o'zi yakkama-yakka chiqishni orzu qildi. Ana, itlar bo'rini o'rab oldi, ammo birontasiyam unga yaqin kelolmadi. Qotmadan kelgan tozi it o'zining chaqqonligiga ishonib, bo'rining yon tarafidan borib edi, bo'ri so'yloq tishlari bilan uni silkib otib yerga ag'natdi. Otliqlar aylanma yo'ldan o'tib keldi. Ov hangomasi shaharga yaqin borib qoldi. Shahardan ko'plab odamlar, itlar yugurib chiqib ovga qo'shilmoqchi bo'ldi.

Bo'ri o'ziga tanish shahar qassobxonasi tomon burildi, shunda otishmalar ham birpas tindi, sababi, ovchilar itlarga o'q tegib ketishidan qo'rqdi, qolaversa, uylarga juda yaqin kelib qoldi. Itlar bo'rini zanjirday zich bo'lib o'rab oldi, oqibat, bo'ri hech qayoqqa qocholmay qoldi. U tevarakka alanglab, so'nggi olishuv uchun qulay bir panoh izladi, oqova ariqning yog'och ko'prigini ko'rib qolib, shuning tagiga kirib oldi. Ammo odamlar lom olib kelib, ko'prikn buzib boshladi. Shunda, bo'ri ajali to'lganini his qilib, o'limini bo'yniga olib, o'lganda ham



mardonavor o'lishni niyat qilib, ko'prik ostidan chiqib keldi. Odamlar bo'rini birinchi marta kun yorug'ida ko'rdi. Ana u, ana, itlarning ofati, Sent-Bonifeys o'rmonlarining o'zi yo'g'-u ovozi bor sirli jonivori, afsonaviy Vinnipeg bo'risi!

VII

Shunday qilib, bo'ri uch yil mobaynida olishaverib-olishaverib, oxir-oqibat, qirqtacha it bilan yakkama-yakka chiqdi, multiqli odamlar itlarga madad berib turdi. Bo'ri, o'sha qishda ilk bor o'rmonda ko'rganimdagidek, bu safar ham itlarga qarshi mardonavor bordi. Lablari nafrat bilan burildi, pay biqinlari biroz hurpaydi, sarg'ish-zangori ko'zlari yondi. Itlar yanada o'rab keldi. Itlarni ulkan laycha it emas, laycha bo'ri bilan bir marta to'qnash kelib, ko'radiganini ko'rgan, yo'q, ularni shahar ko'chalaridan boshqa yoqni ko'rmagan to'mtoq tumshuq, jag'dor bir it boshlab keldi. Qadam tovushlari eshitildi. Itlar akillashni qo'yib, irillab boshladi. Bo'ri ham tishlarini irjaytirib, irilladi. Itlar o'zini keyinga olib, bo'ri xoli qoldi. Qari, ammo kuchli vahshiy hamlagaga shaylandi. Itlar uch marta hamla qildi, u uchtasiniyam bartaraf etdi. Tevaragida manman degan itlar yumaloq yostiq bo'lib, jon berdi. To'mtoq tumshuq botir it birinchilardan bo'lib ketdi. Omon qolganlari akillab-akillab, ketiga chekindi, bo'ri hamon dadil turib, hamlani kutdi. Bir necha daqiqacha shunday turib, so'ng, besh-olti qadam olg'a yurdi, shunda, hay-hay-hay, ana shunda ovchilarga xudo berdi, ular ko'pdan buyon poylagan yaziya keldi! Ovchilar bo'rini uch bora gumburlatib oldi, bo'ri qorga yumalab tushib, o'zining shavkatli yo'lga yakun yasadi.



Kim bo'ring qalbini biladi? Kim bo'ring ko'nglidagi gapni topib ayta oladi? Nega u shahar dastidan shunchalar kulfat ko'rib, yana-tag'in, shahar yaqinida yashab qoldi? Axir, tevarak-atrofi quyuq o'rmon, yegani oldida, yemagani ketida edi-ku? Yo shahardar qasdini olish uchun shaharni yonlab yashadimi? Aslo, aslo, unday emas. Hayvon zoti qasd olish uchun butun umrini isrof qilmaydi. Qasd deb atalmish yovuz tuyg'u inson zotiga xos tuyg'u, faqat insonlarga shunday yovuzlik qiladi. Hayvon zoti tinch yashashni xohlaydi.

Dunyoda yakka-yu yagona ulug' bir ilinj bor, bu-yuk bir saltanat bor, qudratli bir kuch bor, ana shu ilinj, ana shu saltanat, ana shu kuch bo'rini shaharga bog'lab qo'ydi, bu mehr-oqibatdir.

Bo'ri olamdan ketdi. Hatto terisi-da yonib ketdi. Ammo Sent-Bonifeys cherkovi qorovulining aytishicha, chin arafa kunlari cherkov qo'ng'iroqlari zang urganda qo'shni o'rmonzor qabristondan hali-hamon yurakni o'rtovchi, qayg'uli bo'ri uvillashi eshitilar emish. Xuddi ana shu qabristonda bo'riga mehr-oqibat nimaligini o'rgatib ketgan dunyodagi yakka-yu yagona inson, mit-tigina Jim yotibdi.

BOLAKAY BILAN SILOVSIN

I. BOLAKAY

Torbern endigina o'n beshga chiqdi. U ov qilishni juda yaxshi ko'radi. Uzun kun lojuvard ko'l uzra yovvoyi kaptarlar galasi parvoz qilib, maysazor chekkalaridagi quruq butoqlarga qatorlashib qo'ndi. Qani endi, uning juda bo'lmasa bittagina ana shunday kaptari bo'lsa! Uning vaqti kaptarlarni behuda poylab o'tdi. Kaptarlar Torbernning almisoqdan qolgan miltig'i mo'ljalini aniq biladi shekili, u yaqinlashishi bilan oq



shovqin solib uchib ketaverdi. Nihoyat, uning kulbasi yaqinidagi jilg'a bo'yi butalariga bir galasi kelib qo'ndi. Torbern kulba panasiga biqinib, ularni jimgina kuzata boshladi. Galadan chetda qolgan bir kaptarni ko'z ostiga oldi, nishonni aniq mo'ljalga olib, tepkini bosdi. Deyarli bir vaqtda havoda favqulodda yana bir o'q ovozi yangradi, kaptar yerga uchib tushdi.

Torbern kaptar tomon yugurdi, ammo xuddi shu payt butalar orasidan yana bir yigitcha chiqib, kaptarni olib qo'ydi.

– Korn! Kaptaringma tegma!

– Sening kaptaringmi? Ana sening kaptaring osmonda uchib yuribdi! Kaptarlar g'uj bo'lib qo'nganini ko'rib, qani, bir otib ko'ray-chi, deb otdim.

Kaptarni titkilab qarashib, unga ayni bir vaqtda ham vintovkaning, ham ov miltig'ining o'qi tekkanini ko'rdilar. Yana-tag'in, har ikkala o'q ham aynan bir joyga tekkandi. Ikkalovi rosa kulushib, xumordan chiqdi. Zotan, ularning ahvoli kuladigan darajada emasdi, o'rmonda yashashga ularning na oziq-ovqati, na o'q-dorilari qolgan edi.

Korni – oilaning to'ng'ich farzandi. Yigitchaning mustaqil yashagisi kelib o'rmonni o'ziga makon qilib oldi. Bo'y yetgan ikkita singlisi – mo'min-vazmin Marget bilan sho'x-shaddod Lu uning qozon-tovog'iga qaraydi, kir-chirini yuvadi. Torbern Older yaqinda ularnikiga mehmon bo'lib borgandi. Keyin Torbern og'ir kasaldan turganligi uchun uyidagilar uni zora tabiat qo'ynida ko'ngil yozib, sog'ayib ketsa, degan umidda o'rmonga jo'natdi. Boshpanalari randalanmagan g'o'lalardan yasalgan kulba bo'lib, pol qoqilmagan, tomiga shoxchalari osilib yotgan butoqlar yopib qo'yilgan. Bu yerdagi quyuq o'rmon sukunatini shahar tarafga yangi tushgan yo'l hamda tosh qirg'oqli ko'l shovqini buzib turadi.



Ular bir xil kun kechirdi. Kornı saharmardondan turib o'choqqa o't qalaydi, so'ng singillarini uyg'otadi. Keyin otlarga yem beradi, Kornı kelguncha qizlar nonushta tayyorlaydi. Soat oltilarda nonushta qilib bo'lishib, Kornı ishga jo'naydi. Marget tush vaqti bo'lganini daraxtlarning ariqdagi soyasidan biladi, Lu jerdiga oq latta osib qo'yadi, Kornı buni ko'rib, yer haydashdan yo bo'lmasa, pichan o'rishdan changga botib, saqichday qorayib keladi. Tor ba'zan uzun kun yo'q bo'lib ketadi. Oqshomlari hammalari dasturxon tepasida to'planadi. Tor yurib-yurib, biron-bir ko'ldanmi yo olis bir tog'danmi qaytib keladi, keyin ular tushlikdan qolishmaydigan kechki ovqatni tanovul qilishadi. Ularning ovqatlarıyam kechirayotgan kunlari singari bir xil: cho'chqa go'shti, non, kartoshka yeyishadi, choy ichishadi, bordi-yu, kalta xodalar bilan o'ralgan otxona tevaragida yuradigan tovuqlar tuxum tug'sa, shuni yeyishadi. Dasturxonda ilvasin go'shti onda-sonda paydo bo'ladi, chunki Tor miltiqni yomon otadi, Kornı esa fermadan bo'shamaydi.

II. SILOVSIN

O'rmonda bir qari tol yoshini yashab, oshini oshadi. Ajal tolga muruvvat ko'rsatib, jon olishdan oldin huzuriga uchta ogohlantiruvchi xabar yubordi: birinchidan, tol barcha opa-singillaridan olisda o'sdi, ikkinchidan, tolning bola-baqralari allaqachon o'sib-ulg'aydi, uchinchidan, tolning ichi bo'm-bo'sh, g'ovak bo'lib qoldi. Shundan keyin qish bo'ronlari tolni yerga mayishtirib tashlab, qoq biqinidan darcha ochdi. Tol quyosh nurlari mo'l-ko'l maysazor uzra uzun g'or misoli uzala tushib yotdi. Bo'lajak farzandlariga boshpana izlab yurgan bir silovsin tol kovagini o'ziga makon qilib oldi. Silovsin qari bo'lib, ustiga ustak, terisi ustuxoniga yopishib qolgan, chunki silovsin uchun



yil yomon keldi. Kuzda o'lat uning eng asosiy nasibasi bo'lmish quyonlarni qirib bitirdi. Qish bo'roni favqulodda hammayoqni muz, yaxmalakka aylantirib, kakliklarga qiron keltirdi. Uzundan-uzun seryomg'ir ko'klam butun hovuz-u daryolarni suvga toshirdi, oqibat, baqalar-u baliqlarga silovsinning changali yetmadi, xullas, silovsin boshqa silovsinlardan kam qiynalmadi.

Zaif, nimjon silovsinvachchalar esa onasiga ortiqcha yuk bo'lib, vaqtini oldi, ov qilib kelgani qo'ymadi.

Silovsinning yaxshi ko'rgan ovqati quyon. U kuniga elliktalab quyon ovlagan vaqtlari ham bo'lgan. Ammo bu yil omadi kelmay, birontayam quyon tutolmadi.

Aytganday, tunov kuni tol kovagiga yugurib kirib ketayotgan olmaxonni tutib oldi. Shundan boshqa tuzukroq ov qilolmadi, kuni sassiq ilonga qoldi. Shunisiyam g'animat ekan, keyin-keyin yeyishga hech vaqo topolmadi, go'daklari ochlikdan chiyillab, sut so'radi. Silovsin bir kuni qo'lansa, ammo tanish hidli hayvonni ko'rib qoldi. Damini chiqarmay, birdan hayvonga chang solib, tumshug'iga urdi. Hayvon boshini yerga egib, dumini yuqoriga silkidi, shunda silovsinlar onasining badaniga mayda-mayda nayzalar sanchilib, yarador qildi. Silovsin nayzalarini tishlari bilan sug'urib tashladi, u bu hayvonni yaxshi bilar, bundan oldin ham undan ta'zirini yegan edi-yu, ammo nachora, ochlik, nochorlik uni yana hujum qilishga majbur etdi.

Silovsin shu kuni qurbaqadan bo'lak hech nima tutolmadi. Ertasi kuni qulog'iga qandaydir o'ziga chorlovchi ovoz chalindi, ovoz unga begona edi. U shamolga qarshi yurib, asta-asta ovozga yaqinlashdi, dimog'i yangi-yangi hidlarni tuydi, qulog'i notanish ovozdan ding bo'ldi. Silovsinlar onasi katta yalanglikka yetganida yana gumbur-gumbur ovoz keldi. Qarasa, yalanglik o'rtasida ikkita kattakon suvkalamushningmi yo suv



qunduziningmi ini qaqqayib turibdi. Silovsinlar onasi bunday inlarni birinchi marta ko'rish edi. Inlar xodalardan yasalgan bo'lib, hovuzga emas, qup-quruq yerda joylashgan.

Inlar tevaragida bir nechta kaklik, aniqrog'i, kaklikka o'xshash, lekin undan yirikroq qizil, sariq, oq tusli turli-tuman parrandalar aylanib yuribdi.

Silovsin hayajondan titrab ketdi. Qarang-a, qanchadan-qancha tayyor osh! Qari kushanda yerga qapihib yotib oldi. Ko'kragi bilan o't ustida sirpandi. Nihoyatda ustalik bilan sirpanib borib, tirsaklari bilan ko'tarildi. Nima qilib bo'lsa ham shu kakliklardan loaqal bittasini ushlab olishni mo'ljalladi. Bunday o'ljani qo'lga tushirishda jinday xatoga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi, bo'lmasa, bor harakati behuda ketadi. Mayli, vaqt ketsa ketsin, ammo parranda oldiga shunday biqinib borsinki, toki qush «pir-r» etib uchib ketmasin.

Aslida o'rmondan qunduzning inigacha bir-ikki hatlashda yetsa bo'ladi, ammo u bu oraliqni sirpanib bosib o'tish uchun roppa-rosa bir soat sarfladi. Silovsin butalar panasidan, g'o'lalar-u o'tlar uyumidan yerga yopishganча sirpanib o'tdi, kakliklar sezmay ham qoldi. Kakliklar odatdagiday don cho'qilashdi, eng ulkani har zamon-har zamonda qattiq-qattiq ka-kalab turdi, silovsin bunday ka-kalashni o'rmonda ham eshitib edi. Favqulodda kakliklar nimadandir xavfsirashayotganga o'xshab, birpas jim bo'lib qoldi, keyin yana o'zlariga keldi. Kakliklar endi qo'l uzatsa yetguday yaqin qoldi. Och-nahorlik, ov shavqidan silovsinning a'zoyi badani dag'-dag' qaltiradi. Nigohi oppoq parrandada to'xtadi, kaklik silovsindan olisroqda bo'lsa-da, ammo uning oppoq rangi silovsinni o'ziga jalb etdi.

Qunduzning ini yaydoqlikda edi. Indan ancha nariroqda shoxlari tarvaqaylab yotgan quyuq daraxtzor bor.



Oppoq parranda daraxtzor ichiga sho'ng'idi, qip-qizil tusli xushovzlisi qunduzning iniga chiqib olib, yana bor ovozi bilan sayradi. Silovsinlar onasi yerga yanada yopishib oldi. Qizil parrandaning hayqirig'i unga xavfdan ogohlantiruvchi signal bo'lib tuyuldi. Yo'q, unchalik emas, oq kaklik hamon shu yerda qanot qoqib yuribdi.

Silovsinga yanada keng yo'l ochildi. U xuddi qup-quruq teri kabi yerga qapishib, damini chiqarmay, bo'ynidan ham ingichka xodalar ostidan sirg'alib o'tdi. Endi anavi o't uyumiga yetib borsa bo'ldi, undan daraxtzorga sho'ng'ib kirib oladi, ana uyoqdan turib hamla qilsa bo'ladi. Dimog'iga parranda hidi – qudratli, iliq hayot hidi, qon va go'sht hidi keldi. Dimog'i shu hidni tuyib, badani tarang bo'ldi, ko'zlari yaltiradi.

Kakliklar hamon tuproq titib, don cho'qidi. Birovi qanot qoqib, tom tepasiga uchib chiqdi, oppog'i joyidan jilmadi. Silovsin nafas chiqarmay yana besh qadamcha o'rmalab sirpanib, daraxtzorga kirib oldi. Daraxtlar orasidan oppoq qanotlar tovlanib ko'rinib turdi. U oradagi masofani chamaladi, oyog'i ostidagi yerni bosib ko'rdi, xalaqit berayotgan dumini orqa oyoqlari bilan surib qo'yib, hamla qildi. Voqea shunday tez yuz berdiki, oppoq parranda qanday qilib ajal domiga tushganini bilmay qoldi. Kulrang soya bamisoli uchib keldi, ajalning o'tkir tirnoqlari oq parranda badaniga botdi, boshqa parrandalar xavfni sezmay, qocholmay qoldi, silovsin jon talvasasida tipirchilayotgan kaklikni changallab ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Silovsin ochlik xurujidan, shodlikdan quvonchi ichiga sig'may, o'rmonga uchib kirib, keyin iniga qarab o'qday uchdi. Changanalidagi o'lja bir tipirchilab, jon berdi. Silovsin og'ir-og'ir qadam tovushlarini eshitib, o'zini g'o'la parasiga oldi. O'ljasining qanotlari ko'zlarini o'ynatdi,




parrandani panjalari bilan mahkam g'ijimlab ko'kragiga qo'yib oldi. Qadam tovushlari yaqinlashib, butalar silkindi-da, bir bola ko'rindi. Qari silovsin odamlarni bilar, ularni yomon ko'rardi. U kechalari odamlarni kuzatib, ta'qib qilgan, ular quvganda qochgan, odamlar bir marta uni yarador ham qilgan edi.

Silovsin bilan bolakay bir daqiqa yuzma-yuz bo'ldi. Silovsin o'zini himoya qilgan bo'lib, irilladi, so'ng changalidagi parranda bilan bir irg'ib, butalar panasiga bekindi. Makonigacha hali ikki milcha yo'l bor edi, ammo u ulkan tol daraxti uzalib yotgan oftobli yalanglikka yetib kelmagunicha biror marta ham to'xtamadi. Silovsin bolalari «Pr-r-ir-r-ir-r» degan ohista ovozni eshitib, kovaklaridan birin-ketin chiqib keldi, quyuq ziyofat boshlandi.

III. SILOVSINLAR MAKONI

Tor shaharda katta bo'lgan emasmi, avval-avval Korning boltasi ovozi eshitilmaydigan yerlarga borishga hayiqdi. Keyin-keyin o'rmon ichkarirog'iga bermalol kirib boradigan bo'ldi. Endi daraxtlar tanasidagi aldamchi shoxlarga qarab emas, balki quyosh va kompasga qarab yo'l oladigan bo'ldi. U endi hayvonlarga o'q otmay qo'ydi, ularni o'rganmoqchi bo'ldi, shunday bo'lsa-da, miltig'ini yelkasidan qo'ymadi.

Ularning yakka-yu yagona qo'shnisi sug'ur. U ham bo'lsa, kulbalaridan yuz qadamcha narida, to'nkalar ostida yashaydi. Sug'ur ertalablari to'nkaga chiqib olib, o'zini oftobga toblab o'tirishni yaxshi ko'radi. Ammo o'rmonda yashovchi har bir jonivor o'ta ehtiyotkor bo'lmasa bo'lmaydi. Sug'ur ham qochishga doim shay bo'lib yurdi. Tor uni otaman, hech bo'lmaganda ushlab olaman, deya bekordan-bekorga ovora bo'ldi.



– Bilasanmi, nima, – dedi bir kun ertalab Korn, – endi yangi go'sht topmasak bo'lmaydi.

Korn shunday deya ichkaridan uchi ingichka qadimgi miltig'ini olib chiqdi, uni merganlarcha puxta o'qlab, kulba eshigini ochdi, keyin, tashqariga qaratib o'q uzdi. Sug'ur o'zini orqaga tashlab, joyida qimir etmay qoldi. Tor sug'ur tomon yugurdi, o'ljani olib qaytayotib, haya-jondan qichqirdi:

– Rosa bir yuz yigirma qadamdan qoq miyasiga tegibdi-ya!

Korn quvonchini yashirishga urindi, ammo lablari cheti iljayib, ko'zlari yanada porladi. U sug'urni atayin yo'q qilish uchun otmadi, yo'q, sug'ur daladagi bor ekinni yeb bitirdi, ana shuning uchun otdi. Sug'ur go'shti ikki marotaba mazali tushlik bo'ldi, shuningdek, Korn Torga sug'urning terisini qanday oshlashni ham o'rgatdi. U avval terini bir kun kul orasiga tashladi, shunda terining junlari to'kilib tushdi, so'ng kuldan olib mag'zavaga soldi, teri mag'zavada uch kun ividi, keyin qo'lga olib, chayir, oppoq bo'lgunicha rosa ezg'ilab quritdi.

Tor o'rmonda sanqib yurib, ba'zan olis-olislarga ketib qolardi. U sarguzasht izlar, ammo bari ishlari chappasiga ketardi. Ko'p kunlari bir xil, tussiz kechib, ba'zida biron-bir tasodifiy sarguzashtga duch kelib qolardi, axir ovning gashti ham shunda-da.

Tor bir kuni adir oshib, to'satdan ulkan tol uzala yotgan yalanglikdan chiqib qoldi. Tolning ulkanligidan hayratlandi. U ko'l tomonga yurib, qarag'ay ustida, yerdan o'ttiz futcha tepada o'tirgan bir qora jonivorga ko'zi tushib, eti uvishib ketdi. Ayiq! Ana, yoz bo'yi kutgan vaziyat – kuch, mardlikni sinovdan o'tkazadigan vaziyat keldi. Keyingi yillarda mabodo ayiqqa duch kelguday bo'lsa, nima qilishini, o'zini qanday tutishni



ozmuncha o'yladimi! Tor turgan joyida qotib qoldi. O'ng qo'lini beixtiyor kissasiga tiqdi. Kissadan yirik-yirik sochma o'q olib, miltig'idagi mayda o'q ustiga to'kdi, tag'in sochilib ketmasin deya stvol og'zidagi lat-tani mahkamroq tiqib qo'ydi.

Ayiq joyidan qimir etmadi. Bola ayiqning boshini ko'rmayotgan bo'lsa-da, baribir uni diqqat bilan kuzata boshladi. Ayiq unchalik katta emasdi... Uni hatto mitti ayiqcha desa ham bo'laverardi. Demak, shu atrofda onasi ham yuribdi. Tor allaqanday qo'rquv aralash tevaragiga alanglab, ayiq onasining sharpasini sezmadi, so'ng, nishonga olib, tepkini bosdi.

Hayvon o'q uzilishi bilanoq yerga ag'nab tushib, jon berdi. Bola hayron bo'ldi. U ayiq emas, kattakon bir jayra ekan. Bola nima qilishini bilmay, unga achinib qaradi, u beziyon jayrani o'ldirmoqchi emasdi. Tor jayraning yuzida ikkita-uchta chandiqni ko'rib, undan oldin ham jayrani kimlardir otganini angladi. Ketiga qaytayotib, ko'zi ishtonidagi qon iziga tushdi, shundagina jayraning nishlari qo'lini tilib yuborganini sezdi.

Lu Torning jayrani tashlab kelganini eshitib, uni rosa koyidi. Chin-da, jayrani olib kelganida Lu uning terisini shilib olib, qishga g'amlab qo'ygan bo'lardi, unga mo'yna juda kerak edi!

Tor bu safar o'rmonga miltiqsiz yo'l oldi, biror noyob o'simlik topamanmi degan umidda bir yalanglikka keldi, yerda ag'nab yotgan tolni ko'rib, qayerga kelib qolganini angladi. Daf'atan bir ajabtovur tovushni eshitdi, daraxt ichida nimadir qimirlayotganga o'xshadi. U daraxt butoqlarini surib qarab, ulkan silovsinning boshi bilan dumini ko'rdi. Silovsin ham uni ko'rib, ko'zlari yonib unga irilladi. Silovsinning panjalari orasida oppoq parranda yotibdi, Tor parrandaga sinchiklab razm solib, o'zlarining zotdor toyug'ini tanidi. Silovsin



Torning ko'ziga judayam yirtqich, yovuz ko'rinib ketdi! Bola silovsinni ich-ichidan yomon ko'rib qoldi. Qo'lida miltig'i yo'qligi alam qilib, tishlarini g'ijirlatdi, shunday o'ljani boy berib qo'yayotganidan kuydi. Dag'-dag' qaltirab, nima qilishini bilmay, serrayib turaverdi. Silovsin yanada qattiq irilladi. Qahr bilan dumini likillatib, o'ljasiini changallaganicha daraxt kovagidan chiqib, o'zini butazorga urdi.

Yoz seryomg'ir keldi, yosh ovchi nam yerda havo quruq kunlari ko'rmagan izlarni uchratdi. Bir kuni o'rmonda to'ng'iz panjasini eslatuvchi izlarga duch keldi. Aftidan, to'ng'iz yaqindagina o'tgan bo'lsa kerak, izlari aniq-taniq bilinib turibdi, boshqa izlarni esa tonggi yomg'ir yuvib ketibdi. Tor to'ng'iz izlarini olib bordi. Yarim milcha yo'l yurib, narigi betida oq dog'lar oqarib ko'rinayotgan jarlikka duch keldi. Uning o'tkir ko'zlari bug'u qorasi hamda unga ajablanib qarab turgan bug'u bolasini ilg'ab oldi. Bola hayron bo'lib, ularga og'zini ochganicha angrayib qarab qoldi. Bug'ular onasi oppoq dumini likillatib, tashvishli signal bergan bo'ldi, so'ng bolasini ergashtirib, bo'ronda sinib tushgan shox-shabbalar ustidan osonlik bilan sapchib o'tdi, pastakkina sershox butalar ostidan mushukday sirg'alib o'tdi.

Tor bug'ular iziga yana duch keldi, ammo ularni otish imkoniyati bo'lmadi. Ona-bola bug'uni boshqa uchratmadi. Bir marta bug'u onasining yakka o'ziga duch keldi. Bug'u onasi nimadir izlayotganday yerni hidladi, avzoyi tashvishli, ezgin ko'rindi. Shunda Torning xayoliga Korniy o'rgatgan hiyla keldi. U asta egilib, yerdan shapaloqdek bir o'tni yulib oldi-da, barmoqlari orasiga qo'ydi, so'ng, lablariga bosib, hushtak qilib chaldi. Hushtak bug'u bolasining onasini yo'qlab chaqirgan yolvoruvchi ovozigano'xshab ketdi. Bug'u ovozni



eshitib, bola tarafga sapchib-sapchib chopib qo'yaverdi. Tor bug'uni otmoqchi bo'lib miltig'ini o'nglab edi hamki, bug'u bolani payqab qolib, joyida taqqa to'xtadi. Bo'ynidagi yollari titradi. Pishqirib, bolaga savol nazari bilan tikildi. Munis, olma ko'zlari bolaning ko'nglini eritib yubordi. Bug'u ohista-ohista yaqinlashib, chuqur nafas oldi, shunda qarshisida bolasi emas, ajal turgani-ni sezib, daraxtlar panasiga o'zini urib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bola shundagina o'ziga keldi.

«Bechora! – o'yladi u, – bolasini yo'qotib qo'ygan shekilli».

Bola o'rmonda silovsinni tag'in ko'rdi. U bug'ular onasini uchratib, yarim soatlardan keyin kulbalaridan bir necha mil olisda cho'zilib yotgan qoyalardan oshib o'tdi. Tol ag'nab yotgan yalanglikka yetay deganda, birdan qarshisidan cho'ltoq dumli ulkan mushuk chiqib qoldi. Mushuk Torga tik boqdi. Boshini bir yonga qiyshaytirib, xotirjam qarab turaverdi. Shu payt yana bir mushuk paydo bo'lib, hamrohining dumidan tortib o'ynadi, hamrohini o'yinga chorladi.

Bola ularning o'yinlarini tomosha qilib qolib, miltig'i borligini ham unutdi. Ko'p o'tmay ko'nglidagi eski advati yana qo'zidi. Miltig'ini olishga chog'landi, shunda birdan qandaydir bir hayvon irillab qoldi, Tor cho'chib tushib, o'zidan o'n futlarcha narida turgan yo'lbarsday ulkan va abjir, qari silovsinni nishonga ola boshladi, ammo silovsin oyoqlari ostidagi nimanidir oldi-yu, jo'nab qoldi. Bola uning og'zidagi qora narsani, bug'u bolasining jonsiz tanasini elas-elas ko'rib qoldi. Silovsin bolalarini ergashtirib butalar orasida g'oyib bo'ldi. Shundan keyin Tor o'zining ham, silovsinning ham hayot-mamoti hal bo'ladigan kun kelgunicha silovsinni boshqa qaytib ko'rmadi.




IV. O'RMON BEZGAGI

Oradan bir yarim oy o'tdi. Kornu bir kun ertalab xo'mrayib o'tirib do'sti-yu singillarini xavotirga solib qo'ydi. Xushro'y chehrasi jiddiylashib, uydagi maydachuyda yumushlarni bajarib, oldingiday xirgoyi qilmadi. Tor bilan Kornu katta xona burchagidagi poxol to'shakda yotar, Tor kechalari o'rtog'ining ingrab, uyoqdan-buyoqqa ag'darilishidan uyg'onib ketardi.

Kornu har kungi odaticha ertalab turib, otlarga yem berib keldi, singillari nonushta tayyorlagunlaricha yana yotib oldi. Picha vaqtdan so'ng o'zini qo'lga olib, ishga otlandi, ammo ishdan oyoq-qo'llari titrab-qaqshab, vaqtlroq qaytib keldi. Saratonning jazirasiga qaramay, hech isiy olmadi. Bir necha soatdan so'ng isitmasi ko'tarilib, badani otash bo'lib yondi. Shundagina Kornuning o'rmon bezgagi bilan og'rib qolgani ayon bo'ldi. Marget isitmani tushiradigan o't terib kelib, qaynatib ichirdi, biroq qizning butun harakatlari zoye ketdi, Kornuning ahvoli borgan sayin og'irlashdi. O'n kun ichida ozib-to'zib, ishga yaramay qoldi. Nihoyat, biroz o'ziga kelib, singillariga shunday dedi:

- Singiljonlarim, qimirlashga holim qolmadi. Yaxshisi, uyga keta qolay. Bugun sal durustman, juda bo'lmasa otlarni yarim yo'lgacha bir amallab haydab ketarman. Mabodo ahvolim yomonlashsa, amal-taqal qilib aravaga tushib olaman, uyog'iga otlarning o'zi olib borib qo'yadi. Onam bir haftada oyoqqa turg'azib oladi. Bordi-yu, oziq-ovqatinglar tugab qolsa, qayiq bilan Ellertonning oldiga boringlar, o'sha beradi.

Qizlar otlarni egarlab, aravaga pichan to'shadi. Ranglari so'lg'in, bemador Kornu o'nqir-cho'nqir yo'llardan jo'nab ketdi. Kornu ketgach, qizlar o'zini kimsasiz sahroda yolg'iz qolganday sezdi.



Oradan ikki kun o'tar-o'tmas hammalari – Marget ham, Lu ham, Tor ham dahshatli isitmaga duchor bo'lib, madordan qoldi.

Korning oyoqqa turib, tuzuk bo'lib ketgan kunlari ham bo'lgan edi, uchulasi esa butunlay to'shakka mixlanib qoldi, kulbaga kulfat tushdi.

Yetti kun o'tdi hamki, Marget to'shakdan turolmadi, Lu xonadan-xonaga arang o'tadigan bo'ldi. Lu irodali, quvnoq qiz edi, shu sababliyam bemorlarning ruhini ko'tarishga o'zida kuch topa oldi. Biroq uyam borgan sayin so'lib, qoqsuyak bo'lib qoldi, hazillaridan vosvos hidi keldi. Tor ham garchand kasal, madorsiz bo'lsa-da, ammo qizlardan dadil edi, u qizlarga obi yovg'on qaynatib berdi. Qizlarning ishtahalari yo'qligi sababli kuniga atigi bir marta qozon qaynatdi. Qizlar shunisi gayam shukur qildi. Buyog'i oziq-ovqatning tagi ko'rinib qoldi, Korn esa bir haftalardan keyin keladi. Kulbada faqat Torgina o'rnidan turib o'tira oldi, xolos.

Tor bir kuni ertalab odatdagiday nonushtaga yog'dan bir bo'lak kesib olgani kelsa, shuncha ehtiyotkorlik bilan yashirilgan yog' joyida yo'q edi. Kulba orqasidagi pashshalardan pana joyga yashirib qo'yilgan yog'ni qandaydir bir jonivor ilib ketgan edi. Kulbada moy bilan undan bo'lak hech vaqo qolmadi. Torning ko'ngliga tashvish tushdi. Favqulodda otxonada yurgan tovuqqa ko'zi tushdi. Qo'lidan nimayam kelardi? U ojizlanib qoldi, endi u uchun tovuq tutish kiyik yoki qirg'iy ovlashday gap. Shunda birdan xayoliga miltig'i keldi... U xiyol o'tmay, semiz tovuq patini tozalab boshladi. Tor tovuqni qozonga butunicha solib qaynatdi, tovuq sho'rva to'yimli ham mazali bo'ldi.

Ular shu tovuqning kuchi bilan uch kunni o'tkazdi. Tovuuq go'shti sob bo'lgach, Tor yana miltig'ini qo'lga oldi, bu safar miltiq juda og'ir tuyuldi. Omborga arang



sudralib kirib, madorsizlikdan titrab-qaqshadi, tovuqni bir necha marta mo'ljalga olib, tegizolmadi. Yonida bor-yo'g'i uch donagina o'q qoldi. Tor omborda atigi to'rttagina tovuq yurganligini ko'rib hayron bo'ldi, aslida o'n ikkita tovuq bor edi. Tor uch kundan keyin atigi bittagina tovuqni ko'rdi, so'nggi o'qini shunga sarf qildi.

Torning ko'rgan kunlari ayanchli, vahimali kechdi. Ertalablari biroz o'ziga kelib, ham o'ziga, ham qizlarga picha-pichadan yegulik tayyorladi, kechasi bo'ladigan isitmaga hozirlik ko'rib, har bir qizning boshiga bir satildan suv tayyorlab qo'ydi. Tush vaqti-tush vaqti bezgak xuruj qildi. Bolaning boshidan-oyog'igacha qaltiroq turdi, tishlari takillab, sovuq vujud-vujudigacha nish sancha boshladi. Endi uni hech nima isita olmadi, chamasi, olov ham ojiz bo'lib qoldi. Badan-badanini iskanjaga olayotgan azobga toqat qilib yotishdan bo'lak chorasi qolmadi. Shu azobda olti soat o'tdi. Titrab-qaqshashning ustiga-ustak ko'ngil aynish azobi ham qo'shildi. Kech soat yetti-sakkizlarda birdan sovqotmay qoldi. Endi a'zoyi badanida qattiq isitma boshlandi. Bordi-yu, shu payt unga muz berganlarida, turgan gap, u muzni muz demas edi. Suv, suv, suv! U suvdan boshqa hech narsani xohlamadi. Tinmay suv ichdi. Tong vaqti-tong vaqti tinka-madori qurib, ko'zi ilindi.

«Bordi-yu, oziq-ovqatlaring qolmasa, qayiq bilan Ellertonning oldiga boringlar», degandi Kornijonayotib. Biroq kim qayiqqa o'tira oladi?

Ular bilan ajal o'rtasida bor-yo'g'i yarimta tovuq qoldi. Kornidan bo'lsa hamon darak yo'q.

Shunday qilib, azob-uqubat chekayotganlariga ham uch hafta bo'ldi. Ular tuzalish o'rniga kundan-kunga battalashdi. Kunlar shunday davom etaversa, yana bir necha kundan so'ng Tor ham to'shakdan turolmay qoladi. Uda hollari nima kechadi?



Ular qayg'uga toldi. Har biri qo'rquv bilan: «Korni qachon qaytarkin-a?» – deya o'yladi.

V. BOLAKAYNING UYIDA

Tovuqning qolgan-qutganini yemaslaridan bir kun oldin, Tor ertalab bor kuch-quvvatini yig'ib, uch satil suv olib keldi. Bezgak qaltirog'i odatdagidan ertaroq boshlandi, isitma ham har doimgidan qattiqroq bo'ldi.

Bola to'shagi boshida turgan suvdan uzluksiz ichdi. Kechqurun suvga to'ldirib qo'yilgan satil kechasi soat ikkilarga borib bo'shab qoldi. Isitma bolani tark etib, u uyquga ketdi.

G'ira-shira tongda g'alati ovoz – suvning shaloplashidan uyg'onib ketdi. U boshini ko'tarib, shundoq peshonasida bir juft yonib turgan ko'zni ko'rdi. Qandaydir bir kattakon jonivor uning boshida turgan suvdan shaloplatib ichayapti.

Tor jonivorga qo'rquv bilan qaradi, so'ng, asta ko'zlarini yumdi, o'zini uxlayotganga, tushida Hindistonni, boshginasiga kelib turgan yo'lbarsni ko'rayotganga soldi. Suvning shaloplashi hadeganda tinmadi. U boshini ko'tarib, jonivor haliyam shu yerdaligini ko'rdi. Bola qichqirmoqchi bo'ldi, ammo tomog'idan zaif hirqiroq chiqdi, xolos. Ulkan paxmoq kalla qimirladi, ko'zlari yaltirab, irilladi, so'ng yerga tushib, xona bo'ylab yurdi-da, stol tagiga kirib ketdi, Torning uyqusi o'chib ketdi. U zo'rg'a o'rnidan turib, tirsaklariga tayandi, «sh-sh-sh» deya nogiron ovoz berdi. Shunda stol tagidan bir juft ko'z yonib qaradi, keyin kulrang qora ko'rindi. Jonivor shoshilmay devor tomon bordi, kartoshka o'raga sirg'anib tushib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.



Bu nima bo'ldiykin? Xasta bolakay bu qandaydir bir yirtqich jonivor ekanligini g'ira-shira tasavvur etdi. Unda matonatdan asar ham qolmadi. Tor qo'lidan hech nima kelmasligiga aqli yetib, qo'rquvdan dag'-dag' titradi. Goh qo'rquv aralash ko'zlari ilindi, goh dahshatli ko'zlarni, g'oyib bo'lgan kulrang jonivorni alanglab qidirib, uyg'onib ketdi. Tun shu zaylda o'tdi, tongga yaqin uyg'onib, kechasi shunchaki alahlab chiqdim, deb o'yladi. Shunday bo'lsa-da, u tevarakka g'o'lalarni terib qo'yishga urindi.

Uchalovining ham ishtahasi yo'q edi, shunday bo'lsa-da, uchasiyam turishiga to'g'ri keldi, boisi, eng oxirgi yarimta tovuqdan bo'lak, boshqa hech vaqolari qolmagan edi. Kornidan bo'lsa hamon darak yo'q. Chamas, Kornu ular Ellertondan oziq-ovqat olib kelgan, deb o'ylagan bo'lsa kerak.

Ertasi kechasi isitmadan holdan toyib oxiri pinakka ketgan Torni suyak qisirlashini eslatuvchi ovozlari uyg'otib yubordi. Ko'zlarini ochib stol ustida o'tirgan ulkan jonivor qorasini g'ira-shira ko'rdi. Tor baqirib yubordi, unga etigini otmoqchi bo'ldi. Jonivor stoldan irg'ib tushib, yana kartoshka o'raga kirib ketdi.

Tor shundagina ko'rganlarining tush emasligiga aqli yetdi. Qizlar ham uning gaplariga ishondi, chunki ular nafaqat jonivorning ovozini eshitdi, shuningdek, oxirgi nasibalari bo'lmish yarimta tovuqlaridan ham ajralib qoldi.

Bechora Tor to'shakdan qimir etmadi. Ammo xasta qizlarning yalinib-yolvorishlarini eshitib, o'rnidan qo'zg'alishga majbur bo'ldi. Jilg'agacha arang borib, picha meva terib keldi. So'ng bezgak, tashnalikka qarshi odatdagi tayyorgarligini ko'rdi, bu safar yangi narsalar qo'shdi: to'shagi yoniga tarasha, bir nechta gugurt hamda yakka-yu yagona qaroli – ayrini qo'yib qo'ydi.



To'g'ri, miltig'i bor, ammo o'qsiz miltiq nimagayam yaraydi. U bildi, jonivor yana keladi, kelgandayam och-nahor keladi. Agar jonivor yegulik topolmasa, qarshi-sida holsiz yotgan tirik o'ljaga tashlanib qolmasmikin? Shunda Torning ko'z oldiga shafqatsiz jag' sindirgan bug'u bolasining oyoqchalari keldi.

Tor kuchi yetganicha yana g'o'lalarni qator qilib terib chiqdi, bu safargi tun osoyishta o'tdi, yovuz mehmon kelmadi. Ertasiga ular kisel qaynatib ichdi, kisel qaynatish uchun barrikadadagi g'o'lalarning bir qismini ishlatishga to'g'ri keldi. Lu, shunday yengil bo'lib qoldimki, uchib ketish ham qo'limdan keladi, deya hazillashdi, ammo o'rnidan turishga majoli yetmadi.

Tun qaytib, tong tug'ayotganda Tor suvning shapillashidan uyg'onib ketdi, o'girilib qarab, deraza yorug'ida yana o'sha yoniq ko'z, govkalla hamda kulrang soyani ko'rdi.

Tor jon-jahdi bilan baqirmoqchi bo'ldi, ammo ovozi chiyillab chiqdi. O'rnidan ohista qo'zg'alib, qizlarni chaqirdi:

– Lu, Marget! Qaranglar, silovsin, yana silovsin keldi!

– Bizga ishonma, – javob berdi qizlar.

– Sh-sh-sh! – Tor jonivorni tunov kundagiday qo'rqitmoqchi bo'ldi.

Silovsin derazadan stolga irg'ib o'tib olib, irilladi. Silovsin bir necha soniya derazaga o'girildi, Tor hozir u oynani sindirib, tashqariga otiladi, deb o'yladi. Ammo silovsin yana qayrilib, yonib turgan ko'zlarini Torga qadadi. Tor sekin o'rnidan turdi. U hozir yo o'lish, yo o'ldirish payti kelganligini angladi. Gugurtni chaqib, tarashani tutatdi. Chap qo'li bilan yonayotgan tarashani tutdi, o'ng qo'lga ayrini oldi, ammo o'zini shunday madorsiz sezdiki, ayriga hassaga suyanganday suyanishdan bo'lak iloji qolmadi. Ulkan yirtqich hamlaga



chog'lanib, stolga cho'nqaydi. Hayvonning ko'zlari tarasha alangasi yorug'ida qizil nur socha boshladi, to'mtoq dumi uyoqdan-buyoqqa borib keldi, irillagandan-irilladi. Torning oyoqlari mayishdi, ayrini qulochkashlab otmoqchi bo'ldi.

Silovsin shu zahoti bola o'ylaganiday unga emas, boshqa tomonga sapchidi. Olov, bolaning dadilligi silovsinni cho'chitib qo'ydi, u Torning boshi ustidan sapchib o'tib, karavot ostiga kirib ketdi.

Bir daqiqalik jimlik cho'kdi. Tor bundan foydalanib, yonayotgan tarashani mustahkamlab oldi, ayrini qo'shqo'llab ushladi. U hozir bo'ladigan jang hayotmamot jangi bo'lajagini his etdi. Qizlar qo'rqanlaridan qichqirib yubordi. Tor faqat karavot ostidagi yoniq ko'zlarni ko'rib, hayvonning tobora qattiq irillayotganini eshitib turdi. U bor kuchini yig'ib, jon-jahdi bilan ayrini yoniq ko'zlarga otdi.

Ayri qandaydir yumshoq narsaga borib tegdi, shunda xonani dahshatli faryod tutdi. Bola bor og'irligi bilan ayrini bosdi.

Silovsin bolaga tashlanmoqchi bo'ldi, bola uning tishlari g'ijirlashini eshitdi, ayri dastasiga tirnoqlarini botirganini ko'rdi, shuncha tarmashishiga qaramay, silovsin unga yaqinlashib kelayotganini sezdi. O'tkir tirnoqli panjalar bolaga tobora yaqin keldi. Bola hademay holdan toyishini bilib, butun kuch-quvvatini to'plab, yana og'irligini ayriga tashladi. Silovsin o'zini olg'a otdi, irillagan, tars-turs ovoz chiqdi. Ayrinting chirik dastasi uzilib tushdi, hayvon bola tomon bir sapchib, uning shundaygina yonidan o'tib ketdi, bolaga tegmadiyam, kartoshka o'raga o'zini urib, shu ketganicha butunlay g'oyib bo'ldi.

Tor karavotga o'zini tashlab, hushidan ketdi.

Shu tarzda qancha vaqt yotdi, bilmaydi, favqulodda bir jarangdor xushchaqchaq ovoz uni o'ziga keltirdi, ko'zlarini ochsa, kun chiqibdi.



– Hoy, kim bor? Nima, o'lib qoldilaringmi? Lu! Tor! Marget!

Torning javob qaytarishga holi yetmadi, u hovlidan otlarning do'pir-do'piri, gurs-gurs qadam tovushlarini eshitdi.

Eshikni baquvvat qo'llar ochib, ostonada xushro'y, sog'lom Korniy paydo bo'ldi.

– O'lib qoldilaringmi? – dedi Korniy vahima bilan. – Kim o'ldi? Qayerdasizlar? Tor! Kim o'ldi deyapman? Lu? Marget?

– Korniy, Korniy! – to'shakdan zaif bir ovoz eshitildi. – Ular kulbada yotibdi. Ahvollari juda yomon. Yeyishga hech nima qolmadi...

– Eh, kalla! – alam bilan qichqirdi Korniy. – Men sizlarni Ellertondan oziq-ovqat olib kelgansizlar deb o'ylabman!

– Ilojimiz bo'lmadi, Korniy! Sen ketishing bilan ham-mamiz baravariga yotib qoldik. Ustiga-ustak, silovsin bor-yo'g'imizni, tovuqlarimizni yeb ketdi.

– Undan o'chingni olgan bo'lsang kerak! – dedi Korniy burchakdagi tarashalar ostiga sizib ketgan qonga imo qilib.

...Ko'p o'tmay lazzatli taom, yaxshi parvarish, dori-darmonlar uchlovini ham oyoqqa turg'izdi.

Oradan ikki oylar o'tib, qizlarga yangi kadi kerak bo'lib qoldi. Tor ularga shunday dedi:

– Men ichi kovak yo'g'on tolning qayerdaligini yaxshi bilaman, yuringlar.

Qizlar bilan Korniy o'rmondagi bir sayhonlikka kelib, toldan bir kadilik yog'och qirqib oldi, shunda ular tol kovagining narigi boshida onasi yonida qotib yotgan ikkita silovsin bolasining murdasini ko'rib qoldi, silovsinlar onasining biqinidan eskirib qolgan ayri sinig'i chiqib turar edi.



SNAP

Bir kuchukning boshidan kechirganlari

I

Men uni ilk bor tong saharda ko'rdim.

Bir erta tongda maktabdosh oshnam Jekdan telegramma oldim:

«Senga bir ajoyib kuchuk jo'natyapman. Unga yaxshi muomala qil. Qo'pollarni iqi suymaydi».

Jekning g'alati fe'li bor, u, masalan, kuchuk yuboraman deb, o'rniga allaqanday mashina yo bo'lmasa sassiqko'zan jo'natishiyam mumkin. Shu sababliyam sovg'ani qiziqish bilan kutdim. Nihoyat, sovg'a keldi, qarasam, quti ustiga: «Xavfli!» deb yozib qo'yilibdi. Quti ichidan irillagan, g'ingshigan ovoz eshitildi. Qutining panjarali darchasidan qarab, sher bolasini emas, kichkinagina oq bulteryer'ni ko'rdim. U mendan qochmoqchi bo'lib, tinmay irilladi. Uning irillashi qulog'imga xunuk eshitildi, odatda itlar ikki xil ohangda irillaydi. Bir turi past, ko'krak qafasidan chiqqan tovush bo'lib, bu uning izzat qilgani yoki yaxshilik qiluvchiga tashakkuri bo'ladi, ikkinchisi, ovozini qo'yib vovullaydi, bu hujum oldidan so'nggi so'zini aytgani bo'ladi. Hamma it boquvchi odamlar kabi men ham itni har qanday ko'yga sola olaman, gapimga ko'ndira olaman, deb yuraman. Shu boisdan ham sovg'ani olib kelgan kishiga javob berib yuborib, asbob-uskunalar solingan qutichadan qalamtaroosh, bolg'acha, boltacha hamda kosovni olib, qafasni ochdim. Bolg'acha har to'qillaganda kuchuk bor ovozi bilan vovulladi. Qutini yonlamasi bilan to'ntarganimni bilaman, kuchuk tikka bo'lib oyoqlarimga sapchidi. Agar panjalari to'r simlariga o'ralib qolmaganida, bilma-




Bulteryer - it turi.



dim, holim ne kechardi. Men uning bo'yi yetmaydigan stol ustiga irg'ib chiqib olib, uni tinchlantirishga harakat qildim. Men hamisha hayvonlar bilan suhbatlashish tarafdori bo'lib kelganman. Ishonchim komilki, hayvonlar gaplarimizni so'zma-so'z tushunib yetmasa-da, ammo ma'nosini ilg'ab oladi. Biroq bu kuchukvachcha, aftidan, meni tilyog'lamalik qilyapti, deb o'yladi chog'i, xushomadlarimdan jirkandi. U tevarak-atrofga bir qarab olib, stol ostiga kirib yotib oldi, meni yerga tusharmikan, deb kutdi. Men uning ko'zlariga tikilib, kelishib ketamiz, deb o'yladim, ammo ko'zim ko'ziga sira duch kelmadi, shu sababli ham stol ustidan qimirlamadim. Men o'zi sovuqqon odamman. Axir, men temir-tersak bilan savdo qiluvchi firma vakiliman, bu firmada xizmat qiladiganlar o'ta vazminliklari bilan nom chiqargan, ular bu borada faqatgina tayyor kiyim-kechaklar bilan savdo qiluvchi hamkasabalariga yon beradi, xolos.

Shunday qilib, stolda musulmonchasiga chordana qurib o'tirib oldim, qo'ynimdan sigara olib tutatdim, kichkinagina zolim hayvon esa pastda, oyoqlarim ostida poylab o'tirdi.

Cho'ntagimdan o'rtog'imning telegrammasini olib, yana o'qidim: «Ajoyib kuchuk. Unga yaxshi muomala qil. Qo'pollarni iqi suymaydi». O'zimni xotirjam tutganim yaxshi samara berdi, oradan yarim soat o'tar-o'tmas kuchukning irillashi tindi. Bir soatlar chamasi o'tgach, tinchlandimi-yo'qmi, deb pastga astagina gazeta tashladim, u gazetaga o'zini otmadi. Ehtimol, qafasdagi asabiyliги tarqalgandir. Men uchinchi sigarani tutatdim, shunda u bitta-bitta qadam bosib kamin oldiga bordida, uzala tushib yotib oldi, ammo meni unutib qo'ygani yo'q, mendan bir ko'zini uzmadi. Men uning kaltagina dumidan ko'zimni olmadim. Bordi-yu, dumi loaqal bir martagina qimirlaganda o'zimni g'olib deb hisoblagan




bo'lardim. Biroq dumi qimirlamadi. Men qo'linga kitob olib, to oyoqlarim uvushguncha, kamindagi olov o'chguncha o'qib o'tirdim. Soat o'nlarga borib, xona sovidi, o'n yarimlarda esa olov butunlay o'chdi. Do'stim qilgan tuhfa o'rnidan turdi, kerishib esnab karavot ostidagi jun gilamga keldi. Men stoldan javonga, javondan kaminga hatladim, bir amallab to'shagimga borib, tovush chiqarmay yechinib yotib oldim. Hali ko'zimga uyqu inmasdan nimaningdir sharpasini sezdim, bir nima karavotdan, so'ng oyoqlarim ustidan yurdi. Aftidan, Snap¹ karavot tagi sovuqlik qilib qolgani uchun o'ziga biron-bir qulayroq joy qidirayotganga o'xshaydi.

Kuchuk oyoqlarim ostiga g'ujanak bo'lib yotib oldi. Men noqulay ahvolda qolib, yaxshiroq o'ranib yotolmadim, sal oyoq cho'zganimni bilaman, kuchuk g'azab bilan oyog'imga yopishdi, faqat qalin ko'rpagina meni og'ir jarohatdan asrab qoldi.

Oradan bir soat o'tdi, bu vaqt ichida men oyoqlarimni sal-sal qo'zg'atib-qo'zg'atib, sekin uzatib olishga muvaffaq bo'ldim, shundan keyingina uxlashga imkon tug'ildi. Tunda bir necha marotaba kuchuk darg'azab irillab, meni uyg'otib yubordi, balki uning ruxsatisiz oyoq uzatishga jur'at etganim, yana ustiga-ustak o'qtin-o'qtin xurрак otganim malol kelgandir.

Ertalab Snapdan vaqtliroq turmoqchi bo'ldim. Eshit-yapsizmi, men uni Snap deb atayapman... Uning nomini to'liq aytganda, Jinjersnap² bo'lardi. Ba'zi itlarga laqab topish mushkul, ba'zilariga laqab qo'yishni o'ylab o'tirmasayam bo'ladi, laqabi o'z-o'zidan topiladi-qoladi.

Shunday qilib, soat yettida o'rnimdan turmoqchi bo'ldim. Snap soat sakkizlargacha yotishni ma'qul ko'rdi, shuning uchun ham sakkizda o'rnimizdan tur-



¹ Snap – olg'ir.

² Jinjersnap – Zanjabi solirgan qatlama kulcha.



dik. U meni kaminni yoqishimga va kiyinib olishimga qo'yib berdi, biron marta ham stol ustiga haydab solmadi. Nonushta tayyorlash uchun xonadan chiqayotib, unga shunday dedim:

– Snap do'stim, mendan boshqa odam bo'lganda seni kaltaklab tarbiya qilardi. Lekin men seni o'zimcha tarbiya qilmoqchiman. Hozirgi doktorlar «ertalabki nonushtani bermaslik» tadbirini o'ylab topganlar. Men shu tadbirni senga qo'llab ko'rmoqchiman.

Albatta, uni kun bo'yi och qo'yish berahmlik bo'ladi, lekin men o'z so'zimdagi turdim. U eshikni tirnab, rasvo qilib tashladi, uni keyinchalik bo'yashga to'g'ri keldi. Kechqurun pichagina ovqat berib edim, bajonidil oldi.

Biz bir hafta deganda do'st bo'lib qoldik. U endi mening karavotimda yotadigan bo'ldi, qimirlasam ham meni qopishga urinmadi. «Ertalabki nonushtani bermaslik» tadbiri juda ajoyib samara berdi, biz u bilan uch oy deganda oramizdan qil o'tmaydigan darajada inoqlashib ketdik.

Nazarimda, u hali qo'rquv nimaligini bilmaydi. Bordi-yu, o'zidan ham mayda kuchukni ko'rib qolsa, unga ahamiyat ham bermaydi, bordi-yu, o'zidan katta itni ko'rib qolsa, uning cho'ltoq dumi tarang bo'ladi, begona itni aylanib, orqa oyoqlarini yerga tap-tap uradi, dam ko'kka, dam yerga, olis-olislarga qarab hurib, begona it paydo bo'lganidan darak berib, zir aylanib yuguradi. Begona it ketsa ketdi, ketmasa janjal chiqaradi. Shundan keyingina begona it juftakni rostlab qoladi. Snap janjal qilaverib juda ko'p ta'zirini yedi, ammo bulardan kerakli xulosa chiqarib olmadi.

Bir kuni itlar ko'rgazmasi paytida izvosh karetda ketayotib, sayr qilib yurgan filmsimon senbernarni ko'rib qoldi. Senbernarning ko'rinishi kuchukni hayratda



qoldirdi va u lip etib o'zini kareta darchasiga urib, oyog'ini sindirib oldi.

U hamon qo'rquv nimaligini bilmadi. U men bilgan itlarning birontasiga o'xshamadi. Masalan, agarda biron-bir bolakay unga tosh otguday bo'lsa, u boladan qochmadi, aksincha, bolaga qarab yugurdi. Mabodo bolakay yana tosh otaversa, u shu zahoti bola bilan orani ochdi qildi, shuning uchun ham hammaning e'tiborini qozondi. Faqat men bilan idoramiz dastyori uning fazilatlarini ko'ra oldik. U ham faqat ikkovimiznigina do'st bo'lishga munosib deb bilib, biz bilan do'stlashdi. Yozning o'rtalarida Karnegi, Vanderbildt va Astor¹ uchovlari bir bo'lib pul yiqqan taqdirlarida ham mendan jajjigina Snapni sotib olishga qurlari yetmagan bo'lardi.

II

Garchand men gumashta bo'lmasam ham xizmat qilayotgan firmam meni kuzda sayohatga jo'natdi, shu tufayli Snap uy bekasi bilan qoldi. Ularning fe'l-atvorlari bir-birovinikiga to'g'ri kelmadi. Kuchuk bekadan jirkannar, beka esa undan qo'rqardi, xullasi kalom, ikkovlari bir-birini yomon ko'rib qoldi.

Men esa Shimoliy shtatlarda tikanli sim o'tkazish ishlari bilan band bo'ldim. Haftada bir marta uydan xat olaman. Uy bekasi Snapdan dod deb yozadi.

Men Shimoliy Dakotadagi Mendozaga kelib, sim o'tkazishning yaxshi yo'lini topib oldim. Turgan gap, avvalo yirik savdogarlar bilan shartnoma tuzdim, so'ng ehtiyojini bilish maqsadida fermerlar bilan duxob keldim, shu tariqa aka-uka Penruflar fermasi bilan ham tanishib qoldim.



Amerikalik uch milliarder



Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi joylarda bo'lmay, u yerlarda olg'ir, qonxo'r bo'rilar keltirgan qironlar haqida bilib bo'lmaydi. Bo'rilarni zaharlab qo'lga tushirish davrlari o'tib ketdi. Aksariyat podachilar singari aka-uka Penruflar ham zahar-og'u va qopqon ishlatishdan voz kechib, bo'ri ovida turli itlarni sinab ko'rdi, bu bilan nafaqat tevarak-atrofnı bo'rılardan tozaladi, shu bilan birga, ovdan zavq ham oldi.

Tezoyoq itlar hal qiluvchi olishuvlarda yaramay qolishi, Daniya doglari judayam daqqi ekani, tozi itlar esa g'animini ko'rmagunicha chopmasligi ayon bo'ldi. Har bir jonivorda qandaydir bir mash'um kamchilik bo'ldi. Podachilar endi bir gala turli xil itlarni aralashtirib, ovga qo'ydi, meni bu ovga taklif etishganida u yerdagi itlarning turli-tumanligini ko'rib zavqim keldi. Ovda qanchadan-qancha mayda, beo'xshov itlar qatnashdi, ammo ular orasida zotdorlari ham, masalan, narxi bir dunyo pul bo'ladigan bir nechta rus bo'ribosarlari ham bor edi.

Mahalliy ovchilar «boshlig'i» bo'lmish Gilton Penruf bu itlar bilan faxrlanib, ulardan misli ko'rilmagan jaso-ratlar kutdi.

– Tozi itlar bo'ri oviga noziklik qilishyapti, doglar bo'lsa yaxshi yugurolmaydi, endi bo'ribosarlarni ishga solamiz, ular bo'rılarni burda-burda qilib tashlaydi.

Shunday qilib, tozi itlar quvish uchun, doglar har ehtimolga qarshi, bo'ribosarlar esa eng asosiy olishuv uchun mo'ljallab qo'yildi. Bundan tashqari, ikkita-uchta dimog'i sezgir it mabodo bo'ri ko'zdan g'oyib bo'lib qol-sa topib berish uchun ajratib qo'yildi.

Havo ochiq oktabr kunlaridan birida adirlar oralab yo'lga tushishimiz ajoyib manzara kashf etdi! Garchand yilning so'nggi fasllaridan biri bo'lsa-da, havo beg'ubor va top-toza, na qor bor, na sovuq. Ovchilar oti asta-sekin



qizidi, shunda u menga ikki marta qanday qilib egasini ustidan tushirib tashlashini ko'rsatmoqchi bo'ldi.

Yalanglikda ikkita-uchta kulrang sharpaga ko'zimiz tushdi, Gilton ularni yo bo'ri, yo chiyabo'ri, dedi. Itlar galasi jon-jahdi bilan hurib chopib ketdi. Ular qora shom-gacha yelib-yugurib, hech nima tutolmadi. Faqat tozi itlardan bittasi bo'rini quvib yetibdi, uyam yelkasidan yarador bo'lib, yo'lda qolib ketibdi.

– Gilt, nazarimda, sening bo'ribosarlaringdan naf chiqmaydiganga o'xshaydi, – dedi Penruflarning kichkinasi bo'lmish Garvin. – Menga qolsa, jaydari it bo'lsa ham hammasi kichkina qora dog oldidan o'taversin.

– Hech narsaga aqlim yetmay qoldi! – to'ng'illadi Gilton. – Bo'ri uyoqda tursin, hattoki chiyabo'rilar ham bu tozi itlardan hech qayoqqa qochib qutulmasdi. Ov itlari ham zo'r, uch kungi izni desang ham topib beradi. Doglar-chi, ayiqqa ham bas kelardi!

– Qo'y, tortishib o'tirmaylik, – dedi otalari, – itlaring quvishni, iskabtoparlikni eplasa-eplar, ayiqqa bas kelsa-kelar, biroq ular bo'ri bilan to'qnash kelishni istamayapti. La'nati itlar, bari qo'rqib o'tiribdi-ya. Shularga ketgan pulimni qaytib olish uchun ko'p narsalarimdan kechgan bo'lardim.

Ular shu tariqa tortishib qoldi. Men ular bilan xayrlashib, yo'limga ravona bo'ldim.

Tozi itlar kuchli va ildam bo'lsa-da, aftidan, bo'rining vajohati ularni qo'rqitib yuborganga o'xshaydi. Ular-da bo'rilar bilan o'z kuchlarini sinab ko'rish uchun yurak yetmagan. Shunda beixtiyor ko'z o'ngimda to'shagimning bir burchagini egallab olgan o'sha botir kuchuk gavdalandi. Uning hozir bo'lishini shunday istadim! Shunda mana bu beo'xshov to'nkalar jasur yo'lboshchiga ega bo'lgan bo'lardi.



Barokada to'xtab, pochtdan uy bekasining ikkita nomasini oldim. Birinchisida «bu yaramas itning xonada qilayotgan tentakliklari» haqida yozibdi, ikkinchisida esa bundan ham darg'azab bo'lib, Snapni tezda yo'qotish zarurligi xususida talabnoma bitibdi.

«Nima uchun uni Mendozaga olib kelmasligim kerak ekan? – o'yladim men, – Bor-yo'g'i yigirma soatlik yo'l bo'lsa. Buyog'i Penruflar Snapni ko'rib xursand bo'ladi».

III

Jinnersnap bilan bu safargi uchrashuvimiz ham oldingisidan sira farq qilmadi. Kuchuk menga tashlandi, o'zini meni qopmoqchi qilib ko'rsatdi, tinmay akiladi. Ovozi ko'ksidan chiqib, dumi tinmay likilladi. Penruflarnikiga kelganimdan buyon ular yana bir necha marotaba bo'ri oviga chiqdi, har safar ovlari baroridan kelmay, jig'ibiyron bo'lib qaytdi. Itlar deyarli har gal bo'rini quvib yetardi, ammo ularga teginolmasdi, ovchilar nega itlarning qo'rqayotganiga aqlari yetmay, bir necha marta ularga yaqinroqdan borib qaradi.

Oxiri qariya Penruf: «Bu qalang'i-qasang'i itlar botirlikda quyondan ham xarob ekan», degan xulosaga keldi.

Ertasi kuni tong saharlab yo'lga tushdik. Yana o'sha uchqur otlar, yana o'sha ajoyib chavandozlar hamda ko'k, sariq, ola-bula itlar bizga hamroh bo'ldi. Bundan tashqari, safimizda pinjimga tiqilib olib, nafaqat itlarga, shuningdek, menga yaqinlashmoqchi bo'lgan otlarga ham tishlarini irjaytirib kelayotgan kichkinagina, oppoqqina Snap ham bor edi. Snap yaqinidagi har bir odam, har bir it, ot bilan urishib chiqdi.

Biz ulkan adir yonbag'riga kelib to'xtadik. Gilton durbin bilan tevarak-atrofga qarab, baqirib yubordi.



– Ana u! Ana, jilg'a tomon kelyapti, Skell. Bu chiyabo'ri bo'lsa kerak.

Endi tozi itlarga o'ljani ko'rsatish kerak. Bu oson ish emas, chunki ular durbindan ko'ra olmaydi, yalanglik esa it bo'yidan balandroq butalar bilan qoplangan.

Shunda Gilton: «Dander, buyoqqa kel!» – deb itni chaqirib olib, oyog'ini oldinga qo'ydi. Dander epchillik bilan bir sakrab egarga uchib chiqib, joylashib o'tirib oldi. Gilton unga o'ljani ko'rsatib dedi:

– Ana u, Dander, ana! Bor, qop, bor, g'us, g'us!

Dander egasi ko'rsatgan tomonga sinchkovlik bilan tikildi, bir nimani ko'rdi shekilli, astagina hurdi, yerga sapchib tushib, yugurib ketdi. Boshqa itlar uning izidan ergashdi. Biz ham ularning ketidan oshiqdik, ammo xiyla orqada qolib ketdik, chunki yo'limizda o'rlar, bo'rsiqlar ini, katta-katta toshlar, uzun-uzun butalar ko'p ekan. Bunday yo'lda tez yugurishning oqibati cha-toq bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, biz orqada qolib ketdik, egarga o'rganmaganligim uchun men hammadan orqada qolib ketdim. Itlar tezroq narigi betga o'tib olish uchun yalanglik bo'ylab chopdi, o'r-chuqurlar oralab chopdi. To'daga Dander tozi yo'lboshchilik qildi. Biz navbatdagi o'rkachga chiqib, ovning bor manzarasini ko'rdik: chiyabo'ri yelday uchib borayapti, ulardan chorak milcha keyinroqda itlar quvib borayapti... chiyabo'riga yetib oldi shekilli, itlar ko'rinmay qoldi. Yana bir qaranganimizda yerda sulayib yotgan chiyabo'ri bilan uni o'rab olgan itlarni ko'rdik. Nimagadir ikkita ov iti bilan bizning Jinjersnap ko'rinmadi.

– Olishuvga kech qolishibdi! – dedi Gilton orqada qolgan ov itlariga qarab. So'ng faxr bilan Danderni urib-surib qo'yib dedi: – Ko'rib turibsiz, har holda sizning kuchukvachchangizga zarurat qolmadi!



– Jasoratni qara-ya, o'nta so'loqmonday it maydagi-na bir chiyabo'riga yopishib o'tirsa! – piching qilib dedi otalari. – Biron-bir bo'riga duch kelib qolsin, ko'radi!

Ertasi kuni yana ovga otlandik.

Adirga o'rlayotib, g'imir-g'imir etayotgan kulrang nuqtalarga ko'zimiz tushdi. Qimirlayotgan narsa oq bo'lsa, unda u kiyik bo'ladi, qizili tulki, kulrangi yo bo'ri, yo chiyabo'ri bo'ladi. Uning bo'ri yo chiyabo'riligini dumidan bilsa bo'ladi. Masalan, dumi osilib turgan bo'lsa chiyabo'ri, tepaga ko'tarilib turgan bo'lsa, yirtqich bo'ri bo'ladi.

Xuddi kechagi singari bugun ham Danderga o'lja ko'rsatildi, u xuddi yana kechagiday turfa tozi itlar-u bo'ribosarlar, ov itlari-yu doglar, bulteryer va otliqlarni izidan ergashtirib olg'a bosdi. Ko'z ochib yumguncha quvdi-quvdi boshlandi. Itlardan oldinda uzun-uzun sakrab chopib borayotgan bo'ri ekanligiga shubha qolmadi. Negadir menga oldindagi itlar avvalgidek yaxshi chopolmayotganga o'xshab tuyuldi. Uyog'i nima bo'ldi, buni hech kim ko'rmadi. Itlar birin-ketin izlariga qaytdi, bo'ri esa ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Endi itlarga ta'na-yu pichinglar yog'ildi.

– Eh! Qo'rqdinglar, qo'rqib ketdinglar! – ijirg'anib dedi otalari. – Shundoq yetib turishgan edi-ya. Sal bularga o'girildimi, tamom, juftakni rostlab qolishdi, t-fu!

– Qani o'sha bebaho botir teryeringiz? – so'radi Gil-ton nafrat bilan.

– Qaydam, – dedim men. – Ehtimol, Snap bo'rini ko'rmagan ham bo'lsa kerak. Garov o'ynayman, agar ko'zi tushganida bormi, yo bo'rini o'ldirardi, yo o'zi o'lardi.

Shu kuni kechasi fermaga yaqin joydagi bir qancha sigirni bo'ri bo'g'izlab ketdi, biz yana ovga otlandik. Bu ov ham xuddi avvalgi kunlardagi singari boshlan-



di. Kun peshindan oqqanda yarim milcha keladigan yerda dumi yuqori ko'tarilib borayotgan kulrang hayvonni ko'rdik. Gilton Danderni egarga o'tqazib oldi. Men ham uni ko'rib Snapni chaqirdim. Kuchugimning oyoqlari shunday kalta ediki, u otning ustiga irg'ib chiqolmadi. Mening oyoqlarimga tirmasha-tirmasha tepaga chiqib oldi. Men unga bo'rini ko'rsatib, to hayvonni ilg'amagunicha, so'ng jon-jahdi bilan yugurib ketayotgan tozilarni quvib yetmagunicha: «Bor, qop, qop!» – deb turaverdim.

Bu galgi quvdi-quvdi changalzor oralab, daryo yoqalab ochiq yalanglikdan ketdi. Hammamiz bir bo'lib tog' yonbag'riga chiqdik, Dander bo'rini quvib yetib, uning orqa oyoqlaridan olmoqchi bo'layotganini ko'rib qoldik. Kulrang hayvon hamlaga shaylanib orqasiga o'girildi, shunda ko'z oldimizda g'aroyib manzara namoyon bo'ldi. Itlar to kichkina oq kuchuk yetib kelmaguniga qadar, ikki-uchtadan bo'lishib bo'rining tevaragini halqa kabi o'rab hurib turaverdi. Oq kuchuk vaqtini behudaga hurib sarf qilib o'tirmay, o'zini tikka bo'rining bo'g'ziga otdi, ammo mo'ljalni aniq ololmay, orqasiga qalqib ketdi, shunday bo'lsa-da, raqibining tumshug'ini tishlab olishga ulgurdi. Shundan keyingina o'ntacha keladigan barzangi it ham bo'riga tashlandi, oradan ikki daqiqacha o'tib, bo'ri jon taslim qildi. Biz garchand olisdan bo'lsa ham Snap mening ishonchimni oqlaganiga guvoh bo'ldik.

Endi maqtanish navbati menga keldi. Chunki Snap bo'rini qanday ovlash kerakligini ko'rsatib qo'ydi, nihoyat, Mendozaning itlariyam odamlarning yordamisiz bo'rini biryoqlik qiladigan bo'ldi.

Ammo muvaffaqiyatimiz tatimadi, ikkita voqea ko'nglimizni xufton qildi. Birinchisi, nobud bo'lgan bo'ri juda yosh, hatto norasida edi. U shuning uchun ham go'daklik qilib, yalanglik bo'ylab chopgan edi. Ik-



kinchisi, Snap yaralandi, bo'ri uning yelkasiga tirnoqlarini botirib oldi.

Biz g'urur bilan izimizga qaytayotib, kuchugimning oqsoqlanayotganini sezib qoldim.

– Buyoqqa ke! – deb qichqirdim. – Ke buyoqqa, Snap!

U ikki marta egarga irg'ib chiqmoqchi bo'ldi, eplay olmadi.

– Uni buyoqqa berib yuboring, Gilton, – deya iltimos qildim.

– Iltimos qilganingizdan xursandman. Shaqildoq iloningizni o'zingiz bilan bemalol olib ketishingiz mumkin, – dedi Gilton, endi Snap bilan o'ynashish xatarli ekanini bilib.

– Buyoqqa, Snap, ma, ol! – dedim unga qamchi uchini uzatib.

U uzalib, qamchini tishi bilan tishladi, men uni ko'tarib, egarga o'tqazib, uyga olib ketdim. Shundan keyin uni yosh bolani parvarish qilganday parvarishladim, chunki Snap podachilarga ularning itlarida aynan nima yetishmayotganligini isbot qilib berdi. Ov itlarining go'zal tumshuqlari, tozi itlarning tezkor oyoqlari-yu, bo'ribosarlar bilan doglarning kuch-qudrati bulteriyerning jasorati oldidan o'taversin. Shunday qilib, podachilar shu kuni bo'ri masalasiga barham berdi, Mendozaga yo'lingiz tushib qolsa, buni o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz, chunki endi bu yerdagi har bir itlar galasi orasida bulteryer paydo bo'lib qoldi, bulteryer bo'lganidayam asosan snapomendoz qonli bulteryerlar.

IV

Ertasi kuni Snapning menikiga kelganiga bir yil to'ldi. Shu kuni havo ochiq kelib, kun charaqlab ketdi. Yerga hali qor tushmadi. Podachilar yana bo'ri oviga



otlandi. Ammo hamon Snapning yarasi bitmay, hammaning ensasi qotdi. U, odatdagiday, mening oyoqlarim ostida uxladi, ko'rpada qon izlari qoldi. U hali bo'ri ovida qatnasholmaydi. Shu sababliyam uni tashlab ketmoqchi bo'ldik. Snapni aldab, omborga kirgizdik-da, ustidan qulflab qo'ydik. Keyin o'zimiz yo'lga tushdik. Ammo ko'nglim allaqanday ko'ngilsizlik bo'lishini his qildi. Men kuchugimsiz omadsizlikka yo'liqishimizni sezdim, ammo bu omadsizlik nechog'li ulkan bo'lishini xayolimga keltirolmadim. Biz uzoqlashib, adirlar oralab borayotib edik, birdan ketimizdan butalar oralab lip-lip etib, oq koptokday dumalab, Snap yetib kelib qoldi. Bir daqiqa o'tib, cho'ltoq dumini likillatib g'ingshib otimning oldida paydo bo'ldi. Uni iziga qaytarib yuborib bo'lmaydi, agar shunday qilmoqchi bo'lgan taqdirimda ham u baribir mening gapimga o'la qolsa kirmaydi. Buyog'i yarasi battar zo'riqib ketgan. Uni chaqirib, qamchi uchini uzatdim va egarga o'tqazib oldim. «Shu yerdan, – o'yladim men, – uyga qaytgunimizcha qo'zg'almaisan». Lekin men o'ylaganimday bo'lmadi. Gilton «g'us! g'us!» – deya hayqirib, bo'ri ko'rib qolganidan darak berdi. Dander bilan Rayl baravar oldinga otildi, ammo bir-biriga to'qnashib ketib, yerga chalqanchasiga borib tushdi. Snap sergaklik bilan qarab, bo'rini ko'rdi. Men uyoq-buyog'imga qaraguncha u egardan sapchib tushib, egri-bugri yo'llar bilan goh yuqorilab, goh pastlab, butalar yonidan, ostidan chopib, bo'rini mo'ljallab boraverdi. Bir necha daqiqa ichida butun galani izidan ergashtirib olib ketdi. Bu uzoq davom etmadi, albatta. Bahaybat tozilar qimirlayotgan nuqtani ko'rib, yalanglik bo'ylab uzun zanjir kabi cho'zilib ketdi. Ovning maroqli bo'lishi ravshan bo'ldi, chunki bo'ri uncha olisda bo'lmay, itlar ham shitoq bilan yugurdi.



– Ular Ayiq jarga burildi! – qichqirib yubordi Garvin, – Ketimdan yuringlar! Biz ularni kesib chiqamiz!

Biz orqamizga qaytib, adir shimolidan ot qo'ydik, bu payt quvdi-quvdi, aftidan, janubiy qiyalik bo'ylab davom etdi.

Biz tepaga ko'tarilib, endi tushamiz deb turganimizda Gilton qichqirib qoldi:

– U shu yerda ekan! Naq ro'parasidan chiqib qolibmiz!

Gilton sakrab otdan tushdi, tizginni tashlab, oldinga yugurdi. Men ham shunday qildim. Ro'paramizdagi ochiq yalanglikda uyoqdan-buyoqqa chayqalib chopib borayotgan ulkan bo'rini ko'rdik. Boshi egik, dumi tik tarang bo'ridan ellik qadamlar orqada undan ikki karra tezroq Dander chopib bormoqda. Bir daqiqalardan so'ng tozi it bo'rini quvib yetib, akillab tarmashib boshladi, bo'ri unga tomon o'girilishi bilan u ortiga tisarildi. Ular shundoq pastimizda, ellik futcha narida edi. Garvin revolverini chiqardi, ammo Gilton uni qaytardi.

– Yo'q, yo'q! Ko'raylik-chi, nima bo'larkin.

Zum o'tmay, ikkinchi tozi, ketidan uchinchisi, so'ng boshqalari yetib keldi. Har bir tozi bo'rini nimta-nimta qilib tashlaguday g'azab bilan keldi. Biroq ular birin-ketin orqaga chekinib, xavfsizroq bo'lgan masofaga borib akillay boshladi. Ikki daqiqalardan so'ng ajoyib rus bo'ribosarlari yetib keldi. Olisdan ular, shubhasiz, qari bo'riga tikkasiga hamla qilmoqchiga o'xshab ko'rindi. Ammo g'animning dadil turishi, mushaklari bo'rtib turgan bo'yni, ajal keltiruvchi jag'lari ularni cho'chitib yubordi, shunday qilib, ular ham davraga tiqildi, kulrang talonchi esa ularning har biri bilan, kerak bo'lsa, hammasi bilan yoppasiga olishish uchun goh uyog'iga, goh buyog'iga olazarak qarab, shay bo'lib turdi.



Ana, har biri shu bo'riday keladigan barzangi doglar ham yetib keldi. Ularning og'ir-og'ir nafas olishi dahshatli xirillashga aylanib, ular bo'rini nimtalab tashlaguvchi vajohat bilan keldi. Ammo dahshatli, qo'rqmas, jag'lari baquvvat, panjalari o'tkir, kerak bo'lsa o'limga ham tayyor g'animlarini yaqinroqdan ko'rib, uchala dog ham bo'ri jon bersayam bir o'zi jon bermasligini, boshqalarning ham boshiga yetib jon berishini sezib, darhol shashtlaridan tushdi. Nafaslarini rostlab olib, birpasdan keyin hamla qilmoqchi bo'ldi. Ular bo'ridan qo'rqmadi. Ovozlarini jasurona yangradi. Ular birinchi hamla qiluvchining holi voy bo'lishini yaxshi bildi, ammo ular hurishib, o'zlarini bardam tutib turaverdi.

O'nta barzangi it bechora yirtqichni o'rab turaverdi, shunda butalar ostidan shitir-shitir ovoz eshitildi. So'ng qorday oppoq rezina koptok sakrab-sakrab kelib, kichkinagina bulteryer bo'lib qoldi. Doim orqada yuruvchi Snap og'ir-og'ir nafas oldi, so'ng bo'riga tashlanishga yuragi betlamayotgan itlar halqasiga o'zini urdi. U ikkilandimi? Sirayam! Akillab turgan itlar orasini tikkasiga yorib o'tib, adirlar hukmdorining naq halqumini nishonga olib, o'zini otdi. Shunda bo'rining yigirmata o'tkir tishlari zarbiga duch keldi. Ammo u tura solib g'animiga ikkinchi marta tashlandi, keyin nima bo'ldi, bilib bo'lmadi. Itlar ayqash-uyqash bo'lib ketdi. Xayolimda oppoq kuchuk bo'rining tumshug'idan oldi, keyin boshqa itlar bo'riga birvarakayiga hamla qilganday bo'ldi. Biz itlarga yordam berolmadik, ammo ular ham bizning yordamimizga muhtoj bo'lmadi. Ularning yo'l boshchisi jasurlikda tengsiz bo'ldi. Nihoyat, olishuv nihoyasiga yetdi. Ulkan yirtqich bo'ri yerda sulayib yetib qoldi, maydagina oppoq kuchuk ham bo'rining tumshug'iga yopishganicha qimirlamay qoldi.



Biz aralashishga chog'lanib, ammo nima qilishimizni bilmay, qarab turaverdik. Nihoyat, hammasi tugadi. Bo'rining joni uzildi. Men Snapni chaqirdim, lekin u qimir etmadi. Men uning ustiga egilib:

– Snap, Snap, bari tamom bo'ldi, sen uni o'ldirding!
– dedim, ammo kuchugim qimir etmadi. Shunda kuchugimning badanidagi ikkita katta jarohatga ko'zim tushdi. Uni ko'tarib olmoqchi bo'ldim. – Bo'ldi, birodar, hammasi tugadi.

U zaifgina irillab, bo'rini qo'yib yubordi.

Chapani molboqarlar Snapning tevaragiga tiz cho'kdi, qariya Penruf ovozi titrab pichirladi:

– Undan ayrilgandan ko'ra yigirmata ho'kizimdan ayrilganim yaxshi!

Men Snapni qo'limga ko'tarib oldim, otini aytib-aytib boshini siladim. U ohista ingilladi, nazarimda, men bilan vidolashdi, so'ng qo'llarimni yalab butunlay jimib qoldi.

Biz uyga g'amgin qaytdik. Yirtqichning terisini ham olib oldik, ammo bu bizni yupata olmadi. Jasur Snapni ferma orasidagi adirga dafn etdik. Yonimda turgan Penrufning shunday deganini eshitdim:

– Mana buni chinakam jasurlik desa bo'ladi! Bizning ishimizda jasur bo'lmasang uzoqqa borolmaysan.

UCHQUR TOYCHOQ JEK

Bir quyon sarguzashti

I

Uchqur Toychoq shaharchaning deyarli barcha itini biladi. Masalan, ulkan bir qo'ng'ir it necha martalab uni oldiga solib quvdi, u har gal taxta devor teshigidan o'tib qutulib ketdi. Yana bir maydagina abjir it ham bor. U



Uchqur Toychoq o'tadigan teshikdan o'ta oladi, ammo Toychoq undan tezoqar, yassi sohil ariqdan sakrab o'tib qutulib ketadi. Maydagina it hamisha uni quvib kelib, ariqdan o'tolmay qolib ketadi. Agar ariqdan sakrasa, jonidan ayrilishini yaxshi biladi. Bolalar Uchqur Toychoq sapchib o'tadigan joyni «qari Jek sakraydigan joy» deb ataydi. Shaharchada bir tozi it ham bo'lib, u Toychoqdan ham yaxshi sakraydi. U Toychoq o'tgan taxta devor teshigidan o'tolmaydi, ammo devordan sakrab o'tib ketadi. U bir necha marta Uchqur Toychoqni qoniga beladi. Toychoq unga chap berib, tikanli butalar ostiga yashirinadigan bo'ldi. Tozi tikandan qo'rqib, iziga qaytib ketadigan bo'ldi.

Shaharchada bu uchta itdan bo'lak yana bir qancha xira itlar galasi bo'lib, ular chopishda Uchqur Toychoq bilan bellasha olmaydilar.

Bulardan boshqa shaharcha chetlarida ham itlar ko'p edi. Ular orasida oyoqlari uzundan kelgan qop-qora uy iti bo'lib, shunday tezkor, shunday chayir ediki, Uchqur Toychoq undan qochib qutulib ketaman deb, bir-ikki marta o'limdan qoldi.

Toychoq shaharcha mushuklariga parvo qilmadi, mushuklar ham deyarli unga ozor bermadi. Faqat bir oydin kechasi ovqat yeb o'tirib edi, o'zining qator g'olib yurishlari bilan g'ururlanuvchi ulkan bir mushuk pisib keldi. Uchqur Toychoq ko'zlari yonib turgan qop-qora jonivorni ko'rib qoldi. Mushuk hamla qilgunicha bo'lmay, Toychoq unga o'girildi, orqa oyoqlarida tik turib, qomatini kerdi, quloqlarini tikraytirib, baland ovoz bilan «chrr-chrr», dedi, so'ng to'g'ridan-to'g'ri mushukning boshiga chang solib, o'tkir tirnoqlarini botirdi. Qari mushuk ulkan jonivorning o'tkir tirnoqlaridan zo'rg'a qochib qutuldi. Toychoq bu hiyla-nayrangini ko'p ishlatib ko'rib, shundan ikki martasida baloga uchradi.



Bir marta bolali mushukka chang solib, ulardan zo'rg'a qochib qutuldi, yana birida sassiqko'zanga yopishaman deb baloga qolay dedi.

Uchqur Toychoqning eng xavfli g'animi baribir tozi it bo'lib qolaverdi, u bir safar bir baxtli tasodif tufayligina tozining tishlari orasida jon berishdan qutulib qoldi.

U odatda kechasi yegulik izlab chiqardi, chunki kechasi g'animlar kam bo'lardi, bo'lsayam qorong'ida ulardan bekinish oson bo'lardi. Ana shunday qish kechalarining birida pichan g'arami oldida biror yegulik izlab yuraverib, tong otganini bilmay qoldi. O'tloq oralab kulbasiga yo'l oldi, aksiga olib, shaharcha chetida yurgan bir tozi it bilan yuzma-yuz bo'lib qoldi. Oppoq qor bilan oppoq tongda bekinadigan qora topolmadi. Bor kuchi bilan momiq qor oralab chopdi. Itlar qorda quyundan yaxshi chopadi, shu boisdan ham tozi quyondan ildam chopdi.

Ana, ular bor kuchlari bilan chopib borayapti. Har sakraganlarida qadamlari ostidan momiq qor sachraydi. Ular goh o'ngga, goh chapga qarab chopadi. Itning qorni och, buyog'i kun sovuq, oyoqlari ostidagi qor momiqday muloyim. Shu sababliyam yaxshi chopayapti. Quyon esa hozirgina qornini yo'ngichqaga to'ydirib olib edi. Shunday bo'lsa-da, chopganida oyoqlari ostidan shunday qor sachradiki, havoda bir zum qor uchqunlari o'ynab turdi. Ular quvishib, yalanglikka chiqib qoldi. Toychoq tevarakka nazar solib, biron-bir bekinadigan joyni ko'rmadi, devor tarafga qochayin desa, tozi qo'ymadi. Toychoqning tinka-madori qurib, quloqlari shalpayib qoldi. Favqulodda ular bamisoli bayroqchaday hilpirab, yana yuqorilab chopdi. Uchqur Toychoq jon-jahdi bilan chopdi, endi janubdan biror bekinadigan joy topib olish uchun emas, sharqqa qarab ketgan yalanglikdan tezroq o'tib olish uchun chopdi. Tozi uning izidan qolmadi.



Toychoq ellik qadamlar bosib, birdan toziga chap berib, boshqa yoqqa yo'l oldi, so'ng yana sharqqa burildi. U betinim uyoq-buyoqqa burilib, yo'lini chap solib, shu yaqindagi fermani mo'ljallab chopib boraverdi. Fermaning baland yog'och devori bor, devorning tovuqlar kirib-chiqib turadigan teshigiyam bor, shuningdek, fermada uning ikkinchi ashaddiy g'animi bo'lmish ulkan qorato'y it ham bor. Toychoq ana shu taxta devor teshigidan lip etib o'tib, hovlining bir burchagiga bekinib oldi. Tozi teshikdan o'tolmay qoldi. Pastakkina ko'cha eshikdan sakrab o'tib, tovuqlar orasiga tushdi, tovuqlar qoqoqlab, o'zlarini har tarafga urdi. Qo'ylar bezovta bo'lib ma'radi, ularni qo'riqlab yotgan qoratoy olg'a talpindi. Uchqur Toychoq yana teshikdan chiqib qochdi. Hovlida bir-birini talayotgan itlar tovushi, shuningdek, odamlar ovozi eshitildi. Itlar kurashi nima bilan tugadi, Toychoq uyog'ini bilmadi, bilgisiyam kelmadi. Faqat shuni bildiki, o'sha kundan buyon uni tozi quvmaydigan bo'ldi.

II

Keyingi yillarda Kaskado shtati quyonlari hayotida ko'pgina o'zgarishlar sodir bo'ldi. Quyonlar oldinlari yirtqich hayvonlar va qushlar bilan, jazirama issiq va qahraton sovuq bilan, turli-tuman kasalliklar hamda kasal yuqtiradigan chivinlar bilan tinimsiz kurashib, ularga bas kelib yashardi. Fermerlar ko'chib kelishi bilan quyonlar hayoti o'zgarib ketdi.


Itlar va miltiqlar tufayli quyonlarning azal-azaliy g'animi bo'lmish chiyabo'rilar, tulkilar, bo'rilar, bo'rsiqlar hamda qirg'iylar siyraklab qoldi. Natijada quyonlar bir-ikki yil mobaynida haddan ziyod ko'payib ketdi. Ammo favqulodda o'lat kelib, quyonlarning ko'pinasi olib ketdi. Eng sog'lom, chayirlarigina omon



qoldi. Oqibat, quyonlar juda ozayib qoldi. Bu orada tag'in bir yangilik bo'ldi: kerakli joylarga aylantirib ekilgan tikanli butalar quyonlar panohi bo'lib qoldi. Endi quvg'inga yo'liqqan quyonlar o'zining chopag'onligiga emas, aql-zakovatiga qarab ish qiladigan bo'ldi, esli-aqllilari chiyabo'ri yo it quvsa, to'g'ri buta devorga qarab qochib, torgina teshikka kirib ketib yo'q bo'ladigan bo'ldi. Chiyabo'rilar ko'p o'tmay nima gapligini bilib oldi va endi ikkita-ikkita bo'lib quyon quvadigan bo'ldi. Birovi buta devorning naryog'iga o'tib turadigan bo'ldi, birovi devorning buyog'idan quyon quvib keldi. Oqibat, quyon buta devor teshigidan naryoqqa o'tib, ikkinchi chiyabo'riga duch keldi. Quyon bunday vaziyatda faqat ikkinchi chiyabo'rini o'z vaqtida payqab qolsagina omon qoladi.

O'lat daf bo'lib, quyonlar yana bolaladi. Azob-uqubatlarini boshidan kechiraverib chiniqqan quyonlar ajdodlari bir-ikki oy ham yashay olmaydigan yerlarda yashadi. Ular bepoyon va tep-tekis o'tloqlar, hashamatli fermalarda yashashni xohlamadi, ular yovvoyilarcha yashashni xohladi, bir-biriga tutashib, xuddi qishloqlarga o'xshab qolgan torgina fermalarda yashashni xohladi.

Nyuchuzen temir yo'l stansiyasi tevaragida ana shunday bir ferma paydo bo'ldi. Ferma atrofida eng sara quyonlar zoti g'uj-g'uj o'ynadi. Ular orasida bir maydagina quyonlar onasi ham bo'lib, ko'zlari chiroyliligi uchun Porloqko'z degan laqabi bor edi. Porloqko'z bag'oyat uddaburon bo'lib, chiyabo'rilarini laqillatib ketishga usta edi. U bir vaqtlardagi dashtdan qolgan tep-tekis o'tloqqa in qurdi. Bolalari ana shu inda tug'ilib, voyaga yetdi. Bir bolasi o'ziga tortib, porloq ko'z hamda kumush-kulrang junli quyon bo'ldi, ammo fe'latvori unga o'xshamadi. Boshqa bir bolasi esa onasida bor fa-



zilatlarini o'zida jamlab, quyonlarning yangi nasliga xos qobiliyat egasi bo'ldi.

Biz aytayotgan Uchqur Toychoq ana shu quyon edi. U keyinchalik shunqorliklari uchun Uchqur Toychoq degan laqab olib, olamga doston bo'ldi. U g'animlarni ahmoq qilib ketishning yangi-yangi yo'llarini o'ylab topdi.

U zarra boshidanoq shunday bir hiylayi nayrangni o'ylab topdiki, bu hiylasi uchun uni Kaskado shtatining eng dono quyoni desa bo'lardi. Voqea bunday bo'lib edi: uni bir dahshatli malla it quvadi. U itdan qochib qutulish uchun bekordan-bekorga to'siqlar bilan ferma o'rtasida yo'lini chalkashtirib uyoqdan-buyoqqa chopib yuradi. To'siqlar bilan ferma chiyabo'ridan qochib kelgan quyon uchun panoh bo'la oladi, chunki ferma egalari bilan itlar o'rtaga tushib quyonni chiyabo'ridan himoya qiladi. Ammo it uni izma-iz quvib kelib, to'siq teshigidan ham o'tib ketib quvdi, Uchqur Toychoq hali yosh, nimjon emasmi, charchay boshladi. Tikraygan quloqlari burishib, bora-bora shalpayib qoldi. U to'siqning maydagina teshigidan bir amallab o'tib olib ketiga o'girilib qarasa, ishbilarmon g'animi ham teshikdan o'tib olibdi.

O'tloq o'rtasida bir to'da mol bilan bir buzoq o'tlab yuribdi.

Yovvoyi hayvonlar jon talvasasi onlarida yo'llarida uchragan narsaga yo kimsaga ishonadilar. Boisi, izlaridan o'lim quvib kelayotganini yaxshi biladilar. Shuningdek, yo'lda uchragan narsa birodar chiqib qolishi mumkin, degan xom xayolga-da boradilar. Uchqur Toychoq ana shunday so'nggi umidlar bilan mollarning oldiga borib turdi.

Shubhasiz, agar gap faqat quyonda bo'lganida, mol-
lar bir chetda turib, ularning olishuvini tomosha qilgan
bo'lardi. Ammo mollarda tatlarga nisbatan tug'ma bir




nafrat bor, shu sababliyam malla laychani ko'rishlari bilan tumshuqlarini cho'zib, dumlarini yuqori ko'tardi. Nafrat bilan pishqirib, buzoqning onasi boshchiligida saf bo'lishib, itga qarab yurdilar. Toychoq bu orada pastakkin mevali buta ostiga kirib oldi. Laycha chetga burildi. Buzoqning onasi laycha buzoqqa hamla qilmoqchi deya tushunib, oldiga solib shunday quvdiki, u zo'rg'a qochib qutuldi.

Shunday qilib, Uchqur Toychoq qoyilmaqom hiyla ishlatdi. Bu hiylayi nayrang yovvoyi qoramollar bilan chiyabo'rilar olishgan olis zamonlardan qolgan bo'lsa ajab emas. Uchqur Toychoq ushbu hiylayi nayrangini esdan chiqarmay, uni kelajakda juda ko'p qo'lladi.

Uchqur Toychoq quyonlar orasida faqat aql-zakovati bilangina emas, shuningdek, rang-tusi bilan ham ajralib turdi.

Jonivorlar rang-tusi ularni yo ko'zga chalinmay, panalab yurishlariga yordam beradi, bu rang «panalaydigan rang» deyiladi, yo ko'zga yaqin bo'lishlariga yordam beradi, bunisi «yo'l ko'rsatuvchi rang», deyiladi. Quyonlarning noyob jonivorligi shundaki, ularning rang-tusi ham panalaydigan, ham yo'l ko'rsatadigan rang bo'la oladi. Ular kulrang butalar, yerrang kesaklar orasidagi inlarida o'tirganlarida kulrang quloqlari, boshlari, yelkalari hamda biqinlari ko'rinadi, xolos. Ular yer bilan bir tusda bo'lib qoladi, yaqinroqlariga kelib qaramasa, ularni ko'rib ham bo'lmaydi. Ammo quyonlar tobora yaqinlashib kelayotgan g'animlari ko'rib qolishlarini bilib, shu zahotiy oq sapchib turib, qochib qoladi. Shunda ularning rang-tusi yashin tezligida o'zgaradi. Kulrang tusi yo'qolib, quloqlari oqarib, uchlari qorayadi, oyoqlariyam oqaradi, dumlari oppoq tanasida qorayib ko'rinadi. Ular endi kulrang quyon emas, ola-qora quyon bo'ladi. Ya'ni, ko'zga yaqin bo'ladi. Quyon qan-



day qilib tusini o'zgartiradi? Bu juda oson. Masalan, quyonlar qulog'ining sirti kulrang, ichi esa oq-qora bo'ladi. Unda-bunda olasi bor qora dumlari bilan oyoqlarini yerga qapishtirib turadi. Kulrang junlarini ham yerga yopib yotadi. Quyonlar joylaridan sapchib turishlari bilan kulrang tuslari ko'zdan pana bo'lib, ya'ni, yerga qarab, oq-qora ranglari esa yuzaga chiqadi. Quyonlar rang-tusi avval: «Men kesakman...» deya shivirlagan bo'lsa, endi «Men quyonman!» – deydi.

Quyonlar nimaga shunday qiladi? Nimaga bor-yo'g'i yengil oyoqlariga ishonib yashovchi yuraksiz quyonlar yashirinish o'miga o'zlarini olamga ko'z-ko'z qiladi? Bir gaplari bordir-da. Ha, bor, gap mana bunday. Bordi-yu, quyonga boshqa bir quyon tahdid solsa, unda quyon darhol o'zining asl rang-tusini ko'rsatib, xavf-xatarning oldini oladi. Bordi-yu, chiyabo'ri, tulki yo it tahdid solsa, unda-yam yaxshi – ular yopishmoqchi bo'lgan jonivorlari quyon ekanini bilib, quyonni quvgan bilan yetib bo'lmasligini, bekordan-bekorga vaqt ketishini anglab indamay qo'ya qoladilar. O'zlariga o'zlari shunday degan bo'ladilar: «Bu quyon-ku, bunday tep-tekis yalanglikda quyonni ushlay olmayman». Bu o'z navbatida quyonlarni juda ko'p tashvish va yugur-yugurdan saqlab qoladi.

Oq-qora olalar quyonlarning milliy kiyimi hamda milliy bayrog'i hisoblanadi. Nimjonroq quyonlarning oq-qora olalari uncha yaxshi bilinmaydi, ammo baquvvat va sog'lomlarining olasi darrov ko'zga tashlanadi. Masalan, Uchqur Toychoq inida o'tirganida goh ko'mirday qora, goh qorday oppoq bo'lib tovlandi, tulki yo chiyabo'ri quvganida esa bir olachipor quyon bo'lib, bir oppoq nuqta bo'lib, nihoyat, oppoq par bo'lib chopib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Ferma itlarining ko'plari kulrang quyonni ushlab olsa bo'ladi, ammo olachiporiga yetib bo'lmaydi, degan



xulosa keldi. Shunday bo'lsa-da, Toychoqni yana bir-ikki marta ermak uchun quvdi. Uchqur Toychoq o'z kuchiga ishonib qolib, itlar bilan qaltis o'yin o'ynamoqchi bo'ldi.

Barcha hayvonlar kabi Uchqur Toychoq ham ma'lum bir guzarni o'ziniki qilib olib, undan deyarli chetga chiqmadi. Guzarining qariyb hamma yerida qator-qator inlar, mahalliychasiga aytganda, «o'lan to'shaklar» qo'yib tashladi. Bular butalar ostidagi o't-o'lan hamda barglar to'shalgan oddiygina kovaklar edi. Ammo yashash uchun qulay edi. Masalan, bir in og'zi shimolga qaragan bo'lib, kunga teskari edi, kun qiziganda Toychoq shu inida yashardi. Qishda yashaydigan ini juda chuqur bo'lib, og'zi janubga qaragandi. Namgarchilikda yashaydigan ini esa g'arbga qaragan bo'lib, og'ziga xasxashaklar yopib qo'ygandi. U uzun kunini ana shu inlarining birida kech qildi, qorong'i cho'kib, quyonlar bilan tamaddi qilib kelgani jo'nadi. Quyonlar oy yorug'ida umbaloq oshib o'ynab, bir-birlari bilan sho'xlashib, tong vaqti inlariga qaytib keldi.

Quyonlar fermalar oralig'idagi o'tloqda bexavotir o'tlardi. Sababi, o'tloq jonli to'siqlar bo'lmish odamlar va tikanli simlar bilan o'ralgan bo'lib, bu yerga g'anim zoti qadam bosolmasdi. Uylarga yaqinroq joyda odamlar ekan ziroat bo'lib, unga yaqin borish g'oyatda qaltis edi. Ziroatda bo'ri yo tulki yo'q edi, ammo odamlar, ularning qo'lida miltig'i, itlar, shuningdek, o'tib bo'lmas devorlar bor edi. Shunday bo'lsa-da, Uchqur Toychoq xuddi shu ziroat o'rtasidagi qovun egatlar oldidan o'ziga in qilib oldi. Uchqur Toychoqni bilganlar bundan ajablanmadi, boisi, Toychoq Toychoq-da. U ziroatda o'nlab xavf-xatarlar domida yashadi, ammo hayotdan zavq-shavq olib yashadi. Devorning bir qator teshik-tirqishlarini ham bilib oldi, zarur kelganda shu teshiklardan chiqib olib, o'nlab hiylayi nayranglar ishlatishni o'ylab qo'ydi.



III

Nyuchuzen g'arbiy Amerikaning o'ziga xos shaharchasi. Undagi bari narsa ko'ngilni aynitadi. Shaharchada odam yuradigan ko'cha yo'q, yo'llari to'ppa-to'g'ri ketgan, chorrahalari yo'q, ko'z qarab rohatlanadigan joyi yo'q. Uylari arzon, bo'lmag'ur taxta va tollardan qurilgan, shu boisdan ham xunukdan-xunuk ko'rinadi, ammo o'zlarining xunukliklarini tan olmay, qaragan ko'zga bejirim ko'ringisi keladi. Shaharchadagi har bir uy aslida yo'q shinamdorligini ko'z-ko'z qilgisi keladi. Birovini ikki qavatli uy qilib ko'rsatish maqsadida oldidan omonat ayvon qurib qo'yilgan, birovi taxtadan qurilib, g'isht uy deya ko'z-ko'z qilish uchun taxta devorlari g'ishtisifat qilib bo'yalgan, yana birovi o'zini marmardan bino bo'lgan machit qilib ko'rsatgisi keladi.

Bu uylar dunyodagi eng bema'ni uylar bo'lib, turish-turmushidan egalari bu yerda bir-ikki yilcha yashab, so'ng boshqa yoqqa ko'chib ketishini bilib olsa bo'ladi.

Shaharchaga odamlar soylash uchun ekilgan daraxtlar biroz ko'rk berib turadi. Daraxt tanalari oqqa bo'yilib, shoxlari uchi qirqib tashlanganidan daraxt siyohini yo'qotib qo'ygan. Shunday bo'lsa-da, hayot-baxsh, ko'rkam ko'rinadi.

Shaharchada bor-yo'g'i bittagina ko'rkam bino bo'lib, bu ham bo'lsa g'alla ombori edi. U grek machitlariga, shveytsar uylariga kelbat bermasdi, shunchaki, odmi, sodda, ulkan va beso'naqay bir g'alla ombori edi. Shaharchaning yo'llari dashtga, undagi fermalarga, suv chiqaradigan shamol parraklarga va mevali butalarga olib borardi. Bu yerlar xushmanzara edi. Qator ketgan och-ko'k butalar g'oyat quyuq va adl bo'lib, mevalari oltinday tovlanib turardi, afsuski, bu mevalarni yeb bo'lmasdi, ammo



mevalar uzun shoxlarda shunday chiroyli osilib turardiki, beixtiyor ko'rgan ko'zni quvontirardi.

Nyuchuzenday shaharchaga kelib qolgan odam undan qanday qilib tezroq chiqib ketishni o'ylaydi. Qishning oxirlarida shaharchaga kelib, unda ikki kun qolib ketgan bir sayohatchi ham shunday holga tushdi. U shaharchaning diqqatga sazovor joylarini ko'rib bo'ldi. Restorandagi oyna ostiga to'shab qo'yilgan suvkalamushning oppoq terisini, bundan qirq yil muqaddam qiziltarlilar sochlarini terisi bilan qo'shib shilib olgan Benki Bullin degan cholni hamda Kit Karson chekkan trubkani ko'rdi. Birortasiyam sayohatchini qiziqtirmadi, u qorga burkangan dashtlarga qarab yo'l oldi.

Yo'lda sonsiz it izlari orasida quyonning izlarini ham ko'rib qoldi. Yo'ldan o'tib ketayotgan bir odamdan, bu shaharchada ham quyon boqishadimi, deb so'radi.

– Shaharchada hali-hozirgacha quyon zotini ko'rgan emasman, – deya javob berdi yo'lovchi.

Tegirmon ishchisi ham xuddi shunday javob berdi. Shunda, bir dasta gazeta qo'ltiqlab olgan bir bola shunday deb qoldi:

– O'tloqda quyonlar g'uj-g'uj to'lib yotibdi, ular ba'zan shahargayam kelib-ketib turadi. Kalbaning zi-roatida shunday bir kattasi bor, ko'rsangiz, bahaybat davangir deysiz, junlari shaxmat taxtasiday ola-bula.

Bola aytgan «bahaybat davangir» Uchqur Toychoq edi. Ammo Toychoq bola aytganiday, Kalbaning zi-roatida yashamasdi, u yerga onda-sonda kirib chiqib turardi. Xuddi shu kuni Toychoq sharqdan sovuq shamol turgani uchun g'arbga qaragan inida o'tirardi. Bu in Medison-avenyu sharqida edi. Sayohatchi xuddi ana shu in tarafdan yurdi, Toychoq uni kuzatib boshladi. Sayohatchi yo'l bo'ylab kelayotganini ko'rib, ko'ngli xotirjam bo'ldi. Yo'l shimolga qarab burilganda, sayo-



hatchi yo'lini dala o'rtasidan kesib soldi. Ana shunda Toychoq tahlikaga tushdi. Sayohatchi dalaga qadam qo'yishi bilan Toychoq inidan otilib chiqib, o'tloq oralab, Sharq tarafga qarab qochdi.

Odatda quyonlar qochganda sakkiz-o'n qadamlik masofani bir sakrab chopadi. Har besh-olti sakrashdan keyin o'zini osmonga otib, o't-o'lanlar va changallar uzra ko'tarilib, tevarak-atrofga nazar soladi. Nodonoq quyonlar to'rt sakrashdan keyin yuqori sapchib, o'z vaqtlarini o'zlari oladi. Donoroq quyonlar esa sakkiz-to'qqiz sakrashdan keyin osmonga sapchib, tevarakni kuzatib, o'ziga yetarli axborot oladi. Uchqur Toychoq esa o'n-o'n ikki qadamni bir sakrab chopib, har o'n ikki sakrashdan so'ng yuqori sapchib, kerakli ma'lumotlarni olib oldi. Toychoq qoldirgan izlarning ham o'z sir-asrori bor. Ko'pgina quyonlar chopayotganlarida dumlarini qorga tekizmay, ko'tarib oladi. Ulkan shimol quyoni ham shunday qiladi. Ba'zi quyonlar esa dumlarini yerga osiltirib, dumlarining ham izini qoldirib ketadi. Uchqur Toychoqning qop-qora, uzun dumi ham qorda chuvalib, uzundan-uzun iz qoldirib yuradi. Uning dumi shunday uzun ediki, qordagi dumi iziga qarab, bu yerlardan Uchqur Toychoq o'tganini darhol bilib olsa bo'lardi.

Boshqa quyon bo'lganda iti yo'q odamdan qo'rqmagan bo'lardi, ammo Uchqur Toychoq kelayotgan odamni ko'r-di-yu, bir vaqtlar uni o'qqa tutgan odamni esladi: shu sababliyam odam bilan oralari yetmish besh qadamcha qolganda, yer bag'irlab qochib qoldi. Devordan oshib o'tib, qirg'iyday uchib chopdi, bir mil-lardan keyin o'zining pinhona iniga yetib keldi, osmonga sapchib, tevarakka nazar soldi, keyin iniga kirib yotib oldi.

Ammo ko'p yotolmadi. Yigirma daqiqalardan keyin uzun quloqlari g'irch-g'irch etgan ovozni eshitdi.



Bildi, bir odam qorni g'irchillatib bosib kelyapti. U sapchib turib, tayoq ushlagan odamni ko'rdi. Odam juda yaqin kelib qolgan edi.

Uchqur Toychoq jon-jahdi bilan devorga qarab qochdi. Simlar va xoda to'siqlardan oshib, odamdan olislab ketgunicha osmonga sapchiy ko'rmadi. Toychoq bekordan-bekorga vahimaga tushgan ekan: odam bor-yo'g'i uning izini ko'rib qolib, o'zini esa ko'rolmay ham qolibdi.

Toychoq yer bag'irlab tinimsiz chopib, ayni vaqtda boshqa g'anamlar yo'qmikin, degan tashvishda tevarakat-rofiga qarab bordi. U bildiki, izidan quvib kelayotgan odam yo'lidan qaytadiganlardan emas. Shunda u bir vaqtlar sassiqko'zan bilan bo'lgan olishuvda orttirgan sirtmoq qo'yish hiylasini ishlatmoqchi bo'ldi. U avval devorga qarab chopdi, devorning naryog'iga o'tib, yana ellik qadamcha chopdi, keyin eski izlaridan yurib kelib, tamomila boshqa yoqqa qarab chopib, ikkinchi bir iniga keldi. Tuni bilan chopib chiqib, endi dam olmoqchi bo'ldi, chunki kun chiqib qolgan edi. U endi nafasini olib, isiy boshlagan edi hamki, tag'in g'irch-g'irch etgan qadam tovushi keldi, u yana yo'lga tushdi.

Yarim milcha chopib, tepalikda to'xtadi. Hamon izidan odam kelayotganini ko'rib, izlarini boplab chalg'itdi. O'zining eng yaxshi ko'rgan inini yonlab o'tdi, keyin inning orqa tarafidan aylanib kelib, ichiga kirib oldi, g'animini tamomila adashtirib kelganiga amin bo'lib, yotib damini oldi.

Xiyla vaqt o'tib, yana qadam tovushlari eshitildi: g'irch-g'irch-g'irch.

Uchqur Toychoq uyg'onib ketdi, ammo joyidan qimirlamadi. Odam izni olib kelaverdi.

Toychoq juda ayyor odam bilan g'anim bo'lganini anglab, biron-bir boshqacharoq hiyla o'ylab topish



uchun bildirmaygina inidan chiqdi. Quyon bilan odam Uchqur Toychoqqa tobe guzarni aylanib chiqib, qora it yashaydigan fermaning yarim milcha yaqiniga kelib qoldi. Toychoq fermani darhol tanib, o'zida yo'q xursand bo'ldi: fermaning taxta devorlari tovuqxonaga yaqin bo'lib, tovuq oviga juda qulay edi, Toychoq bu yerda qator-qator zafarlar qozongandi, bahaybat tozini ham xuddi shu yerda ahmoq qilgan edi.

Uchqur Toychoq shularni eslab, qorli yoyilmadan yo'l olib, Qoratoy itning hovlisiga jo'nadi.

Tovuqxona yopiq ekan. Toychoq nima qilishini bilmay, boshqa yo'llarini izlab ko'rdi, baribir bo'lmadi. Burchakka qarab yurib, favqulodda lang ochiq turgan eshikka ko'zi tushdi. Eshik orqasidagi taxtalar uyumi ustida ulkan Qoratoy uxlab yotibdi. Tovuqlar hovlining bir iliqqina burchagida bir-biriga tiqilib, qunishib o'tiribdi. Mushuk seskanib qoqinib, ombordan oshxonaga chopib boryapti.

Uchqur Toychoq eshik oldida to'xtadi.

Qorli yoyilmada uni ta'qib etib kelayotgan g'animining soyasi ko'rindi. Toychoq parvo qilmay irg'ishlab-irg'ishlab, hovliga kirdi. Uzunoyoq xo'roz quyonni ko'rib, o'z ishlarini yig'ishtirib qo'yib, baland pardalarda qichqirdi. O'zini oftobga toblab yotgan Qoratoy boshini ko'tarib o'rnidan turdi. Toychoqning hayoti xavf ostida qoldi. U ko'p o'ylab o'tirmasdan darhol yerga qapishib yotib, yerrang kesak bo'lib oldi. U o'zini ustalik bilan yashirdi, ammo bundan qat'i nazar, agar mushuk bo'lmaganida hayot bilan vidolashardi. Mushuk o'zi bilmagan holda quyonni qutqarib qoldi. Qoratoy quyonning borligini bilmasdan turib, unga tomon uch qadam yurdi, shu bilan hovli eshigini yopib qo'ydi. Xuddi shu vaqt uy burchagidan mushuk chiqib



kelib, lip etib deraza tokchasiga chiqib olib, gul tuvakni tushirib yubordi. Mushukning bu dovdiriligi it bilan oralaridagi bir-birlariga teginmaslik shartini buzib yubordi. Mushuk omborga qarab qochdi, itlarning esa qochgan mushukni ko'rgani ko'zlari yo'q. Ular quyonndan o'ttiz qadamlar naridan quvishib boshladi. Mushuk bilan it ko'zdan g'oyib bo'lgunichayin bo'lmay, Toychoq iziga qaytib, hovlidan chopib chiqdi, bir og'izgina: «Rahmat, mushukcha!» ham demasdan toshday metin yo'ldan chopib ketdi.

Uy bekasi mushukni itdan qutqarib oldi, it qaytib kelib, yana taxtalar uyumiga uzala tushib yotib oldi. Endi quyonni quvib yurgan odam keldi. Odamning qo'lidagi miltiq emas, yo'g'on tayoq ekan. Shu sababliyam it odamga indamadi.

Shunday qilib, Uchqur Toychoq izini yo'qotdi. Toychoq bilib shumlik qildimi yo bilmay qildimi, ishqilib, yelimday yopishqoq g'animidani qutulib, uzil-kesil zafar qozondi.

Ertasiga g'animi yana Toychoqning iziga tushdi, bu safar uning o'zini emas, izini topib oldi. G'anim Toychoqni uning uzun dumi izidan, olis-olis sapchigan qadamlaridan hamda tevarakka qarash uchun osmonga sakrab-sakrab chopganidan bilib oldi. Ajabo, bu gal Toychoqning izi yolg'iz emas edi, uning izlari yonida yana bir mayda-mayda izlar bor edi. Chamasi, Toychoq birorta quyon bilan topishib qolib, yo'l-yo'lakay bir-birlari bilan o'ynab, sho'xlashib ketgandi. Bir yerda yonma-yon oftobga toblanib yotgan, bir yerda yonma-yon chopgan, yana bir yerda qorga yumalab, sho'xlik qilib o'ynagan. G'anim nima gapligini bildi. Hozir yilning juft-juft bo'lib yashaydigan vaqti. Demak, Uchqur Toychoq juftini topgan, izlar Toychoq bilan juftining izi.



IV

Yoz kelishi bilan quyonlarning omadiyam keldi. Shu yozda o'ylamay-netmay bir qonun qabul qilinib, har bir otib o'ldirilgan qirg'iy bilan boyo'g'li boshi uchun mukofot taqdim etildi. Oqibat, qirg'iy bilan boyo'g'li zoti deyarli qirilib ketdi. Quyonlar esa, aksincha, shunday ko'payib ketdiki, hademay butun mamlakatni quyon bosadiganday bo'ldi.

Shunda, ferma xo'jayinlari o'zlari chiqargan qonundan o'zlari ziyon ko'rib, quyonlarga qarshi yalpi yurish e'lon qildi. Barcha mahalliy xalqni ertalab katta shimoliy graflik yo'lga kelib turishga taklif qildi. Ferma xo'jayinlari butun o'lka bo'ylab shamolga qarshi yurish qilib, sim to'rlar bilan o'ralgan molxonaga olib borib qamamoqchi bo'ldi. Itlarni yalpi yurishga olishmadi, boisi, ular nozik vaziyatlarda xol qo'yib qo'yishi mumkin. Qo'llariga miltiq ham olishmadi, chunki yalpi ovda o'q otish qaltis. Ammo odamlar, bolalar qo'llariga uzun tayoq olib, sumkalariga tosh solib oldi. Ayollar otlar, aravalarda yo'lga tushdi. Ko'pchilik ayollar qo'llariga tartarak, ovchilar nayzasi hamda turli-tuman temirlar olib oldi. Arava oyog'ining kegayiga urilib, darang-durung shovqin chiqarish uchun ayrim aravalarga ko'hna satillar, turli temir-tersaklar osib oldi. Bundan maqsad, g'oyatda nozik eshitish qobiliyati bo'lmish quyonlar yuragiga g'ulg'ula solish edi.

Shu kuni havo ochiq keldi. Ertalab soat sakkizda yo'lga tushish uchun xabar bo'ldi. Ommaviy yurish halqasi besh millik masofani oldi. Har o'ttiz-qirq qadamga bir odam to'g'ri keldi. Otlar bilan aravalar to'g'ri yo'ldan yurdi, piyodalar dala bo'ylab yurdi. Odamlar iloji boricha ko'proq baqirib-chaqirib, butalar orasini tayoq bilan titkilab bordi. Butalar orasidan quyonlar



qochib chiqdi. Ko'plari achchiq bilan odamlarga tashlandi, ammo toshbo'ronga uchrab, nobud bo'ldi. Bittakikitalarigina odamlarga chap berib, qochib qutulib ketdi.

Yalpi yurish quyonlarni bir yerga supurib yiqqanday yig'di. Butalar tevaragi g'uj-g'uj quyon bo'ldi. Odamlar halqasi uch soatlar ichida besh milcha yo'l yurdi, shunda, halqaning har ikki uchlari o'zaro birlashsin, degan ko'rsatma bo'ldi. Odamlar orasidagi masofa o'n qadamcha ozayib, molxonaga qarab kelaverdi. Quyonlar tuzoqqa tushdi. Odamlar yaqin kelgan quyonlarni birin-ketin yo'q qilib, ilgarilab boraverdi. Yer quyonlar murdasiga to'ldi, ammo tirik quyonlar ko'paygandan-ko'paydi. O'rab olingan keng maydonda quyonlar g'uj-g'uj bo'lib sakradi, yugurib-yeldi. Osmonga sapchib aylanib, qanday qilib qutulib ketish yo'lini izladi. Odamlar halqasi borgan sayin torayib kelib, nihoyat, quyonlar molxonaga qamaldi. Bir quyon dovdirilarcha molxona o'rtasiga o'tirib oldi, birovlarini sim to'r yoqalab chopdi, yana birovlarini burchaklarga o'zini urdi, bir-birovlarining pinjiga tiqildi.

Bu vaqtda Uchqur Toychoq qayerda edi? U ham ko'p qatori quyonlar ichida yurib, birinchilardan bo'lib molxonaga kirib bordi.

Yalpi yurish tashkilotchilari quyonlarni nafaqat yop-pasiga qirib tashlash, shuningdek, ularning eng yaxshilarini olib qolishmoqchi ham edi. Ustomonlik bilan o'ylab topgan ommaviy yurishlaridan maqsad ham shu edi.

Shunday qilib, molxonaga qamalgan quyonlar yop-pasiga qirib tashlanib, eng aqlli, baquvvatlari olib qolinadigan bo'ldi. Bunday qarasalar, ko'plari hech narsaga yaramas ekan. Yovvoyi hayvonlar bekam-u ko'st bo'ladi, deb o'ylaydiganlar manavi cho'loq, mayib,



qiltiriq quyonlarni ko'rganlarida edi, hayratdan yoqalarini ushlagan bo'lardilar.

Shunday qilib, qadimgi rimcha qonun qo'llandi: zaiflar ketadi, zo'rlar qoladi. Olib qolingani quyonlar mard-u maydonga boradi. Mard-u maydonga boradi? Ha, Poyga klubiga boradi.

Molxonaning bir burchagida oldindan tayyorlab, taxt qilib qo'yilgan elliktacha quti qator bo'lib turibdi. Har birov bir quyonga mo'ljallab qo'yilgan.

Ishbilarmon quyonlar yugurib kelib qutiga kirib oldi. O'zi ishbilarmon-u, ammo nodonroqlari quti ichida o'zini uyoq-buyoqqa urib boshladi. Ham ishbilarmon, ham donolari qutiga kirib, yashirinib oldi. Hademay, qutilar quyonga to'ldi. Ana shunday oddiy ham oson yo'l bilan eng chaqqon va eng aqlli quyonlar saylab olingdi. Ellikta qutidagi ellikta quyon tozi itlarni o'rganish uchun mo'ljallab qo'yildi. Qolgan to'rt mingdan ham ko'p quyon ayovsizlik bilan qirib tashlandi.

Ellikta qutidagi ellikta quyon shu kuniyoq poyezdga ortildi. Quyonlar orasida bizning Uchqur Toychoq ham bor.

V

Quyonlar taqdir taqozosiga befarq qaraydi, shu sababliyam ularni molxonaga haydab kelib qamagan odamlar ovozi ortda qolib ketganini his qilib, vahimaga tushish uyoqda tursin, hatto parvolarigayam kelmadi. Katta shahardagi Poyga klubiga yetib kelishib, quyonlarni qutilaridan birin-ketin tashqariga chiqarganlarida, ular mamnun qiyofada edi. Quyonlar tag'in tevaragi berk yerga tushib qoldi, ammo bu yerda mazali yeguliklar mo'l, g'anim zoti esa yo'q edi.

Quyonlar mashqi ertasi ertalabdan boshlandi.



Ulkan Poyga klubiga kiriladigan qator eshikchalar ochib qo'yildi.

Quyonglar poyga maydonida yoyilib yurganida qayerdandir bir to'lda bolalar kelib qolib, quyonglarni quvib boshladilar, quyonglar yana tevaragi berk yerga kirib oldi. Bu yerni Langargoh der ekan. Bu saboq yana bir necha kun davom etib, quyonglar shu bahona o'zlarining yakka-yu yagona panohlari Langargoh ekanligini bilib oldi.

Endi ikkinchi saboq boshlandi. Quyonglar yon eshik orqali uzun yo'lakka solib haydaldi. Bu yo'lak poyga maydonini aylanib, yana bir atrofi o'rab olingan yerga borib taqalardi. Quyonglar yo'lak bo'ylab chopib, ana shu yerga kirib bordi. U yerda ham bolalar itlarini quyonglarga olkishlab, ularni butun maydon bo'ylab quvdi. Bir-ikkita yoshgina quyong odatlari bo'yicha tevarakni kuzatish uchun osmonga sapchib oldi, quyonglar oldida bir olachipor quyong yerga bag'rini berib chopdi. Uning tik oyoqlari bilan yonar ko'zlari yopiq yerdayoq ko'pchilikning e'tiborini tortgan edi. U ochiq maydonga chiqib, jamiki quyonglar galasini boshqarib, ketidan ergashtirdi. Boshqa quyonglar itlardan qanchalik o'zib ketgan bo'lsa, olachipor quyong ham ulardan shunchalik o'zib, ilgari lab ketdi.

– Anavinga qaranglar, bu quyong emas, Uchqur Toychoq! – deya qichqirdi bir irland otboqari.

Quyong Uchqur Toychoq degan laqabni ana shunda olgan edi.

Quyonglar maydonning yarmigacha chopib borib, birdan Langargohni eslab qoldi va qorbo'rnday uchib, o'z panohlariga yo'l oldi.

Ikkinchi saboq ana shunday tugadi. Demak, ularni qo'yib yuborishlari bilanoq darhol Langargohga qarab chopish kerak ekan. Bir hafta deganda quyonglar Poyga



klubini yaxshilab bilib olib, tantanali musobaqalarga shay bo'lib turdi.

Uchqur Toychoqni endi otboqarlar ham, tomoshabinlar ham yaxshi tanib qoldi. U o'zining rang-tusi bilan ko'zga yaqin bo'ldi. Bundan tashqari, jamiki quyonlar eli uni o'zlarining sardori deb tan oldi. Klub xizmatchilari ilgari itlarni poygaga qo'yib garov o'ynardi, endi Toychoqni qo'yib garov o'ynaydigan bo'ldi.

– Qiziq, Dignam chol bu yil o'zining Minkisini poygaga qo'yarmikin-yo'qmikin?

– Agar qo'ysa, garov o'ynayman. Uchqur Toychoq uning Minkisiniyam, yo'ldoshiniyam yo'lda qoldirib ketadi.

– Ishonchim komilki, mening Jenim Uchqur Toychoqni Katta tribunaga yetmasdanoq ushlab oladi, – dedi bir it egasi.

– Kelyapti! – dedi irland Miki. – Bir oylik moyanamni garovga qo'yib aytamanki, bu yerdagi itlarning bittasiyam Uchqur Toychoqqa yetib ololmaydi.

Odamlar talashib-tortishdi, bahslashdi, Uchqur Toychoqning ulkan qudratiga ishonuvchilar soni kun sayin ko'payib bordi.

VI


Poyga ertalabki quyosh nurida boshlandi. Katta tribuna shahar ahli bilan liq to'ldi. Itboqarlar tozilarini bitta-bittalab, juft-juftlab yetaklab keldi. Itlarning yelkalariga yoping'ich yopilgan bo'lsa-da, ammo ularning paydor oyoqlari, ilonsimon bo'yinlari, uzun jag'li boshlari hamda doim o'ynab turadigan sariq ko'zlarini tomosha qilib, zavq olsa bo'lardi. Bu itlarni tabiat va inson aql-zakovati tomir-tomiri, qon-qoni bilan hayron qolarli darajada chopqon qilib yaratgan edi. Itbo-



qarlar itlarini ko'z qorachig'iday avaylar, ularga xuddi bolalarga mulozamat qilganday mulozamat qilar, oldilariga tashlagan narsalarni yedirmay, har xil nimalarni iskab ko'rishdan tiyar, eng muhimi, ularning oldiga begona odamni yo'latmasdilar. Bu itlar uchun katta-katta pullar garovga qo'yilardi. Shunday voqealar ham bo'lardiki, ustalik bilan yashirib berilgan bir parcha non yo ataylab tayyorlab kelingan bir tishlam go'sht, hatto yolg'ondakam hid itlarni alahsitib, bo'shashtirib, oqibat, chopishga yaramay, egalarini xonavayron qilib qo'yardi.

Itlar maydonga juft-juft qilib tushiriladi, chunki poyga degani, bu – o'z navbatida, musobaqa degani. Dastlabki davrada g'olib chiqqan itlar juft-juftlarga bo'linadi. Har bir davradan keyin maydonga bitta quyon qo'yib yuboriladi. Quyon ma'lum bir masofagacha chopib borgach, start beruvchi odam har ikkita itni qator qilib, quyonning izidan qo'yib yuboradi. Qizil kostum kiyib olgan sudya otda itlar ketidan chopib, poygani nazorat qiladi. Quyon olgan saboqlariga asoslanib, maydonni kesib chopib, to'g'ri Katta tribuna qarshisidagi Langargohga yo'l oladi. Itlar quyonning izidan qolmay quvadi. Birinchi it quyonga yaqin borib qolganda quyon undan o'zini olib qocha boshlaydi. Quyon har yo'lini o'zgartirganda, itlar hisobiga ochko yoziladi, quyonni ushlab o'ldirsa, uzil-kesil g'alaba qozongan bo'ladi.

Ba'zi poygalarda itlar start olib, yuz qadamcha chopiboq quyonning kor-holini qiladi. Demak, quyonning mazasi yo'q bo'ladi. Bunday voqea ko'pincha Katta tribuna qarshisida bo'lib o'tadi, bu vaziyatda kamdankam quyon Langargohga qochib qutulib keta oladi. Odatda bu voqea to'rt xil natija bilan tugaydi: quyon qisqa vaqt ichida o'ladi yo Langargohga qochib ketadi, oftob taftida chopaverib, yuragi yorilib qolishi ehtimoli



bor itlar almashtiriladi va nihoyat, quyon Langargohga qarab qochmay, itlarni halloslatib, holdan toydirib, ketidan choptirib yuradi.

Navbatdagi poyga oldidan irland Miki bilan brilliant uzuk taqqan bir odam «favqulodda» hamsuhbat bo'lib qoldi.

Brilliant uzukli odam Mikiga sigara berdi. Shu, sigarayam gapiradigan gapmi? Yo'q, gap shundaki, sigara yashil qog'ozga¹ o'rab berildi. Miki uni sigara tutatishdan oldin avaylab olib qo'ydi. Bir-ikkita uzuq-yuluq gaplar bo'ldi:


– Agar sizni ertaga startga qo'yib, Minki Dignamga yutqazib qo'ysa bormi, unda men sizga yana bitta sigara berardim.

– Men start boshida bo'ladigan bo'lsam, shunday qilamanki, Minki ham, uning yo'ldoshi ham bittayam ochko ololmaydi.

– Shunadami? – hamsuhbati jonlandi. – Unda, juda yaxshi. Shunday qilsangiz, ikkita sigaralik bo'lasiz.

Start beruvchi Slaymen hamisha halol ishlab, haromxarish yo'llarga yurmaganligini hamma bilardi. Shuning uchun ham unga ko'pchilik ishonardi, ammo undan norozilar ham yo'q emasdi. Ana shunday norozilardan bo'lmish behisob oltin jevakchalar taqib olgan bir janob poyga boshlig'i oldiga kelib, Slaymennni yomonlab boshladi, yomonlagandayam dalillar bilan yomonladi, oqibat, boshqaruvchi Slaymennni vaqtincha poygadan chetlashtirib, uning o'rniga Miki Du deganni qo'yishga majbur bo'ldi.

Miki kambag'al, buning ustiga, o'lguday injiq odam edi. Ana shu odam hozir bir yilda topadigan daromadni bir daqiqada topadigan ishga o'tdi. Daromad topganda ham ilgayam, quyongayam ziyon bermay topadigan



¹Yashil rangli Amerika dollari.



ishli bo'ldi. Barchaga ma'lumki, quyonlar rang-tusi bilan bir-birlaridan unchalik ham keskin farq qilmaydi. Eng muhimi, quyonlarni to'g'ri tanlab poygaga qo'ya bilish kerak. Mikining ishi shu bo'ldi. Dastlabki davra tugadi. Poygaga ellikta quyon qo'yilib, elliktasiyam qurbon bo'ldi. Miki itlar juftini poygaga qo'yishda ham xatolikka yo'l qo'ymadi. Natijada startchilik vazifasida qolaverdi.

Endi katta-katta garovlar qo'yiladigan hal qiluvchi poyga – kubok finaliga navbat keldi.

VII

Qotma, ixcham tozilar navbatlarini kutib turdi. Minki degan tozi bilan yo'ldoshi birinchi bo'lib chopdi. Halol borayotgan ish g'irromlikka aylanadi deb kim o'ylabdi deysiz? Miki o'zi xohlagan quyonni poygaga qo'yishi mumkin.

– Uchinchi raqam! – qichqirdi u yordamchisiga.

Qutidan olaquloq Uchqur Toychoq otilib chiqdi. Toychoq besh qadamni bir sapchib chopdi. Xaloyiqqa begonasirab qarab, atrofni ko'rib olish maqsadida juda balandlab bir sakrab oldi.

– G'ir-r-r-r! – deya jar soldi startchi, yordamchisi ta-yoq bilan panjarani taraqlatdi.

Uchqur Toychoq sakkiz-to'qqiz odimni bir sapchib chopdi.

O'ttiz qadamcha chopib borganida ketidan darrov tozi itni qo'yishdi. Ko'pchilik, tozini yigirma qadam qolganda qo'yilganida yaxshi bo'lardi, deyishdi.

– G'ir-r-r! G'ir-r-r-r! – Uchqur Toychoq o'n to'rt odimlik masofani bir sapchib chopdi, osmonga sakramadiyam.

– G'ir-r-r-r!



Qanday ajoyib itlar-a! Maydon bo'ylab chopishlarini aytmaysizmi! Uchqur esa o'z otiga yarasha juda oldinda oqchorloqday, oq bulutday uchib boryapti! Ana, Katta tribuna oldidan o'tdi! Quyvon bilan itlar orasi ozaydimi? Aksincha, yanada uzaydi! Buni tasvirlab berishga vaqtimiz yo'q, boisi, Uchqur Toychoq o'sha tovuqxona-ga o'tadigan taxta devor teshigiga o'xshash Langargoh eshigiga allaqachon kirib ketdi. Itlar to'xtab qolib, kulgi bo'ldi. Xaloyiq «ura», deya Uchqur Toychoqni olqishladi. Miki shunday xoxolab kuldi! Dignam shunday so'kindi! Muxbirlar betinim qayd qilib bordi...

Ertasi kuni gazetalarda shunday xabar chop etildi:

«Quyvon ko'z ko'rmagan zafar quchdi. Uchqur Toychoq laqabli quyvon sport olamida dong taratgan ikkita mashhur itni tamomila tor-mor keltirdi».

It egalari tortishib qoldi. Poyga durang natija bilan tugaganligi uchun itlarni yana navbatdagi poygaga qo'yishdi, ammo dastlabki poygada holdan toyib qolgan itlar, bunisida juda lanj chopdi.

Ertasi kuni Miki brilliant uzuk taqqan odam bilan yana muloqotda bo'lib qoldi. Tasodif tufayli, albatta.

– Sigara chekasizmi, Miki?

– Qulluq, ser. Sigarangiz shunday yaxshi ekanki, yana bitta bersangiz yo'q demasdim. Rahmat, ser.

VIII

Uchqur Toychoq shu kundan e'tiboran irlandiyaliklar faxri bo'lib qoldi. Slaymen startchini yana o'z joyiga qo'yishdi. Miki hamon quyvonlarni poygaga qo'yish bilan mashg'ul bo'ldi, oxir-oqibat, unda itlarga emas, quyvonlarga bo'lishish hissi paydo bo'ldi. Aniqrog'i, Uchqur Toychoqqa bo'lishdi, chunki Toychoq ellikta qutida kelgan quyvonlardan yolg'iz o'zigina shuhrat



qozondi. To'g'ri, poygada bir necha marta qatnashgan yana bir-ikkita quyon bor edi, ammo yolg'iz Toychoqqi-na butun maydonni aylanib, biron marta ham yo'lidan adashmay chopib keldi. Bu kabi poygalar haftada ikki marta bo'lib turdi. Har poygada qirqtadan elliktagacha quyon nobud bo'ldi. Hademay besh yuz quyondan bit-tayam qolmadi.

Uchqur Toychoq hamma poygada ishtirok etib, ham-masida g'olib bo'lib, Langargohga yetib keldi. Miki su-yukli quyonning iste'dodini maqtayverib o'zidan ketdi. U uzunoyoq chopag'onni chin ko'ngildan yaxshi ko'rib qoldi. Toychoqdan mag'lubiyatga uchrash har qanday itga ulug' sharaftir, degan gapni qayta-qayta takror-lashdan tolmasi.

Quyonlar butun maydonni omon-eson chopib o'tolmaydi, Uchqur Toychoq esa ketma-ket olti marta buning uddasidan chiqdi, shunda, har bir poygadan keyin gazetalar u haqda shunday deb yozdi:

«Uchqur Toychoq yana yo'lidan biron martayam chetga chiqmay chopib, Langargohga yetib bordi. Qariyalarning aytishicha, yaxshi-yaxshi itlar yo'qolib ketayotgan emish!»

Uchqur Toychoqning oltinchi g'alabasidan keyin quyon boquvchilar quvonchining cheki bo'lmadi, ular-ning kattasi Miki o'zida yo'q tantana qildi.

– Uni qo'yib yuborish kerak! U ozod yashash uchun har qanday amerikalikdan ko'proq xizmat qilib qo'ydi, – dedi u, sobiq quyonlar egasi, hozirgi poyga boshlig'ining vatanparvarlik tuyg'ulariga ta'sir qilish uchun.

– Xo'p, Miki. O'n uch marta g'alaba qozonsin, keyin tug'ilgan yurtiga jo'natib yuborasan.

– Yo'q, ser, uni hozir bo'shatib yuborish kerak!

– Yo'q-yo'q, u menga hali kerak, men u bilan hali ko'p itlarni o'rgatishim kerak.



– Demak, gap bitta, ser, oʻn uchinchi gʻalabadan keyin qoʻyib yuboramiz.

Shu kunlarda yangi quyonlar olib keldilar, quyonlarning birov rang-tusi bilan Uchqur Toychoqqa oʻxshab ketarkan, ammo chopishining mazasi yoʻq ekan. Miki tagʻin adashtirib qoʻymasligi uchun nazoratchidan ombir olib kelib, Uchqur Toychoqni qutiga qamab, qulogʻiga ombir bilan belgi qildi. Toychoqning yupqa kemirchagida yulduzcha misol belgi paydo boʻldi, Miki tantanali ravishda dedi:

– Endi har bir poyga uchun bittadan yulduzcha olasan!

Miki shunday deb, Toychoqning oʻng qulogʻiga yana shunday beshta yulduzcha qildi.

– Ana, boʻldi, Uchqur Toychoq. Oʻn uchta yulduzchalik boʻlsang, quyonlar ichra ozodlar ozodi sen boʻlasan! Ozodlikka erishgunimizga qadar bizning bayrogʻimizda ham oʻn uchta yulduzcha bor edi¹.

Kelasi hafta Uchqur Toychoq yangi tozilarni magʻlub etdi, endi chap qulogʻida yulduzcha paydo boʻldi. Yana bir haftadan keyin chap qulogʻida oltita, oʻngida yettita, jami oʻn uchta yulduzcha boʻldi.


Gazetalar Toychoqning jasoratini shov-shuv qildi.

– O-o-o! – deya tantana qildi Miki. – Endi sen ozod quyonsan, Uchqur Toychoq! Oʻn uch – baxtli raqam. Oʻn uch raqami meni hech qachon aldamagan.

IX

– Ha-ha, bilaman, vaʼda berganman, esimda turibdi, – dedi boshliq. – Ammo men uni yana bir marta

¹ Amerika Qoʻshma Shtatlari Angliya mustamlakasidan ozod boʻlganida bor-yoʻgʻi oʻn uchta shtatdan iborat edi, shu boisdan bayrogʻidagi yulduzlar ham oʻn uchta edi. Keyinchalik shtatlar soni elliktaga yetib, bayroqdagi yulduzlar ham xuddi shuncha koʻpaydi.



poygaga qo'ysam degan edim. Men Toychoqni yana bir yangi it bilan maydonga solish uchun puldan garov o'ynab qo'rganman. Toychoq uning korini qiladi, bundan qo'rqmasayam bo'ladi. Miki, qo'y endi, o'jarlik qilma! Axir, itlar kuniga ikki-uch martalab chopadi-ku, quyon yana bir martagina chopsa nima bo'пти?

– Itlar garovga qo'yilmaydi, ser.

– Qo'ysang-chi!

Langargohda turli-tuman katta-kichik, mo'min-qobil va urushqoq quyonlar ko'payib qoldi. Bir kuni ertalab ulkan urg'ochi quyon Uchqur Toychoqning jonholatda Langargohga qochib kelganini ko'rib, vaziyatdan foydalanib, unga hamla qildi.

Agar boshqa vaqt bo'lganda Toychoq o'sha mu-shukni boplaganidek, buning ham boshlariga panja-larini botirib olib, adabini berardi, shu bilan qutulib qo'ya qolardi. Afsuski, olishuv cho'zilib ketdi. Chunki poygadan oldin olgan yara-og'riqlari Toychoqning hov-rini pasaytirib qo'ydi.

Poyganing boshlanishi oldingilaridan unchalik farq qilmadi. Uchqur Toychoq quloqlarini ding qilib, yer bo'ylab yelib ketdi. O'n uchta yulduzchasi ostida shamol g'uvilladi. Ketidan Minki bilan Fango degan yangi it quvdi, kutilmaganda ular orasidagi masofa torayib qoldi. Uchqur Toychoq sekinladi. Katta tribuna oldida qari Minki Toychoqning oldini oldi. Xaloyiq kimsan Uchqur Toychoqning oldini olganini ko'rib, hayajon bilan oh urdi. Yana ellik qadamlardan keyin Toychoqning yo'lini endi Fango to'sdi, shundan keyin Toychoq, start olgan yeriga qaytishga majbur bo'ldi. U yerda Slaymen bilan Miki turardi. Itlar izidan yetib keldi, Toychoq ular-ga chap berdi.

Uchqur Toychoq, o'lishi muqarrarligini bilib, o'zini to'g'ri Mikiga otdi. Miki uni ko'tarib olib, itlarni oyoq-lari bilan qaytardi.



Toychoq ko'hna his-sezgilarining, g'animing quv-ganda to'g'ri kelgan yaxshi odamdan panoh so'ra, degan amriga amal qilib, o'zini Mikining bag'riga otgan edi. Bilsa, Miki haqiqatan ham uning birodari ekan. Xaloyiq Miki bilan qo'lidagi quyonni ko'rib, quvonch bilan shovqin soldi. It egalari norozi bo'lib: «Bekor! Poygani oxirigacha chopish kerak!» dedi. Ular poyga boshlig'iga murojaat qildi. Boshliq poyganing muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan xafa bo'lib, qaytatdan poyga qo'yadigan bo'ldi.

Uchqur Toychoq hech bo'lmasa bir soatgina damini olib olishi uchun Miki zo'rg'a javob oldi. So'ng, yana maydonga tushdi, yana Fango bilan Minki raqibi bo'ldi. Bu safar avvalgidan yaxshi chopdi, ammo tribunadan o'tganda Fango, undan keyin Minki oldini oldi. Toychoq goh chapga, goh o'ngga qarab sapchidi, o'zini uyoqdan-buyoqqa olib urdi, nihoyat, bir amallab qutulib ketdi. Bir necha daqiqa shunday bo'ldi. Miki qarasa, Toychoqning quloqlari borgan sayin shalpayib boryapti. Shunda, itlarning birovi quyonga sapchidi. Toychoq uning tanasi ostidan sirg'alib chiqib, ikkinchi itdan ehtiyot bo'lish uchun o'zini o'nglab olib, shaylanib turdi. Toychoq holdan toyib, quloqlari bo'yniga shalpayib qoldi. Tozilar ham charchab, tili osilib qoldi. Og'iz-bo'yinlari g'arq terga botdi. Shunda, birdan Uchqur Toychoqning quloqlari ding bo'ldi. Chamasi, Toychoq itlarning charchaganini ko'rib, ruh oldi. U to'g'ridan-to'g'ri Langargohga yo'l soldi. Ammo itlar burilish yo'ldan ko'ra to'g'ri yo'ldan yaxshi chopardi, shu sababliyam ular yana Toychoqning oldini olib, uni yo'lidan qayirdi. Tozi egalari horigan itlariga rahmi kelib, yana ikkitasini maydonga qo'ydi. Ana bu yangi ikkitasi Toychoqni dabdala qilishi mumkin edi. Shu sababli-



yam Uchqur Toychoq so'nggi kuchlarini to'plab chopdi. Oldingi ikkita tozini orqada qoldirib, Langargohga yaqinlashdi, shunda, izidan yangi ikkitasi yetib keldi. U endi faqat itlarga chap beribgina o'zini omon saqlab qolishi mumkin edi. Uning quloqlari yana shalpayib qoldi, yuragi orqasiga tortib ketdi, ammo o'zini ruhan dadil sezdi. Uyoqdan-buyoqqa salanglab yugurdi. Itlar uni ushlay-ushlay dedi. Birovi Toychoqning qop-qora dumi uchidan tishlab oldi, ammo u qutulib ketdi. U bu safar Langargohga yetib borolmadi. Omad undan yuz o'girdi. Beixtiyor yana Katta tribuna oldiga kelib qoldi. Ming-minglab xonim unga qaradi. Bu orada poyga ham nihoyaladi-qoldi.

Yangi ikki it ham holdan toyib qoldi. Miki birdan o'zicha baqirib-chaqirib, itlarga qarab yurdi:

– Hay, itdan bo'lgan qurbonlikka yaramaslar! Hay, ablahlar!

U vajohat bilan itlarga yopishdi. Og'ziga kelgan so'z bilan so'kindi, itlar ham qolmadi, odamlar ham. Xizmatchilar yugurib kelib, Mikini chetga tortdi.

– «Halol» poyga emish! Topgan halol poygangni qara! Tamagirlar, tovlamachi, qonxo'rlar!

Xizmatchilar Mikini maydondan olib chiqib ketdi. Miki so'nggi marta ketiga qayrilib qarab, nimjon quyonni quvaverib, holdan toygan to'rtta itni hamda qo'liga miltiq ushlagan otliq sudyani ko'rib qoldi.

Eshik Mikining orqasidan yopildi. U ketma-ket otilgan o'q ovozi, g'ala-g'ovur olomon ovozi, itlarning vangillashini eshitdi. Bildiki, Jekning – Uchqur Toychoqning kuni bitdi.

Miki bildiki, endi uni maydonga qo'ymaydi. Shu sababliyam ko'p o'ylab o'tirmay, Langargohga qarab chopdi. Langargohda quloqlari biroz shalpayib, oq-



sab-oqsab kelayotgan Jekni – Uchqur Toychoqni ko'rdi. Miki shundagina bildiki, Toychoqqa otilgan o'q xato ketib, itlarga tegibdi. Haqiqatan ham, shunday bo'ldi: bir yarador tozini maydondan ko'tarib olib chiqishdi, yana birovini mol doktor qarab boshladi.

Miki tevarakka alanglab, bir qutini ko'rib qoldi, uni Langargohning bir chetiga olib borib, ichiga xo'rlangan quyonni haydab solib, og'zini bekitib qo'ydi. So'ng, qutini xaltaga solib olib, olomonga bildirmay devordan oshib o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

O'z-o'zicha ketmagandayam, baribir uni haydashardi! U shahardan piyoda chiqib, shu yaqindagi stansiyanidan poyezdga o'tirdi, bir-ikki soatdan keyin quyonlar mamlakatiga yetib keldi.

Allaqachon kun botib, yalanglik uzra yulduzzor tun cho'kdi. Miki fermalar, jonli devorlar hamda o't-o'lanlar ichiga kelib, qutini ochdi, Uchqur Toychoqni ozodlikka qo'yib yuborib, shunday dedi:

– Ko'hna Irlandiya o'n uch yulduzlilarni ko'p ozod qilgan!

Uchqur Toychoq bir zum alang-jalang bo'lib turdi. So'ng, uch-to'rt sapchib chopib ketdi, to'xtab, qayerga kelib qolganligini bilish uchun osmonga bir sakrab oldi. Undan keyin faxrli yulduzlar bezab turgan quloqlarini olg'a burib, ne-ne mashaqqatlar bilan erishgan ozodlik sari dadil, mardona yelib ketdi, xiyol o'tib, zim-ziyo ona yurtiga singib ketdi.

Shundan keyin uni Kaskadoda ko'p ko'rdilar. Kaskadoda quyonlarga qarshi ko'plab yalpi yurishlar bo'ldi, u odamlardan qutulishning yangi-yangi yo'llarini o'ylab topgan shekilli, ishqilib, qo'lga tushgan minglab o'lik quyon bilan tirik quyonlar orasida yulduz quloqli Jek – Uchqur Toychoq ko'rinmadi.



ARNO

I


Biz yonboshdagi eshikdan otxonaga kirdik. Otxonaning o'ziga xos bilinar-bilinmas hidi xushbo'y pichan isida bilinmay ketdi. Pillapoyalardan ko'tarilib, uzun cherdakka chiqdik. Cherdakning janub tarafi to'sib qo'yilgan bo'lib, u yerdan quloqqa tanish «ku-ku-ku», g'uv-v k-u-u-u, ku-ku-ku» ovozlari, qanotlarning «pirr-pirr-pirr» degan sadolari eshitildi, shunda biz kaptarxonada turganimizni bildik.

Bu kaptarxonada zo'r kaptarlar bor edi. Shu kuni kaptarlardan elliktachasining musobaqasi o'tkaziladigan bo'ldi. Kaptarxona egasi meni shu musobaqaga hakamlik qilishga taklif etdi.

Musobaqadan maqsad, yosh qushlarni sinab ko'rish bo'ldi. Shu kungacha yosh kaptarlar ikki marta ota-onalari bilan dalaga olib chiqilib, yana kaptarxonaga qaytib borishni o'rganib olsinlar uchun o'z hollariga qo'yib yuborildi. Mana endi ular kattalarsiz, o'zlari mustaqil ravishda uchadigan bo'ldi. Ularni Elizabet shaharchasida qo'yvorishga qaror qilishdi, albatta, yosh kaptarlar uchun bu juda olislik qiladi.

– Gap bor, – tushuntirdi trener. – Gap shundaki, biz shu bilan ularning dardisarlari qutulamiz-qo'yamiz. Kaptarxonaga esa eng zo'rlari qaytib keladi, bizga ana shu zo'rlari kerak.

Kaptarboz hamda kaptarga ishqiboz hamsoylar turli kaptarlardan bir juft-bir juftdan ushlab turdi. Ular g'oliblar uchun mukofot ham ta'sis etdi. Men, hakamlik qilib, zafar qozongan kaptarni aniqlab berishim lozim bo'ldi. Yutib chiqqan kaptar deb birinchi bo'lib qaytib kelgan emas, balki kaptarxonaga birinchi uchib kirgani aytiladi, boisi,



uyasiga qaytib kelishga kelib, ammo unga uchib kirmagan kaptardan yaxshi xat tashuvchi chiqmaydi.

Hamisha har qanday yerdan ham uyiga qaytib keluvchi kaptarni xonaki kaptar deyдилar. Xonaki kaptarlarning aytarli husni ham bo'lmaydi, ko'rimsiz bo'ladi, shu sababliyam qushlar ko'rgazmasiga yaramaydi. Ularni ko'z-ko'z qilish uchun emas, balki uchqur qanotli, es-hushli bo'lgani uchun boqib ko'paytiradilar. Ular o'zlarining qadrdon makonlariga mehr-oqibatli keladi, o'z makonlarini adashmay topib kelish qobiliyatiga ega bo'ladi. Endilikda aytishlaricha, xonaki kaptarlarda topa olish tuyg'usi quloqlarining chig'anoqsimon ichki tarafida bo'larmish. Olamda xonaki kaptarlarday topa olish tuyg'usi bor jonzo't yo'q. Odatda bunday kaptarlarni quloqlari ustidagi katta-kon qavariqlardan hamda qudratli qanotlaridan bilsa bo'ladi.

Shunday qilib, yosh kaptarlar qobiliyatini sinab ko'radigan bo'ldik. Guvohlar ko'p bo'lsa-da, kaptarxonaning bittasini ochiq qoldirib, qolgan bari eshikchalarini yopib qo'yishni, o'sha ochiq eshikchani ham birinchi kaptar kaptarxonaga uchib kirishi bilanoq darrov yopib qo'yishga shay bo'lib turishni lozim topdim.

Shu kuni boshimdan nimalar kechirganimni hech unutmayman. Kaptarlarni soat o'n ikkida qo'yvoramiz, deya meni ogohlantirishdi. Ular soat o'n ikki yarimlarda shu yerda bo'ladi, quloqni ding qilib turmasa bo'lmaydi, kaptarlar xuddi quyunday uchib keladi. Ularni arang farqlab bo'ladi, ular juda tezlik bilan kaptarxonaga uchib kiradi.

Biz kaptarxona devorlariga tiqilib, qatorlashib turib oldik, teshiklar, yarim yopiq eshik tirqishlaridan mo'ralab, janubi-g'arbiy ufqni kuzatdik, shunda oramizdan allakim birdan qichqirib yubordi:



– Qaranglar, ana ular!

Oppoq bulut shahar tomlari uzra pastlab, fabrika mo'risini aylanib o'tdi, oradan ikki soniya o'tar-o'tmas kaptarlar joy-joyiga yetib keldi. Oppoq bulutlar, qanotlar patir-puturi shunday tez, favqulodda ro'y berdiki, men qanchayin o'zimni tayyorlamayin, baribir g'aflatda qoldim. Mening joyim o'sha yagona ochiq eshikcha oldida edi. Ko'k qanotlar shunday yonginamdan vizillab, yuzlarimga tegib o'tib ketdi, men eshikchani qo'yvorganimni ham bilaman, birdan baqiriq-chaqiriq boshlandi:

– Arno! Arno! Men sizlarga aytuvdim-ku, u yutib chiqadi deb! Hay, mening kaptarginam-a! Bor-yo'g'i uch oy ichida mukofotli bo'lding-a! Mening quvonchim-a!

Arnoning egasi puldan ham ko'ra kaptarining muvaffaqiyatidan boshi osmonga yetib irg'ishladi.

Hammamiz kaptar tevaragida cho'k tushdik, suv ichib bo'lib, donlash uchun chog'langan g'olibni ehtirom bilan tomosha qila boshladik.

– Qaranglar, ko'zlarini, qanotlarini qaranglar! Umlaringda uning ko'kragiday ko'krakni ko'rganmisizlar? O, zo'r-da, dunyoning narigi chekkasidan ham uchib keladi! – Arnoning egasi dami chiqmay qolgan omadsiz kaptarbozlarga qarab shunday deya valdiradi.

Bu Arnoning ilk jasorati edi. U ellikta saralab olingan kaptarlar ichida eng zo'ri bo'ldi, uni kelgusida ulkan shon-shuhrat kutdi.

Arno eng zo'r kaptarlar taqdirlanadigan kumush halqa bilan mukofotlandi. Halqada uning 2590 S raqamli yorlig'i jilvalanib turdi. Bu raqamni ishqibozlar hanuzgacha hurmat bilan gapirib yuradi.

Kaptarxonaga jami qirqta kaptar qaytib keldi. Deyarli hamisha shunday bo'ladi. Birovlari holsizlanib, yo'lda qolib ketdi, birovlarini dovdilik qilib chetga chiqib qoldi.



Kaptarbozlar ana shunday jo'n usul bilan nasllarni takomillashtirdilar. Qolgan o'nta kaptarlardan beshtasi dom-daraksiz yo'qoldi. Beshtasi o'sha kuni kechroq bitta-bittadan emas, beshovi birga qaytdi. Ularning eng oxirida katta, lapashang ko'k kaptar yetib keldi. Kaptarxonada ishlovchi kishi kaptarni ko'rib, shunday dedi:

– Mana, Jek musobaqaga qo'ygan esi past ko'k kaptar. Men uni qaytib keladi, deb xayolimgayam keltirmagandim. Judayam bo'qog'i katta-da.

Ulkan Ko'k, uni Burchaklik deb ham atashadi, chunki u burchakdagi uyada dunyoga kelgan, ana shu Ulkan Ko'k ko'z ochib dunyoni ko'rgan ilk kunlaridan boshlab o'zining kuch-qudrati bilan havolanib yuradi. U barcha kaptarlar bilan tengdosh bo'lib, tengdoshlaridan bo'limliligi hamda husni jamoli bilan ajralib turadi. Afsuski, kaptarbozlar kaptarning chiroyini kam qadrlaydilar. Ulkan Ko'k, aftidan, o'zining go'zalligidan faxrlanadi, shundan bo'lsa kerak, kichkinaligidan boshlab zaiflarni yerga urishni yaxshi ko'radi. Uning egasi kaptarining katta kelajagi borligidan bashorat qildi, ammo otboqar Billi kaptarning uzunchoq bo'yni, kattakon bo'qog'i, lapashangligi, ortiqcha semizligini ko'rib, bunga ishonmadi.

– Bu kaptar jonivoring bo'ynidagi bo'qog'i bilan qanday uchadi? Keyin salanglagan oyoqlariyam turgan-bitgani yuk, – kamsitgannamo vaysadi Billi, ertalablari kaptarxonani supurayotib.

II

Birinchi parvozdan so'ng kaptarlar mashg'uloti muntazam o'tkazib turildi. Oraliqdagi masofa kun sayin yigirma besh-o'ttiz millargacha oshib bordi, yo'llar ham to'liq kaptarlar Nyu-Yorkning yuz ellik milchalik tevarak-



atroflarini o'rganmagunlariga qadar o'zgarib bordi. El-likta kaptardan bor-yo'g'i yigirmatasi qoldi, chunki qattiqqo'llik bilan o'tkazilgan saralash nafaqat zaiflar va noshudlarga, shuningdek, favqulodda kasalga chalingan, biror kulfatga yo'liqqan yo bo'lmasam poyga oldidan qornini to'ydirib olgan kaptarlarga ham daxl qiladi.

Kaptarxonada chiroyli-chiroyli, keng ko'krakli, ko'zlari ravshan, uzunqanot, insonga eng kerakli vaqtda yordam beradigan kaptarlar ko'p. Bu kaptarlarning rangi asosan oq, ko'kish yoki jigarrangdir. Ular muayyan bir turga kirmaydi, ammo saralab olingan har bir kaptarning ko'zlari ravshan, quloqlari ustidagi qavariqlari xonaki kaptarlarning asl zotiga mansub bo'ladi. Ular orasida eng zo'ri kichkinagina Arno bo'lib, deyarli ham-mavaqt birinchi parvoz qiladi. Uyasida boshqa kaptarlardan unchalik ham ajralib turmaydi, chunki endi bari kaptarlar kumush halqalar bilan bezanib olgan. Ammo osmonda o'zining kimligini bildirib qo'yadi. Savatni ochishlari bilanoq birinchi bo'lib uchib, ma'lum balandlikka ko'tariladi, uyiga olib borajak yo'lga tushib, hech yanglishmay, don-dun ham demay, suv ichmay, ko'nglini ham yozmay yeldek uchadi.

Billining shuncha jon kuydirib gapirganiga qaramay, burchakdagi uyadan chiqqan Ulkan Ko'k yigirmata sara kaptarlar orasiga tushib qoldi. U dam-badam yo'lda kechikib qoldi, ammo hech qachon birinchi bo'lib qaytib kelmadi. Yana bir safar sheriklaridan bir necha soat kechikib keldi, kelgach, uning na ochligi, na tashnaligi bilindi, bu uning yo'lda damini olib, qornini to'qlab olganligidan dalolat berdi. Ammo har safar qaytib kelganida, panjalarida boshqa kaptarlarniki singari kumush yorliqli halqasi bo'ladigan bo'ldi. Billi Ko'kni yomon ko'radi, ammo kaptar xo'jayini qayta-qayta takrorlayveradi:



– Unga muddat bering. Qaysiki kaptar tez yetilsa, tez kuchdan qoladi. Yaxshi qush hammadan keyin o‘zini ko‘rsatadi, men buni tajribamdan bilaman.

Kichkinagina Arno bir yil deganda rekord qo‘yib, dong taratdi. Hammasidan ham dengiz ustidan uchish mushkul, chunki dengizda yo‘lni biron-bir belgidan farqlash imkoniyati bo‘lmaydi. Bundan ham yomoni, tumanda uchish, bunda hatto quyosh ham ko‘rinmaydi. Kaptarda esda saqlash, eshitish hamda ko‘rish qobiliyati ko‘mak berolmagan taqdirda ham tug‘ma yo‘l topa olish tuyg‘usi saqlanib qoladi. Faqat qo‘rquvgina bu tuyg‘uni yo‘q qilishi mumkin. Qudratli qanotlar ostida botir yurak joy olishining siri ham ana shunda.

Armoni ikkita kaptar bilan birga Yevropaga bora-yotgan okean kemasiga solib yubordilar. Ularni ochiq dengizga chiqishlari bilan qo‘yvormoqchi bo‘lishdi, ammo to‘satdan quyuq tuman bosib barcha rejalarni puchga chiqardi. Kema ularni oldinga olib ketdi. Birinchi duch kelgan kemada kaptarlarni jo‘natib yubormoqchi bo‘lishdi. Soat o‘nlardan so‘ng kema mashinasi ishdan chiqdi, tuman quyuqlashib, kema shamol va to‘lqinlar ixtiyoridagi yaroqsiz o‘yinchoq ko‘yiga tushib qoldi. Birdan-bir yo‘li, gudok chalib, tashvishdan xabar berish bo‘ldi. Ammo bu chora ham yordam bermadi. Shunda dengizchilarning esiga kaptarlar tushib qoldi. Chek 2592 S raqamli Starbekka tushdi. Ivimaydigan qog‘ozga xat yozib o‘rab, kaptarning pastki patiga bog‘lashdi. Starbek ko‘kka o‘qday parvoz qilib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Yarim soatchadan so‘ng burchakdagi uyadan chiqqan 2600 S raqamli Ulkan Ko‘kni ham patiga xat bog‘lab uchirishdi. U ham havoga ko‘tarildi, biroq shu dahzaning o‘zidayoq iziga qaytib kelib, kema arqoniga qo‘ndi. U qo‘rquvdan g‘ujanak bo‘lib oldi. Uni hech qanday yo‘l bilan kemadan chiqarib bo‘lmadi. U



shu darajada qo'rqib ketgan ediki, hech bir qarshiliksiz o'zini tutqazib, behayolarcha qafasga kirib oldi.

Endigi navbat kichkinagina pishiq kaptarga keldi. Dengizchilar u haqda hech bir tasavvurga ega emasdi, shunday bo'lsa-da, uning laqabi bilan halqasidagi: Arno, 2590 S bitigini e'tiborga olib qo'yishdi. Ular uchun halqadagi bu bitik uncha ahamiyatga ega emas. Ammo kaptarni qo'lida ushlab turgan dengizchi Arnoning yuragi oldingi choparnikiday dukillab urmayotganligiga amin bo'ldi. Ulkan Ko'kdan yechib olingan xatni unga bog'lashdi. Ushbu xat mana bunday edi:

Ertalab soat 10, seshanba.

Mashina Nyu-Yorkdan 210 mil narida ishdan chiqdi. Tumanda qo'limizdan hech nima kelmay tentirab yuribmiz. Shatakchi kemani iloji boricha tezroq jo'nating. Har olti-o'n sekundda uzun, so'ng qisqa-qisqa signal beramiz.

Kapitan.

Xat ivimaydigan qog'ozga karnay qilib o'ralib, Kemalar uyushmasiga yo'llangan kaptar dumining pastki tomoniga mahkam bog'lab qo'yildi.

Kaptar qo'yvorishlari bilanoq kema uzra doirasimon uchdi-da, so'ngra yuksakroqqa, to kema ko'zdan g'oyib bo'lgunicha yanada yuksakroqqa havolandi. Yagona yo'l topish tuyg'usidan bo'lak bari tuyg'ulardan kechib, maqsad sari intildi. U qo'rquvni bilmadi. Xuddi Kompas mili singari bexato, manzilga hech ikkilanmay, shubhalanmay ilgariladi. Qafasdan chiqiboq go'yo nur singari tikka, o'zi o'sgan kaptarxonaga, o'zini uyimdaman, deb his qilgan yagona makonga yo'l oldi.

Shu kuni kaptarxonada Billi navbatchilik qilardi. To'satdan uchqur qanotlar ovozi eshitildi, kaptarxonaga



ko'kish nur kirib, suvli idishga o'zini urdi. Kaptar chanaqab suvlab boshladi, shunda Billi uni tanib qoldi:

– Arno, bu senmisan, lochinim! Keyin kaptarbozga o'rganish bo'lib qolgan odatiga binoan yonidan soatini chiqarib, vaqtini belgilab qo'ydi: soat 2 dan 40 daqiqa kechibdi. U xuddi shu payt kaptar dumidagi ipni payqab qoldi. Billi eshikchani qiya yopib, Arnoning boshiga to'r tashladi. Oradan bir daqiqa o'tgach, uning qo'lida xat paydo bo'ldi, ikki daqiqadan so'ng esa bo'lajak mukofot epkinidan rohatlanib, uyushma idorasi tomon shoshib jo'nadi. U idorada Arnoning dengiz ustida, tumanda 210 milni to'rt soat-u qirq daqiqa ichida bosib o'tganini bildi, oradan biron soat ham o'tmay falokatga uchragan kemaga yordam ko'rsatish uchun shatakchi kema yuborildi.

To'rt soat-u qirq daqiqa ichida tumanda, dengiz ustida ikki yuz o'n mil yo'l bosish! Bu misli ko'rilmagan rekord! Arnoning nomi Kaptarlar klubi ro'yxatiga kiritildi. Armoni ushlab, kotib rezina muhr va o'ngmaydigan siyoh bilan uning oppoq qanotlari orasiga jasorat ko'rsatgan kunini qayd etdi.

Ikkinchi kaptar Starbek shu ketganicha qaytib kelmadi. Uning dengizda halok bo'lganligiga shubha qolmadi.

Burchakdagi uyadan chiqqan Ko'k kaptar shatakchi kemada keldi.

III

Bu Arnoning birinchi qahramonligi bo'lib, shundan keyin birin-ketin boshqa jasoratlar ham ko'rsata boshladi.

Bir kuni otxonaga bir kareta kirib keldi, undan sochlari oqargan janob tushdi-da, chang-tuproq bo'lib yotgan zinalardan kaptarxonaga chiqdi, ertalab butun



vaqtini Billi bilan birga tilla ko'zoynaklari ortidan dam bir to'da qog'ozga, dam shahar tomlariga tikilib o'tkazdi. Qirq mil masofadan keltirilgan xabarlar uning uchun judayam katta ahamiyatga ega edi, bu xabarlar uni yo qutqaruvi, yo xarob etmog'i kerak edi, bundan u juda tezlikda xabardor bo'lishi zarur bo'lib, ushbu xabarlar telegrafdan ko'ra tezroq kelishi kerak, axir telegramma har bir yo'nalishda bir soatdan tutilib qoladi-ku. Qirq mil masofaga telegrammadan ko'ra nima tezroq kelishi mumkin? O'sha mahallarda birgina vosita bo'lib, u ham bo'lsa, a'lo xat tashuvchi kaptar edi.

Agar g'alaba qozonguday bo'lishsa, pul nima degan gap. Bankir chol qancha to'lasam to'layin, eng zo'r kaptarlaringdan jo'natinglar, deya o'tindi. Shunda darakchi qilib, o'chmas jasoratlari qanotlariga bitilgan Arno tayinlandi.

Oradan bir, ikki, uch soat o'tuvdi hamki, ko'k yashin qanot qoqib, kaptarxonaga otilib kirdi, Billi eshikchani yopib, kaptarni tutdi. U asta ipni uzib, xatni bankirga uzatdi. Cholning rangida rang qolmadi, qog'ozni arang ochdi, birdan chehrasi yorishib:

– Xudoga shukur! – deya g'o'ldiradi.

So'ngra baxtiyor bankir g'alaba qozonganiga amin bo'lib, yig'ilishga shoshildi. Jajji Arno uni o'limdan qutqarib qoldi. Bankir kaptarni opketmoqchi, xaloskorini avaylab parvarish qilmoqchi bo'ldi. Biroq Billi bunga ko'nmadi.

– Nima foydasi bor? Xonaki kaptarning yuragini sotib olib bo'lmaydi. Siz uni tutqun qilib qo'yasiz, vassalom. Dunyoda hech qanday narsa uni o'zi ko'z ochgan eski kaptarxonasini tark etishga majbur qilolmaydi.

Shunday qilib, Arno G'arbiy o'n to'qqizinchi ko'chada, 211-nomerda qoldi. Bankir uni unutib yubor-



Bizning mamlakatimizda uchib ketayotgan kaptarni o'zining qonuniy o'ljasi deb hisoblaydigan, ularni ushlash mushkul bo'lgani uchun o'ldirib qo'lga oladigan yaramas odamlar ko'p topiladi. Hayot-mamot xabarini eltayotgan ko'plab olijanob choparlar ana shunday yovuz odamlar qo'lida qurbon bo'lib, pirogiga qiyma bo'lgan.

Arnoning uchta rekordni qo'lga kiritishga muyassar bo'lgan akasi Arnolf bemorga tabib chaqirish uchun ketayotganida o'ldirildi. U merganning oyoqlari ostiga kelib tushdi, shunda uning jasoratlari qayd etilgan ulug'vor qanotlari yozilib ketib, oyoqlarida kumush halqa ko'zga tashlandi, ovchi bundan vijdon qiynog'ida qoldi. U doktorga xatni jo'natib, kaptarni Kaptarlar klubiga go'yoki «uni topib oldim», degan xabar bilan qaytib berdi. Kaptar egasi uning uyiga kelgan mahal, ovchi o'zini yo'qotib qo'ydi, chopar kaptarni o'zi otganiga iqror bo'lishga majbur bo'ldi. Ammo u, bemor qo'shnim kaptar qiymasi solingan pirog yegisi kelgani uchungina otganman, deb bahona qildi. Kaptar egasining nafrat-alami ko'z yoshlari bilan qorishib ketdi:

– Arnolf, kaptarginam! U yigirma marta eng zarur xabarlarini yetkazdi, uch marta rekord qo'ydi, ikki marta inson hayotini saqlab qoldi, siz bo'lsangiz uni pirog qilaman deb otib o'tiribsiz! Men sizni qonun bo'yicha jazoga tortishim mumkin-u, ammo bunday ojizona qasos olishga yuragim chidamaydi. Faqatgina bir narsani sizdan o'tinib so'rayman: mabodo yana biron-bir bemor qo'shningiz kaptar qiymasi solingan pirogni ko'ngli tusab qolguday bo'lsa, bizning oldimizga boring, biz sizga pirogga yaraydigan notavon kaptarlarimizdan tekkinga beramiz. Agar sizda nomus-or tuyg'usidan zarfacha bo'lsa, hech qachon bizning oliyjanob, bahosiz



xabarchilarimizni o'ldirmang, boshqalarning ham bunday qilishlariga yo'l qo'ymang.

Bu voqea bankir kaptarxonaga tez-tez qadam ranjida qilib turgan, qalbida kaptarlarga nisbatan minnatdorlik hislari to'lib-toshgan paytlarda sodir bo'ldi. Bankir mavqeyi baland odam bo'lib, Arnoning birgina jasoratidan xulosa chiqarib, Olbani'da kaptarlarni himoya qiladigan qonun bo'lishini talab qildi.

IV

Billining burchakdagi uyadan chiqqan Ko'kka, 2600 S ga hech ko'ngli chopmasdi. Shunga qaramay Ko'k hamon Kumush ordenlilar ro'yxatida turar, Billi esa unga odatdagiday mensimay qarardi. Kemada sodir bo'lgan hodisa uning qo'rqqoligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, u o'taketgan urushqoq ham edi.

Bir kun ertalab Billi kaptarxonada janjal ustidan chiqib qoldi. Ikkita, biri katta, ikkinchisi kichkina kaptar bir-birlariga tashlanganicha chang-to'zon ko'tarib yerda urishib yotibdi. Billi kaptarlarni bir-birlaridan arang ayirib, qarasa, ulardan biri jajji Arno, kattasi esa burchakdagi uyadan chiqqan Ko'k ekan. Arno qattiq turib urishdi, biroq Ko'k g'olib keldi, chunki u raqibidan ikki baravar semiz edi.

Tez orada janjal sababi ravshan bo'ldi – janjal chiroyli jajji makiyon kaptar ustidan ekan. Ulkan Ko'k anchadan buyon qo'polligi bilan Arnoning g'ashiga tegib yurardi, biroq oxirgi katta janjalga olib borgan turtki jajji makiyon kaptar bo'ldi. Billi Ko'kning surobini to'g'rilab qo'yishga haqqi bo'lmasa-da, ammo yaxshi ko'rgan kaptari Arno uchun qo'lidan kelgan tadbirni qildi.

¹ Olbani – Nyu-York shtatining poytaxti.



Billi Arnoni jajji makiyon bilan alohida joyga ikki haftacha qamab qo'ydi, Ulkan Ko'kni ham birinchi uchragan xonim bilan juft qilib, bir joyga qamadi.

Bari u kutganiday chiqdi. Kichkina makiyon Arnoni o'zining xo'rozi deb bildi, «birinchi uchragan xonim» ham Ulkan Ko'kni shu tarzda qabul qildi. Kaptarlar in qurdi, murod-maqсадga yetib bariga nuqta qo'yilganday bo'ldi. Ulkan Ko'k juda xushqomat, xushsuvrat edi. U bo'qog'ini oldinga chiqarganda, bo'yni atrofida quyosh nuri ostida shunday kamalak hosil bo'lardiki, buni ko'rgan har qanday makiyon ham mahliyo bo'lib qolardi.

Bizning Arnomiz garchand o'zi pishiqqina bo'lsa-da, bo'yi past bo'lib, unchalik chiroyli ham emasdi. Faqatgina ko'zlari g'alati chaqnab turardi. Buning ustiga, Arno kaptarxonani muhim ishlar vajidan tez-tez tark etib turdi, Ulkan Ko'k bo'lsa kaptarxonada o'zini ko'z-ko'z qilib, bitiklardan xalos qanotlarini yoyib yurishni kanda qilmadi.

Yozuvchilar hamisha jonivorlardan, xususan, kaptarlardan juftlik, vafo, sadoqat namunalarini izlaydilar. Umuman olganda, ular haq, ammo afsuski, hamisha ham haq bo'lavermaydilar.

Arnoning jufti haloli avval-boshdan Ulkan Ko'kka maftun bo'lib yurardiki, kunlarning birida, Arno ish bilan ketgan kuni xunuk voqea sodir bo'ldi.

Arno Bostondan kelib qarasa, Ulkan Ko'k burchakdagi uyasida risoladagi «xonim»idan yuz o'g'irmay, ayni bir vaqtda Arnoning jufti halolini ham, uyasini ham o'ziniki qilib olibdi. Oqibat, o'rtada qattiq kurash ketdi. Jufti halollari ularning kurashini loqaydlik bilan tomosha qilib o'tirdi.

Shunda Arno o'zining xushro'y qanotlarini ishga soldi, ammo shuncha jasoratlar ko'rsatgan qanotlarimam



ish bermadi. Shuningdek, barcha xat-xabarchi kaptarlarniki singari kaltagina tumshug'i bilan oyoqlari ham, jasur yuragi ham yordam berolmadi. Olishuv uning foydasiga hal bo'lmaydigan bo'ldi. Jufti esa o'z uyasida go'yo betarafday xotirjamgina qarab o'tiraverdi, xayriyat, shu vaqt Billi kelib qoldi, bo'lmasa Arno u dunyoga ravona bo'lardi. Billining chunonam qahri keldiki, Ko'kning naqd bo'ynini uzib tashlamoqchi bo'ldi, yaxshiyamki, u kaptarxonadan o'z vaqtida juftagini rostlab qoldi.

Billi bir necha kun Armoni mehr bilan xo'p parvarish qildi. Arno oradan bir hafta o'tgach, butunlay sog'aydi, o'n kunlardan so'ng esa yo'lga chiqdi. U, aftidan, bevafo juftining xiyonatini kechirdi shekilli, o'z uyasida osoyishta yashay boshladi. Arno shu oy ichida ikkita yangi rekord qo'ydi: u o'n millik yo'lni sakkiz daqiqa ichida bosib o'tib xat keltirdi hamda Bostondan Nyu-Yorkkacha to'rt soatda uchib keldi. Har safar uni ona yurtiga muhabbat tuyg'usi chorlardi.

Arnoning qaytishi qayg'uli bo'ldi, u yana juftining Ulkan Ko'k bilan suhbat qurib o'tirgani ustidan chiqdi. U qanchalik horib-tolgan bo'lishiga qaramay olishuvga chiqdi, yana Billi aralashmaganida olishuv Arnoning o'limi bilan tugardi. Billi avval ularni ayirdi, so'ng Ko'kni iloji bo'lgan zahotiyoy qo'qotishga ahd qilib, qamab qo'ydi.

Shu asnodda barcha katta-kichik yoshli kaptarlar orasida Chikagodan Nyu-Yorkkacha bo'lgan to'qqiz yuz millik masofani uchib o'tish musobaqasi yaqinlashib qoldi.

Kaptarlar Chikagoga temir yo'l orqali jo'natildi. Ularni Chikagoda birin-ketin qo'yib yuborishdi. Eng yaxshi kaptarni hammasidan keyin qo'yvorishadi. Shu boisdan ham Arno eng oxiri qo'yib yuborildi.



Bir nechta kaphtar Chikagodan o'tib, beixtiyor bir to'da bo'lib uchdi. Xonaki kaphtarlar umumiy yo'l to'pish tuyg'usiga amal qilib to'g'ri yo'l bo'ylab uchdi, o'zlariga tanish yo'l bo'ylab uchganlarida esa xotiralari-da saqlanib qolgan belgilarga qarab uchdi. Ularning anchaginasi Kolumbus orqali Buffaloga o'tadigan yo'lda mashq oldi. Arno Kolumbusdan o'tadigan yo'lni biladi, ammo Detroyt orqali o'tuvchi yo'ldan ham xabardor. Shuning uchun ham Michigan ko'lidan o'tib, to'g'ri Detroyt tomon parvoz qildi. Shu tariqa u birdaniga bir qancha mil yutdi.

Detroyt, Buffalo, Rochester tanish minoralari-yu mo'rilari bilan birin-ketin ortda qolib, gala Sirakuzaga yaqinlashib bordi. Kun qaytib, kech kira boshladi. Arno olti yuz mil masofani o'n ikki soat ichida bosib o'tib, hech shubhasiz, hammadan birinchi bo'ldi, shunda uning birdan suv ichgisi kelib qoldi. Shahar tomlaridan uchib o'tayotib, ko'zi bir kaphtarxonaga tushdi va yuksakda ikki-uchta katta-katta doira hosil qilib pastladi, qon-qardoshlarining safiga qo'shilib, suvdondan tashnalik bilan suv ichdi. U birinchi marta shunday qilishi emas, ilgarilari ham shunaqa to'xtab suv ichib olgan vaqtlari ko'p bo'lgan.

Albatta, har bir kaphtarboz borki, chopar kaphtarlarni mehmon qilgisi keladi. Arno kelgan mahal kaphtarxona egasi kaphtarxonada bo'lib, mehmon kaphtarni payqab qoldi. U kaphtarni ehtiyot bilan kuzatish mumkin bo'lgan joyga turib oldi. Uning kaphtarlaridan biri mehmon bilan talashib qoldi, mehmon o'zini mudofaa etib, qanotlarini yoydi, shunda ko'rsatgan rekordlari ko'z-ko'z bo'ldi-qo'ydi. Kaphtarboz eshikcha ipini bir siltab tortdi. Arno ko'z ochib yumguncha uning asiri bo'ldi.

Kaphtarboz Arnoning yozuvlarga to'la qanotlarini yozib rekord ustiga rekordlarni o'qidi, kumush halqaga



nazar soldi, halqada kaptarning laqabini o'qib, qichqirib yubordi:

– Arno! Arno! O, men sen haqingda eshitganman, bi-rodar, seni ushlab olganimdan juda xursandman!

U xatni qirqib olib o'qidi:

Arno Chikagoni bugun ertalab soat 4 da tark etdi. U turli yoshdagi kaptarlarning Chikago–Nyu-York marshruti bo'ylab katta musobaqasida qatnashmoqda.

– O'n ikki soat ichida olti yuz mil yo'l bosish-a! Sen rekordlar rekordini qo'yibsan, Arno!

Shunday qilib, kaptarboz tipirchilayotgan kaptarni avaylab-e'zozlab qafasga qamadi.

– Xo'sh, – dedi u. – Bilaman, seni bu yerda qoldirib bo'lmaydi, lekin men seni qoldirib, sendan nasl olib, naslingni ko'paytiraman.

Shunday qilib, Arno yaxshigina bir joyga bir nechta kaptarlar bilan birga qamab qo'yildi. Kaptarxona egasi o'g'ri bo'lsa-da, kaptarni jon-dilidan yaxshi ko'rarkan, u o'z asiridan hech nimani ayamadi.

Shu tariqa uzun-uzun uch oy o'tdi. Arno avvaliga kuni bo'yi tepaga, pastga olazarak bo'lib, qayerdan chiqib ketsamikin, deya qafas bo'ylab yurdi, to'rtinchi oy deganda, aftidan, qochish fikridan qaytdi, shunda sinchkov qamoq egasi navbatdagi niyatini bajarishga kirishdi. U Arnoning oldiga yoshgina makiyon kaptarni kiritib qo'ydi. Ammo bu usul naf bermadi: Arno makiyon kaptarga hatto qiyo ham boqmadi. Qamoqxonachi biroz vaqt o'tkazib makiyon kaptarni chiqarib oldi, Arno yana bir oy yakka o'zi qamoqda yotdi. So'ngra yana yoniga yangi kaptar kiritdilar, biroq bundan ham biron ish chiqmadi, shu tariqa yil o'tdi. Arno o'zining



oldiga kiritilgan go'zallarni goh achchig'i kelib cho'qib tashladi, goh ulardan jirkanib, qaragisi kelmayotganini namoyish qildi, unda uyga qaytish istagi oshgandan-oshib, o'zini sim devorga urdi, bezovtalanib, uyoqdan-buyoqqa zir yugurdi. Har yili kaptarlar tullaganda qamoqxonachi Arnoning qimmatbaho patlarini esdalik uchun avaylab olib qo'ydi, yangi patlarga esa Arnoning shon-shuhratini bitib qo'ydi.

Ikki yil imillagandan-imillab o'tdi. Qamoqxonachi Arnoni yangi kaptarxonaga ko'chirib, yoniga yangi makiyon kaptarni kiritdi. Bu makiyon kaptar Arnoning uyda qolgan bevafo yoriga juda-juda o'xshab ketdi, Arno unga qayrilib qaradi. Bir kuni qamoqxonachiga o'zining mashhur asiri go'zal makiyon atrofida parvona bo'layotganga o'xshab tuyuldi, darhaqiqat, bunga shubha qilmasa ham bo'ladi! – ana, makiyon o'ziga uya tayyorlayapti. Bundan kaptarlar butunlay inoqlashib ketibdi, degan xulosaga kelgan qamoqxonachi birinchi marta darchani ochdi, Arno ozod bo'ldi. Arno ikkilanib qoldimi? Yo dovdirab qoldimi? Hech ham-da! Qarshisida bepoyon fazo namoyon bo'lishi bilanoq ozodlikka talpindi, bitikli ajoyib qanotlarini yoyib, manfur qamoqdan nari ketish uchun olg'a intildi.

V

Hech bir odam o'z uyini Arno o'z kaptarxonasini sevganichalik seva olmaydi.

Uyga, uyga, jonajon uyiga ketyapti! Qadrdon uyida kechirgan barcha sinovlar-u alamlar unut bo'ldi. Na asirlikda kechirgan yillari, na so'nggi oshiqligi, na o'lim vahimasi yurtiga bo'lgan muhabbatini so'ndirishga qodir bo'ldi, mabodo Arnoda qo'shiq kuylash, sayrash iqtidori bo'lganda edi, shubhasiz, mardona qo'shiq kuy-



lagan bo'lardi. U doira hosil qila-qila ko'kka parvoz qildi, mana, istakka bo'ysunishga moyil ajoyib qanotlari yurtiga muhabbat, yolg'iz uyiga hamda bevafo yoriga sadoqat bilan tobora yuksalib uchdi. Ko'zlarini yumib desak-da bo'ladi, quloqlarini yumib desak-da bo'ladi, es-hushini yo'qotib desak-da bo'ladi – o'zini sirli yo'lovchisi bo'lmish yo'l topa olish tuyg'usi ixtiyoriga tamoman berib qo'yib, zangori samoda suzib ketdi.

Arno janubi-sharq tomon o'qday uchdi. Sirakuzalik kaptarkushanda Arno bilan bir umrga xayrlashdi.

Pastdagi darada tezyurar poyezd tutun burqsitib boryapti. Poyezd juda oldinda borayotgan bo'lsa-da, Arno uni quvib yetdi, so'ng xuddi yovvoyi o'rdak suzib ketayotgan suvkalamushdan o'zib ketgani singari poyezddan o'zib ketdi. Daralar uzra havoladi, Chenango tog'larining shamolda shivir-shivir etayotgan qarag'aylarini pastlab o'tib, tobora olg'a parvoz etdi.

Birdan eman daraxtidagi indan qirg'iy chiqib qoldi, kaptarga ko'zi tushib, ko'ngli ketdi. Arno na o'ngga, na so'lga, na yuqoriga, na pastga qayrildi, qanotlari parvozdan bir daqiqa ham to'xtamadi. Qirg'iy poylayverib ovora bo'ldi. Arno xuddi bug'u kuchga to'lib-toshgan payti ayiqlar pistirmasidan o'tib ketganiday uning shunday yonginasidan uchib o'tib ketdi! Uyga, uyga olg'a!

Pat, pat, pat! – qanotlar o'ziga oshno yo'llardan ana shunday qanot qoqib, yalt-yalt etib uchib bordi. Yana bir soatdan so'ng qadrdon qoyalarni ko'rdi. Ana, u qoyalar ustidan uchib o'tmoqda. Qarshisidan peshvoz chiqayotgan qadrdon joylar unga yangi-yangi kuch bag'ishladi. Uyga, uyga ketyapti! – uning yuragi so'zsiz kuyladi. Xuddi tashnalikdan jon berayotgan yo'lovchi qisidan arang ko'zga chalinayotgan palma daraxti uchlariga



tikilgani singari uning ham yarqiroq ko'zlari umid bilan uzoqlardagi Manxetten¹dan o'rlagan tutunga termuldi.

Shu payt tog' cho'qqisidan kaphtar oladigan lochin qush uchib tushdi. Yirtqichlar ichida eng tezuchar, o'z kuchi, qanotlariga bino qo'ygan lochin yaxshigina o'lja topganidan quvonib ketdi. Qanchadan-qancha kaphtarlarning boshiga yetgan lochin o'ziga dam berib-dam berib, kuchini avaylab, qulay mavrid poylab shamol bilan uchdi. O, u shunday payt topdiki! Shunda pastga, pastlikka tomon xuddi o'q kabi otildi. Na yovvoyi o'rdak, na qirg'iy undan o'zini chetga ololdi, chunki u o'z oti o'zi bilan lochin-da!

Orqangga qayt, kaphtarjon! O, kaphtarjon, ehtiyot bo'l, qo'rqinchli qoyalarga chap berib o't!

Kaphtar yo'lidan qaytdimi? Yo'q, chunki u Arno! U uyga, uyga, uyga ketyapti! U boshqa hech nima to'g'risida o'ylamadi. U lochindan ehtiyot bo'lib, yanada shiddat bilan uchdi. Lochin oldinga tashlanib, yalt-yult qilayotgan narsaga hamla qilib, ortiga hech vaqosiz qaytdi. Arno bu orada xuddi sopqondan otilgan tosh kabi dara fazosini yorib o'tdi: avvaliga oqqanot qush bo'ldi, so'ng titrab turgan yoniq nuqtaga aylandi, keyin ko'rinmay ketdi. Qadrdon Gudzon darasi, eskitdan tanish katta yo'l bo'ylab uchdi. Bu yo'lni ko'rmaganiga ham ikki yil bo'ldi. Endi u pastlab uchdi. Shimol tarafdin shamol esib, pastdagi daryo mavj ura boshladi. U uyga, uyga, uyga ketyapti! Endi qiyalab uchish kerak, chunki shamol esyapti.

Pastlab uchish! Afsuski, u judayam pastlab uchib yubordi! Ovchini iyun pallasini shu qoya yonbag'riga yashirinib o'tirgin, deb qaysi yovuz ruh yo'ldan ozdirdi?

Lip-lip qilib ko'zga chalingan, osmon bo'shlig'idan shimolga peshvoz qalqib chiqqan oppoq dog'ni qaysi ib-



Manxetten - Nyu-York shahri joylashgan orol.

lis ko'rsatdi? O, Arno, pastlab uchib borayotgan Arno, mergan yodingda bo'lsin! Bu qoyadan sen juda, juda-yam pastlab uchyapsan! Juda!

Birdan o't chaqnab, qasir-qusur bo'ldi! – shunda ajal do'li Arnoga borib yetdi; do'l unga borib tegib shikast yetkazdi, ammo yo'lidan adashtirmadi. Lip-lip etib borayotgan qanotlari bitiklar bitilgan patlarini yerga tushirib bordi. Uning dengizda ko'rsatgan jasoratidan «nol» g'oyib bo'ldi. Endi u 210 milni emas, 21 milni ko'rsata boshladi. O, bu sharmandali talonchilik bo'ldi! Ko'ksiga qora dog' yoyilib borsa-da, Arno taslim bo'lmadi. Uyga, uyga shoshildi! Xavf orqada qoldi. Uyga, nima bo'lsayam uyga, xuddi avvalgiday to'g'riga uchdi. Ammo mo'jizavor tezlik endi kamaya bordi: oradan bir daqiqa ham o'tmadi, shamol mayib bo'lgan qanotlarida g'ayritabiiy shovqin qildi. Ko'ksidagi og'riq singan kuch-qudratidan darak bersa-da, baribir olg'a uchdi. Uyi, uyi olislardan ko'zga chalindi, shunda ko'ksidagi og'riq ham unut bo'ldi. O'tkir ko'zlari oldida shaharning baland-baland minoralari gavdalandi, u Jersi qoyatoshlarini yonlab o'tdi. Olg'a, olg'a! Qanotlari zaiflashdi, ko'zlari xiralashdi, ammo vataniga bo'lgan muhabbat oshgandan-oshdi.

U yuksak qoyalarni yonlab, shamollarga chap berib jimir-jimир qilayotgan suvlar uzra, daraxtlar uzra uchdi, kaptarxo'r lochin uyalari, dahshatli yirtqichlar o'tiradigan qoyalardagi istehkomlar ostidan uchdi. Qora niqob kiyib olgan qaroqchilarga o'xshab o'tirgan yirtqichlar kaptarning yaqinlashib kelayotganini payqab qoldi. Arno ularni azaldan biladi. Bu uyalar-da necha-necha yetib bormagan nomalar qolib ketdi, bu uyalardan necha-necha bitiklar bitilgan patlar jon titrog'ida yerga uchib tushdi. Arno ularga birinchi marta duch kelishi emas, u o'z yo'lida davom etdi, avval-



giday olg'a, olg'a uchdi, ammo oldingiday sur'ati qolmadi. Hali otilgan ajal quroli uning quvvatini sindirdi, shiddatini so'ndirdi. Olg'a, olg'a! Lochinlar mavridini poylab, xuddi ikkita o'q misol uchib tushdi. Darmondan qolgan, holdan toygan kaptarni tutib oldi.

Endigi ta'rif-tavsifning hojati bormikin? Ojiz qolgan mard qalbni tasvirlab o'tirishning hojati bormikin? U, u qalb hatto uyini ham ko'rib edi... Bir zumda bari tugadi... Kaptarxo'rlar tantanali ovoz berib, kaptar jasadini changallab, o'z qoyalariga kelib qo'ndi. Jajjigina jasur Arnoning taqdiri shu bo'ldi.

Qoyada qaroqchilarning tumshug'i bilan tirnoqlari qahramon qoniga bo'yaldi. Mislsiz qanotlar parcha-parcha bo'ldi, nomalar toshlar uzra sochildi. Vaqti kelib, qaroqchilarning o'zlari o'ldirilib, qal'alari huvillab qolmagunicha nomalar oftobda sochilib yotdi.

Agar eski-tuski lash-lushlar orasidan favqulodda bir kumush halqa chiqib qolmaganida bu ajoyib kaptarning qismati nom-nishonsiz bo'lib qolardi, birinchi darajali xat-xabarchi kaptarning muqaddas ordeni bo'lmish bu halqada mana bunday sermazmun bitiklar bitilgan edi:

ARNO, 2590 S.

CHITTAKLAR NIMA UCHUN BIR YILDA BIR MARTA ESLARINI YO'QOTADI

O'tgan qadim zamonda, hali Amerika shimolida qish bo'lmagan kezlarda chittaklar chumchuq, qarag'ayqarg'a va boshqa urug'-aymoqlari bilan shod-u xurram, tashvish neligini bilmay rohat-farog'atda yashardilar.

Ana shunday kuz kunlarining birida ona tabiat barcha qanotli sayroqi qushlarni te'roq janub tomonga uchish-




larini, yo'qsa, buyoq tomonlarga qudratli g'anim – qor, sovuq, ochlik bostirib kelajagi, ularga qarshi kurashish judayam mushkul bo'lajagidan ogoh etdi.

Chittakning qarag'ayqarg'a hamda boshqa qarindosh-urug'lari endi qayoqqa uchajaklarini maslahatlasha boshladi. Shunda butun galaning yo'lboshchisi bo'lmish chittak xuddi ikki uchiga arqon bog'lab osib qo'yilgan tayoqda o'ynaganday butoqda umbaloq oshganicha xoxolab kuldi:

«Shuncha uzoqqa borib zaril keptimi? – chirqilladi u. – Shu kam edi o'zi! Bizga shu yer ham yaxshi. Aldoqchilar, qor ham yog'maydi, sovuq ham bo'lmaydi, och ham qolmaymiz! Umrimda hech bunaqa hodisani ko'rgan ham emasman, hatto qariyalardan eshitgan ham emasman».

Ammo qarag'ayqarg'a bilan chumchuqlar shunday vahima qildi, ularning vahimalari chittaklarga ham yuqdi. Ular hatto o'yin-kulgini yig'ishtirib qo'yib, qarindosh-urug'dan o'zi nima gap, deb so'rab-surishtirishga tushdi. Aksiga olib, olis safarga otlanishlari kerakligini, masalan, chumchuqlar Meksika bo'g'oziga uchib borishlari zarurligini eshitdi. Kalxatlar changaliga tushib qolmaslik, dovullarga yo'liqmaslik uchun kechasi yo'lga chiqishlari kerakligini ham eshitdi. Chittaklar dono urug'larining gaplarini eshitib, hammasi safsatavozlik, dedi, yana beg'am-u betashvish likillab, sayrashga tushdi.

Bu orada chumchuqlar bilan boshqa shu kabi qushlar olis safarga tayyorlandi, janubga boradigan yo'llarni so'rab-surishtira boshladi. Janub tarafga qarab oquvchi azim daryo, ko'kdagi oy hamda issiq mamlakatlarga ko'chib ketayotgan yovvoyi g'ozlarni o'zlariga yo'l ko'rsatuvchi qilib oldi, bir-birlaridan adashib, qolib



ketmasliklari uchun esa yo'l-yo'lakay qo'shiq aytib uchmoqchi bo'ldi.

To'polonchi, xushchaqchaq chittaklar daryo ustidagi o'rmonda jam bo'lgan bir dunyo urug'-aymoqlarini mayna qilib kulishda davom etdi. Osmonga oy chiqdi, safarga otlanuvchilar oyni ko'rib, shu zahotiyoq gurr etib havoga ko'tarilib, qorong'ilikka qarab uchib ketdi. Chittaklar uchib ketgan qarindosh-urug'larini esi pastlar, deb atadi, ular orzu qilib borayotgan Meksika bo'g'ozini yana bir marta kalaka qilib kuldi. So'ng havoda umbaloq oshib o'ynab, shovqin-suron solib, huvillab qolgan o'rmonda uyoqdan-buyoqqa uchib yurdi.

– Shu tentaklarsiz ham yashaymiz, – deya chug'ur-lashdi chittaklar. – Joy mo'l, bor don-dun o'zimizga qoldi.

Shunday qilib, chittaklar avvalgidan ham sho'x-shan o'ynadi, ko'ngillarini chog' qildi.

Bu orada havo aynib qoldi. Nihoyat, qor urib berdi, yerga sovuq tushib, chittaklar o'zini yo'qotib qo'ydi. Ularning avvalgi sho'xliklari qayoqda qoldi! Qo'rqib, sovuqda dag'-dag' qaltiradi. O'rmonda nima qilarini, kimdan maslahat olarini, janub yoqqa qanday borish kerakligini kimdan surishtirishni bilmay, sarson-sargar-don bo'ldi. Afsuslar bo'lsin-ki, shunday ulkan o'rmonda o'zlaridan bo'lak birona sayroqi qush qolmabdi. Ularning eslariga ko'chib ketgan qushlarning daryo bo'ylab uchib ketganlari tushdi, biroq butun tevarak-atrofnı qor qoplab yotgan bo'lsa, qanday qilib daryoni farqlab bo'ladi?

Bir mahal janub tarafdı ilıq shabada esib qolib, oqila ona tabiatning aytganlariga quloq tutgan qarindosh-urug'larining ıssıq, jannatmakon janubda juda yaxshi joylashib olganlaridan xabar berdi, ammo ona tabiat ularga ıssıq mamlakatlarga ketish haqidagi barcha



umidlaridan kechishga, shu yerga, shu vatanlarining iqlimiga qo'ldan kelganicha moslashishga da'vat etdi. Vaqtida gapga quloq tutmadinglarmi, endi o'zlaringdan ko'ringlar, degan bo'ldi.

Bu xabar chittaklarga tasalli bermadi, ammo o'z vaqtida sergak etdi. Ularni bosh qotirishga, hayotning yangi shart-sharoitlariga ko'nikishga majbur etdi.

Chittaklarning ruhlari ko'tarilib, shodlandi. Ular qorda ham yashash mumkin-ku, degan qarorga keldi, yana xushchaqchaq chirq-chirqlab, bir-birlarini quvalab qirov bog'lagan daraxt shoxlarida likillab o'ynadi. Chittaklar yana o'zlarini ilgarigiday baxtiyor his eta boshladi. Izg'irin turgan, sovuq bo'lgan paytlari keksa daraxt kovaklarida, issiqqina inlarida bamaylixotir o'tirdi. Shunda qahraton qishdan so'ng darhol iliq, bahor nafasi kezdi, ulardan biri quvnoq sayrab boshladi:

Odamlar qorga ko'milgan o'rmondan qushlarning quvnoq yangragan ovozlari eshitdi, hayotning achchiq-chuchugini yengib o'tgan qushlarga mehr qo'yib boshladi.

Ammo bir yilda bir marta, kech kuz chog'lari huvillab qolgan o'rmon saltanatida izg'irin shamol uvillagan, g'uvillagan, ingragan paytlarda chittaklar g'alati bo'lib qoladi. Ular bir necha kun esdan og'ib yuradi, daraxtlar orasida bezovta sanqiydi, duch kelgan joylarga, hatto o'ta qaltis joylarga kirib ketaveradi. Bunday mahallarda ularni maysazorlar, yerto'lalar, ombor-u saroylarda, xullas, odatda jajji o'rmon qushlari yurmaydigan joylarda ko'rsa bo'ladi.

Mabodo yilning shu faslida xuddi shunday joylarda chittaklarni uchratib qolguday bo'lsangiz, bilingki, bular vaqtinchalik eslarini yo'qotib qo'ygan chittaklardir. Boisi, ular bu noma'qul joylarga kelib, o'zlaricha, Meksika bo'g'oziga keldik, deya xayol qiladi.



JONNI LAQABLI AYIQCHA

I

Jonni judayam alomat jajji ayiqcha bo'lib, onasi bilan Yellouston bog'ida yashaydi. Onasining laqabi Tajang. Ular boshqa ayiqlar bilan birgalikda mehmonxona oldidagi o'rmonda yashaydi.

Mehmonxona boshqaruvchisining ko'rsatmasiga binoan oshxonadan chiqqan bari chiqindi-yu, sarqitlar o'rmon chekkasidagi ochiq yalanglikka olib borib tashlanadi, bu yerda ayiqlar butun yoz bo'yi ziyofat yeydi.

Yellouston bog'i yovvoyi hayvonlar qo'riqxonasi deb e'lon qilinib, ayiqlarga hech kim tegmagandan keyin, ularning soni yildan-yilga ko'paydi. Odamlar marhamati bekor ketmadi, ancha-muncha ayiqlar mehmonxona xizmatkorlari bilan shunday til topishib qoldilarki, hatto ko'rinishlari, fe'l-atvorlariga nisbat berilib, laqabli ham bo'lib oldilar. Oyog'i uzundan-uzun ozg'in bir qora ayiq qiltiriq Jim deb ataldi. Yana bir qorasining laqabi Pishqiroq bo'ldi. U shu qadar qoraki, xuddi qurum bosgan-ga o'xshaydi. Baqaloq esa judayam semiz, yalqov ayiq bo'lib, doim nimanidir kavshab yuradi. Ikkita kichkina-gina paxmoq ayiq doim birga kelib, birga ketadi, ularning laqablari Egizaklar bo'ldi. Ayiqlar orasida eng dong'i ketganrog'i Tajang bilan Jonni bo'ldi.

Tjang qora ayiqlar orasida eng kattasi va eng ochko'zi sanaladi, yolg'iz o'g'li Jonni esa o'taketgan xira, badfe'l bo'lib, tinmay arillagani arillagan, g'ingshigani g'ingshigan bo'ladi. Ehtimol, biror joyi og'rir, bo'lmasa sog'lom ayiqcha sog'lom bola singari hech narsadan-hech narsa yo'q tinimsiz g'ingshimaydi-ku. Haqiqatan ham Jonni kasalga o'xshaydi. Aftidan, qorni og'riydi, sargitxonada bir uyum bulamiqni ochofatlar




yeyayotganini ko'rib shunday xulosaga keldim. Jonni ko'rgan narsasini bir tatib ko'rmasdan qo'ymaydi. Onasi esa, bolasini qaytarish o'rniga uning ochko'zligiga butunlay befarq qaraydi.

Jonning faqatgina uchta panjasi, tussiz irkit juniyu, tanasiga nomutanosib katta-katta qulog'i va qorni bor, xolos. Ammo onasi uni judayam yaxshi ko'radi, aftidan, o'g'lim juda xushsuvrat, deb o'ylaydi shekilli, turgan gap, o'g'li bundan taltayib yuradi. Tajang o'g'li uchun har qanaqa ko'ngilsizliklarga ro'para bo'lishdan ham toymaydi, Jonni esa bajonidil bunga sabab topib turadi. Kasalmand, nimjon Jonni unchalik darajada tentak ham emas, o'z istaklarini bajo keltirish uchun onasini ishga solishni o'rniga qo'ya oladi.

II

Men Jonni bilan 1897-yilning yozida, hayvonlarning kundalik hayotini o'rganish maqsadida Yellouston bog'iga borganimda tanishdim. Menga Favvorali mehmonxonasi oldidagi o'rmonda istagan paytingizda ayiqlarni ko'rishingiz mumkin, deyishdi. Men bu gaplarga to o'zim to'qnash kelmagunimcha uncha ishonqiramadim: mehmonxonaga kelib, besh daqiqa o'tarotmas tashqariga chiqib, kattakon qora ayiqlar onasi bilan ikkita ayiqchani ko'rdim.

Men bu uchrashuvdan cho'chib, joyimda taqqa to'xtadim. Ayiqlar ham to'xtab, orqa oyoqlarida turganlaricha, menga razm soldi. Ayiqlar onasi yo'talganga o'xshash g'alati tovush chiqardi: «O'h-h, o'h-h!» – so'ng shu atrofdagi qarag'ay daraxtiga qaradi. Ayiqchalar, aftidan, onalarining nima demoqchi ekanligini angladilar chog'i, shu zahoti daraxt tomon chopib borib, ikkita kichkina maymun singari daraxtga tarmasha ketdi.



Ular endi o'zlarini xavfdan yiroq sezib, tepadagi butoqqa joylashib o'tirib oldi, xuddi bolalar singari bir panjasi bilan daraxt tanasini ushlab olib, havoda qop-qora oyoqlarini salanglatdi.

Ayiqlar onasi hali ham orqa oyoqlarida turganicha asta menga yaqinlashdi, shunda men qarshimda bor bo'yi bilan turgan, aftidan, hech qachon inson nigohining sehrli qudratini ko'rmagan bu paxmoq maxluq yaqinimda turganligidan o'zimni juda yomon his qila boshladim.

Qo'limda loaqal o'zimni himoya qilish uchun tayog'im yo'q, ayiqlar onasi asta pishqirgan mahal men hech narsaga, ayiqlar hech qachon odamga hujum qilmaydi, deb uqtirganlariga qaramay, hozir qanday qilib qochib qolsamikin, degan xayolga bordim. Biroq ayiqlar yana to'xtab qoldi. U mendan o'ttiz qadamlarcha narida xuddi ikkilanayotgan kabi menga indamay tikilib turdi. Ehtimol u: «Bu odam balki mening bolalarimga

yomonlikni ravo ko'rmayotgandir, tavakkal qilib qaltis ish qilishga ham arzimasa», deb fikr qilgandir.

U bolakaylariga qarab, nologanga o'xshab, g'alati: «U-u-u, u-u-u», degan ovoz chiqardi, shunda bolalari xuddi buyruq olgan itoatgo'y bolalar singari daraxtdan birin-ketin tusha boshladi. Ularning xatti-harakatlarida hech qanday «ayiqchalar xos» qo'pollik bo'lmadi. Ayiqchalar yerga tushgunga qadar shoxdan-shoxga yengil-yengil, epchil-epchil irg'idi. So'ng uchalovi o'rmonga jo'nadi.

Bu itoatgo'y ayiqchalar menga juda yoqib qoldi. Onalari biror nimani buyruq qildimi, tamom, ular quloq qoqmay bajaradi. Ularni hayotning o'zi itoatgo'ylikka o'rgatganini bildim.

Shunday qilib, kelishim bilanoq ayiqlar hayotini to'la kuzatish nasib etdi. Buyoqlarga boshqa ish bo'lmasayam birgina shu ayiqlarni ko'rish uchun kelish mumkin edi.



Ammo mehmonxonadagi og'aynilarimning aytishicha, men ayiqlarni uchratgan joy ularni kuzatish uchun unchalik qulay emas emish. Ular menga chorak milcha yurib, o'rmonga borishimni maslahat berdi, aytishlaricha, u yerda istagancha ayiqlarni kuzatish mumkin emish.

Ertasiga ertalab qarag'ayzor orasidagi ayiqlar osh-xonasiga qarab yo'l oldim, kelib, butazor orasiga biqinib oldim.

Uzoq kutishga to'g'ri kelmadi. O'rmondan asta-sekin bir kattakon qop-qora ayiq chiqib keldi. Sarqit-xonaga kelib, chiqindilarni tita boshladi, so'ng sarqitlarni yeyishga tushdi. U doim sergak turdi, orqa oyoqlarida cho'nqayib, har bir shitirlagan ovozga olazarak bo'ldi, xuddi qo'rqqan kabi bir necha qadam nariga qochib borib turdi. Nihoyat boshqa bir ayiq paydo bo'lishi bilan uning quloqlari dikkaydi, orqasiga qaramay o'zini qarag'ay ostiga urdi. Ikkinchi ayiq ham shunday qo'rqib-pisib, uni yaxshiroq ko'ray deb qimirlaganimni bilaman, shu zahotiyoq ura qochdi.

Avvaliga o'zim ham picha qo'rqdim. Axir Yellouston bog'ida qurol olib yurish qat'iyman etilgan, qo'limga loaqaq tayoq ham olvolmaganman. Ammo ayiqlar o'zlarining mo'min-yuvosh fe'l-atvori bilan meni tinchlantirdi. Men bu vajohatli baroq hayvonlarni ko'z uzmay kuzatdim, ularning ichki hayotiga razm soldim.

Biroq men tezda kuzatuv nuqtasi sifatida tanlagan joyim unchalik yaxshi emasligiga amin bo'ldim, chunki bu yer axlat uyumidan yetmish besh qadamlar kelar ekan. Yaqin-atrofda esa yashirinay desang, loaqaq biron tup buta ham ko'rinmaydi. Shunda men eng oxirgi chorani qo'lladim. To'g'ri axlat uyumiga bordim-da yashirinsa bo'ladigan darajada chuqur qazidim, so'ng butun kunni karam qoldiqlari, kartoshka po'chog'i, pomidor




sharbatlari hamda ichida sasib-irigan go'sht bo'laklari qolib ketgan temir idishlar orasida o'tkazdim. Bu joy menga pashshalarga nisbatan kamroq ma'qul bo'ldi. Aslida ham, ayiqlar oshxonasidan anqiyotgan hid shunchalik badbo'yligidan o'rmonda qayta kiyinib kelmagunimcha mehmonxonaga qo'yishmadi.

Sarqitxona ichida o'tirish oson ish emas, biroq har qalay men chindan ham ayiqlarni ko'rdim. Agarda sarqitxonaga kelgan har bir ayiqni sanasam, ularning soni qirqtadan oshadi. Lekin bunaqa sanash haqiqatga xilof bo'ladi, chunki ayiqlar ketishib, yana qaytib kelishib turibdi. Shunday bo'lsa ham, men ularning soni o'n uchtdan kam emasligiga kafolat berolaman, chunki shuncha ayiqni bir vaqtda birga ko'rdim.

O'sha kuni uzzukun albomim bilan yozuv daftar-chamni qo'ldan qo'ymadim, har bir yangi paydo bo'lgan ayiqni qayd etib bordim, tez orada ularni bir-biridan ajrata oladigan bo'lib qoldim.

Uncha kuzatuvchan bo'lmagan odamlarning aksariyati bir turdagi hayvonlarning hammasi bir xil deb hisoblaydi. Holbuki, bir tur, bir jinsdagi hayvonlar ham xuddi odamlar singari bir-birlaridan farq qilib turadi. Bo'lmasa ular qanday qilib, masalan, kattalari bir-birlarini, go'daklari esa onalarini taniydi. Sarqitxonaga ziyofat yeyish uchun kelgan har bir ayiqning o'ziga yarasha xulq-atvori bor. Ular orasida bir-birlariga quyib qo'yganday turqi ham, fe'li ham o'xshaydigan ayiqlar yo'q.

Men yana bir ajoyib narsani kashf etdim. Yuz qadamcha naridan turib, o'rmonda «to'q-to'q» qilayotgan qizilishton, chirildoqlar chirillashini, moviy tus so'fito'rg'aylar qichqirig'ini, olmaxonlarning barglarini shiirlatib yurishini osonlik bilan farqlay oladigan bo'ldim, ammo ayiqlarning yaqinlashib kelayotganida



biron-bir sas chiqarishini ilg'ay olmadim. Ularning kattakon yumshoq oyoqlari shunday ehtiyotkorona qadam bosadiki, shox ham sinmaydi, barg ham qimir etmaydi, o'rmonda ovoz chiqarmay yura bilish ayiqlarning o'zlariga xos ulkan san'atlaridir.


III

Ayiqlar har kuni ertalab meni payqamay kelib ketadi. Bir-ikkita mayda-chuyda janjallarni aytmaganda, ularning orasida aytguday hodisa yuz bermadi. Biroq soat uchlarga yaqin, peshin mahali picha jonlanish bo'ldi.

Bu vaqt sarqitxonada to'rtta katta-katta ayiq bo'lib, ular ovqat yeyish bilan band bo'ldi. O'rtada bor bo'yicha kerilib, tinchliksevar ham baxtiyor Baqaloq turibdi. U ahyon-ahyonda o'zini ortiqcha urintirmay, pishillab qo'yadi, uzun qizil ilon kabi tilini shirinlik bo'lagiga cho'zadi, holbuki qandolatni shundoq panjasi bilan olsa ham bo'ladi. Qiltiriq Jim uning orqasida turib olganicha katta dengiz qisqichbaqasini tomosha qiladi. U ilgarilari qisqichbaqani ko'rmagan, shuning uchun ham tajriba uchun bittasini yeb ko'rmoqchi bo'ldi.

Ikkita boshqa ayiq hayron qolarli epchillik bilan meva idishni yalab-yulqadi. Uddaburon ayiq panjasi bilan idishni tutib turdi, uzun tili torgina tirqishdan qopqoqning o'tkir qirrasiga tegmay, idish ichida nima bor, barini yalab, uyoqdan-buyoqqa borib keldi. Bu maroqli manzara shunday uzoq davom etdiki, men buni chizib olishga muvaffaq bo'ldim. Manzara butunlay favqulodda hodisa vajidan bo'lindi.

Avvaliga men odatda ayiqlar paydo bo'ladigan qiyalik uchida qandaydir sharpalarni ko'rdim. So'ng o'rmondan orqasidan jajji ayiqchani ergashtirib bahay-



bat ona ayiq chiqib keldi. Bular Tajang bilan kichkina Jonni edi.

Qari ayiqlar onasi qiyalikdan pastga endi. Jonni odatdagiday xarxasha qilib, ingillab, g'ingshib uning yonida mayda-mayda qadam bosib yurdi, onasi esa xuddi ona tovuq yolg'iz jo'jasidan ko'zini ololmagari singari bolasidan ko'zini uzmad. Tajang sarqitxonaga o'ttiz qadamlar qolganda o'g'li tomonga qayrilib, taxminan, mana bunday so'zlarni aytdi: «Jonni, bolaginam, sen shu yerda turgin, men anavi shumtakalarni oldimga solib kelayin».

Jonni itoat qilib, joyida qoldi, ammo nima bo'lishini ko'rgisi keldi, shuning uchun ham u orqa oyoqlarida turdi, ko'zlarini lo'q qilib, quloqlarini ding qilib turdi.

Tajang bosaymi-bosmaymi, deya viqor bilan qadam tashlab, ehtiyotkorlik yuzasidan pishqirib, sarqitxonaga yo'l oldi. Biroq to'rtala ayiq ham unga ahamiyat berishga fursatlari bo'lmay, ovqat yeyish bilan band bo'ldi. Bu qanday ko'rgilikki, yana bir ayiq ularning xo'raqlariga sherik bo'laman deb o'tirsa! Tajang ularga yaqinlashib borib, ketma-ket yo'talga o'xshash qattiq-qattiq tovush chiqarib, hamlaga o'tdi. Aytish ham kulgili, ayiqlar loaqal qarshilik ko'rsatishga urinmadilar ham. Ular kimning hamla qilganini ko'rib, o'rmonga qarab ura qochdi.

Qiltiriq Jim orqa-oldiga qaramay jon-jahdi bilan qochdi, qolgan ikkitasi ham undan qolishmadi, biroq sho'rlik Baqaloq barcha baqaloqlar singari arang qimirladi, pishillab, lapanglab yurdi. Ustiga-ustak, u ehtiyotsizlik qilib, Jonni turgan tomondan yurdi. Tajang bir-ikki hatlashda unga yetib oldi, ketiga boplab bir-ikki marta tushirdi. Garchand tarsakilar Baqaloqning qadamini tezlashtirmasa-da, biroq uni o'kirib, yo'lini o'zgartirishga majbur etdi. U shu yo'l bilan o'zini



keyingi kaltaklardan qutqarib qoldi. Endi butun sarqitxonaning mutlaq hokimasiga aylanib qolgan Tajang o'g'li tomon o'girilib, menga tanish bo'lib qolgan «U-u-u, u-u-u» degan zorlanganday ovoz berib, o'g'lini chaqirdi. Jonni bunga javoban xursand, uchta sog' oyog'i bilan oqsab-oqsab keldi. U onasining yoniga qo'shilib shunday ochofatlik bilan xo'rakka yopishdiki, hatto g'ingshimay ham qo'ydi.

Aftidan, u oldin ham sarqitxonaga kelgan shekilli, tunuka idish bilan qutilar farqiga bordi. Qisqichbaqadan bo'shagan qutilar uni uncha qiziqtirmadi, murabboli idish topganida boshqa gap edi. Bir qancha temir quti unga ancha-muncha azob berdi, chunki ochko'z va noshudligidan idishning o'tkir qirralariga tegib ketaverdi. Bir ajoyib mevali temir qutining tirqishi kattaroq ekan, u kallasini shunga tiqdi, bir necha daqiqqa idishning chekka-chekkalarigacha maza qilib yalab chiqdi. Biroq boshini qutidan chiqarib ololmadi, boshi qutiga tiqilib qoldi. Shunda Jonni idishni tirnab, bo'kira boshladi, uning o'rnida bo'lgan har qanday go'dak ham shunday qilib, onasiga dard bo'lar, ammo onasining qo'lidan hech bir ish kelmay, qiynalgan bo'lardi. Hozir ham shunday bo'ldi. U idishni yassi holga kelguncha taqillatib urib, itarib, axiri boshini chiqazib oldi.

Sharbatdan bo'shagan boshqa bir katta temir quti uning ko'nglini chog' qildi. Bu quti qopqoq bilan berkitiladigan idishlar turidan bo'lib, chekkalari qirrali emas, sip-silliq ekan. Garchand shunday bo'lsada, teshikka Jonning boshi sig'madi, tilini qancha cho'zmasin, xushxo'r sharbatga yetmadi. Biroq Jonni birpasda buning yo'lini ham topdi. Idish ichiga kichkinagina qora panjasini tiqib kovladi, ichidagi narsalarni tashqariga chiqarib, qutini tozalab qo'ydi. Bir panjasini yalab, ikkinchisini idish ichida yurgizdi, shu taxlit idish



to fabrikadan chiqqanday top-toza bo'lmaguncha bu jarayonni takrorlayverdi.

So'ng diqqatini bir buzuq sichqon qopqon tortdi. U qopqonni oldingi oyoqlari bilan mahkam ushlab, sinchiklab qaray boshladi. Qopqondan xushbo'y pishloq hidi anqidi. So'ng bu ko'zga ko'rinmas narsa uning zarbasiga javoban panjalariga shunday urdiki, Jonni yordamga chaqirib qichqirishdan o'zini arang tutib qoldi, tabiatiga xos bo'lmagan dadillik namunasini ko'rsatdi.

Ancha sinchiklab ko'rgandan so'ng, boshini goh u tomonga, goh bu tomonga engashtirdi, lablarini nay qilib cho'zdi, shunda sichqon qopqon xuddi bo'ysunmas mevali quti kabi jazoga duchor bo'ldi. Jonnining quntg'ayrati bu safar ham taqdirlandi. U qopqonning qoq yuragidan bir bo'lak pishloq topib oldi.

Jonni, aftidan, ilgarilari hech qachon zaharlanmagan. U barcha muraboli, mevali qutilarni yalab chiqib, o'zining xayrixohona nazarini sardina balig'i bilan qisqichbaqadan bo'shagan qutilarga qaratdi, hattoki harbiylarning go'sht konservalarini totib ko'rishdan ham qaytmadi. Uning qorni dam berib shishirilgan pufakday shishib ketdi, oldingi oyoq panjalari esa tinimsiz yalayverishlardan sip-silliqlik ham yaltiroq bo'lib qoldi.

IV

Miyamga o'tirgan joyim judayam xavfli bo'lishi mumkin, degan fikr kelib qoldi, chunki yakka ayiqqa yo'liqish bir gap-u, ayiqchasini biror-bir harakat bilan cho'chitib yuborib, jahldor ona ayiqning diqqatini tortish boshqa gap edi.

«Faraz qilaylikki, – beixtiyor o'yladim men, – kichkina ayiq yinqaroq Jonni sarqitganing bu tomonidan kelib



qolsa-yu, meni bekinib o'tirgan joyimdan topib olsa. Jonni shu zahoti shovqin soladi, onasi esa, albatta, meni o'g'liga hujum qilgan, deb xayol qiladi, buni tushuntirib berishga qo'ymaydi, bog'da o'rnatilgan odob-axloq qoidalarining barchasini unutadi. Unda ishimiz butunlay chakki bo'ladi».

Baxtinga, murabbodan bo'shagan bari qutilar sarqitxonaning narigi chekkasida edi. Jonni qutilar atrofiga o'ralashar, Tajang esa undan nari ketmasdi. Jonni onasining qo'liga ajoyib quti tushib qolganini ko'rib, g'ingshiganicha menga ber, deya yugurib keldi, shu payt ko'zi adir tepasiga tushib qoldi. Adirda ko'rib qolgan narsasi uni darhol orqa oyoqlarida turishga, xavotirlanib «O'h, o'h, o'h...» deya yo'talishga majbur etdi.

Onasi tez ortiga qayrilib, o'sha tomonga qaradi. Ular qaragan tomonga men ham qaradim, qarab, o, qanday dahshat! – grizli¹ zotiga mansub ulkan ayiqqa ko'zim tushdi. Bu mo'ynaga o'ranib olgan, daraxtlar orasida qimirlayotgan omnibus²ni eslatuvchi haqiqiy maxluqning o'zginasi edi. Jonni g'ingshib, onasining orqasiga yashirindi. Tajang bo'giq ovozda irilladi, shunda tanasidagi junlar tikka-tikka bo'lib ketdi. Tan olib aytamanki, mening ham sochlarim tikka-tikka bo'ldi, faqat men qimir etmaslikka harakat qildim. Grizli ulug'vorulug'vor odimlar bilan yaqinlashib keldi. U har qadam tashlaganida silkinib borayotgan keng yag'rirlari, kumush junlari shu qadar ulug'vorlik kasb etdiki, uni ko'rgan odam beixtiyor dahshatga tushadi.

Jonni yanada battar g'ingshiy boshladi. Men uning ahvolini dildan his etdim, ammo juda ravshan sababga

¹ Amerikada ayiqlarning qora va kulrang turlari bo'ladi. "Grizli" – inglizchasiga "kulrang, bo'z" degan ma'noni anglatadi, shundan kulrang ayiqlar "grizli" nomini olgan.

² Ko'p o'rinni kirakash izvosh.



ko'ra jim o'tirishga harakat qildim. Tajang bir necha daqiqacha ikkilanib turib, yig'loqi ayiqchasiga o'girildi, unga bir necha og'iz so'z aytdi, bu menga kalta-kalta yo'talga o'xshab eshitildi: «O'h, o'h, o'h...» Har holda men uning: «Bolaginam, men borib anavi surbetni haydab kelay, sen daraxtga chiqib tur», deganini tasavvur etdim.

Har ehtimolga qarshi, Jonni aynan shunday qildi, onasining xohishi shunday bo'ldi. Ammo Jonni tekin tomoshadan yuz o'giradigan anoyilardan emas. U hozir nima bo'lishini ko'rgisi keldi, qarag'ay daraxtining quyuq shoxlariga yashirinib oldi, ammo bunga ham qanoat qilmadi, shunday yashirinmoqchi bo'ldiki, ham g'anim ko'zidan pana bo'lsin, ham tomosha qilsin. Jonni daraxtning qoq uchiga chiqib oldi, havoda aniq-ravshan ko'zga tashlanib bir aylandi, hayajondan qattiq chin-qirdi. Daraxt butog'i juda ingichka bo'lib, ayiqchaning og'irligidan egildi, har qimirlaganida ayiq har tomonga tebrandi, men ichimda mana-mana hozir shox sinib tushadi, deb turdim. Bordi-yu, daraxt butog'i sinib tushsa bormi, Jonni men tomonga qulab tushadi, ana unda men uning onasi bilan urishib qolishimga to'g'ri keladi. Ammo baxtinga butoq men xayol qilganimdan ko'ra mustahkamroq chiqdi, buning ustiga, Jonni bunaqa shox sindirmaslik, vaznini ko'tarolmay qulab tushmaslik kabi mashg'ulotlarning juda mashqini olgan ko'rindi.

Tajang bu orada Grizliga qarab mardona yurib, junlari tikka-tikka bo'lib, tishlari g'ijirlab, yuzma-yuz bordi. Nazarimda, Grizli unga sira ahamiyat bermay, xuddi tevarak-atrofdan yakka o'ziday to'g'ri sarqitxonaga qarab yo'l oldi. Yaqinroq kelganda Tajang bo'kirib yuborib, Grizliga tashlanib, uni yaxshilab bir urdi. Hayratdan lol bo'lib qolgan Grizli uni chap panjasi bilan bir urib uloqtirib yubordi. Tajangning opugi pasaymadi, qaytaga



qattiqroq jazavaga tushdi, o'rnidan sapchib turib, yana raqibiga tashlandi.

Ular bir-birlari bilan ushlab pishqirib, bo'kirib, chang-to'zon ko'tarib yerda yumaladi. Men shovqin-suron orasidan qarag'ay daraxti uchida o'tirib chiyillayotgan Jonning ovozi aniq eshitib turdim, u menimcha, onasiga anavining tezroq adabini ber, deyayotganday bo'ldi.

Grizli nega uni qoq ikkiga ayirib tashlamadi, bu menga qorong'i bo'ldi. Oradan bir necha daqiqa o'tib, chang-to'zonda urishayotganlarning noaniq raftorlaridan bo'lak hech nimani ko'rib bo'lmagan bir paytda ular xuddi kelishib olganday ayrilib ketdi, – balki ayiqlar orasidagi kurash o'zi shunday bo'ladigandir, ayiqlar shunga amal qiladigandir, – ishqilib, bir-birlariga qattiq tikilganlaricha to'xtab qoldi. Shunda Tajangning juda holdan toygani sezildi.

Grizli, aftidan, shu bilan bas qilib qo'ya qolishga tayyor ko'rindi. Ko'rinishidan Jonning e'tibor qilish uyoqda tursin, umuman, hujumni davom ettirish xayolida yo'q edi. U faqat bir narsani, tinchgina ovqatlanib olishni istadi. Yo'q, bunga qo'yishmadi! U endi sarqitxona tomonga qadam bosuvdi hamki, Tajang uni Jonning qarab borayapti, degan tashvishda yana Grizliga yopishdi. Biroq Grizli bu safar hushyor bo'ldi. U Tajangning oyog'iga bir urib, ildizlari tarvaqaylab chiqib yotgan kattakon to'nka ustiga uloqtirdi. Tajang undan oladiganini oldi. Yegan kaltagi, badaniga shox kabi botayotgan to'nka ildizlari Tajangning butun kuchini so'ndirib qo'ydi. U bir amallab o'rnidan turib, bekinishga chog'landi. Biroq endi Grizlining o'zi g'azabga keldi, uning boplab ta'zirini berib qo'yish uchun uni to'nkani aylantirib quva ketdi. Tajang chaqqonlik qilib shunday ish tutdiki, to'nka doimo raqibi bilan uning orasida devor bo'lib



turdi. Jonni daraxtdan tushmasdan shovqin solib, onasiga tasalli bera boshladi.

Nihoyat, raqibasini bu taxlitda yengish mumkin emasligiga aqli yetgan Grizli xuddi yangi bir hiyla topayotgan kabi orqa oyoqlarida cho'nqaydi. Tajang bu vaziyatdan foydalanib, to'nkadan sakrab o'tib, Jonni yashirinib turgan daraxtga chiqib oldi. Ayiqcha pastroqqa tushdi. U yo onasi bilan ko'rishmoqchi bo'ldi, yo bo'lmasa, daraxt ikkalovimizni ko'tarolmay sinib tushadi, degan xayolga bordi.

Men ayiqlarni suratga olarkanman, nima qilib bo'lsa ham yanada yaqinroqdan olishga intildim. Butun kun mobaynida birinchi marta joyimdan otilib chiqib, naq daraxt tagiga yugurib o'tdim. Biroq joyimni o'zgartirishim xato bo'lib chiqdi, chunki daraxtning pastki quyuq shoxbutoqlari daraxt uchida o'tirgan ayiqlarni to'sib qo'ydi.

Men daraxt tanasiga yopishib, tepaga olazarak qaramdim, fotoapparatni chiq etib bosishga shay bo'lib, qulay payt kelishini poyladim. Tajang tishlarini g'ijirlatib, vahimali yo'talib, daraxtdan tusha boshladi. Men nima qilishimni bilmay turganimda orqamdan allakimning ovozi eshitildi:

– Janob, hazir bo'ling! Qari ayiq hujum qiladi.

Men orqamga o'girilib, yoshgina podachi yigitni ko'rdim. U ayni vaqtda otda o'tib ketayotgan ekan.

– Siz bu ayiqlarni bilasizmi? – so'radim u yaqin kelganda.

– Bo'lmasam-chi, bularni bilmay o'libmanmi! – javob berdi u. – Tepada o'tirgan kichkinasi Jonni, yonidagisi esa onasi Tajang. Umuman, Tajangning qahri yomon, ayniqsa Jonnisi mana hozirgiday ahvolga tushib qolganda u bilan hazillashib bo'lmaydi.

– Men u pastga tushsa rasimga olmoqchidim.



– Bo'lmasa, bunday qilamiz, – dedi podachi, – men o'tim bilan yoningizda turaman, agarda ayiq sizga hujum qilguday bo'lsa, meningcha, uni ushlab qololsam kerak.

U kelishganimizday, Tajang o'kirgancha vahima bilan asta-sekin shoxdan-shoxga tushayotgan paytda yonimda turdi. Shunda ayiq yerga tushmasdan birdan daraxtrning boshqa shoxiga o'tib olib, pastga sakradi, tepada ko'targan vahimasini amalga oshirmasdan ura qochdi.

Shunday qilib, Jonnining yolg'iz o'zi qoldi. U yana joyiga chiqib, zorlanib: «U-a, u-a, u-a!» deya yig'ladi.

Kamerani shaylab turdim, Jonnining yig'layotgan paytidagi holatini endi suratga tushiraman, deb turganimda u birdan bo'ynini cho'zib, bor ovozi bilan bo'kira ketdi.

Jonni qaragan tomonga qarab, menga qarab kelayotgan Grizliga ko'zim tushdi, u biz tarafga tahdid bilan yurdi. Men podachidan bu ayiqni bilasizmi, deb so'radim.

– Bo'lmasa-chi! Bu qari Grizli, bog'dagi eng ulkan ayiq. Odatda u hamisha o'zi bilan o'zi ovora bo'lib yuradi, agar unga tegmasa, birov bilan ishi bo'lmaydi. Biroq ko'rib turibsiz, bugun juda jahli qo'zib turibdi, oqibati chatoq bo'lishi ham mumkin.

– Men uni suratga olsam degandim, – dedim. – Agar menga yordam bersangiz, bir urinib ko'rardim.

– Maylingiz, – javob berdi podachi basharasi tirishib. – Men otdan tushmay turaman, mabodo Grizli sizga hujum qiladigan bo'lsa, uni chalg'itib turishga harakat qilaman. Men uni bir martagina urishim mumkin, lekin ikkinchi marta ura olamanmi-yo'qmi, bilmayman. Siz daraxtga chiqib olsangiz, yanayam yaxshi bo'ladi.

Biroq bu yaqinda bor-yo'g'i bittagina daraxt bor, unda ham Jonni o'tiribdi, shuning uchun ham poda-



chining taklifi menga ma'qul tushmadi. Men qanday qilib daraxtga, Jonning oldiga chiqishimni, Tajang meni quvib kelishini, ayni shu palla pastda meni Grizli poylab turishini, Tajang meni naq uning changaliga uloqtirib yuborishini ko'z oldimga keltirdim.

Grizli yaqinlashib keldi. Men uni qirq qadam naridan, so'ng yana yigirma qadam naridan suratga oldim, u bermalol menga qarab, viqor bilan kelaverdi. Men sarqit uyumiga cho'k tushib kuta boshladim. O'n sakkiz qadam, o'n yetti qadam, o'n ikki, sakkiz qadam qoldi... U haliyam yo'lida davom etdi, Jonni esa tobora qattiqroq bo'kirdi. U mendan besh qadam narida to'xtadi, daraxt uchida o'tirib olib shovqin ko'tarayotgan kim bo'ldi, deganday, dahshatli paxmoq boshini yoniga egib qaradi. Men uni shu turishida chiq etib suratga oldim. Kameraning ovozi eshitib, u shunday dahshat solib, o'kirib o'girildiki, men ajalim yetdi, deb joyimda qotib qoldim. U menga bir necha daqiqagacha ko'zlarini qadab tikilib turdi, men shunda uning ko'zlarida maydamayda yashil uchqunlarni ko'rdim. So'ng u yana sekin orqasiga o'girildi, pomidor suvidan bo'shagan katta bir qutini ushlab oldi.

«E, xudoyim! Nahotki shuni menga otib yuborsa?»

Shunday xayol miyamdan kechdi. Ammo u qutini menga otish o'rniga bamaylixotir uning ichini kovlashtirishga kirishdi, so'ng uni chetga otib yuborib, boshqasini oldi, uning menga ham, Jonniga ham bo'lgan butun qiziqishi so'ndi, aftidan, biz ikkovimizni ham e'tibor qilishga arzimaydigan jonzot, deb qabul qildi.

Men o'rmonlar qiroliga munosib ravishda hurmatla sarqitxonani butun boyliklari bilan uning inon-ixtiyoriga topshirib, sekin orqamga tisarildim, Jonni bekingan joyida xuddi mushukning miyovlashiga o'xshab ketadigan ovozda yig'lashda davom etdi.



O'sha kuni Tajangning holi nima kechdi, bunisini bilmayman. Ammo Jonni yana bir qancha paytgacha yig'lab-yig'lab, axiri dardiga hech kim hamdard bo'lolmasligini tushunib, juda aqllilik bilan jimib qoldi. U haqda qayg'uradigan birgina onasi bor edi, mana yolg'iz o'zi qoldi, u endi buyog'iga o'zim harakat qilmasam bo'lmaydi, degan qarorga kelib, favqulodda aql-zakovat namunasini ko'rsatdi. Kichkina qop-qora aftida quvlik ifodasi bilan Grizlini kuzatdi, uning daraxtdan nariroqqa ketishini kutib turdi, so'ng daraxtning boshqa tomonidan sekin-asta sirg'anib tushdi, keyin xuddi quyonga o'xshab uch oyoqlab boshqa daraxt oldiga yugurib o'tdi, to daraxtning eng baland joyiga chiqib olguncha to'xtamadi, nafas ham olmadi. U Grizli faqatgina uni, jajji Jonnini o'ldiraman, degan xayolda ekanligiga amin bo'ldi. Yana shunga ham amin bo'ldiki, g'animi uning ketidan daraxtga chiqa olmaydi.

Jonni o'ziga hech bir e'tibor qilmayotgan Grizlini diqqat bilan kuzatib, yana o'sha hiylasini takrorladi, g'animini chalg'itish uchun yana boshqa daraxtga o'tdi. Ana shunday qilib daraxtdan-daraxtga o'tib yurdi, har safar daraxtning qoq uchiga chiqdi, garchand daraxtlar shunday yonma-yon bo'lsa-da, to o'rmonga kirib g'oyib bo'lguncha shunday bordi. Oradan o'n daqiqalar o'tib, olisdan uning yig'lamsiragan ovozi quloqqa chalindi. Men u onasini topib, dardini aytib yig'lab, onalik mehr-muhabbatini qo'zg'ayotganini bildim.

V

Sarqitxonada qo'lga tushgan konservalar ichida Jonniga hammasidan ham yoqqani katta qizil olxo'ri bo'ldi. Olxo'ri hidining o'ziyoq uning nafsini qo'zg'adi.



Bir kuni mehmonxona oshxonasida bir dunyo olxo'ri qiyomidan pirojki pishirildi, xabarchi shabboda bu haqda olis o'rmon bo'ylab darak berdi. Bu xabar Jonni-ning dimog'iga juda o'tirib qoldi.

Jonni odaticha, bu payt g'ingshib ingilladi. Tajang o'g'lini yalab-yulqadi, junlarini tarashladi, shuning uchun ham Jonni ikki baravar ziyod erkalik qildi. Ammo pirojki hidi boshini aylantirib qo'ydi. U sapchib tushdi, onasi ushlayman deganida shunday bo'kirdiki, hatto onasini tishlab ham oldi. Bu ishi uchun uning yaxshigina ta'zirini berib qo'yish kerak edi, biroq onasi buning o'rniga norozinamo angillab qo'ydi, tag'in o'g'lini birortasi xafa qilib qo'ysa, himoya qilish niyatida uning ketidan ketdi.

Jonni qop-qora tumshuqchasini shamolga tutib, to'g'ri oshxonaga kirib bordi. Yo'lda ketayotib bir qancha ehtiyot choralari ko'rdi, ya'ni, tevarak-atrofn ko'rib olish uchun vaqti-vaqti bilan qarag'ay daraxti uchiga chiqdi, Tajang uni pastda qo'riqlab turdi. Ular shu tariqa oshxonaga yetib keldi. Jonni navbatdagi daraxt uchiga chiqqanda birdan hafsalasi so'nib, pastga tushgisi kelmay qoldi, pirojki yegisi kelib yig'ladi. Tajang o'g'lining nima uchun yig'layotganini bilolmadi. U orqaga, o'rmonga qaytayotuvdi ham, Jonni shunday to'polon qildi, Tajang uni tashlab ketishga ko'zi qiy-madi, o'g'li esa daraxtdan tushgisi kelmadi.

Tajangning o'ziyam isi mehmonxona atrofini tutgan olxo'ri qiyomidan tatib ko'rgisi keldi. U qandaydir qo'rquv aralash oshxona eshigi tomon yo'naldi. Buning hech ajablanarli joyi yo'q. Ayiqlar Yellouston bog'ida oshxona eshigi oldiga biror nima berishar, deb ko'p kelib turadi, xizmatkordan nimanidir undirib, so'ng tinchgina o'rmon tomonga yo'l oladi. Agar kutilmagan



vaziyat yuzaga kelmaganida Jonni bilan Tajangga ham bittadan pirojki tekkan bo'lardi.

Shu voqea bo'lguncha Sharqiy shtatlardan kelayotgan qandaydir bir sayohatchi mehmonxonaga mushuk olib keldi. Mushukning o'zi hali deyarli mushukcha bo'lsa-da, ammo butun boshli bir oilasi bor ekan. Tajang oshxonaga kelsa, mushuk mushukvachchalari bilan oshxonaga kiraverishdagi zinapoyada o'zini oftobga toblab yotibdi. Mushuk ko'zlarini ochib, taajjub bilan qarshisida turgan bahaybat paxmoq maxluqqa qaradi.

Mushuk ayiqni hech ko'rmagan, chunki bog'da yashayotganiga uncha ko'p bo'lgani yo'q. U ayiq nima ekanligiga aqli yetmaydi. Itlarni yaxshi biladi, mabodo bu it bo'ladigan bo'lsa, har ehtimolga qarshi, u tushida va hushida ko'rgan itlar ichida eng ulkani, eng dahshatlisi shu bo'ladi. Mushukning xayoliga birinchi kelgan narsa qochib qutulish bo'ldi, biroq go'daklarini o'ylab qoldi. U go'daklari haqida qayg'urishi, hech bo'lmaganda, ularning ketishlariga imkoniyat yaratib berishi kerak. Shunda jajjigina ona zinapoya o'rtasiga turdi, belini bukib, tirnoqlarini chiqardi, dumini ko'tarib, ona ayiqqa: «To'xta!» – deya vishillab amr qildi.

Garchand bu amr mushuk tilida aytilgan bo'lsa-da, Jonning onasi bu so'zning ma'nosiga to'la tushundi. Bu voqeani o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilarning ta'kidlashicha, Tajang nafaqat to'xtadi, hatto oldingi oyoqlarini bo'ysunish ma'nosida tepaga ham ko'tardi. Tajang bu holatni qabul qilib, tepadan pastga qaragandi, ko'zlariga mushuk ushoqday bo'lib ko'rindi. Qari Tajang hatto Grizlidan qo'rqmagandi, nahotki endi kelib-kelib panjasiday ham kelmaydigan maydagina bir jonivordan qo'rqib o'tirsa? U o'z-o'zidan uyali ketdi. Jonning yig'isi unga o'g'lini himoya qilish mas'uliyatini esiga tushirdi.



Shunda u yana to'rt panjasida turib, olg'a yurmoqchi bo'ldi.

Mushuk yana: «To'xta!» deya qichqirdi.

Ammo Tajang bu safar quloq solmadi. Mushuk bolalarining qo'rquvdan miyovlashi onasini to'lqinlantirib yubordi, u g'animiga qarab yurdi. U bor quroli – o'n sakizta o'tkir tirnog'i, og'zi to'la tishlarini ishga soldi, o'ta mardonalik bilan ayiqning eng zaif joyi bo'lmish nozik, sezgir tumshug'iga chang soldi, so'ng, ayiq ustiga chiqib, dumiga qarab yurdi. Qari Tajang g'azabga minib, ustidagi kichkina yirtqichni ikki-uch marta otib yubormoqchi bo'ldi, bunaqa paytlarda aksariyat hayvonlar qiladigan ishni qo'lladi: tovonlarini ko'rsatib, g'animlar dunyosidan nariga, qadrdon o'rmonlariga o'zini urdi.

Mushukda jangovarlik tuyg'ulari uyg'ondi, u g'anining qochishidan qanoat qilmadi, uning butunlay mahv bo'lib, so'zsiz itoat qilishini istadi. Garchand qari Tajang shitob bilan qochayotgan bo'lsa-da, mushuk uning yag'riniga yopishib, xuddi maydagina iblis misol tishlari bilan tirnoqlarini botirib boraverdi. Tajang dahshatga tushib har tomonga o'zini ota boshladi, ularning yo'lida uzun qora yunglar hamda u-bu yerda qon dog'lari tomib bordi.

Mushuk o'z ishidan qanoat hosil qildi, ammo bu ham unga kamlik qildi, u qahr bilan boraverdi. Tajang butunlay umidsizlikka tushdi. U shunday xo'rlandi, shunday xo'rlandi, qanday shart bo'lsa ham bajarishga tayyor bo'ldi, ammo mushuk uning dardiga parvo ham qilmadi. Agar Jonni daraxt tepasida turib chinqirib onasiga qutulishning yangi yo'lini o'rgatmaganida, kim biladi, bu ish qachongacha davom etardi. Tajang bolasi-ning ovozi eshitib, ikki sakrab qarag'ayga yetib kelib, ustiga chiqib oldi.




Mushuk yanada serg'anini joyga kelib qolganini bildi. U ta'qibni tugatish kerakligiga aqli yetib, ayiqning yag'rinidan sapchib yerga tushdi, dumini xoda qilib, tepaga qarab, xuddi g'animlariga qani, buyoqqa tushmaysanlarmi, degan kabi daraxt atrofini aylana boshladi. Unga bolalari ham qo'shildi, to'garak bo'lib o'tirib, o'z maqsadlarini baland ovozdagi ifoda eta boshladi. Ko'rganlarning aytishlaricha, agar oshpaz mushukni chaqirib qolmaganida ayiqlar ochlikdan o'lsa ham hech qachon daraxtdan tushmasliklari mumkin ekan. Kim biladi, balki bu gap lofdir.

VI

Men Jonnini so'nggi marta daraxt tepasida o'tirgan paytida ko'rdim, u odatdagidek, toleyidan nolib yig'ladi. Tajang esa qarag'aylar orasida qurbonlikka yaraydigan biror nima qidirib izg'idi.

Avgustning boshlarida Tajangning fe'l-atvorida qandaydir o'zgarishlar bo'layotgani sezildi. Bog'da yashovchilar orasida u hamisha xavfli jonivor hisoblandi, Jonniga bo'lgan mehr-muhabbati esa uning tabiatiga xos bo'lgan alohida xususiyat sifatida tan olindi. Jonni o'zining oxirlariga kelib, ko'p kunlarini biror daraxt tepasida o'zini butunlay yolg'iz, juda baxtsiz his etib o'tkazdi.

U haqdagi hikoyamizning oxirgi bobi men Yellouston bog'idan ketib qolgan paytga to'g'ri keldi. Jonni bir kuni tongda mehmonxona yaqinida sanqib yurgan onasining izidan pusib bordi. Bu payt oshxonada yaqindagina ishga qabul qilingan irland qiz yurardi. Qiz derazadan qarab tashqarida yurgan boshvoqsiz bir buzoqqa ko'zi tushdi, uni haydash uchun yugurdi. Tajang o'sha mushuk voqeasidan so'ng shunday yurak oldirib qo'ygan ediki, oshxona eshigi ochilishi bilanoq tiraqaylab orqasi-



ga qochdi. Onasining qo'rquvi Jonniga ham yuqib, shu yaqindagi daraxtga otildi, bu daraxt baxtga qarshi... fon-arli simyog'och bo'lib chiqdi. U juda tezlik bilan yerdan yetti futlarcha tepaga chiqib olib o'z qayg'usini bayon etishga tushdi. Tajang esa orqa-oldiga qaramay qochdi. Qiz yaqinroq kelib qarab, simyog'och ustida qandaydir bir yovvoyi maxluq turganini ko'rdi, simyog'ochdagi maxluqdan ko'ra ko'proq o'zi qo'rqib ketdi. Shunda oshxonaning boshqa xizmatkorlari yetib kelib, baqiroq Jonnini ko'rdi, uni asirga olishga harb etdi.

Ular bo'yinga soladigan qayish, zanjir olib keldi, bir necha kishi olishuvda qattiq tiralib, yaralanib, o'jar ayiqchaning bo'yniga qayish solib, zanjirni simyog'ochga tortib bog'lab qo'ydi.

Jonni o'zining tutqun bo'lganini bilib, shunday jazavaga tushdi, hatto qichqirolmay qoldi. Holdan toygunicha oldidagi bari narsani tishladi, yirtirdi, tirnab tashladi. Shunda u yana onasini yo'qlab ovoz berdi. Onasi shu yaqindan bir-ikki marta ko'rinish berdi, ammo mushukka yo'liqishdan qo'rqdi, Jonnini taqdir hukmiga topshirib, o'rmonga kirib ketdi.

Jonni kuni bo'yi goh tepindi, baqirdi. Kechga borib batamom holdan toydi, hatto irland qiz Nora keltirgan xo'rakni emadi. Qiz Jonning tutingan onasi vazifasini bajarishga o'zida zaruriyat sezdi. Axir uning aybi bilan ayiqcha onasidan ayrilib qoldi-da!

Oqshom juda sovuq bo'ldi, Jonni simyog'och tepasida qattiq sovuq yeb pastga, o'ziga hozirlangan issiq to'shakka tushishga qaror qildi. Tajang keyingi kunlarda tez-tez sarqitxonaga keladigan bo'ldi, aftidan o'g'lini butunlay unutib yuborganga o'xshadi. Jonni Noraning qaramog'ida qolib, qiz keltirgan ovqatlarni yedi. Shuningdek, Jonni undan shu vaqtgacha



ko'rmaganlarini ko'rdi. Masalan, bir kuni qiz unga tushlik keltirdi, shunda u qizga changal solib, umrida birinchi marotaba chinakamiga tarsaki yedi. U bir necha soat davomida xafa bo'lib o'tirdi. Ayiqcha hali bunaqa muomalaga o'rganmagandi. Ammo qorin qayg'usi o'z ishini qildi, u shundan buyon o'z murabbiyasiga juda hurmat bilan munosabatda bo'la boshladi. Nora g'ayrat bilan yetim qolgan ayiqchani tarbiyaladi, oradan ikki haftalar o'tib, Jonning xulqi aytarli darajada o'zgardi. U ancha bosiq bo'lib qoldi, garchand ilgarigiday och ekanligini yig'lamsiragan «u-u-u, u-u-u, u-u-u» kabi ovozlarda ifoda etsa-da, biroq endi kamdan-kam shov-qin soladigan bo'ldi, uning jazavaga tushish kabi nojo'ya qiliqlari butunlay barham topdi.

Sentabrning o'rtalariga kelib uning tabiatidagi o'zgarishlar yanada sezildi. Onasi tashlab ketgan Jonni tamomila Noraga o'rganib, bog'lanib qoldi. Nora uni boqdiyam, kerak bo'lsa adabini berdiyam, natijada undan kutilmagan odobli ayiqcha chiqdi. Nora ba'zi mahallar uni ozodlikka chiqarib yurdi, u bunaqa paytlarda o'rmonga ketib qolmadi, aksincha, orqa oyoqlarida tik turib, oshxonada tutingan onasiga ergashib yurdi. U bu yerda o'sha dahshatli mushukka duch keldi. Ammo endi Jonning qudratli panohi bo'lib, mushuk u bilan murosaga kelishga majbur bo'ldi.

Mehmonxona oktabrda qish oldidan yopiladi. Mehmonxonadagilar Jonnini nima qilishlarini bilmay o'ylab qoldi. Ozodlikka chiqarib yuborishlariniyam, Vashingtondagi hayvonot bog'iga jo'natishlariniyam bilmadi. Nora esa ayiq meniki, uni tortib olishga haqlaring yo'q, deb turib oldi.

Sentabr oyining oxirlarida izg'irinli oqshomlar boshlandi, shunda Jonnini qattiq yo'tal tutdi. Uning cho'loq oyog'ini



ko'rishib, Jonning oqsoqligi qandaydir bir shikastlanish tufayli emas, balki umuman sog'lig'ining mazasi yo'qligi, butun a'zoyi badanining zaifligi oqibatidir, deyishdi.

Jonni kuzda aksariyat ayiqlar singari semirib ketmadi, aksincha, kundan-kunga oriqlab bordi. Qorni ichiga qapishdi, tobora qattiqroq yo'taldi, bir kuni ertalab uni fonarli simyog'och ostidagi to'shagidan juda xasta, qaltirab yotgan holda topishdi. Nora uni uyiga olib ketdi, shundan buyon u oshxonada tura boshladi.

Oradan bir necha kun o'tib, Jonni sog'aya boshlaganga o'xshadi, atrofidagi bari narsalarga qiziqib qaradi. Oshxona o'chog'idagi kattakon olov yolqini e'tiborini judayam o'ziga tortdi, eshik ochilganda, butun diqqat-e'tiborini bir yerga jamlab, orqa oyoqlarida cho'nqayib o'tirib oldi. Bir haftalardan keyin bu manzaragayam qiziqmay qo'ydi, kundan-kunga darmonsizlanib bordi. Borib-borib, tevaragida qanday voqea yuz bermasin, hech nima uni qiziqitirmay qo'ydi.

Uning yo'tali kuchaygandan-kuchaydi. Noraning tizzasida o'tkazgan onlarini istisno etganda, judayam g'arib bo'lib qoldi. U qizning tizzasida erkalanib, har xil yo'llar bilan o'z quvonchini bayon etdi, har safar Nora uni to'shak vazifasini o'tovchi savatga solmoqchi bo'lganda u nologanday ingilladi.

Mehmonxonaning yopilishiga bir necha kun qolganda Jonni birinchi marotaba nonushtadan bosh tortib, Nora tizzalariga olmaganicha g'ingshidi. Ayiqcha qizning bag'riga yopishdi, «u-u-u, u-u-u» degan nozik ovozi borgan sari so'nib, so'ng, batamom o'chib qoldi. Yarim soatlardan keyin qiz ayiqchani yana savatchaga solib qo'yib, o'z ishi bilan mashg'ul bo'ldi, shunda jajjigina Jonni tevaragida bo'layotgan barcha narsalarni umrbod ko'rmaydigan, bilmaydigan bo'lib qoldi.



CHINK

I

Chink katta kuchuk bo'lib qoldi, shuning uchun ham o'zini rasmana itmisan-it deb bildi, ammo hali o'zi o'ylaganchalik rasmana it emasdi. Uning achchig'i tez emas, hatto sirdan savlatliyam ko'rinmaydi, na kuchliligi, na chopag'onligi bilan ajralib turadi, u shunchaki akilloq, yuvosh, vaqt-vaqti bilan xo'jayinining etiklarini g'ajib turadigan go'l itlar toifasiga kiradi. Uning egasi Bill Obri kekxa tog'lik bo'lib, Gernet tog'i yonbag'rida, Yellouston bog'ida yashaydi. Bu sayohatchilar yoqtiradigan, yo'llardan yiroq xilvatgina, osoyishta go'sha. Bill chodirini tikkan joyni agar mana shu chakagi tinmas paxmoq Chink bo'lmaganida inson oyog'i tegmagan ovloq go'shalar qatoriga qo'shsa bo'ladi.

Chinkning besh daqiqa ham chakagi tinmaydi. Niman buyursa, kuchuk shuni jon-dili bilan bajarishga kirishadi. U hamisha xayolga kelmagan bema'ni qiliqlar qilib yuradi, mabodo unga jo'n, oson bir ishni buyursalar, albatta xol qo'yadi, ishning rasvosini chiqaradi. Masalan, bir kuni butun bir tongini olmaxon yurgan qarag'ay daraxtiga irg'iyman, deb behuda o'tkazdi.

Bir necha haftadirki, yumronqoziq ovlash Chinkning ezgu orzusi bo'ldi.

Billning chodiri atrofida yumronqoziqlar ko'p bo'ldi. Bu kichkina maxluqlar orqa oyoqlarida turish, qad rostlab, oldingi panjalarini ko'ksida mahkam tutib turishni juda o'rniga qo'yadi, uzoqdan ko'rgan odam ularni yerdan chiqib turgan g'o'lachalarga yo'yadi. Kechqurunlari otlarimizni bog'lamoqchi bo'lib, yumronqoziqlarni g'o'la deb o'ylab ko'p adashganmiz. Yumronqoziqlar huq-huq qilib g'oyib bo'ladi, shunda odam-



ning yanglishgani ayon bo'ladi. Chink o'lkaga kelgan kuniyoq yumronqoziq ovlashga ahd qildi. Shu tariqa qator tentakliklar qildi. Chorak milcha narida qotib turib yumronqoziq poyladi, so'ng qorni bilan o't ustida emaklab, yuz qadamlarcha bordi. Ammo joni ichiga sig'may chidayolmay, sapchib o'rnidan turdi, yumronqoziqqa qarab tikka yurdi. Yumronqoziq bu paytda ini oldida nima bo'lishini bilib o'tirdi. Chink oradan biron daqiqa o'tib yugurdi, so'ng yana boyagiday ajoyib tarzda qotib turdi-turdi-da, ehtiyotkorlik nimaligini unutilib, birdan vovillab g'animiga qarab chopdi. Yumronqoziq oxirgi soniyaga qadar joyidan qimir etmadi, so'ng birdan huq-huqlab o'zini inga urdi, orqa oyoqlari bilan Chinkning keng ochilgan og'ziga bir hovuch qum sepib ketdi. Kunlar ana shunday omadsizliklar bilan o'tdi. Biroq Chink baribir aytganimni qilaman, degan umidda tushkunlikka tushmadi.

Ajoyib kunlarning birida bir ulkan yumronqoziqni ustalik bilan joyida qotib poylab turdi, so'ng bari bilgan bema'ni qiliqlarini takrorladi, darg'azab bo'lib hujumga o'tib, haqiqatan ham g'animini qo'lga tushirishga muvaffaq bo'ldi. Ammo qarasa, tishlari orasidagi o'ljasi yumronqoziq emas, oddiygina yog'och qoziqcha ekan. It ahmoq bo'lib qolish nimaligini yaxshi biladi. Bunga shubha qilgan odam Chinkni bir ko'rib qo'ysa bo'ladi. Chink o'sha kuni qo'yday yuvosh tortib, xo'jasi ko'zidan yiroqdagi chodir ortiga yashirindi.

Bu omadsizlik tabiatan faqat serg'ayratligi bilangina emas, balki qaysarligi bilan ham ajralib turgan Chinkning hovurini bosolmadi. Hech nima uning g'ayratini so'ndirolmadi. U hamisha harakat qilib turgisi, doimo nimadir qilgisi keldi. Har bir o'tkinchi arava, har bir otliq, har bir sigir uning ta'qibiga muhtalo bo'ldi, bordi-yu, yaqin-atrofdagi qorovulxonada ko'ziga mushuk




ko'ringuday bo'lsa, uni qorovullarning ko'zi o'ngida uyiga tezroq quvib borib tashlab kelishni o'zining muqaddas burchi deb bildi. Bill ari uyasiga eski shlyapasini tashlab «Obke!» – deb buyruq bersa, kuniga yigirma marta bo'lsa ham olib kelib berishga tayyor bo'lib yurdi.

Bo'lib o'tgan hisobsiz ko'ngilsizliklar uning shavqini tiygunicha ancha vaqt ketdi. Chink olamda aravalar bilan bir qatorda uzun-uzun qamchilar, ulkan badjahl itlar, otlarning oyog'ida tishga o'xshash narsalar borligini, buzoqlarning onasi borligi, onalarining boshida to'qmoqqa o'xshash narsalari borligini, mushuklar unchalik yuvosh emasligini, nihoyat, ari bilan kapalak bir emasligini hadeganda anglab yetavermadi. Bularni bilishga vaqt kerak bo'ldi, nihoyat har bir it kabi u ham bularning barini o'zlashtirib oldi. Shunday qilib, uning aqli yetila borib, hali maydagina itning sog'lom tafakkuriga xos miyasi ham rivojlana bordi.

II

Chink shoqol bilan yuzma-yuz kelib, jamiki tentaknamo noma'qulchiliklariga uzil-kesil nuqta qo'ydi. Shoqol bizning lagerdan uncha uzoq bo'lmagan joyda yashaydi, aftidan, o'q otish, ov qilish qat'iyman etilgan Yellouston bog'ida yashaydigan boshqa yovvoyi hayvonlar singari u ham o'zini qonun mudofaa etishini juda yaxshi biladi. U aynan ana shu qorovulxona joylashgan, soldatlar qonunning saqlanishini sergaklik bilan kuzatadigan qismida yashaydi.

Shoqol o'ziga jazo berilmasligiga amin bo'lib, kechalari har xil chiqindi, sarqitlar topish umidida lager atrofida sanqidi. Men uning izlarini ko'rib, shoqol lagerni bir necha marotaba kezib chiqqanligi, ammo ya-



qinroq kelishga jur'at etolmaganligini bildim. So'ng biz uning quyosh botishi yo tong otishi bilan darhol kuylay boshlashini tez-tez eshitdik. Har tong uning izlari axlat chelagi oldida paydo bo'ladi, men bu payt bu yerga tun bo'yi qanday jonivorlar kelib-ketganini ko'rgani chiqaman. U dadillashib, ba'zan lagerga kunduzlari ham keladigan bo'ldi, oldiniga qo'rqa-pisa, so'ng o'ziga ancha ishongan holda kela boshladi, nihoyat, u kechalari bizning yoqlarga shunchaki kelibgina qolmay, balki nimadir o'g'irlab yeyish umidida kunduzlariyam lager yaqinida yuradigan, o'zini hammaga ko'z-ko'z qilib, shu yaqindagi do'nglarga chiqib o'tiradigan bo'ldi.

Bir kuni ertalab shoqol shu tariqa lagerimizdan ellik qadamlarcha narida o'tirganida oramizdan al-lakim Chinkka hazil yo'sinida: «Chink, anavi shoqolni ko'ryapsanmi? Bor, uni haydab kel!» – deb qoldi.

Chink hamma vaqt nimani buyurishsa, shuni bajarib keladi. Chink o'zini ko'rsatish uchun ura qochgan shoqolni quvib ketdi.

Bu chorak mil masofaga yugurish bo'yicha ajoyib musobaqa bo'ldi, shoqol to'satdan orqasiga o'girilib, izidan kelayotgan ta'qibchini kuta boshladi. Chink shu zahoti holi voy bo'lajagini his etib, lagerga qarab qochdi. Ammo shoqol undan ko'ra tezroq chopib, birpasda unga yetib oldi. U Chinkning oldin bir biqinidan, so'ng boshqasidan tishlab olib, butun turqi tarovati bilan o'zining qanoat hosil qilganini ifoda etdi.

Chink akillab, faryod ko'tarib, jon-jahdi bilan qochdi, uni ta'qib qilib kelayotgan shoqol to'xtamay, uni lagerning qoq o'ziga qo'yib ketdi. Biz Chinkning ustidan kuldik, shundan keyin Chink bizdan iltifot kutmay qo'ydi. Shunga o'xshash yana bir kichkinagina voqea Chink uchun yetarli bo'ldi, shundan keyin u shoqolni o'z taliga qo'yishga qaror qildi.




Ammo shoqol o'ziga maroqli o'yin topib oldi. U endi uzun kun lager oldida o'ziga hech kimning o'q uzishga jur'ati yetmasligiga aqli yetib, ochiqdan-ochiq tentirab yurdi. Aslida bari miltiqlarimiz qulfiga davlat agenti tomonidan muhr bosilgan, tevarak-atrofdagi hamma joyga soqchilar qo'yib tashlangandi.

Shoqol deganimiz esa Chinkni poylab o'tiradi, uni qiy-nash, azoblash uchun imkon qidiradi. Kuchuk bildiki, agar yolg'iz o'zi lagerdan yuz qadam uzoqlashsa bo'ldi, shoqol shu zahotiyog paydo bo'lib, uni talab-tishlab, egasining chodiriga qo'yib keladi.

Chinkning hayoti to azob-uqubatga to'lguncha kun-lar ana shunday o'tdi. Kuchuk endi bir o'zi chodirdan ellik qadamcha nariga ham chiqolmay qoldi. Biz tevarak-atrofni tomosha qilishga chiqqanimizda Chink ham ketimizdan ergashdi, hatto shundayam bu surbet, berahm shoqol uning izidan quvib keldi, bechora Chink-ni sharmanda qilish uchun payt poyladi, itning sayr-u sayohatini burnidan chiqardi.

Bill Obri chodirini ikki milcha narida, daryo oqimi-dan teparoqqa ko'chirdi, shoqol ham xuddi shun-day oqim bo'ylab joyini o'zgartirdi. O'ziga qarshilik bo'lmayotganini sezgan har qanday yirtqich hayvon singari u ham borgan sayin surbetlashdi, xo'jayin mazax qilib kulgan vaqtlari Chink qattiq tahlikaga tushdi.

Obri o'zining bizdan ajralish haqidagi qarorini, ot-larga yaxshi yem bo'ladigan joy kerak bo'lib qoldi, deb izohladi, ammo tez orada uning shunchaiki xoli bo'lish, qayoqdandir topib kelgan bir shisha arog'ini o'zi bamay-lixotir ichish niyati borligi ravshan bo'ldi. Bordi-yu, bir shisha aroqqa to'ymay qolsa, ertasi kuni otini egarlab: «Chink, chodirni qo'riqlab o'tir!» – deya tog'dan oshib, shu yaqin-atrofdagi qovoqxona tomon ot qo'ydi. Shun-



da Chink ham itoatkorlik bilan chodir ostonasida yu-maloq bo'lib yotib olib, qorovullik qildi.

III

Chink tentaknamo kuchuk bo'lsa-da, ammo qorovul bo'ladigan kuchuk, egasiyam uning qo'lidan kelganicha qorovullik qila olishini yaxshi biladi.

Shu kuni peshin paytida chodir yaqinidan o'tib ketayotgan bir tog'lik odam odat bo'yicha chodirdan bir necha qadam narida to'xtab qichqirdi:

– Bill, eshityapsanmi? Hey, Bill!

Tog'lik biror javob eshitmay, chodir tomon yurib, Chinkka duch keldi. Chinkning junlari tikka-tikka bo'ldi, xuddi rasmana it kabi irilladi. Tog'lik nima gapligini tushunib, o'z yo'liga ravona bo'ldi.

Kech kirdi hamki, xo'jayindan darak bo'lmadi, Chinkning esa juda qorni ochdi. Chodirda bir qop bo'lib, uning ichida cho'chqaning bir parcha to'sh go'shti bor. Ammo xo'jayin Chinkka bu yerdagi narsalarni qo'riqlashni buyurdi, shunday ekan, Chink ochidan o'lsa o'ladi, ammo go'shtga teginmaydi.

Ochlik ich-ichini kemirdi, u oxiri o'z postini tark etishga majbur bo'ldi, chodirdan uncha uzoq bo'lmagan joyga borib, sichqon yo shunga o'xshash biron yegulik topamanmi, degan umidda aylanib yurdi. Kutilmagan-da anavi yaramas shoqol yana unga tashlanib qolib, Chink chodirga qaytishga majbur bo'ldi.

Shunda Chinkda o'zgarish ro'y berdi. U zimmasi-dagi mas'uliyatni o'ylab qoldi, bu xuddi mushuk bolasining miyovlashi yuvoshgina onasini darg'azab sherga aylantirgani kabi unga kuch berdi. U hali tentak, bequv kuchuk bo'lsa-da, ammo tomirlarida avlodlari-ga xos metin tabiat ko'pirib turdi. Shoqol uning izidan



xo'jasining chodirigacha ta'qib qilib keldi, shunda Chink g'animga o'girilib, vajohat bilan misoli kichkina iblis kabi yuzma-yuz bordi.

Hayvonlar o'zining qachon haq, qachon nohaqligini yaxshi biladi. Hozir kuchuk yuragini hovuchlab turibdi, ammo ruhan ustun turibdi. Shu sababliyam shoqol orqasiga tislandi, g'azab bilan irilladi, kuchukni nimta-nimta qilib tashlamoqchi bo'lganday vajohat bilan yurish qildi, ammo chodirga kirishga yuragi betlamadi.

Shunda chinakamiga qamal boshlandi. Shoqol har daqiqada qaytib kelaverdi. Oyoqlarini keng yoyib, orqa oyoqlari bilan yerni qahrlandib tirnab otdi, birdan yana chodir ostonasi tomon yo'l oldi, ammo qo'rquvdan joni chiqayozgan bechora Chink o'ziga ishonib topshirilgan chodir-u buyumlarni matonat bilan qo'riqladi.

Chink bu vaqt ichida hech nima totmadi. Kun bo'yi ikki martagina shu yaqinginadan oqadigan ariqchadan suv ichib keldi, ammo hadeganda biror yegulik topolmadi. Chink chodirda yotgan qopni tishlab yirtib undagi to'sh go'shtni yesayam bo'lardi, ammo u o'ziga ishonib topshirilgan narsalarga qo'lini tekkizmadi. U mavridini topib, bizning lagerimizga kelib ketsayam bo'lardi, qornini yaxshilab to'yg'azib jo'natardik. Yo'q, u nima bo'lganda ham egasining ishonchini oqlashi lozim edi, egasi esa tog'ning naryog'ida ichib, maishat qilib yuribdi, mayli, yuraversin, kerak bo'lsa egasi uchun postda turib jon beradi.

Mittigina botir it mash'um to'rt kecha-yu to'rt kunduzni deyarli joyidan qimir etmay, chodir bilan egasining buyumlarini shoqollardan sabot-matonat bilan qo'riqlab, ajal tahlikasida o'tkazdi. Qariya Obri beshinchi kun deganda ichkilikdan bosh ko'tarib, hushyor bo'lib, o'zining uyda emasligi, lageri tog'da ekanligi, uning kuchuk ixtiyoriga tashlab ketganligi yodiga tushdi. Hosh



ko'tarmay ichaverish joniga tegdi, darhol otini egarlab, uyiga ravona bo'ldi. Yarim yo'lga yetib, Chinkni ovqatsiz tashlab kelgani sarmast xayoliga keldi. «To'sh go'shtdan bir tishlam ham qolmagan bo'lsa kerag-ov», deya o'yladi u, so'ng otni qamchiladi. Tog' tepasiga chiqib, chodirini hamda chodirga kiraverishda junlari tik-kayib, bir-biriga irillab yuzma-yuz bo'lib turgan ulkan darg'azab shoqol bilan bechoragina Chinkni ko'rdi.

– Uh, miyam qursin-a! – xitob qildi Obri xijolat bo'lib. – Manavi la'nati shoqol butunlay yodimdan ko'tarilibdi-ku. Bechora Chink yomon ahvolga tushibdi-yu! Shoqol uni burda-burda qilib tashlamaganiga hayronman, yana tag'in chodir ham turibdi.

Ha, jasur Chink ehtimol hozir shoqol bilan so'nggi bor olishayotgandir. Uning oyoqlari qo'rquvdan, ochlikdan qaltirayapti, ammo o'z postini himoya qilib jon berishga tayyor bo'lib turibdi.

Bari Bill Obriga bir qarashdayoq ravshan bo'ldi. Otni chodir tomon choptirib kelib, qopga qo'l tegmaganini ko'rdi, u ketganidan buyon Chinkning tuz totmaganini bildi. Kuchuk qo'rquvdan qaltirab, holsizlanib, uning oldiga sudralib keldi, egasining yuziga qarab: «Mana, nimani buyurgan bo'lsang, hammasini qildim, xo'jayin», deganday bo'lib, uning qo'llarini yalay boshladi. Bu kekxa Obrining ko'nglini buzib yubordi, ko'zlariga yosh kelib, shosha-pisha jajji botirga ovqat berdi.

So'ng kuchukka o'girilib, dedi:

– Chink, qadrdonim, men senga yomonlik qilib qo'ydim, sen esang menga hamisha yaxshilik qilib kelding. Endi biron joyga ketadigan bo'lsam seni hech qachon tashlab ketmayman, Chink. Birodar, sen aroq ichmayсан, nima bilan ko'nglingni olishimniyam bilan. Qani, men seni ashaddiy g'animingdan xalos qilmo'g'yay.



U chodir o'rtasidagi xodadan iftixori bo'lmish qimmatbaho magazinli karabinini oldi. Oqibati nima bo'lishini o'ylab o'tirmay, hukumat muhrini buzib, eshikka chiqdi.

Shoqol odatdagiday, shu yaqinda iblisona ishshayib, tishlarining oqini ko'rsatib turibdi. O'q ovozi gumburladi, shu bilan Chink baloyi qazodan qutuldi.

Shu zahoti qorovullar yetib kelib, bog'ni qo'riqlash qonuni buzilganligi, qariya Obri yovvoyi hayvonlardan birini otib qo'yganligini bildi. Uning karabinini tortib olib, yo'q qilib yubordi, o'zini to'rt oyoqli birodari bilan qo'shib bog'dan sharmandalarcha haydab yubordi hamda qaytib kelish huquqidan mahrum etdi, bordi-yu, qaytib kelsa, turmaga borajagi aytili.

Ammo Bill Obrining parvoyiga kelmadi.

– Mayli, – dedi u. – Menga hech xiyonat qilmagan birodarim uchun xayrli ish qilishim kerak edi, qildim.



MUNDARIJA

Domino. Bir qo'ng'ir tulki hayoti	3
---	---

Birinchi qism

Oltin bolalik	3
I. U tug'ilgan uy	3
II. Ko'rgilik	7
III. Yangi uy	9
IV. Yangicha liboc, yangicha hayot	13
V. Go'zal tulki bilan barzangi it	15
VI. Dominoning qishki hayoti	18
VII. Domino juftini topdi	21

Ikkinchi qism

Ikkovlon	25
VIII. Bahor	25
IX. Yangilik	27
X. Eski g'anim	28
XI. Bug'u	30
XII. Mehrigiyo	33
XIII. Ilon og'zidagi asal	36
XIV. Yoz bilan qizaloq	40
XV. Dominoning merosxo'ri	43

Uchinchi qism

Olishuv va tantana	45
XVI. Yovvoyi g'ozlar	45
XVII. Qo'ylarning sho'ri	47
XVIII. Oqsiynaning xalokkori	48



XIX. Jasorat sinovi	52
XX. Daryo bilan tun	56
Yovvoyi yo'rg'a	61
Bug'ular izidan	87
Bingo	112
Springfild tulkisi	131
Lobo	153
Kulrang ayiq hayoti	173
Vinnipeg bo'risi	219
Bolakay bilan silovsin	239
I. Bolakay	239
II. Silovsin	241
III. Silovsinlar makoni	245
IV. O'rmon bezgagi	250
V. Bolakayning uyida	253
Snap. Bir kuchukning boshidan kechirganlari	259
Uchqur toychoq Jek. Bir quyon sarguzashti	276
Arno	308
Chittaklar nima uchun bir yilda bir marta eslarini yo'qotadi	329
Jonni laqabli ayiqcha	333
Chink	359



**SIZ AZIZ O'QUVCHILAR BIZNING
NASHRIYOTIMIZ TOMONIDAN
QO'LINGIZDAGI ASARDAN TASHQARI
QUYIDAGI ASARLARNI OLIB
O'QISHINGIZ MUMKIN:**

**Tog'ay Murod
Yulduzlar mangu yonadi – 252 b**

O'zbek adabiyotiga o'ziga xos uslubi bilan shiddat-la kirib kelgan Tog'ay Murod asarlarini o'qisangiz, uning sodda, bag'rikeng, mard va chapani qahramonlari bilan birga yashagandek bo'lasiz.

Aziz bolajonlar! Qo'lingizdagi ushbu kitobdan Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" va "Ot kishnagan oqshom" qissallari o'rin olgan. Siz bu qissalarni o'qib, Vatanni sevish, oriyatli bo'lish kabi tuyg'ularni tuyib, saboq olasiz. Ulardagi Bo'ri polvon, Ziyodulla chavandoz, Tarlonlar bilan do'st tutining.

**Oybek
Bolalik xotiralarim – 272 b**

Oybek singari ulug' allomalarning bolalik va yoshlik kezlari, ularning ko'cha changitib yurgan oddiy boladan xalqning mutafakkir siymolaridan biriga aylanishi ayniqsa siz yosh avlodlar uchun hamisha ibratlidir.

**Jonatan Svift
Gulliverning sayohatlari – 296 b**

Jonatan Svift jahon adabiyotining taniqli namoyandalaridandir. Ushbu asariga so'z san'atkorining eng qiziqarli asari kiritilgan. Yosh kitobimiz «Gulliverning sayohatlari»da mittivoilar o'lkasiga sayr etib, Gulliverning qiziqarli sarguzashlarini xayolan hamroh bo'ladilar.



Pirimqul Qodirov
Avlodlar dovoni – 724 b

Sizga taqdim qilayotgan ushbu kitobimizda yozuvchi P. Qodirovning tarixiy asari ikki boburiyzoda haqida. Humoyun va uning o'g'li Akbar hukmronligi davrida ichki va tashqi siyosiy vaziyatlar, farzandning ota-onaga bo'lgan munosabatlari, mehr-muhabbat tuyg'ulari ifodalangan ushbu asarni katta qiziqish bilan o'qiysiz degan umiddamiz.

Rabindranat Tagor
Nur va soyalar – 152 b

Qo'lingizdagi ushbu majmuaga Hindistonning buyuk adibi Rabindranat Tagorning bir juft hikoyasi, rus shoiri Sergey Yeseninning turkum she'rlari, shuningdek, atoli o'zbek ijodkorlari – To'ra Sulaymon, Muhammad Yusuf she'rlaridan namunalar jamlandi. Inson, uni anglash, uning qalbini qog'ozda aks ettirish mazkur so'z san'atkorlarning bosh mavzusi, asosiy g'oyasidir.

Chingiz Aytmatov
Asrni qaritgan kun – 428 b

Yozuvchi Chingiz Aytmatov barcha asarlarida bo'lgani kabi, mazkur asarida ham o'z usul-an'anasiga sodiq holda muayyan hayotiy voqealar tasvirini rivoyatlar fonida tasvirlaganki, asarni o'qiganimizda, hayot turmush tasviri qaerdan boshlanadi-yu, hayratomuz taxayyul ramzlari, fantastika qaerda tugashini bilmay qolamiz.

Adibning "Asrni qaritgan kun" romani ma'naviy-ruhiy poklanish pallasi-da insonga o'z-o'zini anglash darsidan saboq berishi, shubhasiz.

Roman qahramonlari sizni biz, voqealar esa o'tmishimiz va bugunimiz



Abdulla Qodiriy
O'tkan kunlar – 476 b

Abdulla Qodiriyning aytishicha: «Bu kitobni bir marta emas, besh marta o'qish kerak. Shunda siz turmushni, tarixni, siyosatni, odobni va tilni o'rganasiz». Hurmatli o'quvchi, mana, qo'lingizga yana «O'tkan kunlar» asarini oldingiz bu safar ham ushbu kitobni bir olam taassurot bilan o'qib chiqishingizga aminmiz.

Odil Yoqubov
Ulug'bek xazinasi – 432 b

O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" nomli asari siz o'quvchilarga yaxshi tanish. Asarda bobokalonimiz Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning shaxsiy hayoti, fojiaiy qismati haqida hayajon bilan hikoya qilinadi.

Chingiz Aytmatov
Oq kema – 172 b

Ushbu asar so'z zargari Chingiz Aytmatovning ijod namunasidan tarkib topdi. Yana bir ko'ngilga yaqin kitobning dunyoga kelishi va uni miriqib o'qish imkoni Sizga muborak bo'lsin, aziz o'quvchi.

O'tkir Hoshimov
Daftar hoshiyasidagi bitiklar – 296 b

Ushbu kitob muallifining sinchkov kuzatuvlari, o'y-kechinmalari, armonlari, istehzoli va tabassumli xulosalari asosida dunyo yuzini ko'rgan bo'lib, unda falsafiy fikrlar bilan birga Vatanimiz boshiga tushgan og'ir kulfat – «o'zbek ishi», «paxta ishi» degan qatag'on yillari to'g'risidagi ma'lumotlar go'zal asarlarda tasvirlangan. Siz aziz o'quvchilar kitobdan o'rin olgan bitiklar bilan tanishar ekansiz, sho'ro zamonining ba'zi hunarlaridan nafratlanib, bugungi mustaqillik kunlarini qadrlini his etasiz deb umid qilamiz.



Muqimiy

Sayohatnoma – 196 b

Badiiy asar xoh u nazmda bo'lsin, xoh nasrda, o'quvchining ma'naviy olamini boyitadi, dunyoqarashini shakllantiradi. Mazkur to'plamga kiritilgan asarlar ham, Siz azizlarning tafakkur ko'lamingizni kengaytirishga va hayotga butunlay boshqa nigoz bilan boqishga undaydi, degan umiddamiz.

Fozil Yo'ldosh o'g'li

Alpomish – 544 b

Jahon madaniyati tarixida asrlar davomida muhim ahamiyatga ega bo'lgan «Alpomish» dostoni o'zbek xalq dostonchiligining eng sara yodgorligidir. O'n asrdan buyon avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadimiy bu doston mard o'zbek xalqi qalbiga donishmandlik, haqiqatgo'ylik, adolat g'oyalarini singdiruvchi qahramonlik qo'shig'idir. Asarning bosh qahramonlari Alpomish va Barchinoy bo'lib, ular chaqqonlik, botirlik va jasorat, o'z xalqiga sadoqatlik singari eng oliyjanob insoniy fazilatlariga ega. Dostonda ifodalangan udum va an'analar o'zbek xalqining milliy ruhini aks ettirganligi bilan asarning qadr-qimmatini yanada oshirib, o'quvchilarni o'ziga jalb etadi.

Abdulla Qodiriy

Mehrobda chayon – 320 b

Adabiyot – xarakterlar, obrazlar xazinasidir. Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyoti obrazlar dunyosini xarakterlar galeriyasi bilan boyitdi. Adibning “Mehrobdan chayon” romanidagi xarakterlarning har biri o'z qiyofasi, o'z taqdiri, o'z tirikchiligi, o'z maishati bilan bilishga arzigulik siymolardir.

Abdulla Qodiriy kitobxon uchun sehrar san'atkor, adiblar uchun badiiy mezon muallifidir.



Asqad Muxtor

Chinor – 432 b

«Chinor» asari bir o'zbek oilasi haqida. Bu oila katta, qadimiy, madaniy, mehnatkash va shu ma'noda «tagli-zotli». Uning har bir a'zosi xalq hayotida ma'lum bir mas'uliyatli yukni o'z zimmasiga olgan. Jonajon tuproqqa chuqur tomir yoygan, baquvvat va qadimiy Chinor mangulik ramzi, xalqimiz ramzidir.

Oila boshi Ochil buva safari bilan shartli ravishda o'zaro bog'langan qis-salarning har biri mustaqil axloqiy-estetik fikrni oldinga suradi. Hikoyatlar va rivoyatlar esa bu fikrlarni quvvatlab, yanada mustahkamlaydi.

O'tkir Hoshimov

Dunyoning ishlari – 252 b

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning ushbu kitobi nashr etilganiga ham salkam qirq yil bo'libdi. U shu yillar davomida qayta va qayta nashr etildi va o'ylaymizki, bundan keyin ham kitob holidagi Sizning qo'lingizga yetib boradi.

Yozuvchi kitobida oddiy o'zbek ayolining barcha jihatlarini oddiy va sod-da tilda juda ham tushunarli tarzda yoritib berolgan. Shu sababli ham mazkur asarni «onalar haqida nasriy qo'shiq» deb aytish mumkin. Qo'shiq bo'lganda ham ta'sirchan va o'yga toldiradigan. Aslida ona muqaddas va bebahodir. Agar uni tenglash mumkin bo'lsa faqat vatanga tenglashadi. Vatan esa aziz va muqaddas.

Aziz kitobxon! Aziz hamda muqaddas onalarimiz haqidagi ushbu kitob-ni sizga ham ilindik. O'ylaymizki, u Sizning kitob javoningizdan munosib o'rin egallaydi.



This image shows a single sheet of white paper with horizontal blue or grey ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are approximately 20 lines visible. The paper appears slightly aged or off-white. There is no handwriting or other markings on the page.

This image shows a single page of white paper with horizontal blue or grey ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There is no handwriting or other markings on the paper.

This image shows a single sheet of white paper with horizontal blue or grey ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are approximately 20 lines visible. The paper appears slightly aged or off-white. There is no handwriting or other markings on the page.

This image shows a single sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are approximately 20 lines visible. The paper appears slightly aged or off-white. There is no handwriting or other markings on the page.

SETON-TOMPSON
Yovvoyi yo'rg'a

G'oya muallifi va loyiha rahbari Temur Kuyliyev
Muharrir Ilhom Zoyirov


Matbaachilar guruhi Salohiddin Nuriddinov, Abror Akbaov
Badiiy muharrir Shuhrat Odilov
Texnik muharrir Yekaterina Sibayeva
Musahhih Dilorom Boymirzayeva
Kompyuterda sahifalovchilar Ibrohim Ikromov

Nashr. tasdiqnoma № 7069. 22.10. 2020 y.
Bosishga 2021 yil 8 iyulda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$ Times New Roman garniturası.
Ofset bosma. 17,64 shartli bosma taboq. 12,58 nashr tabog'i.
Adadi 2000 nusxa. 36-raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

“ZUKKO KITOBXON BOSMAXONASI” MChJ
nashriyot-matbaa uyida chop etildi.
Toshkent, Langar ko'chasi, 78-uy.

E. SETON-TOMPSON

YOVVOYI YO'RG'A



ISBN 978-9943-7346-6-1



9 789943 734661